- 32.Jarohatlanishlar turlari va birinchi tibbiy yordam ko'rsatishning umumiy qoidalari haqida gapirib bering?
- 33.Yurakni sun'iy masaj qilish va sun'iy nafas berish usullari?
- 34.Qon ketish necha turga bo'linadi?
- 35.O'tkir qon ketganda shoshilinch yordam ko'rsatish.
- 36.Bemorlarni qon quyishga tayorlash va uning asoratlari.
- 37.Yumshoq to'qimalarning shikastlanishi deganda nimani tushinasiz?
- 38.Suyaklar sinishi necha turga bo'linadi?.
- 39.Suyaklarning chiqishining sabablari?
- 40.Suyaklar chiqqanda 1-yordam ko'rsatish.
- 41.Suyaklar chiqishi va unga birinchi yordam.
- 42.Shokning kelib chiqish sabablari turlari va birinchi yordam.
- 43.Ezilish sindromi, klinik belgilari, birinchi yordam ko'rsatish usullari.
- 44.Kuyish turlari, davrlari va darajalari

- 45.Kuyishda birinchi yordam ko`rsatish
- 46.Sovuq urishi , birinchi tibbiy yordam
- 48.Elektr tokidan erga ulab muhofazalashning mohiyati nima?
49. Elektr tokidan muhofazalashning umumiy usullarini ayting?
- 50 Ishlab chiqarishning yong`in bo`yicha tasnifi.
- Texnologik jarayonlarning yong`inni o`chirish bo`yicha o`ziga xos tomonlari.
- 51.Yong`inning kelib chiqish sabablari va xatarli omillari.
52. Yong`in xavfsizligiga doir asosiy qoidalar va talablar.
- 53.Yonish sharti va yonishning turlari.
- 54.Qurilish materiallari va binolarning o`tga chidamliligi
- 55.Bino va inshootlarni yohg`in xavfi bo`yicha turkumlanishi.
56. Yong`inni o`chirish vositalari nimalardan iborat?
57. Yong`inni o`chirishda qo`llaniladigan moddalar,ularning turlari va xususiyatlari haqida gapirib bering?
58. Yong`inni o`chirishda suv ta`minoti.
- 59.Ishlab chiqarishda yong`inga qarshi tizimlar nimalardan iborat?
- 60.Davlat yonginni qilish organiga nimalar kiradi?.
- 61.Yong`in haqida xabar berish texnik qurilma va asboblari.
- 62.OITS kasalligining kelib chiqishi haqida qanday nazariyalar mavjud?
- 63.OITS kasalligi haqida tushuncha bering?
- 64.OITSni keltirib chiqaruvchi virus ning xususiyatlari haqida so`zlab bering?
- 65.OITS kasalligining klinikasi necha bosqichdan iborat?
- 66.OITS qaysi yo`llar bilan yuqadi?
- 67.OITS kasalligiga qanday tashxis qo`yiladi?
- 68.OITS kasalligining maxsus profilaktikasi?
- 69.Ishonch xonalarining vazifasi nima?
- 70.Anonim tekshirishning ahamiyati haqida gapirib bering?
- 80.OITS kasalligining oldini olish bo`yich davlat qonunu qachon qachon qabul qilingan u haqida gapirib bering?
- 81.Giyohvandlikning sabablari nimalardan iborat?
- 82.Narkotiklarning turlari va qabul qilish yo`llari?
- 83.Narkotiklarning inson organizmiga ko`rsatadigan ta`siri?
- 84.Abstinent sindrom nima?
- 85.Tolerantlik nima?
- 86.Giyohvandlikning jamiyatga ko`rsatadigan ta`siri?
- 87.Nasha narkomaniyasi qanday namoyon bo`ladi?
- 88.Morfin tipidagi narkomaniya belgilari qanday namoyon bo`ladi?
- 89.Giyohvandlikni davolash usullari?
- 90.Toksikomaniyani keltirib chiqaruvchi sabablar?
- 91.O`zbekiston respublikasida giyohbandlik muammolari nimalardan iborat?
- 92.OITS kasalligining kelib chiqishi haqida qanday nazariyalar mavjud?


8

TARQATMA MATERIALLAR.

JAROHAT TURLARI




Kesilgan jarohatlar



Suqilgan jarohatlar



Tishlangan jarohatlar



O'q jarohatlari



Tilingan jarohatlar



Urilgan-latyegan
jarohatlar




tT



FUQARO HIMOYASI SIGNALLARI


"DIQQAT, HAMMAGA" signali




SUN'IY NAFAS OLDIRISHNI O'TKAZISH QOIDASI



BOSHGA VA KO'KRAKKA STERILLANGAN BOG'ICHLARNI QO'YISH QOIDASI



Sopqon ko'rinishli
engakka bog'lash bog'ichi




Boshga "chepets" bog'ichi



Sopqon ko'rinishli orqa
bo'yinga bog'lash bog'ichi



Ko'krakka spiral bog'ichi




Ko'krakka ro'molcha bog'ichi



KUYISH. KUYISHDA BIRINCHI TIBBIY YORDAM

Bilak kuyishi



I va II darajali




II va III darajali



III va IV darajali chuqur kuyish




YUQUMLI KASALLIKLAR



Bakteriyalar


- A-F - kokk shakllari;
- G-I - tayoqchasimon shakllari;
- J - vibriyonlar;
- K - spirallar;
- L - spiroxetalar.



Kasal yo'talganda va aksirganda tarkibidagi yuqumli kasalliklarni qo'zg'atuvchi balg'amlarning hamda tupuk tomchilarining tarqalishi.

NAFAS OLISH A'ZOLARI HIMOYA VOSITALARI

1. Gopkalit patroni




1-gopkalit;
2-namlik yutuvchi;

2. R-2 respiratori



1 - filtrlovchi yarim niqob;
2 - nafas olish klapanlari;

3. Paxta-doka bog'ich



3 - nafas chiqarish klapani;
4 - burun qisqich.

2. Protivogaz (gazniqob) o'lchamlari va moslashtirish



GP-7 protivogazi niqobi o'lchamini aniqlash

O'lchov yig'indisi (sm)	Shlem talab qiluvchi o'lcham
92 gacha	0
92 dan 95,5 gacha	1
95,5 dan 99 gacha	2
99 dan 102,5 gacha	3
102,5 dan yuqori	4

4. Changga qarshi matoli niqob



1-matoli niqob; 2-ko'rsatish bo'limi; 3-mahkamlash; 4,5-rezinka.

PTM-1 niqobini kiyish usullari




Figuralar himoyasi

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rya maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi




TIBBIY HIMOYA VOSITALARI

Shaxsiy dori qutichasi AI-2



Kimyoviy qurolga qarshi shaxsiy paket (IPP-8)




Bog'lovchi paket (shaxsiy)



Kimyoviy qurolga qarshi shaxsiy paket IPP-10




NAFAS OLISH A'ZOLARINI HIMOYALASH VOSITALARI. IZOLYATSIYALOVCHI PROTIVOGAZLAR (GAZNIQOBLAR)



- 1- Yuz qismi;
- 2- Regeneratsiyalovchi patron;
- 3- Qo'yib yuboruvchi (puskatel);
- 4- Nafas olish xaltasi;

- 5- Karkas;
- 6- Sumka;
- 7- G'ilof;
- 8- Ko'krak kamari.

YONUVCHI QUROL QO'LLASH SHAROITLARIDA HARAKAT



Kiyimda yoki terining ochiq joyida katta bo'lmagan miqdordagi yonish moddasini darrov yeng, etak, chim qatlami bilan tuproq, qum bilan yopish kerak.



Agar odamga katta miqdorda o't tushsa ustiga yopqich yoki brezent parchasini yopish kerak.



Bug'uvchi gaz bilan qattiq zaharlanganda jabrlanganini tezlik bilan sun'iy nafas oldirish kerak.



O'tni o'chirish uchun kiyimni yechmasdan suvga tushish yoki yerga yotib, yumalab o'chirish kerak.




Jarohatlangan uchastkalarga suv yoki 5%li mis kuporosi aralashmasi bilan namlangan shaxsiy paket bintlarini o'rash kerak.



Yugurish, yalang'och qo'l bilan yong'inni qoqish, o't o'chirish moslamasini qo'llash mumkin emas.




Yonuvchi bombalar va yonuvchi napalimli idish shamol bo'ylab uzun sopli asbob bilan olib chiqiladi.



Uchirilgan olav burdalari astoydil olib tashlanadi va maxsus belgilangan joylarga ko'miladi yoki yoqib yuboriladi.

NAFAS A'ZOLARINING HIMOYA VOSITALARI. FUQARO PROTIVOGAZI (GAZNIQOBI) GP-7



- 1- yuz qismi;
- 2 -filtrlovchi-yutuvchi quti;
- 3- trikotaj g'ilof;
- 4- nafas olish klapani tuguni;

- 5 -so'zlashuv qurilmasi (membrana);
- 6 - nafas chiqarish klapani tuguni;
- 7 - tortqi;
- 8 - bosh ustligi (gardan plastinasi);

- 9 - peshona tasmasi;
- 10 - chakka tasmalari;
- 11 - yonyoq tasmalari;
- 12 - to'g'alari;
- 13 - sumka.

Fuqarolar
himoyasi

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
O'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi



9

Hayot faoliyati fanidan glossariy so'zlari

Termin	Termin izohi
Avtoklav	bosim ostida toyingan suv bug'i bilan sterilizasiya qilish uchun apparat
Alkogolizm	spirtli ichimliklarni uzoq vaqtgacha , meyyoridan ortiq isti'mol va ularga o'rganib qolish natijasida sihat-salomatlikka putur yetib, shaxsning tanazzulga yuz tutishi.
Allergiya	organizmning reaktivligi o'zgarishi bilan bog'liq holda turli moddalarga sezuvchanligining oshishi.
Anemiya	hajm birligida qonda eritrositlar va gemoglobinlar kamayishi bilan ta'riflanadigan holat, kanqonlik.
Antibiotiklar	mikroblar, hayvonlar va o'simliklar chiqaradigan moddalar; ayrim bakteriyalarning rivojlanishiga yo'l qo'ymaydi yoki ularni qirib yuboradi
Apnoe	nafasning vaqtincha to'xtab qolishi
Aseptika	xirurgik operatsiyalar, yaralarni bog'lash, endoskopiya va davolash hamda diagnostika maqsadlarida qilinadigan boshqa ishlarda bemorning yarasi, to'qimasi, organlari, bo'shliqlariga mikroorganizmlarga tushurmaslikka qaratilgan tadbirlar sistemasi.
Astsit	qorin istisqosi-qorin bo'shlig'ida ko'p miqdorda erkin suyuqlik yig'ilishi
Auskul'tatsiya	ishlab turgan ichki a'zolardan chiqadigan tovushlarni eshitish, organlarning qanday ishlayotganini bilish uchun qollaniladigan tekshirish usuli.
Biopsiya	diagnostika maqsadida mikroskopda tirik to'qima yoki organi kesib olish
Vaksina	mikroblar va ularning hayot faoliyatida paydo bo'ladigan maxsulotlardan olinadigan preparatlar. Odam va hayvonlar kasalligining oldini olish yoki davolash maqsadida aktiv immunizatsiya uchun ishlatiladi.
Vaksinatsiya	yuqumli kasalliklarga qarshi aktiv immunitet hosil qilish
Gallyusinasiyalar	aldamchi his, soxta zezgi- haqiqatdan yoq narsani his qilish, sezish, tasavvur qilish va bunga ishonish.
Genetika	irsiyat va organizm o'zgaruvchanligi haqidagi fan
Generalizasiya	kasallik prosesining dastlab chegaralangan o'chog'idan butun organizm yoki a'zoga tarqalishi
Tibbiy genetika	Genetikaning bir sohasi bo'lib, irsiyat va o'zgaruvchanlikka taaluqli masalalarni patologiya nuqtai nazaridan tekshiradi

Genotip	Organizmning irsiy asosi, muayyan organizmga doir barcha irsiy omillarning, ya'ni genlarning majmuasi
Gepatit	Jigarning kelib chiqishi har xil o'tkir va surunkali yallig'lanish kasalliklarining umumiy nomi
Gidroterapiya	Suv bilan davolash; harorati har xil suvni umumiy va mahalliy vanna, shuningdek dush ko'rinishida davolashva kasallikning oldini olish maqsadida ishlatish
Gidrofobiya	Suvdan qo'rqish- qoqshol, asabiy qo'zg'alish va ayniqsa quturish kasalligida suv yutishga urinish vaqtida yutqin mushaklarining tortishib qisqarishi oqibatida kelib chiqadi. Quturish kasalligida bu holat suvni ko'rish bilanoq paydo bo'ladi
Gipertenziya	Organizm bo'shliqlari, qovoq organlari va tomirlardagi gidrostatik bosimning ortib borishi
Gipertermiya	Davolash yoki tajriba maqsadida odam va hayvonlar haroratini sun'iy ravishda ko'tarish usuli
Gipertoniya	1) arterial qon tomiri bosimining ortishi; 2)arterial tomir devori yoki mushaklari tonusining ortib ketishi; 3) ko'z ichki bosimining oshishi
Gipetrofiya	To'qima, a'zo yoki uning bir qismi hajmining kattalashuvi
Gipesteziya	Teri zezgisining pasayishi
Gipovitaminozlar	Organizmدا vitaminlar kamayishi bilan bog'liq kasalliklar
Gipoksiya	To'qimalarda kislorod miqdorining kamyishi
Gipotermiya	Issiq qonli organizmni sun'iy sovutish ; haroratni boshqaruvchi markaziy mexanizmlarni narkotik moddalar ta'siri natijasida tormozlanishidan kelib chiqadi
Gipotomiya	Arteriyal qon bosimining pasayishi
Gipotrofiya	Bolalarda oziqlanishining surunkali buzulishi, uning asosida organism holdan toyadi
Glaukoma	Asosan ko'z ichki bosimining ortib ketishi bilan kechadigan ko'z kasalligi
Gospitalizasiya	Statsional uslubda tekshirish va davolash maqsadida bemorni shifoxonaga yotqizish
Dezenseksiya	Bo'g'imoyoqlilarga qarshi kurash chora-tadbirlari
Dezintoksikasiya	Odam va hayvonlar organizmdagi zaharli moddalarni zararlashtirish jarayoni
Dezinfeksiya	Yuqumli kasalliklarni qo'zg'atuvchi mikroblarni fizikaviy va ximiyaviy ta'sir etish bilan qirish
Desmurgiya	Bog'lamlar va har xil jarohatlarda va kasalliklarda ularni to'g'ri ishlatish va bog'lash
Diagnoz	Kasallikning mazmuni va bemor holati to'g'risidagi vrachning to'g'ri xulosasi
Dietoterapiya	Bemorlarni maxsus ovqatlar bilan davolash

Dispepsiya	Ovqat hazm qilinishining buzilishi
Diurez	Siydik hosil bo'lishi va chiqishi
Immobilizasiya	Har xil jarohatlanish yoki kasalliklarda harakatlarni to'xtatish, tinch qo'yish
Immunizasiya	Odam va hayvonlar orasida yuqumli kasalliklarni oldini olish choralari sifatida ularda immunitet hosil qilish usuli
Kollaps	Yurak faoliyatining keskin pasayib ketishi va tomirlar tonusining pasayib ketishidan kelib chiqadigan holat
Koma	Qattiq hushdan ketish
Gomosfera	Inson o'z mehnat faoliyati jarayonida bo'ladigan Fazo
Noksosfera	Xavf mavjud yoki vaqt-vaqti bilan paydo bo'ladigan fazo.
Portlash	Moddalarning bir holatdan ikkinchi holatga tez o'tishi bo'lib, bunda ko'p miqdorda energiya chiqadi va ko'p miqdorda gazlar hosil bo'ladi, bu siqilgan gazlar yemirilishiga olib kelishi mumkin.
Onkoviruslar	O'sma kasalliklar va leykozlarni keltirib chiqaruvchi viruslar
Lentiviruslar	Kasallikni sekin astalik bilan keltiruvchi viruslar
OIV	Odam immune tanqisligi virusi
Anonim tekshirish	Xufyona tekshirish

10

Referat mavzulari

1. Favqulodda vaziyatlarda kimyoviy va radiatsiyaviy xavfli ob'ektlardagi avariya va xalokatlar
2. Yong'in xavfsizligi qoidalarini o'rganish
3. Hayot faoliyatining asosiy shakllari.
4. Jismoniy va aqliy mehnat darajalarini baholash.
5. Shaxsiy va kollektiv himoya vositalari.
6. F.V.ro'y berganda "Diqqat barchaga" signali bo'yicha harakatlanish.
7. Jarohatlanganlarni qutqarish, saralash va birinchi tibbiy yordam.
8. Yurak massaji va sun'iy nafas berish usullari.
9. Qonni vaqtinchalik va uzil-kesil to'xtatish usullari.
10. Desmurgiya to'g'risida ma'lumot.
11. Bog'lamlar va har xil jarohatlarda va kasalliklarda ularni to'g'ri ishlatish va bog'lash
12. Organizmda vitaminlar kamayishi bilan bog'liq kasalliklar
13. Yuqumli kasalliklarni qo'zg'atuvchi mikroblarni fizikaviy va ximiyaviy ta'sir etish bilan qirish
14. Bolalarda oziqlanishining surunkali buzulishi,
15. Organizmda vitaminlar kamayishi bilan bog'liq kasalliklar
16. Mikroblar va ularning hayot faoliyatida paydo bo'ladigan maxsulotlardan olinadigan priporatlar.
17. Hajm birligida qonda eritrositlar va gemoglobulinlar kamayishi bilan ta'riflanadigan holat, kanqonlik.
18. Yong'inni uchiruvchi vositalar.
19. Yuqumli kasalliklarning payda bo'lish faktorlari.
20. Desmurgiya to'g'risida ma'lumot

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Безопасность жизнедеятельности / под редакцией С.В. Белова, М. «Высшая школа», 1999 год, 360 стр
2. Безопасность жизнедеятельности /О.Н. Русак, М.Н.Малаян, М.Г. Занько, С-Пб, «Лань», 2000 год, 304 стр
3. Безопасность жизнедеятельности / под редакцией С.В. Белова, М. Высшая школа, 2006 год, 240 стр
4. Безопасность жизнедеятельности / под редакцией проф. Э.А. Арустамова, 12-е издание, перераб и дополн, М., издательско – торговая корпорация «Дашков и его Ко», 2007 год, 456 стр.
5. БЖД, учебник для ВУЗов/ Л.А. Михайлов и др., С-Пб, «Питер», 2007 год, 302 стр
6. Управление безопасностью труда / А.И.Субботин, М. , Высшее горное образование, 2004 год, 240 стр
7. С.С.Тимофеева, Введение в безопасность жизнедеятельности, Ростов на Дону, «Феникс», 336 стр
8. И.Д.Моторный, «Защита гражданских объектов от терроризма – научно-практическое пособие», М.,Издательский дом Шумиловой И.И, 2005 год, 169 стр
9. Еремин В.Г. и др, «Обеспечение безопасности жизнедеятельности в машиностроении» Учебное пособие, М.,Машиностроение, 2000 г.392 стр
10. Безопасность жизнедеятельности: производственная безопасность и охрана труда / П.П. Кукин и др. М. «Высшая школа», 2001 г.,439 стр.
11. «Аварийно-спасательные работы», О.Р.Юлдашев, О.Т.Хусанова, У.Х.Джалилов и др. Учебное пособие. Т.2008 г. 260 стр
12. М.Таджиев, Неъматов И.ва boshqa. Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi-Toshkent, 2003 – 260с
13. A.D. Xudayev. Yong`in xavfsizligi. O`quv qo`llanma–Toshkent 2006 –731 б.
14. X.A. Azimov Bino va inshootlarning yong`in xavfsizligi. O`quv qo`llnma –Toshkent 2005-190 б.
15. G`. Yormatov va boshqalar. Mehnatni muhofaza qilish-Toshkent. O`zbekiston, 2002-328б.
16. G`. Yormatov Hayot faoliyati xavfsizligi. Ma`ruzalar matni-Toshkent TDTU tipografiyasi, 2005-361б.
17. G`. Yormatov Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik va unga qarshi kurash chora-tadbirlar. Ma`ruzalar matni-Toshkent TDTU tipografiyasi, 2004-96б.
18. Ensiklopediya BJD-M.: Ensiklopediya, 2005г.
19. INTERNET sayt [www. ilo. org](http://www.ilo.org).

12

Hayot faoliyati xavfsizligi fanidan tayanch konspekt

Mavzu: №1 Hayoti faoliyati xavfsizligining (HFX) asosiy tushunchalari.

Hayotiy faoliyati xavfsizligi nazariyasi. Hayotiy faoliyatning asosiy shakllari: Hayot faoliyati xavfsizligi fanining diqqat markazida qo'yiladigan maqsad bu insonning jamiyat taraqqiyotidagi roli, bu fan bo'lg'usi mutaxassislarini mehnat muxofazasining ilmiy asoslariga doir bilimlar bilan qurollantiradi. Hozirgi vaqtda inson tabiiy, texnik, iqtisodiy va boshqa har xil xavf-xatarlar dunyosida yashaydi. HFX bu xavf-xatarlarni o'rganish va insonni himoya qilishni o'rganadigan fandır.

Mavzu: 2 Odamzodni atrof bilan muhit o'zaro ta'siri. Texnosfera xavflaridan himoyalovchi texnikalar va usullar va vositalar.

Xalq xujaligi sohalarining turli tashkilot va korxonalarida hayotiy faoliyat xavfsizligi. Insonni xavflardan himoyalash va yashash hamda mehnat faoliyati sferasini muqobil parametrlarini ta'minlash. Ishlab chiqarish muhitining ob-havo sharoiti, ishlab chiqarish mikro iqlimning gigenik meyorlari, sanoatda titrash va shovqindan saqlanish

Mavzu: 3 Fuqarolar himoyasi masalalari favqulodda vaziyatlarda (FV) aholi va hududlarni himoyalash davlat tizimi.

VF lardan fuqarolarni himoyalanganlik darajasini oldindan aytib berish
Fuqaro muxofazasi to'g'risida umumiy tushuncha favqulotda vaziyatlar ularning sababchi omillari, xususiyatlari, tavsifi, oqibatlari. Fuqaro muxofazasining vazifalari, xavfsizlikning taminlash tamoyillari.

Mavzu: 4 Markaziy Osiyodagi tabiiy xarakterdagi FVlar, himoya choralari va zararni kamaytirish.

Tabiiy xarakterdagi favqulotda vaziyatlardan himoyalangan vositalari chora tadbirlari va zararlarni kamaytirish to'g'risida tushuncha berish. Tabiiy tushadagi favqulotda vaziyatning turlari, zilzilaning kelib chiqish sabablari, halokatli oqibatlari. Ko'chiklar, sellarning sabablari, oldini olish choralari.

Mavzu: 5 Texnogen xarakterdagi FVlar.

Talabalarga texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar to'g'risida ma'lumot berish. Gidrotexnik obyektlardagi avariya va halokatlar, transport avariya va kimyoviy xavfli obyektlardagi favqulotda holatlar haqida ma'lumot berish.

Mavzu: 6 Favqulodda vaziyatlarda kimyoviy va radiatsiyaviy xavfli ob'ektlardagi avariya va xalokatlar

Navoiy shahrida kimyoviy xavfli ob'ektlarda sodir bolishi mumkin bo'lgan avariya, bundan aholini ogohlantirish va oldini olish.

Mavzu: 7 Fuqarolar va ob'ektlarni terrorizmdan himoyalash

FV larning psixologik aspektlari (jihatlari) to'g'risida tushuncha berish. Zamonaviy qirg'in qurollari haqida qisqacha ma'lumot, ularning turlari, ta'sir etish omillari. Xalqaro terrorizm va terrorchilik harakati ularga qarshi kurashning strategik ahamiyati.

Mavzu:8 FV larda fuqarolar va xalq xo`jaligi sohalari ob'ektlarini himoyalashning qonuniy-huquqiy negizi

Talabalarga favqulodda vaziyatlarda fuqarolar va xalq hujaligi sohalari ob'ektlarini himoyalashning huquqiy me'yorlari haqida tushuncha berish.O'zbekiston respublikasi,fuqaro muxofazasing roli va vazifalari.

Mavzu:9 Yuqumli kasalliklar bilan bog`liq favqulodda vaziyatlar

Mikroblar haqida tushuncha. Yuqumli kasalliklar manbai kelib chiqish sabablari va oldini olish choralari.Favqulotda vaziyatlar bilan bog`liq yuqumli kasalliklar,ularning oldini olish chora tadbirlari.Bakterial vositalarni ishlatish usullari.

Mavzu:10 Yuqumli kasalliklarning aholi orasida tarqalishi. Epidimologiyasi. O'ta xavfli yuqumli kasalliklar haqida tushuncha.

Aholi orasida eng ko'p uchraydigan yuqumli kasalliklar yuqish yo'llari, klasifikatsiyasi, epidimologiyasi, klinik belgilari va oldini olish choralari to'g'risida tushuncha beriladi. Shu bilan birga ushbu mavzuda o'ta xavfli yuqumli kasalliklar jumladan, o'lat, vabo, sibir yaras, OITS kasalliklari haqida tushuncha beriladi

Mavzu:11 Birinchi yordam ko'rsatishning umumiy tamoyillari

Mavzuda talabalarga birinchi yordam ko'rsatishning umumiy tamoyillari, vositalari, ulardan foydalanish qoidalari, mashina va mexanizmlardagi birinchi tibbiy yordam qutisi unda mavjud bo'lgan dori-darmonlar va birinchi yordam ko'rsatishning salohiyati haqida to'liq tushuncha beriladi

Mavzu:12 Jarohatlar. Kelib chiqishiga ko'ra turari. Birinchi yordam ko'rsatish usullari

Mavzuda talabalarga jarohatlarning kelib chiqishiga ko'ra turlari, klinik alomatlari birlamchi tozalovdan o'tkazish, infeksiya tushishini oldini olish, bog'lamlar qo'yish haqida tushuncha beriladi.

Mavzu:13 Qon ketishi turlari va qon ketganda birinchi yordam ko'rsatish usullari

Talabalarga qon ketish turlari, klinik alomatlari qonni vaqtinchalik to'xtatish usullari, jgut qo'yish qoidalari, qon quyish, qon guruhlarini aniqlash, ichki qon ketishda shikastlanganlarni shoshilinch tibbiyot maskanalriga yitkazish kabi tushunchalar beriladi. O'tkir qon ketganda shoshilinch yordam ko'rsatish .

Mavzu:14 Yumshoq to'qimalarning shikastlanishi. Birinchi yordam ko'rsatish usullari

Talabalarga mushaklarning ezilishi, lat yeyish, uzilishi, belgilari, birinchi yordam ko'rsatish shu bilan birga paylarning cho'zilishi uzilishi, klinik alomatlari, kelib chiqadigan asoratlari to'g'risida va birinchi yordam ko'rsatish haqida tushuncha beriladi.

Mavzu:15 Tayanch harakatlanish apparatini mexanik shikastlanishi

Tayanch xarakat a'zolarining ochiq va yopiq sinishlari to'g'risida tushuncha berish.Suyaklarning sinishi,sinish belgilari,birinchi yordam ko'rsatish usullari.Ko'krak qafasining yopiq shikastlari,birinchi yordam ko'rsatishning asosiy tamoyillari.

Mavzu:16 Inson organizmiga elektor tokining ta'siri. Cho`kish. Shoshilinch tibbiy yordam xizmatini chaqirish

Talabalarga elektrdan shikastlanish belgilari oldini olish choralari, tashish paytida jabrlanganlarga yordam. Voqea joyida jabrlanganlarni saralash va I-tibbiy yordam chora tadbirlari haqida ma'lumot. Elektir tokidan jarohatlanish sabablari, uni oldini olish

Mavzu:17Shok holati. Uzoq muddatli bosib qolish sindromi (alomatlari majmui).

Talabalarga shokning kelib chiqishiga ko'ra turlari, klinik alomatalri uzoq muddatli ezilish sindromida I-tibbiy yordam ko'rsatish choralari to'g'risida tushuncha beriladi. Shu bilan birga mavzuda og'riqsizlantirishda qo'llaniladigan narkotik shok, uni oldini olish haqida tushuncha beriladi.

Mavzu:18 Kuyishlar. Muzlash Zaxarlanish

Mavzuda talabalarga kuyishlar, kelib chiqishiga ko'ra turlari, termik kuyishning darajalari klinik alomatlari, asoratlari, birinchi yordam ko'rsatish haqida tushuncha beriladi. Shu bilan birga muzlash darajalari, oqibatlari, zaharlanishlarda birinchi yordam ko'rsatish usullari to'liq tushuntirib beriladi.

Mavzu:19 Yonish asoslari. Materiallar va texnologik jarayonlarining yong'in va portlash xavfsizligini baholash

Talabalarga yonuvchi modda, yong'inni keltirib chiqaruvchi omillar to'g'risida ma'lumot berish, yong'inga qarshi ishlarni tashkil etish. Korxona, muassasa va tashkilotlarda yong'in xavfsiligini ta'minlash ishini tashkil qilish. Dastlabki avtomatik o't o'chirgichlar.

Mavzu:20 Yong'inga qarshi texnika yong'inlarni uchirish usullari va vositalari (suv, qum, ko'pik, gazlar va x.k)

Talabalarga yong'inga qarshi vositalardan va usullardan foydalanish to'g'risida tushuncha berish. Bino va inshootlarni yong'in xafvi bo'yicha turkumlanishi. Yong'inni o'chirishda qo'llaniladigan vositalar, moddalar, ularning turlari va xususiyatlari. Yong'inni o'chirishda suv ta'minoti.

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI BO`LIMI

1. MAVZU. KIRISH. HAYOTIY FAOLIYAT XAVFSIZLIGING ASOSIY ODAMZODNI ATROF MUHIT BILAN O`ZARO TA`SIRI.

Reja:

1. Hayotiy faoliyat xavfsizligi (HFX) fanining ahamiyati va uning tarkibi.
2. Hayotiy faoliyat xavfsizligini ta'minlash asoslari.
3. Xavfsizlikni ta'minlash usullari, ta'riflari.
4. Mehnatni muhofaza qilishda tashkiliy va huquqiy masalalar.
5. O`zbekiston Respublikasida mehnat muhofazasii nazorat qiluvchi tashkilotlar.
6. Jarohat va kasbiy kasalliklar.
7. Mehnat xavfsizligi standartlari majmuasi.
8. Ishlab chiqarish muhitining ob-havo sharoiti.
9. Ishlab chiqarish mikroiklimining gigienik me'yorlari.
10. Sanoatda titrashdan va shovqindan saqlanish

Respublikamizda chuqur iqtisodiy o`zgarish bo`layotgan bir davrda, kadrlar tayyorlashning milliy dasturi kuchga kirishi, yuqoridagi fikrni amalga oshirishning dastlabki bosqichi bo`lib xizmat qiladi. Ko`p bosqichli ta'lim tizimiga binoan oliygohlarda tayyorlanadigan bakalavrlar uchun o`quv rejasiga «Hayotiy faoliyat xavfsizligi» fanining kiritilishi bo`lg`usi mutaxassislarning bilimini chuqurlashtirilishiga yordam berishi so`zsizdir.

Hayotiy faoliyat xavfsizligi (HFX) fanining diqqat markaziga qo`yilgan maqsad bu insonning jamiyat taraqqiyotidagi rolidir. Hayotiy faoliyat xavfsizligi-bu har qanday sharoitdagi inson faoliyatidir. Insonning hamma faol harakati (mehnat jarayonida, dam olishda, uyda hamda sportda) uning faoliyatini tashkil qiladi.

1. Hayotiy faoliyat xavfsizligi fani o`z tarkibiga inson faoliyatining atrof-muhit bilan aloqasi, mehnat faoliyatidagi xavfsizligi va favqulodda vaziyatlardagi xavfsizligi bo`limlarini qamrab olgandir. Hayotiy faoliyat xavfsizligi printsip va usullar asosida: baxtsiz, hodisalar, qurbonlar va ular natijasida kelib chiqadigan zararlarni kamaytirish masalalarini keng miqyosda qo`yadigan va hal qiladigan fandir. HFX-bu har qanday ko`rinishdagi faoliyatga qo`llanishi mumkin bo`lgan xavfsizlikning nazariy asosidir.

«Hayotiy faoliyat xavfsizligi» kursi bo`lg`usi mutaxassislarni mehnat muhofazasining ilmiy asoslariga doir bilimlar bilan qurollantirish va ularda ishlab chiqarishdagi mehnat sharoiti hamda mehnat muhofazasini yaxshilash muammolarini ijobiy hal etishga qiziqish uyg`otishga mo`ljallangan. Buning ilmiy zamini esa quyidagilardan iboratdir.: ishlab chiqarishda shikastlanish, kasalliklar, ishlab chiqarishda sodir bo`ladigan yong`in hamda portlashlar sabablarini har tomonlama tahlil qilish; ishlab chiqarishdagi xavflilik va zararlilik darajasini o`rganish; to`qimachilik, paxta, ipak va engil sanoatda qabul qilingan yoki joriy

etishga tavsiya etiladigan, og'ir hamda sermehnat ishlarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishni ko'zda tutuvchi texnologik jarayonlarni baholash. Mazkur kurs «Ergonomika», «Muhandislik psixologiyasi», «Mehnatni ilmiy tashkil qilish», «Texnik estetika», «Mehnat fiziologiyasi va gigienasi», «Huquqshunoslik», «Iqtisodiyot», «Atrof muhitni muhofaza qilish» kabi fanlar bilan bog'langandir.

2. HFX fanining diqqat markaziga qo'yilgan maqsad bu insonning jamiyat taraqqiyotidagi roli.

Mehnat muhofazasi insonni ishlab chiqarishdagi ahvoli, u bilan bog'liq masalalarni o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Hozirgi vaqtda inson-tabiiy, texnik, iqtisodiy va boshqa har xil xavf-xatar dunyosida ishlaydi. Shu xavf-xatarlar natijasida juda ko'p insonlar hayotdan ko'z yumadilar (Armanistodagi zilzila, Chernobil AES halokati, Jigaristondagi er siljishi, Admiral Naximov paroxodining cho'kish, Serdlovskiyda Chelyabinsk-Ufa temir yo'l uchastkasida portlash va h.k.). Shuning natijasida 3000 dan ortiq odam halok bo'ldi. 20000 odam nogiron bo'ldi va 200000 odam kasallandi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 42-sessiyasida 1991 yildan boshlab tabiiy ofat va falokatlarni kamaytirish bexatarlik yillari, deb belgilangan edi.

Hayotiy faoliyat xavfsizligi tushunchasida ko'p uchraydigan ta'riflar bilan belgilanadi.

Faoliyat-insonning jamiyatda mavjud bo'lishi uchun kerakli sharoit. Mehnat-faoliyatning yuqori shakli. Faylasuflarning fikricha, insonning ta'rifi-harakatdagi, mehnatdagi faoliyatidadir.

Mehnat va faoliyat shakllari turlicha bo'lib, ular hayotda uchraydigan aqliy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va boshqa jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Xavflar-yashirin (potentsial) va haqiqiy bo'ladi. Yashirin xavflar amalga oshishi uchun aniq shartlar bo'lishi lozim. Bu shartlar sabab deb ataladi. Xavf va sabalarni misollar (raqamlarda) ko'rish mumkin:

So'nggi 30 yil ichida (69-1990 y.) tabiiy ofat ikki marta ko'paygan;

1909 yildan 1974 yilgacha asabiy kasalliklar 24 marta ko'paygan;

Dunyoda 500 mln. ga yaqin nogironlar bo'lib, ularning 1/5 qismi baxtsiz hodisa natijasida bo'lgan.

Har qanday faoliyat yashirin (potentsial) xavflidir. Shu bilan birga xavf darajasini boshqarish ham mumkin. Bu ikr mutlaqo xavfsiz faoliyat bo'lmasligiga asoslangan.

Xavfsizlik – bu ayrim extimollarga asoslanib paydo bo'ladigan xavf-xatarlarni istisno etilgan faoliyat holatidir.

Xavfsizlik – bu maqsad, HFX bo'lsa shu maqsadga erishish uchun qo'llanadigan vositalar, yo'l-yo'riq, qo'llanmalar usullardir.

HFX – bu xavf-xatarlarni o'rganish va insonni himoya qilishni o'rganadigan fandır.

3. Xavfsizlikning umumiy nazariyasining tuzilishida tamoyil (printsip)lar va usullar ko'rilayotgan bilim sohasida aloqador to'g'rsida to'la tasavvur qilishga metodologik ahamiyatga ega.

Asos (negiz, printsip)-bu fikr, g'oya, maqsad (asosiy holatdir).

Usul-bu eng umumiy qonuniyatlarni bilish orqali maqsadga erishish yo'li.

Xavfsizlikni ta'minlash choralari – bu usullarni va asoslarni amaliy, tashkiliy, moddiy gavdalandirib amalga oshirishdir.

Asoslar, usullar, choralar – bu xavfsizlikni ta'min etishdagi mantiqiy pog'onalaridir. Ularni tanlab olish faoliyatning aniq sharoitlariga, xavfning darajasiga va boshqa mezonlarga bog'liq.

4. Inson o'z mehnat faoliyati jarayonida bo'ladigan fazo – ish joyi deb ataladi (gomosfera). Xavf mavjud yoki vaqti-vaqti bilan paydo bo'ladigan fazoni noksosfera deyiladi. Xavfsizlikni ta'minlashga quyidagi 3 xil usullar orqali erishiladi:

A) Gomosfera va noksosferani fazoviy va vaqtiy ma'noda ajratib qo'yish, buni hal qilish uchun masofadan boshqarish, avtomatlashtirish, robotlashtirish vositalari yordamidan foydalaniladi.

B) Xavflarni yo'qotish yo'li bilan noksosferani me'yorlashtirish. Bu usulga ishchilarning shovqin, gaz, changdan, jarohatlanishidan saqlovchi shaxsiy va kollektiv himoya vositalari qo'llash.

V) Bu usul ishchilarni tegishli muhitga moslashishga, uni himoyalashdarajasini ko'tarishga yo'naltirilgan har xil vositalar va usullarni o'z ichiga oladi. Kasbiga qarab tanlash, ruhiy ta'sir va (shaxsiy) himoya vositalari qo'llash. Amalda esa yuqorida aytilgan usullar (kombinatsiyasi) birgalikda qo'llaniladi.

Xavfsizlikni ta'minlovchi vositalarga, jamoa (kollektiv) va shaxsiy himoya vositalari kiradi. (JXV va ShXV). Ular o'z yo'lida xavflarning turiga, tuzilishiga, ishlatish sohasiga nisbatan guruhlariga bo'linadi.

5. Mehnat muhofazasi bo'limi «Hayotiy faoliyat xavfsizligi» fanining mutaxassislikka tegishli asosiy nazariy qismini beradi. Aniq muammolar, transport vositalari, texnologikjarayonlar, ish turlari, bino va inshootlar uchun xavfsizlikni ta'minlash har bir fanning mutaxassislik kurslarida beriladi.

Mehnat muhofazasi borasida ilmiy tadqiqot ishlarini mehnatni muhofazasi qilish instituti va oliy o'quv yurtlarining HFX kafedralari, ko'plab tibbiyot ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida olib boriladi. Odatda barcha standart va texnik talablarga «Xavfsizlik texnikasi» talablari kiritiladi.

Mehnat sharoitining yaxshilanishi ijtimoiy natijalarga-ya'ni mehnatkashlarning sog'lig'ini yaxshilash, o'z ishidan mamnunlik darajasini oshirish, mehnat intizomini mustahkamlash, ishlab chiqarish va jamoat faoliyatini oshirishga olib keladi.

Mehnat muhofazasi talablariga javob bermaydigan biron bir yangi mashina yoki mexanizm ishlab chiqarishga qabul qilinmasligi kerak. Shuningdek mehnat muhofazasi talablariga javob bermaydigan biror sex yoki korxona ekspluatatsiyasiga tushirilmasligi kerak.

O'zbekistonda mehnat muhofazasi ko'plab qonun chiqaruvchi rasmiy hujjatlar bilan belgilab qo'yilgan bo'lib, tartibga solib va boshqarib turiladi. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida, mehnat haqidagi qonunlar asoslarida mehnat muhofazasiga oid asosiy nizomlar keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasida sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitini yaratish davlat ahamiyatiga molik ishdir. O'zbekiston Respublikasi konstititsiyasida: Har bir shaxs ... «ishsizlikdan himoyalaniish huquqiga egadir» - deyilgan.

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasiga muvofiq Davlatimiz fuqarolari, millati va irqidan qat'iy nazar, teng huquqlidirlar. Ayollarga erkaklar bilan teng huquqi berilgan. Sharoiti og'ir va zararli ishlarda ayollar va yoshlar mehnatidan foydalanish ta'qiqilaniadi. Homilador ayollarning tunda va ishdan tashqari vaqtda ishlashlari cheklangan.

Mehnat haqidagi qonunlar asoslarida, sharoiti zararli bo'lgan ishlarda, shuningdek, alohida harorat sharoitida bajariladigan yoki ifloslanish bilan bog'liq ishlarda ishlaydigan ishchi-xizmatchilarga belgilangan me'yorlarga muvofiq bepul jamokor, maxsus poyafzal va boshqa turdagi yakka tartibdagi himoya vositalari, su tyoki uning o'rnini bosa oladigan boshqa ozuqa mahsuloti berilishi ko'zda tutilgan.

Homilador ayollarga bola tug'ilishidan oldin 70 kun, tug'ilishdan 56 kun ta'til beriladi. 2 va undan ortiq bola tug'lsa yoki tug'ilish me'yorli bo'lgan hollarda 70 kun ta'til beriladi. Hozir haq to'lanadigan ta'til vaqti 2 yilgacha, o'z hisobidan olinadigan ta'til 3 yilgacha cho'zilgan (233,234-moddalar) (8). Homilador ayollar engil ishlarga yoki to'liqmass ish joylariga o'tkaziladilar.

16 yoshga to'lmagan yoshlarni ishga qabul qilish ta'qiqlangan. Ayrim hollarda 15 yoshdan ham ishga olish mumkin (mehnat muhofazasi inspeksiyasining ruxsati bilan) (773 modda) (8). Balog'at yoshiga etmagan (16 dan 18 gacha) yoshlar uchun qisqartirilgan olti soatlik ish kuni joriy etilgan. Tungi va asosiy vaqtdan tashqari qo'shimcha ishlar ta'qiqlangan.

6. Mehnat muhofazasi bo'yicha qonunlarning bajarilishini nazorat qilib turish quyidagi davlat tashkilotlariga topshirilgan:

1. O'z.R.mehnat va ijtimoiy ta'minot Vazirligi. Mehnat muhofazasi Davlat inspeksiyasi;

2. Sanoat kon texnik nazorati agentligi;

3. Davlat sanitariya nazorati;

4. Davlat yong'in nazorati;

5. Davlat energiya nazorati.

1. Mehnat muhofazasi Davlat texnik inspeksiyasi.

Bular korxonalarda xavfsiz ishlash, texnika xavfsizligi bo'yicha me'yor va qoidalariga rioya qilish, sanoat sanitariyasi va mehnat gigienasiga rioya qilish, mehnat qonunchiligiga rioya qilish masalalarini nazorat qiladi. Har bir tarmoq o'z texnik inspektoriga ega.

11. Sanoat. davlat kon texnik nzorati agentligi.

Bu tashkilot bug' qozonlarining to'g'ri ishlashini, bosim ostida ishlaydigan, yuk ko'tarish mashinalari (ko'tarma kranlar, liftlar), ekskavatorlar, gaz uskunalari magistral quvurlari ishini va portlovchi moddalarni ishlatish, saqlash va tashish nazorat qiladi.

111. Davlat sanitariya nazorati –Bu tashkilot havoni suvni va tuproqni ifloslanishdan ogohlantirish, shovqin va titrashni yo'qotish, sexlarning sanitariya

holatlarini yaxshilash (harorat, nisbiy namlik, yoritilganlik va h.k.) ishlarini nazorat qiladi.

IV. Davlat yong`in nazorati – bu tashkilot yong`inga qarshi tadbirlarni, o`tkazish vositalarining holatini, yong`in haqida xabar berish vositalarining ishini nazorat qiladi.

V. Davlat energiya nazorati – bu tashkilot korxonalaridagi energiya sistemalarining texnik ekspluatatsiyasini va xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishni nazorat qiladi.

Davlat qonunchiligi mehnat muhofazasi qoida va me'yorlarining buzilishi uchun qat'iy javobgarlik belgilaydi. Javobgarlik turlari (3 turlidir):

1. Ma'muriy javobgarlik (uyaltirish, xayfsan e'lon qilish, vaqtincha yoki butunlay past darajali ishga o`tkazish, imtiyozlarini cheklash),

2. Jinoiy javobgarlik. O`z. R. jinoyat protsessual kodeksiga binoan olib boriladi. Masalan:

- qoidaning buzilishi baxtsiz hodisaga olib kelsa, bir yilgacha axloq tuzatish ishlariga yoki ozodlikdan mahrum qilish yoki besh minimal okladgacha jarima, yoki ishdan bo`shatish choralari qo`llanadi;

- qoidaning buzilishi tan jarohatiga yoki mehnat qobiliyatini yo`qtirishga olib kelsa, 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki bir yilgacha axloq tuzatish choralari qo`llanadi;

- qoidaning buzilishi kishining o`limiga yoki bir necha kishining og`ir tan jarohatiga sabab bo`lsa, 5 yilgacha ozodlikdan mahrum bo`lishi mumkin;

- korxonadan chiqayotgan chiqindilar tufayli havo va suv havzalarining ifloslanishi uchun 1 yilgacha axloq tuzatish ishlariga yoki besh minimal okladgacha jarima to`lanadi.

3. Moddiy javobgarlik.

Qonunsiz ravishda ishdan bo`shatilgan, majburiy ish qoldirgan, kasbiy kasallik tufayli jabrlangan kishiga to`langan haqni rahbar lavozimidagi xodimdan qisman yoki to`liq undirib olish.

7. Jarohat – tana a'zolarini va to`qimalarni kutilmagan holatda tashqi ta'sir ostida shikastlanishdir. Jarohatlar ikki turli bo`ladi:

1-ishlab chiqarish jarohatlari;

2-maishiy jarohatlar.

Ishlab chiqarish jarohatlari o`z navbatida

- mexanik (urib olish, kesilib ketishi, ezilish va h.k.);

- kimyoviy (kimyoviy kuyishlar);

- issiqlik (kuyish va muzlatib olish);

- elektrik (elektr zarbalar);

- aralash jarohatlar turlariga bo`linadi.

Korxonalarda ko`pincha aralash jarohat turlari uchraydi.

Kasbiy kasalliklar – bular ishlovchi uchun zararli ish sharoitlarining ta'siri natijasida hosil bo`ladi.

To`qimachilik, engil sanoat va tolali materiallarni dastlabki ishlash (paxta tozalash zavodlari lubzavodlar) korxonalariga taalluqli kasbiy kasalliklar silikoz,

pnevmonioz, teri kasalliklari, dermatitlar, gidroadenitlar (ipakchilik korxonalari) va shularga o'xshashlar.

Mehnat xavfsizligi standartlari majmuasi (MXSM)-bu o'zaro bog'liq standartlar majmuasidan iborat bo'lib, ular uch guruhga bo'linadi va quyidagilarni belgilaydi: xavfli va zararli ishlab chiqarish omillariga doir umumiy talablar hamda me'yorlar; ishlab chiqarish jarayonlariga doir xavfsizlikning umumiy talablari; ishlovchilarni himoyalash vositalariga doir talablar; mehnat xavfsizligini baholash metodikasi. Sanoat korxonalarining texnologik uskunalariga doir umumiy talablari «Mehnat xavfsizligi talablari majmuasi. Sanoat korxonalari uchun texnologik uskunar. Xavfsizlikning umumiy talablari» da bayon etilgan.

O'zbekiston Vazirlar kengashining standartlar bo'yicha Davlat qo'mitasi standartlarini besh yil muddatga belgilaydi; bu muddat o'tgandan so'ng ular yangilanadi va qayta ko'rib chiqiladi. MXSM standartlari umumdavlat, tarmoq respublika miqyosida bo'lishi mumkin. Ushbu standartlarni hamma vazirliklar, idoralar, korxona va muassasalar bajarishga majbur. Ularga amal qilmaganlar qonun yo'li bilan jazolanadilar.

1. Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish zonalari havo muhitining ob-havo sharoitini havoning quyidagi ko'rsatkichlari belgilaydi:

1. havoning harorati, t , $^{\circ}\text{C}$ bilan o'lchanadi.
2. havoning nisbiy namligi, ϕ bilan aniqlanadi.
3. havo bosimi, R , mm sim.ust. yoki R_a bilan o'lchanadi.
4. Ish joylaridagi havo harakati, tezligi, V , m/s bilan o'lchanadi.

Ob-havo omillari har biri ayrim holda yoki bir nechasi birlikda insonning mehnat qilish qobiliyatiga, sog'lig'iga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish sharoitida ob-havo omillarning deyarli hammasi bir vaqtda ta'sir qiladi. Ba'zi sharoitlarda bunday ta'sir ko'rsatish foydali bo'lishi, masalan sovuq sharoitda quritish natijasida kamaytirilishi mumkin, ba'zi vaqtlarda esa, bir-biriga qo'shilishi natijasida zararli ta'sir darajasi ortib ketishi mumkin, masalan nisbiy namlik va haroratning ortib ketishi inson uchun og'ir sharoit vujudga keltiradi. Bundan tashqari, ish joylaridagi havo harakatini oshirish harorat yuqori bo'lgan vaqtda ijobiy natija beradi, harorat past bo'lgan vaqtda esa, salbiy natija beradi.

Bundan ko'rinib turibdiki, ob-havo omillari ba'zi bir hollarda inson uchun ijobiy va ba'zi bir hollarda esa, salbiy ta'sir ko'rsatib, inson organizmi tashqi muhitga moslashuvini buzib yuborishi mumkin. Tashqi muhitga moslashuv – bu inson organizmining fiziologik va kimyoviy jarayonlar asosida tana haroratining bir xil chegarada ($36-37^{\circ}\text{C}$) saqlab turish qobiliyati demakdir.

Ob-havo sharoitining doimo o'zgarib turishi tana haroratining o'zgarmasligini saqlash, inson hayotining asosi bo'lgan organizmdagi biokimyoviy jarayonlarning me'yoriy sharoitini ta'minlaydi. Tana haroratining yuqorida ko'rsatilgan darajadan ortib ketishi issiqlash, sovishi esa, sovish deb ataladi. Issiqlash va sovish hayot faoliyatini buzuvchi halokatli holat vujudga keltirishi mumkin.

Shuning uchun ham inson organizmida tashqi muhit bilan moslashuvi fiziologik mexanizmi mavjud bo'lib, u markaziy nerv sistemasining nazorati ostida

bo'ladi. Bu fiziologik mexanizmning asosiy vazifasi organizmda modda almashinuvi natijasida ajralib chiqayotgan issiqlikning ortiqchasini tashqi muhitga chiqarib, issiqlik balansini saqlab turishdir. Tashqi muhitga moslashuv ikki xil: fizik va kimyoviy bo'lishi mumkin. Kimyoviy tashqi muhitga moslashuv organizmning issiqlash davrida modda almashinuvini kamaytirishi va sovishi natijasida modda almashinuvini oshirishi mumkin. Ammo kimyoviy tashqi muhitga moslashuv tashqi muhitning keskin o'zgartirishi borasida fizik tashqi muhitga moslashuvga nisbatan ahamiyati katta emas. Asosan tashqi muhitga issiqlikni almashtirishga fizik tashqi muhitga moslashuvning ahamiyati katta.

2. Ishlab chiqarish mikroiqlimi me'yorlari mehnat xavfsizligi standartlari sistemasi «Ish zonasi mikroiqlimi» bilan asosan belgilangan. Ular gigienik va texnik iqtisodiy negilariga asoslangan.

Sanoat korxonalari xonalrining harakteri, yil fasllari va ish kategoriyasiga qarab, ulardagi harorat, nisbiy namlik va havo harakatining ish joylari uchun ruxsat etilgan me'yorlari belgilangan.

Ish kategoriyalari quyidagicha belgilanadi: engil jismoniy ishlar (I-kategoriya)-o'tirib, tik turib yoki yurish bilan bog'liq holda bajariladigan, biroq muntazam jismoniy, zo'riqish yoki yuklarni ko'tarishni talab qilmaydigan ishlar, energiya sarfi soatiga 150 kkal (172 J.s) ni tashkil etadi. Bunga tikuvchilik korxonasi, aniq asbobsozlik va shu kabi korxonalar kiradi.

O'rtacha og'irlikdagi jismoniy ishlar (II-kategoriya)-soatiga 150-250 kkal (172-293 j.s) eenergiya sarflanadigan faoliyat turlari kiradi. Bunga doimiy yurish va og'ir bo'lmagan (10 kg gacha) yuklarni tashish bilan bog'liq bo'lgan ishlar kiradi. Masalan, yigiruv-to'qish ishlari, mexanik-yig'uv, payvandlash sexlaridagi ishlar shular jumlasidandir.

Og'ir jismoniy ishlar (III-kategoriya)-muntazam jismoniy zo'riqish, xususan og'ir yuklarni (10 kg dan ortiq) muttasil bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish va ko'tarish bilan bog'liq ishlar kiradi. Bunda energiya sarfi soatiga 250 kkal (293 js)dan yuqori bo'ladi. Bunday ishlar temirchilik, quyuv va boshqa qator sexlarda bajariladi.

Harorat nisbiy namlik va havo harakatining tezligi risoladagi va yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan miqdorlar ko'rinishida me'yorlanadi. Risoladagi miqdorlar deganda odamda uzoq muddat va muntazam ta'sir qilganda tashqi muhitga moslashuv reaksiyalarini kuchaytirmasdan organizmning me'yori faoliyatini va issiqlik holatini saqlashini ta'minlaydigan mikroiqlim ko'rsatkichlarining yig'indisi tushunilib, ular issiqlik sezish mo'tadilligini vujudga keltiradi va ish qobiliyatini yuksaltirish uchun shart-sharoit hisoblanadi. Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan mikroiqlim sharoitlari organizmning faoliyatini va issiqlik holatdagi o'zgarishlarini, fiziologik moslanish imkoniyatlaridan chetga chiqmaydigan tashqi muhitga moslashish reaksiyalarining kuchaytirishini bartaraf etadigan va tez me'yorga soladigan mikroiqlim ko'rsatkichlarining yig'indisidir. Bunda sog'liq uchun xatarli holatlar vujudga kelmaydi, biroq nomo'tadil issiqlik sezgilari, kayfiyatning yomonlashuvi va ish qobiliyatining pasayishi kuzatilishi mumkin.

3. Sanoat korxonalarida mashina va mexanizmlarning harakat natijasida har xil titrashlar vujudga keladi. Bu titrashlar ba'zi uchastkalarda bitta va ba'zi uchastkalarda bir necha mashina mexanizmlarning harakati ta'sirida bo'lib, ba'zan zo'rayishi va ba'zan susayishi kuzatiladi va bu organizmga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan tavsiflanadi.

Titrash hosil qiluvchi mashinalar orasida transport vositalari, katta hajmdagi qo'zg'olmas agregatlar, qo'lda ishlatiladigan mashina va mexanizmlar mavjud.

Texnika taraqqiyoti natijasida zamonaviy mexanika-mashinasozlik korxonalarida turli tuman jihozlarning kirib kelishi, shuningdek bu mashinalarning unumdorligini oshirishga talabning kuchayganligi, mashinalarning iloji boricha kam material sarflab, qo'l bilan bajariladigan vazifalarni mexanizmlar zimmasiga yuklash natijalari insonga ta'sir etuvchi qo'shimcha hodisa, titrash hodisasini kelib chiqishiga olib keldi. Titrash sanoatda ishchining ish unumdorligini kamaytiribgina qolmasdan, balki uning sog'ligiga ham ta'sir ko'rsatishi va bu ta'sirning oldi vaqtliroq olinmasa, xavfli titrash kasalligiga olib kelishi aniqlandi. Shuning uchun ham titrashga qarshi kurash muhim ahamiyatga ega.

Titrashning fizik xususiyatlari. «Titrash: atamalar va tushunchalar» da «titrash» deb nuqta yoki mexanik sistemaning, xech bo'lmaganda bitta koordinat bo'ylab, vaqt birligida navbatma-navbat ortib va kamayib turuvchi harakatiga aytiladi.

Titrash mashina va mexanizm qismlaridagi kuchlarning nomuvofiqlik harakati natijasida kelib chiqadi. Bunga mexanizmlarning chiziqli harakatini aylanma haraktga aylantirishdagi krivoship-shatun mexanizmalirining harakati, silkituvchi harakat hosil qiluvchi shibbalash qurilmalari, shuningdek posangilashtirilmagan aylanma harakat qiluvchi qismlar, masalan qo'lda ishlatiladigan silliqlovchi mashinalar, dastgohlarning silliqlovchi va qirquvchi qismlaridan kelib chiqadigan titrashlar misol bo'la oladi.

Shovqindan saqlanish. Hozirgi zamon texnika taraqqiyoti davrida sanoat korxonalarida shovqinga qarshi kurash masalalari muhim masalalar qatoriga kiradi. Bu masala asosan mashinasozlik sanoatida transport vositalarini ishlatishda va eenergetika sanoatida juda jiddiy masala bo'lib turibdi.

Shovqinning oqibatlari ma'lum. U birinchi navbatda ishlab-chiqarishda mehnat qilayotgan kishilarni ma'naviy toliqtiradi, shovqin chiqaruvchi mashinalarni ishlatayotgan ishchilar va ishlab chiqarish jarayonini boshqarayotgan operatorlar ishiga xalal berib, ularni har xil hatoliklarga yo'l qo'yishlariga olib keladi. Bu esa o'z navbatida ishlab-chiqarish jarohatlanishlari kelib chiqishining asosiy manbai hisoblanadi.

Katta shovqin ta'sirida insonning asab sistemalari zirqillaydi, eshitish organining susayishiga sabab bo'ladi.

Shuning uchun ham sanoat korxonalarida shovqinni kamaytirish chora-tadbirlarini belgilash muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, inson salomatligini saqlashi bilan katta ahamiyat kashf etadi.

Shovqin haqida tushuncha. Odam uchun yoqimsiz har qanday tovushlar shovqin deb ataladi. Jismlarning bir-biriga urilishi, ishqalanishi va muvozanat holatining buzilishi natijasida hosil bo'lgan havoning elastik tebranishi harakati

qattiq, suyuq va gazsimon muhitda to'liq hosil qilib tarqaladi. Bunda muhit zarralari muvozanat holatiga nisbatan tebranish hosil qiladi. va bu tebranish tezligi to'liqlar tarqalish tezligidan ancha kichkina bo'ladi.

2.MAVZU. TEXNOSFERA XAVFLARDAN HIMOYALOVCHI TEXNIKALAR , USULLAR VA VOSITALAR. XALQ SOHALRINING TURLI TASHKILOT VA KORXONALARIDA HAYOTIY FAOLIYAT XAVFSIZLIGI.

Reja:

1. Ishlab chiqarish jarayonlariga qo'yiladigan xavfsizlik talablari
2. Xavfsizlikni ta'minlovchi texnik vositalar
3. Signalizatsiya

1. Mehnat muhofazasining asosiy vazifalaridan biri ishlovchilarning mehnat havfsizligini ta'minlashdir. Zamonaviy agrosanoat ishlab chiqarishi muntazam yangi texnikalar, mikrobiologik va kimyoviy moddalar etkazib berishni, chorva mollarini katta komplekslarga va mayda fermerlik xo'jaliklariga birlashtirishni, ish jarayonlarining yiriklashuvini, dehqonchilikdagi ishlarni brigada va oilaviy pudrat asosida bajarishni, ayrim mehnat turlarini hamda vostiolarini o'zgartirib borishni o'z ichiga oladi.

Mehnat havfsizligi – mehnat sharoitining shunday holatiki, unda ishlovchilarga xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining ta'siri istisno qilingan. Ishlab chiqarish sharoitida insonga jarohat etkazilishi bu fizikaviy va kimyoviy xavfli ishlab chiqarish omillari borligini bildiradi.

Fizikaviy xavfli ishlab chiqarish omillari – bu harakatdagi mashinalar, uskunalarning harakatdagi elementlarining to'silmaganligi, qo'zg'aluvchi buyum, materiallar, uskuna va materiallari ustki qismining qismining yuqori yoki past haroratda bo'lishi, elektr tarmoqlarining xavfli kuchlanishi. yuqori bosimdagi havo va gazning portlagandagi energiyasi va boshqalar.

Kimyoviy xavfli ishlab chiqarish omillari – odam organizmiga o'yuvchi, zaharli va qichitadigan moddalarning ta'sir qilishi bilan ifodalanadi. Muayyan xavfli ishlab chiqarish omillarning kelib chiqishi texnologik jarayon, uskuna konstruksiyasi va ishni tashkil qilinganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Xavfli ishlab chiqarish omillarining kelib chiqish xususiyatiga qarab, ko'rinib turgan va ko'rinmaydiganlarga bo'lish mumkin. Ko'rinib turgan, xavfli, tashqi belgilari bilan yaqqol ifodalanadi: masalan, mashinaning harakatlanuvchi qismlari, alanga, ko'tarilib va osilib turgan yuk. Ko'rinmaydigan xavfli mashinalar, mexanizmlar, moslamalar va asboblarda yashirin nuqsonlarning borligiga bog'liqdir. Yashirin xavfni, shuningdek ish doirasining tiqishtirilganligi va ivirsiganligi, asbob, moslamalarni o'z maqsadida foydalanmaganligi, uzilgan

elektr simlari, mexodimlarning noto'g'ri va xato harakatlari va boshqalar tug'dirishi mumkin.

Ishlab chiqarish jarohatlarining oldini olish - juda murakkab kompleks bo'lib, avvalo, muhandis, texnik mutaxassislardan, shuningdek tibbiy va boshqa sohadagi mutaxassislardan alohida e'tibor qaratishni talab etadigan muammodir.

Mashina va mexanizmlarning xavfli doiralari. Agar ishlovchilar jarohatlantirishga sababchi bo'lgan xavfni keltirib chiqaruvchi mashinalar bilan ma'lum masofada ishlamasalar ko'ngilsiz hodisa yuz berishi mumkin.

Insonning hayoti va salomatligiga ta'sir etadigan xavfli maydoni xavfli doira deb ataladi.

Xavfli doira mashinaning harakatlanuvchi, aylanuvchi qismlarida, yuk yaqinida, ko'tarib-tushiradigan transport vositalarida qo'zg'atiladigan yuk atrofida paydo bo'lishi mumkin. Ishlovchilarning kiyim va sochlarini uskunalarining harakatdagi qismlarini tortib ketish imkoniyatiga ega xavfli doira xafv-xatar tug'diradi. Juda ko'p jarohatlar ishchilardagi osilib yotgan kiyimlarni qishloq xo'jaligi mashinalarining to'silmagan kardanli uzatmalari o'rab ketishi tufayli sodir bo'ladi.

Strelali kranlarning xavfli doira o'lchamlari uning strela uzunligiga bog'liqdir.

Ishlab chiqarish jarayonlariga qo'yiladigan xavfsizlik talablari. Texnologik jarayonlarni bajarishda, tashkil qilishda va loyihalashda GOST 12.3.002-75 va TS 46.0.141-83 quyidagilarni inobatga olish shart deb belgilaydi.

Ishchilarni xavfli va zararli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan dastlabki materiallar, yarim mahsulotlar va chiqindi ishlab chiqarilishi bilan bevosita aloqasini yo'qotish, xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari mavjud joylarni kompleks avtomatlashtirish hamda mexanizatsiyalash, texnologik jarayonlarda nazorat va boshqarish tizimini o'rnatish darkor. Bu ishlovchilarning himoyasini va ishlab chiqarish jarayonlarining avariya holatda o'chirilishini ta'minlaydi.

Ishlab chiqarish chiqindilarini o'z vaqtida zararsizlantirish va chiqarib tashlash, ular xavfli va zararli ishlab chiqarishning oldini olishga yordam beradi.

Texnologik jarayonlarga qo'yiladigan xavfsizlik talablari texnologik hujjatlarda ko'rsatilgan bo'lishi shart. Ish joyidan tashqarida bajarayotganda xonalarni va maydonlarni tanlashga katta e'tibor qaratmoq kerak. Shuningdek, uzluksiz ishlab chiqarish jarayonlarining xavfsizligini, uskunalarni to'g'ri joylashtirish va ish joylarini oqilona tashkil qilish bilangina ta'minlash mumkin. Materiallarni, tayyor mahsulotni va ishlab chiqarish chiqindilarini saqlaganda, xavfli ishlab chiqarish omillarining sodir bo'lishidan himoyalanih kerak.

Ishlab chiqarishda ishlashga ruxsat etilgan shaxslarning fizik imkoniyatlarini va mehnat xususiyatlarini hisobga olish shart. Xizmat qiluvchi xodimlar bajarayotgan ishlariga muvofiq mehnat xavfsizligi bo'yicha kasbiy tayyorgarlikdan o'tgan bo'lishi lozim.

2. Barcha mashina va mexanizmlarga xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi bo'yicha yagona talablar qo'yiladi. Ana shu talablarga muvofiq mashina va mexanizmlarni boshqarishning asosiy richaglari o'ng qo'l ostiga

joylashgan bo'lishi, har qaysi mashinada tovush signali, orqani ko'rish oynasi, burilish va to'xtash signallari bo'lishi kerak.

Ish jarayonida mashina va mexanizmlardagi mahkamlangan joylar bo'shashadi, zazor (tirqish) lar kattalashadi, moy, suv yoki yonilg'i siza boshlaydi va hokazo. Shu boisdan pala-partish ko'rsatilgan texnik xizmat avariya va baxtsiz hodisalarga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, traktor yurish qismining mahkamlangan joylarini o'z vaqtida tekshirib va taranglab turilmasa, u ag'darilib ketishi mumkin. Agar mashina ishlayotgan vaqtda inson hayoti yoki salomatligiga xavf soladigan nuqson payqalsa, ishni darhol to'xtatish kerak. Har bir traktorch, kombaynchi, haydovchi mashinani ishlatishdan oldin uning texnik holatini tekshirib ko'rish kerak.

Mashinadagi har bir harakatlanuvchi detal havflidir. aylanayotgan val, yulduzcha, tishli g'ildirak qo'lni, turmaklanmagan sochni yoki kiyimni ichkariga olib ketishi mumkin. Shu boisdan mashina va mexanizmlarning harakatlanuvchi qismlari qalpoq, g'ilof, kojux, to'siqlar bilan berkitiladi. Ammo harakatdagi barcha qismlarni ham himoya qurilmalari bilan berkitib bo'lmaydi. Shu sababdan xavfli zonada ham ishlashga to'g'ri keladi. Xavfli doira hamma mashina va mexanizmlarda bor. Ular mashinalarning tashqi qismida (kombaynning parragi, qirquvchi apparat iva h.k.) va ichki qismida (yanchish barabani, tozalash ventilyatori, konveyerlar) bo'lishi mumkin. Harakatga keltiruvchi dvigatelning aylanayotgan maxovigi atrofidagi doira xavfli hisoblanadi. Shu sababdan agar dvigatelni yurgizib yuborishning iloji bo'lsa, maxovikni qo'l bilan aylantirish man etiladi. Yurib ketayotgan mashinaning o'zi ham xavfli doira hisoblanadi. Shuning uchun dvigatel ishlayotganida yoki mashina yurib ketayotganida uni moylash, rostlash va nuqsonlarini bartaraf qilish man etiladi. Mexanizatsiyalashtirilgan agregatlarga xizmat ko'rsatayotganlar ish vaqtida xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi: ishlab turgan mashina yaqinida echinib-kiyinmasligi, o'ziga mos bo'lmagan jomakorda ishlamasligi, kiyimining etaklari (barlari) shalvirab osilib turmasligi kerak.

Traktor, kombayn va avtomobilda haydovchi asboblarining to'la jamlanmasi, birinchi yordam ko'rsatish uchun aptechka, ichimlik suv solingan idish, zavod tomonidan beriladigan qo'llanma bo'lishi shart.

3. Mehnat xavfsizligini ta'minlashning texnik vositalari. Har qanday xo'jalikka, korxonalarga etkazib beriladigan har qanday qishloq xo'jaligi mashinasi, agregati, mexanizm iva uskunalari baxtsiz hodisalarning oldini oladigan zamonaviy himoya vositalari bilan jihozlanadi. Mehnat xavfsizligi to'siq, tormoz, blokirovka, saqlash qurilmalari, signalizatsiya, shaxsiy himoyalash vositalarini ishlatish, shuningdek ularning yaxshi ishlashini nazorat qilish bilan ta'minlanadi.

To'siq qurilmalar. Xavfli zonalarini himoyalash uchun oddiy, ishonchli va arzon to'siq qurilmalar keng ko'lamda ishlatilmoqda. To'siq qurilmalar insonni xavfdan himoyalash uchun xizmat qiladi. Ular qanday maqsadga mo'ljallanganiga qarab har xil tuzilmali bo'ladi. Shunga ko'ra to'siqlar doimiy yoki vaqtinchalik bo'lishi mumkin. Masalan, traktor orqa ko'prigining, tasmali uzatmalar qutisining korpuslari doimiy to'suvchi qurilmalardir. Doimiy to'siqlarning afzalligi shundaki, agregat ishlayotganda ishchi xavfli zonaga kira olmaydi. Doimiy to'siqlar

siljuvchan va qo'zg'almas bo'ladi. Siljuvchan to'siqlarni to'siqlarning olib qo'yish yoki chekkaga surib qo'yish mumkin. Vaqtinchalik to'siqlar korxona, sex, uchastka territoriyasidagi ishlarni bajarish vaqtida ishlatiladi. Ularga misol sifatida muhofaza ekranlari, metall shchitlar, parda va boshqalarni keltirish mumkin. Sexda payvandlash ishlarini bajarishda atrofdagilarni elektr yoyning ravshan shu'lasini ta'siridan muhofaza qilishda, qurilish maydonchalari, transheyallarni to'sishda, boshqa er ishlarini bajarishda vaqtinchalik to'siqlar ishlatiladi.

Himoya to'siqlari panjara, to'rlardan iborat. Agar mexanizm ishini ko'z bilan kuzatib turish zarur bo'lsa, bunday hollarda to'siq shaffof material (organik shisha, selluloid va boshq.)dan tayyorlanadi.

Himoya qurilmalari. Mashina va uskunalarga qo'yiladigan mavjud talablarga muvofiq har bir mashina, traktor yoki agregatda avariya holatidagi ish rejimiga mo'ljallangan himoya qurilmalari bo'lmasa, bunday mashina ishga yaroqli emas deb hisoblanadi. Himoya qurilmalarining ishlashini nazorat qilish parametri (zo'riqish, bosim, harorat va h.k.) ruxsat etiladigan chegaradan chiqqanida avtomatik to'xtaydi.

Barcha himoya qurilmalari to'rt guruhga bo'linadi:

- mexanik zo'riqishlaridan saqlovchilar (turli xil muftalar, kesilib ketadigan boltlar, shtiftlar va b.);
- mashina qismlarining belgilangan gabaritdan chiqishini saqlovchilar (yuk ko'tarish mexanizmlarining chetki uzib-ulagichlari, ular mashinaning ish organi yoki mexanizmning siljishini cheklab turadi);
- bosim yoki haroratning ko'tarilib ketishidan saqlovchilar (konstruktiviyasi turlicha bo'lgan klapanlar, ular idishdagi bosim ortib ketganida, traktorning gidrosistemasida moy, avtomobil va traktorning tormozlash sistemasida havo, ug'ning harorati, qozon qurilmasida suv ko'payib ketganda ochiladi va h.k.) ;
- elektr tok kuchining ruxsat etiladigan chegaradan ortib ketishidan saqlovchilar (elektr tarmoqlaridagi eruvchan saqlagichlar, avtomatik uzib-ulagichlar, buzilgan elektr uskuna, asbob va boshqalarni tarmoqdan uzib qo'yadi).

Tormozlash qurilmalari. Mashina va uskunalarining harakatlanayotgan (aylanayotgan) elementlarini tez va asta-sekin to'xtatish uchun tormozlash qurilmalari ishlatiladi. Bunlan tashqari, ular mashinalarni qiyaliklarda tutib turish, ko'tarilgan yukning o'z-o'zidan pastga tushib ketishidan saqlash maqsadlarida ham ishlatiladi. Masalan, g'ildirakli traktorlarning tormozlash qurilmalari traktorning og'irligi 4 tonnagacha bo'lganida 20 km boshlang'ich tezlikda tormoz berilganda quruq beton yo'lda traktorni to'xtatib qo'yish kerak – tormoz yo'li 6 m dan ko'p bo'lmasligi lozim. To'xtatib qo'yish tormozining samaradorligi mashinalarni 36 % ga (200) ko'tarilish yoki tushishda ishonchli tutib turishiga qarab aniqlanadi.

Blokirovka qurilmalari. Blokirovka – bu mexanizmlarni yoki ularning qismlarini muayyan holatda ishonchli mahkamlashni ta'minlaydigan vositalardir. Mashina, mexanizmida blokirovka qurilmalarining va boshqa saqlagich vositalarning bo'lishi ishlovchining xavfsizligini ta'minlay olmaydigan hollarda qo'llaniladi. Masalan, agregatda to'siq bo'lishi ishchi shikastlanmaydi, degan gap emas, chunki ba'zi hollarda mexanizm yoki mashina to'siqlarsiz ham ishlashi mumkin. Lekin ajralish tekisligiga to'siq olinganda elektr zanjirni uzadigan

kontaktlar o`rnatilsa, bunda to`siq bo`lmaganda uskuna ishga tushmaydi. Uskuna to`siq o`rnatilgandan va kontakt ulangandan keyingina ishga tushadi. Bunday konstruksiyadagi blokirovka qurilmalari metallga ishlov beradigan stanoklarning barcha turlarida o`rnatiladi.

. Zamonaviy qishloq xo`jaligi texnikasida sodir bo`lgan yoki sodir bo`lishi mumkin bo`lgan xavfsizliklardan ximoyalash uchun signalizatsiyadan keng foydalaniladi. Vazifasiga qarab signalizatsiyalar ogohlantiruvchi (mehnat xavfsizligiga rioya qilish to`g`risida ogohlantiradi, transport vositalarining harakatini boshqarish), avariya haqida (xavfli ish tartibi sodir bo`lganligi to`g`risida xabar) nazoratlovchi (ishlab chiqarish jarayonidagi harorat, bosim, suyuqlik miqdori va boshqalarni nazorat etish) va gaplashishga oid (bir mexanizm yoki agregatga xizmat ko`rsatuvchi, bir guruh odamlar bilan operativ, ovozli va ko`rish signallarini shartli bog`lanishlaridir).

Harakati bo`yicha quydagi turdagi signalizatsiyalardan foydalaniladi: yorug`lik, ovozli, rangli, va belgi o`rnatish. Yorug`lik signalizatsiyalari transport vositalarida xavfsizlik vositasi sifatida keng foydalaniladi. Ular oldindan va orqadan kelayotgan transportdan ogohlantiradi. Shu maqsadda transportvositalari har xil signalizatsiya yoritish asboblari: faralar, o`lchamlarini, burilishni ko`rsatuvchi chiroqlar, stop-signallar bilan jihozlanadi.

GOST 12.4.026-76 quyidagi signal ranglarini va vazifalarini belgilaydi: qizil – «man etish», «stop», «yaqqol xavflilik», sariq - «diqqat», «mumkin bo`lgan xavf to`g`risida ogohlantirish», yashil – «xavfsiz», «ruxsat etiladi», «yo`l ochiq», ko`k – «informatsiya».

Oxirgi vaqtlarda ishchi kiyimi va korjomalarini bo`yash muammosiga juda katta e'tibor berilmoqda. An'anaviy qora va to`q ko`k ranglarni boshqa och ranglar bilan almashtiriladi. Xavfli doirada ishlovchi odamning kiyimi ish joyidan keskin ajralib turishi maqsadga muvofiqdir. Ochiq havoda ishlaganda to`q sariq rangdagi kiyim maqsadga muvofiqdir. Bunday kiyimlarni temir yo`llarni ta'mirlayotgan va yo`l qurilishi ishlarida ishlayotgan ishchilar kiyadi.

Avtomatik ulash qurilmalari traktorni tirkama yoki osma mashinalar bilan avtomatik ulashni ta'minlab beradi. Avtomatik ulashlarni keng miqyosda ishlab chiqarishga tadbiq etilishi mashinalarni agregatlashda sodir bo`ladigan jarohatlanishlarni butunlay yo`qotadi.

Masofadan turib kuzatish va boshqarish shu sharoitlarda olib boriladiki, operatorni ish doirasida xavfsizlik nuqtai nazardan yoki texnologik sabablarga ko`ra mumkinmasligi, shungdek ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish sharoitida samarasizdir. Masofadan kuzatish maxsus datchiklar, signalizatorlar, teleekranlar va nazorat-o`lchov asboblari orqali olib boriladi. Masofadan turib boshqarish tizimlari, elektron-mashinalarida bajariladi.

Mavzu bo`yicha savollar

- 1) Xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy va texnik asoslarini bayon qiling.
- 2) Jarohatlovchi omillar va xavfli hududlar nimaq

3.MAVZU. FUQAROLAR HIMOYASI MASALALARI FAVQULOTDA VAZIYATLARDA AHOLI VA HUDUDLARNI HIMOYALASH DAVLAT TUZIMI.

Reja:

1. Fuqaro muhofasasi haqida umumiy tushuncha
2. Favqulodda vaziyatlar, uning sababchi omillari va xususiyatlari
3. Favqulodda vaziyatning tavsifi
4. Fuqaro muhofazasining vazifalari
5. Xavfsizlikni ta'minlash tamoyillari
6. Favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlarini oldindan aytish va bashorat
7. FVlarda HFXni ta'minlash bo'yicha tadbirlarni rejalashtirish

1. Fuqarolar muhofazasi- umumdavlat mudofa siyosatlaridan biri bo'lib, u har qanday favqulodda holatlarda fuqarolarni, xalq xo'jaligi tarmoqlarini muhofaza qilishda, ularning muttasil ishlashini ta'minlashda hamda qutqarish va tiklash ishlarini bajarishda katta ahamiyat kasb etadi.

FVVning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishi asosan: favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, fuqoralar hayoti va salomatligini muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlar yuz berganda ularning oqibatlarini tugatish hamda zararini kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday hollardagi harakatlarni boshqarishning davlat tizimi (FVDT)ni tashkil etish va uning faoliyatini ta'minlash, fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish, vazirliklar, idoralar, mahaliy davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirib borish, maqsadli ishlab chiqarish va hakoza larga qaratilgan.

Shunday qilib, fuqoralar muhofazasi har qanday favqulodda vaziyatlarda fuqoralarni, moddiy resurslarni muhofaza qilish, fuqoralarni qanday hatti-harakat etishi, ularga qanday chora tadbirlar bilan yordam berilishi, shikastlangan zonalarda qutqaruv va tiklov ishlarini olib borish, ishlab chiqarish tarmoqlarini muttasil ishlashini ta'minlash vazifalarini bajaradi. Zero, er yuzida umumiy qirg'in qurollari, hujumkor qurollarning zamonaviy turlari mavjud ekan, shu bilan birga tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni bo'lishligi muqarrar bo'lganligidan har bir davlatda va uning barcha hududlarida fuqarolar muhofazasi davlat tizimi tashkil etiladi va uning vazifalari aniq belgilanadi.

2. Favqulodda vaziyat (FV)-ma'lum hududda yuz bergan falokat, halokat va boshqa turdagi ofatlar natijasida kishilarning o'limiga, salomatligiga, tevarak atrofdagi tabiiy muhitga sezilarli moddiy zarar etkazuvchi, odamlarning turmush sharoitini buzilishiga olib keladigan holatdir.

Favqulodda vaziyatlar xavfining tarqalish tezligiga ko'ra, quyidagi guruhlarga bo'linadi:

a) tasodifiy FV – er silkinishi, portlash, transport vositalaridagi avariya lar va boshqalar;

b) shiddatli FV – yong`inlar, zaharli gazlar otilib chiquvchi portlashlar va boshqalar;

v) mo`tdil (o`rtacha) FV – suv toshqinlari, vulqonlarning otilib chiqishi, radioaktiv moddalar oqib chiquvchi avariya va boshqalar;

g) ravon FV – sekin-asta tarqaluvchi xavflar: qurg`oqchilik, epidemiyalarning tarqalishi, tuproqning ifloslanishi, suvni kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi va boshqalar.

Favqulodda vaziyatlar yana tarqalish miqyosiga (shikastlanganlar soniga hamda yo`qotishlar miqdoriga qarab) ko`ra 4 guruhga bo`linadi:

1. Lokal (ob'ekt miqyosidagi) FV;
2. Mahalliy FV;
3. Respublika (milliy) FV
4. Transchegaraviy (global)

Lokal favqulodda vaziyat – biror ob'ektga taluqli bo`lib, uning miqyosi o`sha ob'ekt hududi bilan chegaralanadi. Bunday vaziyat natijasida 10 dan ziyod bo`lmagan odam jabrlanadi yoki 100 dan ortiq bo`lmagan odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan yoxud moddiy zarar favqulodda vaziyat paydo bo`lgan kunda eng kam oylik ish haqi miqdorining 1 ming baravaridan ortiq bo`lmagan miqdorini tashkil etgan hisoblanadi.

Mahalliy tavsifidagi favqulodda vaziyat – aholi yashaydigan hudud (aholi punkti, shahar, tuman, viloyat) bilan chegaralanadi. Bunday vaziyat natijasida 10 dan ortiq, biroq 500 dan kam bo`lmagan odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan yoxud moddiy zarar favqulodda vaziyat paydo bo`lgan kunda eng kam oylik ish haqi miqdorining 1 ming baravaridan ortiqni, biroq 0,5 million baravaridan ko`p bo`lmagan miqdorini tashkil etgan hisoblanadi.

Respublika (milliy) tavsifdagi favqulodda vaziyat – deyilganda favqulodda vaziyat natijasida 500 dan ortiq odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan yoxud moddiy zarar FV paydo bo`lgan kunda eng kam oylik ish haqi miqdorining 0,5 million baravaridan ortig`ini tashkil etadigan, hamda FV mintaqasi viloyat chegarasidan tashqariga chiqadigan, respublika miqyosida tarqalishi mumkin bo`lgan FV tushuniladi.

Transchegaraviy (global) tavsifdagi favqulodda vaziyat deyilganda esa, oqibatlari mamlakat tashqarisiga chiqadigan yoxud FV chet elda yuz bergan va O`zbekiston hududiga dahldor holat tushuniladi. Bunday falokat oqibatlari har bir mamlakatning ichki kuchlari va mablag`i bilan hamda hamjamiyat tashkilotlari mablag`lari hisobiga tugatiladi.

Favqulodda vaziyatlar tavsifiga ko`ra (kelib chiqish manbaiga ko`ra):

1. Tabiiy tusdagi FV;
2. Texnogen tusdagi FV;
3. Ekologik tusdagi FVlarga bo`linadi.

Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlarga 3 xil turdagi xavfli hodisalar kiradi:

1) geologik xavfli hodisalar: zilzilalar, er ko`chishlari, tog` o`pirilishlari va boshqalar

2) gidrometrologik xavfli hodisalar: suv toshqinlari, sellar, qor ko`chkilari, kuchli shamollar (dovullar), jala va boshqalar

3) Favqulodda epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar; alohida xavfli infektsiyalar (o`lat, vabo, sarg`ayma, isitma) yuqumli kasalliklar, terlama, Bril kasalligi, zoonoz tinfeksiyalar- Sibir yarasi, quturish, virusli infektsiyalar-SPID;

Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarga 7 xil turdagi vaziyat kiradi:

- 1) Transportlardagi avariya va halokatlar (kema, samolyot, temir yo`l, vokzal,)
- 2) Kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariyaalar;
- 3) Yong`in-portlash xavfi mavjud bo`lgan ob'ektlardagi avariyaalr;
- 4) Energetika va komunal tizimdagi avariyaalar; (GES, GRES)
- 5) Bino va inshootlarning birdan qulab tushushi bilan bog`liq avariyaalar;
- 6) Radioaktiv va boshqa xavfli hamda ekologik jihatdan zararli moddalardan foydalanish yoki ularni saqlash bilan bog`liq avariyaalar;
- 7) Gidrotexnik inshootlardagi halokatlar va avariyaalar; (suv omborlari, kanallar)

Ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar. Ekologik tusdagi FVlar asosan 3 xil bo`ladi:

- 1) Quruqlik (tuproq, er osti)ning holati o`zgarishi bilan bog`liq vaziyatlar (foydali qazilmalarni qazish chog`ida, halokatli ko`chkilar)
- 2) Atmosfera tarkibi va xossalari o`zgarishi bilan bog`liq bo`lgan vaziyatlar; (havo muhitining zararli gazlar bilan ifloslanishi)
- 3) Gidrosfera holatining o`zgarishi bilan bog`liq vaziyatlar; Er yuzasi va osti suvlarining sanoat va qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi oqovalari.

3. Favqulodda vaziyatning tavsifi

1. Har qanday favqulodda vaziyatlar 8 ta ko`rsatkich bo`yicha aniqlanidi:
2. Favqulodda vaziyatning nomlanishi (FV ning ta'rifi);
3. FVning mohiyati;
4. FVning sabablari;
5. FVning shikastlovchi omillari;
6. FVning qaltislikni oshiruvchi omillari;
7. FVning oldindin bilish mumkinligi (monitoring, bashorat, Yu ogohlantirish, yumshatish);
8. FVni bartaraf qilish;
9. Moddiy zararni aniqlash;

FV oqibatining asosiy turlari: o`lim, odamlarning kasallanishi, inshootlarning buzilishi, radioaktiv ifloslanishlar, kimyoviy va bakterial zaharlanishlar.

FVning zararli va xavfli omillari ta'siri ostida joylashgan aholi, hayvonlar, inshootlar, moddiy resurslarning barchasi – «Shikastlanish o`chog`i» deyiladi. Oddiy (bir turdagi) shikastlanish o`chog`i deb, faqat bir shikastlovchi omil ta'sirida hosil bo`ladigan o`chog` tushiniladi. Masalan, portlash, yong`in natijasida buzilish, kimyoviy zaharlanish kuzatiladi. Murakkab (ko`p turli) shikastlanish o`chog`i deganda bir necha shikastlovchi omillar ta'sirida yuzaga kelishi tushuniladi. Masalan, kimyo korxonasidagi portlash, binolarning buzilishi, yong`in, kimyoviy zaharlanish kabi oqibatlarga, er silkinishi, kuchli bo`ron, suv toshqini, yog`inlar,

elektr tarmoqlarini ishdan chiqishi, zaharli gazlarning chiqib ketishi natijasida zaharlanish va boshqa talofatlarga olib kelishi mumkin.

4. Fuqaro muhofazasining vazifalari. Fuqaro muhofazasi davlat tizimlari – harbiy davrda ham yuzaga keladigan xavflardan aholini, hududlarni, moddiy boyliklarni muhofaza qilishda muhim vazifalarni bajaradi.

Fuqaro muhofazasining vazifasi quydagilardan iborat:

1. Aholi va ob'ektlarni harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoyalash harakatlari va usullariga tayorlash.

2. Boshqaruv, xabar berish va aloqa tizimlarini tashkil qilish, rivojlantirish va doimiy shay holatda saqlab turish.

3. Xalq xo'jaligi ob'ektlarining barqaror ishlashini ta'minlash yuzasidan tadbirlar kompleksini o'tkazish.

4. Aholini, moddiy va madaniy boyliklarini xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish.

5. Fuqaro muhofazasi harbiy tizimlari shayligini ta'minlash.

6. Aholini umumiy va shaxsiy saqlovchi vositalari bilan ta'minlash tadbirlari o'tkazish.

7. Aholini harbiy davrdagi hayot faoliyatini ta'minlash.

8. Radiatsiyaviy, kimyoviy biologik vaziyat ustidan kuzatish va laboratoriya nazorati olib borish.

9. Qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni o'tkazish.

10. Harbiy davrlarda ham zarar ko'rgan hududlarda jamoat tartibini yo'lga qo'yish va saqlab turish.

11. Aholini va hududlarni muhofaza qilish yuzasidan boshqa tadbirlarni amalga oshirish.

Mana shu vazifalarni muvaffaqiyatli olib bormay turib, zararlangan hududlarda, ob'ektlarda mo'tadil hayot faoliyatini yaratib bo'lmaydi. Bu ishlarni davlat organlari orqali, fuqaro muhofazasi boshchiligida butun xalq yordamida amalga oshiriladi.

1. Aholini favqulodda vaziyat sharoitida himoyalash, shu hodisaning noxush oqibatiga yo'l qo'ymaslik yoki uni maksimal darjada pasaytirish bo'yicha kompleks tadbirlardir. Aholini himoyalashning yuqori samarasi ishlatilayotgan barcha vosita va usullar to'la ishlatilganda va xavfsizlikni ta'minlash printsiplari to'laligicha anglab etilgan taqdirdagina bo'lishi mumkin.

Xavfsizlikni ta'minlash printsiplarini ularni qo'llash bo'yicha uch guruhga bo'linadi:

1.Oldindan tayorgarlik ko'rmoq himoya vositalarini to'plash, ularni tayyor holda saqlash hamda aholini xavfli zonadan evakuatsiya qilish bo'yicha tadbirlarni tayyorlash va amalga oshirish.

2.Differentsiyalashgan yo'nalish shundan iboratki, bunda himoya tadbirlari hajmi va xarakteri xavfli va zaharli omillar manbaining turiga va mahalliy sharoitlarga bog'liq.

3.Tadbirlar kompleksi FV oqibatlaridan himoyalash usullari va vositalaridan samarali foydalanish, zamonaviy texnosotsial muhitda hayotiy faoliyat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadbirlar bilan birga olib borishni taqozo qiladi.

FV larda aholini himoya qilishning asosiy usullari, aholini evakuatsiya qilish, himoya inshootlariga berkitish, shaxsiy himoya hamda tibbiy profilaktik vositalarni qo'llashdan iboratdir.

Siyosiy-harbiy nizolarni ayniqsa zamonaviy qurol-yarog'lar bilan hal qilishda qirg'indan saqlab qolish uchun eng samarali usullardan biri aholini himoya inshootlariga berkitishdir. Ayniqsa, radioaktiv va kimyoviy moddalardan saqlanish samarasi yuqoridir.

Himoya inshootlari-bular fizik, kimyoviy va biologik xavfli va zararli omillardan himoyalash maqsadida maxsus qurilgan muhandislik inshootlaridir.

Shaxsiy himoya vositalari-odam organizmining ichki a'zolariga, terisiga va kiyimiga radioaktiv, zaharlovchi va bakterial vositalarning ta'siridan saqlaydi.

Favqulodda vaziyatlarda hayotiy faoliyat xavfsizligini ta'minlash odam faoliyatining barcha jarayonlarida sog'ligini va hayotini saqlashga qaratilgan tashkiliy, muhandis-texnik tadbirlar va vositalar kompleksidir.

Hayotiy faoliyat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan asosiy yo'nalishlar quydagilardan iborat:

- FV larni va ularning oqibatini oldindan aytish;
- FV paydo bo'lishi ehtimolini yo'qotish yoki kamaytirish tadbirlarini rejalashtirish, hamda ular oqibatlari ko'lamini kamaytirish;
- FV larda xalq xo'jaligi ob'ektlari ishining muntazamligini, uzluksizligini ta'minlash;
- FV lardagi aholini o'qitish;
- FV oqibatlarini tugatish.

Ushbu yo'nalishlarning qisqacha mazmunlari quydagilardir.

FV ni ularning oqibatlarini oldindan aytish va baholash.

Bu-tabiiy ofatlar, avariya va falokatlar tufayli yuzaga kelgan vaziyatini taxminiy aniqlash va baholash usulidir.

Hozirgi vaqtda seysmik rayonlar, tuproq siljishi mumkin bo'lgan, sel oqimlari yo'nalishlari, plotinalar buzilganda, suv toshqini bo'lganda, odamlarga va hududga zarar keltirishi mumkin bo'lgan zonalar chegaralari aniqlangan.

HFX bo'yicha prognoz qilish masalalariga FV larning sodir bo'lish vaqtini taxminiy aniqlash ham kiradi. Bu prognoz bo'yicha aholining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha operativ choralar ko'riladi. Hozirgi vaqtda ko'pgina olim va mutaxassislarning fikri FV larning boshlanishi va rivojlanishi oldindan aytib berishga qaratilgan.

2. Ko'rilayotgan muammoni ushbu sharoitda hal qilishda FV larga odamning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xavfning oldini olish va paydo bo'lish ehtimolini kamaytirish, hamda uning oqibatlari masshtabini kamaytirish masalalarini qamrab oladigan sistemali yondoshish kerak.

Ushbu metodologik asosda o'zimizning va chet el amaliy tajribasini hisobga olgan holda samaradrligi tabora ortib boruvchi tadbirlar kompleksi oldindan tayorlash, boshqacha qilib aytganda zamonaviy texnosotsial muhitda odamning HFX ni ta'minlashning ko'p tabaqali sistemasini joriy qilish kerak.

FV lar oqibatida ko'riladigan zararlarning oldini olish tadbirlarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

Doimiy o'tkaziladigan tadbirlar. Ular uzoq muddatli prognoz asosida tuziladi: Standart talablarini hisobga olgan holda qurilish-montaj ishlarini olib borish, aholini xavf-xatar haqida xabardor qilishning ishonchli sistemasini yaratish. Aholini ShXV bilan ta'minlash va himoya inshootlarining etarli fondini tuzish, nurlanish, kimyoviy va bakteriologik kuzatuv ishlarini tashkil etish, aholini FV chog'ida o'zini qanday tutish va faoliyati haqida umumiy o'quvlrini tashkil etish, epidemiyaga qarshi va sanitariya-gigiena tadbirlarini o'tkazish.

FV vaqti aytib berilgach, ko'rilishi kerak bo'lgan himoya tadbirlari: prognoz uchun zarur bo'lgan razvedka va kuzatish sistemasini jonlantirib yuborish. Aholiga FV haqida xabar beruvchi sistemani tayor holga keltirish, iqtisodiy va jamoat hayotini maxsus qoida asosida qayta qurish, hattoki favqulodda holatgacha, yuqori xavfli manbalarni FV holatida neytrallashtirish ular ishini to'xtatib qo'yish, qo'shimcha mustahkamlash yoki demontaj qilish, avariya qutqaruv xizmatini tayor holga keltirib qo'yish, aholini qisman evakuatsiya qilish.

3. FV da HFX ni ta'minlashda rejalashtirish asosiy omillardan biridir. U maqsadga erishish borasida vaqt, mablag' va ijrochilarni aniqlashtiradi. U sharoitni ilmiy asosda prognoz qilish, har tamonlama tahlil qilish, moddiy va ma'naviy resurslarni baholash va aholini FV holatida himoya qilishning zamonaviy, nazariy va amaliy tadbirlarga asoslanadi.

Rejalashtirishning natijasi sifatida ma'lum hujjat-reja tuziladi. U quyidagi elementlarni o'z ichiga olishi kerak: aniq ko'rsatkichlar (ish turlari, tadbirlar), bu ishlarni bajarish muddati, rejani bajarish uchun zarur resurslar (turlari, soni, manbalari) har bir punktni bajaruvchi mutassadi shaxslarga topshiriqlar, reja bajarilishining borishini nazorat qilish usullari va h.o.

Rejaning matn qismi ikki bo'limdan tashkil topgan bo'lishi mumkin: birinchi qismdan sharoitni baholash natijasida qilingan xulosalar bo'lsa, ikkinchi bo'limni FV vujudga kelganda va xavf tug'dirganda aholining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadbirlar tashkil etadi. Ularning asosiylari quyidagilardir: xabar berish tartibi, razvedka va nazoratni tashkil qilish, qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni o'tkazish uchun kuch va vositalarni tayorlash, FV oqibatlarini ogohlantirish va yumshatish tadbirlari, odamlarni va moddiy boyliklarni zudlik bilan himoyalash choralari, tibbiy ta'minot, dozimetrik va kimyoviy nazorat, korxonani avariyasiz to'xtatish tadbirlarini qo'llash tartibi, odamlarni himoya qilishni tashkil etish, aholiga ShHV tarqatish, evakuatsiya qilish tadbirlarini tashkil etish, boshqaruvni tashkil etish, har xil sharoitlarda qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarini olib borish tartibi va navbati, yuqori tashkilotlarga, FV komissiyasiga axborat berish tartibi.

Rejaga turli ma'lumotnoma va tushuntiruvchi materiallar (chizma, matn) ilova qilib qo'yilishi mumkin.

Reja aniq, mazmunan to'liq, qisqa, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq va ob'ektning haqiqiy imkoniyatlarini hisobga olgan bo'lishi kerak. Rejaning hayotiyliigi kelib chiqishi bo'yicha tabiiy va texnogen FVlarda HFX ta'minlash bo'yicha ishlarni tashkil qilishda muntazam mashq va uquvlar jarayonida sinab boriladi.

Mavzu bo'yicha savollar

- 1) Favqulodda vaziyatlarda aholini o'qitish deganda nimalar ko'zda tutiladiq
- 2) Favqulodda vaziyatning paydo bo'lishini oldindan aytib berish nimalarga asoslanadiq
- 3) Fuqaro himoyasining kuch va vositalari haqida nimalarni bilasizq
- 4)Fuqaro himoyasining moliviy va moddiy zahirasi nimaq

4. MAVZU. MARKAZIY OSIYODAGI TABIIY XARAKTERDAGI FAVQULOTDA VAZIYATLAR, HIMOYA CHORALARI VA ZARARINI KAMAYTIRISH.

Reja:

1. Tabiiy tusdagi favqulotda vaziyatlarning turlari.
2. Zilzilaning kelib chiqishi sabablari, tarqalishi va halokatli oqibatlar.
3. Zilzilaning inshootlarga ko'rsatgan kuchini o'rganish va baholash.
4. Inshootlarni zilzilaga nisbatan zilzila bardoshligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar.
5. Ko'chkilar. Umumiy tushunchalar, kelib chiqishi sabablari, tarqalishi va holokatli oqibatlar
6. Sellarning sabablari oldini olish choralari

Adabiyotlar:

1. "Fuqoro muhofazasi asoslari" Toshkent 2003 yil ma'ruzalar to'plami.
2. "Harbiy toksikologiya va tibbiy muhofaza" Ibn sino 1997 yil I.i. Mamatov
- 3."Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhifazasi" Toshkent 2005 yil O.Qudratov. T.G'aniyev

4."Favqulodda vaziyatlar uchun tibbiy hamshiralar tayyorlash"Toshkent 2006yil R.Ramazonova

Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlarga 3 xil turdagi xavfli hodisalar kiradi:

- 1) geologik xavfli hodisalar: zilzilalar, er ko'chishlari, tog' o'pirilishlari va boshqalar
- 2) gidrometrologik xavfli hodisalar: suv toshqinlari, sellar, qor ko'chkilari, kuchli shamollar (dovullar), jala va boshqalar
- 3) Favqulodda epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar; alohida xavfli infektsiyalar (o'lat, vabo. sarg'ayma, isitma) yuqumli kasalliklar, terlama, Bril kasalligi, zoonoz tinfeksiyalar- Sibir yarasi, quturish, virusli infektsiyalar- SPID; Xavfli geologik favqulodda vaziyatlar Vazirlar Mahkamasining 455-sonli qaroriga ko'ra quyidagilardan iborat:
 - zilzila, kuchki, tog' o'pirilishi, yer sathining cho'kishi . Tabiiy ofatlar, favqulotda vaziyatlarning sodir bo'lishida xavfli geologik jarayon va hodisalar alohida ahamiyatga ega, shuning uchun ularning falokatli oqibatlardan aholini va

xalq xo'jaligi ob'yektlarini muhofaza qilish uchun havfli geologik xodisalarning yuzaga kelish sabablari, fazoviy tarqalish qonuniyatlari o'rganiladi, baholaniladi, bashorat qilinadi, ularga qarshi har xil chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Bu muammoni bartaraf etishni huquqiy tomondan qanday amalga oshirish

“Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risidagi”

Qonunning 21,22,23 – moddalaridan bayon etilgan va bunday holatlarda qanday hujjatlar kerakligi 3 – moddasida aniq ko'rsatib o'tilgan. Fuqarolarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlari 16 – moddasida qayd etilgan holda mahalliy davlat rahbar organlarining fuqaro muhofazasi borasidagi majburiyatlari 10 – moddasida bayon etilgan.

Yer yuzasida sodir bo'ladigan xavfli geologik jarayonlar asosan yerning ichki kuchlari va tashqi tabiiy omillar ta'sirida bo'ladi. Bundan tashqari ilmiy- texnik va maxsus adabiyotlarda bayon etilgan ma'lumotlarga ko'ra geologik muhitga insonning xo'jalik, qurilish hamda harbiy holatlarda olib boriladigan harakatlar ham ta'sir etadi. Natijada ko'lami katta yoki kichik bo'lgan turli xildagi ofatlar vujudga keladi.

Shahar qurulishi, turar joy binolari, inshootlar qurilishida amaldagi me'yorlar va qoidalarga rioya qilish, zilzila oqibatlarini kamaytirish muammosiga yetarli ahamiyat berish maqsadida Birlashgan Millatlar tashkiloti 1990-2000 yillar oralig'ini tabiiy favqulodda vaziyatlar bo'yicha xavf – xatarni kamaytirish xalqaro 10 yilligi deb elon qilingan. Shu davr ichida bir qator mamlakatlarning markaziy shaharlari “Tender” asosida xalqaro “RADIUS” loyihasini amalga oshirish huquqiga ega bo'ldilar. ”RADIUS”ni dastur bo'yicha to'la joriy etish imkoniyati berilgan beshta – mamlakat: Addis-Abeba (Efiopiya), Guayakliem (Ekvador), Tixyana (Meksika), Zigong (Xitoy) shaharlari qatoriga O'zbekiston respublikasi poytaxti Toshkent ham kirgan.

1. Zilzilaning kelib chiqish sabablari, tarqalishi va halokatli oqibatlari. Insoniyat tarixida yuzlarcha halokatli zilzilalar bo'lib o'tgani yozma manbalarda ma'lum. Yunonistondagi qadimgi Pompey xarobalari shundan dalolat beradi. Olimlar ummon tubidan ko'plab qadimiy shaharlarning xarobalarini topishgan. Hozirgi Issiqko'l qirg'oqlari bo'ylab ham ko'hna davr inshootlari, saroylar va qasrlarning qoldiqlari hamon saqlanib, o'sha qadimiy yer silkinishlaridan guvohlik berib turibdi. Oxirgi 50 yil ichida bo'lib o'tgan kuchli zilzilalar ichida vayrongarchilik va qurbonlar miqyosiga ko'ra Chili, San-Fransisko, Tolio, Ashxabot va Spitak, Toshkentdagi va boshqalar ajralib turadi. 1948 - yilgi Ashxabot (100 ming odam halok bo'lgan, 8-9 ball) zilzilasidan keyingi eng dahshatli fojeya Spitak zilzilasi nomini (unda 30 ming odam halok bo'lgan) oldi. U 1988 - yili 7 dekabr kuni sodir bo'ldi. Dastlabki kuchli silkinishning o'zida 20 mingli Spitak shahri va uning atrofidagi bir necha qishloqlar butunlay yakson bo'ldi. 200 mingli Leninakan shahri zamonaviy binolarning yarimidan ko'pi quladi yoki tiklab bo'lmaydigan ahvolga keldi. 120 mingli sanoat markazi bo'lgan Kirovakan shahri va katta qishloqlar talofat topdi. San-Fransiskoda 1906 - yil 18 - apreldagi yer qimirlashida 700 aholi halok bo'lgan. Moddiy ziyon 1,5 mlrd. dollorni tashkil

qilgan. Ikki kun yong'in mobaynida 500 ga yaqin kvartallar yonib hech narsa qolmagan hammasi bo'lib 350 ming kishi halokatga uchragan.

Yaponiyada 1995 - yil 17 - yanvarda kuchli yer qimirlashi ro'y bergan. Uning episentri yirik Koba portining markazida joylashgan bo'lib juda katta ko'lamda muhandislik va kommunal inshootlarning vayron bo'lishiga, uy-joylarni buzilishiga olib kelgan. Bu ofat natijasida ularning buzilgan bo'laklari ostida beshming ta odam nobud bo'lgan va 500 ming oila uy-joysiz qolgan.

1995 – yil 27 – mayday Rossiya davlatining Neftegorsk shahrida 9,2 ball kuchlanishga ega bo'lgan o'ta kuchli yer silkinishi ro'y berdi. Ma'lumotlarga ko'ra uning natijasida shahardagi 95 foizdan oshiq inshootlar vayron bo'lgan va nobud bo'lgan.

Eng kuchli zilzila O'zbekistonda 1902 – yilda (8-9 balli) Andijonda bo'lgan. 1946 – yili Namanganda (Chotqol zilzilasi nomi bilan), Toshkentda 1968 va 1966 – yil (7-8 ball) (1000 martagacha), Gazlida 8-10 ball, Tojikistonda 1907 – yil, Hisorda 9 – 10 ball, 15 ga yaqin qishloqlar xonavayron bo'lgan, 1000 ga yaqin odam nobud bo'lgan. 1911 – yilda Pomirda Sarez zilzilasi. Tog' o'pirilib, Usoy degan to'g'on hosil qilingan. Murg'ob daryosini to'sib qolib, seriz degan ko'l paydo bo'lgan. Bu vayrongarchiliklarning shunchalik kattaligigiga sabablar nimaq Birinchi navbatdagisining paydo bo'lishidagi yer qobig'idagi ichki kuchlarning ta'siri, ularning yer yuzasidagi inshootlarga ko'rsatgan zarbasining kuchi, ikkinchi navbatda uy-joy binolarini, korxonalarni, inshootlarni ko'rish ishlarining sifatsiz olib borilgani, zilzilaga bardosh beradigan qilib qo'rilmagani, ularni loyihalash va qurishda yo'l qo'yilgan xatoliklar hamda nazoratga kam e'tibor berilgandadir. Aholini va xo'jalik inshootlari joylashgan hududlarni zilzila tufayli sodir bo'ladigan halokatdan muhofaza qilishni tashkil qilish uchun zilzila tarqalgan hududlarni, paydo bo'lish sabablarini, genetik turlarini, tasnifini o'rganish, inshootga ko'rsatadigan kuchlarni baholash, bashorat qilish va kompleks chora tadbirlarning tarkibini ko'rib chiqish kerak.

Zilzila paytida yer qobig'ida seysmik to'lqinlar hosil bo'ladi.

To'lqinlarning tarqalish markazi giposentr yoki zilzila o'chog'i deb ataladi. Chuqurligi 2 – 70 km ga boradi. Yer yuzasidagi markazi –episentr deb ataladi. Ma'lumotlarga ko'ra seysmik to'lqinlar uch xil –bo'ylama, ko'ndalang, turlarga bo'linadi. Ularning aholi yashaydigan hududlar va inshootlarga ko'rsatadigan kuchlarining ta'siri yerning geologik, geomorfologik, gidrogeologik va muhandislik geologik sharoitlarga bog'liq bo'lib, ularni o'rganish, baholash, bashorat qilish bilan muhandislik geologiyasi shug'ullanadi .

3. ZILZILANING INSHOOTLARGA KO'RSATGAN KUCHINI O'RGANISH VA BAHOLASH:

Insoniyat o'zining butun tarixiy taraqqiyoti mobaynida ko'p marta yer qimirlashlarni boshidan kechirgan, uning oqibatlarining guvohi bo'lgan. Uzoq

tarixiy saboq, ya'ni yer silkinishini kishilarning ruhiy holatiga bo'lgan ta'siri, imorat va inshootlarning buzilishi, vayron qilinishi, yer yuzasida vujudga kelgan o'zgarishlar (yer sathida yoriqlarning va buloqlarning paydo bo'lishi) yuz bergan hodisaning kuchini baholashga o'rnatgan. Natijada nisbiy baholash seysmik shkalasi paydo bo'lgan. Quyida shu nisbiy seymik shkalani ba'zi o'zgarishlar bilan bayon etamiz. Respublikamizda va juda ko'p davlatlarda zilzila kuchi 12 balli shkala asosida baholanib, har bir ballga ega bo'lgan zilzila o'z tafsilotiga ega. Bundan tashqari baholashda 8 balli Rixter seysmik shkalasidan ham foydalaniladi.

Bizda asosan 2 turdagi yer qimirlashi kuzatilgan:

-uzoq davrli 1,5-2,5 daqiqa davom etadigan;

-yuqori chastotali tebranishli 1,5-2,5 soniya davom etadigan.

uzoq davrli yer qimirlashda tebranish sekin – asta kuch yig'adi va u ko'p qavatli binolar uchun xavfli hisoblanadi. Yuqori chastotali yer qimirlashi energiyasi qisqa davr ichida ajralishi tufayli, oqibatlari ayanchli bo'lishi mumkin, sababi agar sust harakat qilinsa ko'p qurbonlikka olib kelishi mumkin. Yer qimirlashning asosiy ko'rsatkichlari – qimirlash markazining chuqurligi va tebranishni qancha muddat davomida takrorlanishidadir . Yuqorida aytilganidek yer yuzasidagi uning ta'sir kuchi odatda ballarda baholaniladi.

Quyida shu nisbiy seysmik shkalani ba'zi o'zgarishlar bilan bayon etamiz :

1 ball-Sezilarsiz –Faqatgina seysmik asboblardagina qayd qilinadi.

2 ball-Juda kuchsiz- Uy ichida o'tirgan ba'zi odamlar sezishi mumkin (deraza oynalari titraydi).

3 ball-Kuchsiz, ko'pchilik odamlar sezmaydi, ochiq havoda tinch turgan odam sezishi mumkin. Osilgan jismlar asta- sekin tebranadi.

4 ball-O'rtacha sezilarli. Ochiq havoda turgan odamlar va bino ichidagi kishilar sezadi. Uy devorlari qirsillaydi. Ro'zg'or anjomlari titraydi, osilgan jismlar tebranadi.

5 ball-Ancha kuchli. Hamma sezadi, uyqudagi odam yug'onadi. Ba'zi odamlar hovliga yugurib chiqadi. Idishdagi suyuqlik chayqalib to'kiladi, osilgan uy jihozlari qattiq tebranadi.

6 ball-Kuchli, Hamma sezadi, uyqudagi odam uyg'onadi. Ko'pchilik odamlar hovliga yugurib chiqadi, uy hayvonlari betoqat bo'ladi. Ba'zi hollarda kitob javonidan kitoblar, javonlardagi idishlar ag'darilib tushadi.

7 ball-Juda kuchli. Ko'pchilik odamlarni qo'rquv bosadi, ko'chaga yugurib chiqadi, avtomobil haydovchilari tomonidan harakat vaqtida ham seziladi, uy

devorlarida katta-katta yoriqlar paydo bo'ladi, havzalardagi suvlar chayqaladi va loyqalanadi.

8 ball – Yemiruvchi. Xom g'ishtdan qurilgan imoratlarda butunlay vayron bo'ladi, ancha pishiq qilib qurilgan imoratlarda ham yoriqlar paydo bo'ladi, uy tepasidagi mo'rilar yiqiladi, ba'zi daraxtlar butun tanasi bilan yiqilib tushadi, sinadi, tog'lik joylarda qulash, surilish hodisalari yuz beradi.

9 ball-Vayron qiluvchi. Yer qimirlashga bardosh beradigan qilib qurilgan imorat va inshootlar ham qattiq shikastlanadi, poydevorlardan siljib, qiyshayib qolishi mumkin, oddiy imoratlar butunlay vayron bo'ladi, yer yuzasida yoriqlar paydo bo'ladi, yer osti suvlari sizib chiqishi mumkin.

10 ball-Yakson qiluvchi. Hamma imoratlar katta shikast ko'radi.

Temir yo'l relslari to'liqsimon shaklga kirib, bir tomonga qarab egilib qoladi,

Ko'chkilar. Umumiy tushunchalar, kelib chiqish sabablari, tarqalishi va halokatli oqibatlari.

Tabiiy favqulodda vaziyat turlaridan yana biri ko'chki bo'lib, uni o'rganish, baholash, bashorat qilish va undan aholini va xalq xo'jaligi ob'ektlarini muhofaza qilish mamlakat iqtisodini ko'tarishda muhim xisoblaniladi. Dengiz, ko'l, soylar va tog' yonbag'irlarida joylashgan bo'sh tog' jinslari ustki qismining yer ustki va ostki suvlari hamda o'zining og'irlik ko'chi ta'sirida pastga qarab harakat qilish xodisasi ko'chki deyiladi. Ko'chkilar Qirim, Kavkaz, Volga bo'yi, Dnepr, Markaziy Osiyoning tog'lik tumanlarida tez-tez bo'lib turadi. O'zbekistonning kon sanoati rivojlangan Oxangaron, Olmaliq, Oltin topgan, Yuqori Chirchiq tumanlaridagi Xumson, Bog'iston, Xo'jakent, Chibargota va boshqa qishloqlarida Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax viloyatlarining tog'li hududlarida ko'chli xodisalari ro'y berishi mumkin.

1911 yilda G'arbiy Pomirda 9 ball zilzila natijasida Usoy ko'chkisi hosil bo'lgan. Murg'op vodiysi daryosiga hajmi 2,2 m³/kv tog' jinsi bulogi ko'chib, 2,5 km masofani bosib o'tib daryo o'zanini 450-500 m qalinlikda, 2 km uzunlikda, 1km kenglikda qum tosh, oxak tosh, gips va boshqa jinsdan tashkil topgan tog' to'sib qo'ygan. Talofat natijasida Usoy qishlog'i ko'chki ostida qolib 54 kishi nobut bo'lgan. 1973- 1975 yillarda Respublikamizning Oxangaron vodiysida asrimizning eng katta ko'chkisi "Atche" ko'chkisi sodir bo'lgan. Ko'chkining sathi 12 km³ qalinligi 80-170 m bo'lib, 1975 yildan beri ko'chayotir. Sodir bo'lish sababi Oxangaron daryosining chap qirg'og'idagi 100-130 m chuqurlikdagi ko'mir qatlamidagi o'zgarishlar natijasidagi ko'mir yonib gazga aylangan va bo'shliq paydo bo'lgan, uning oqibatida ko'chki vujudga kelgan.

Tojikistonning Xisor rayonining Sharora qishlog'ida 1984 yil 25 yanvarda katta ko'chish ro'y bergan. Ko'chkining kengligi 400 m uzunligi 4,5 km, qalinligi 7-8 m tashkil qilgan. Natijada 50 ta uy ko'milib qolgan, 207 kishi xalok bo'lgan.

Ko'chkilar xalq xo'jaligiga katta zarar keltiradi. Shuningdek imorat va inshoot yo'l yer osti komunikatsiyasi, to'g'on, tunil va ko'priklar mustahkamligining

susayishiga yoki butunlay buzulishiga sabab bo'ladi. Masalan: 1963 yil 9 oktyabrda shimoliy Italiyada ro'y bergan ko'chkining balandligi 265,5 m bo'lgan va yon to'g'onini vayron qilgan. Natijada 300 ta odam halok bo'lgan va katta miqdorda moddiy zarar ko'rilgan. Tojikistonning Ayniy qishlog'ida 1964 yil aprel oyida sodir bo'lgan tog' o'pirilish xodisasi natijasida Zarafshon daryosi butunlay to'silib qolgan. Faqat olimlarning o'z vaqtida ko'rgan chora tadbirlari tufayligina qishloq va shaharlarning unumli yerlari suv bosishdan saqlanib qolindi.

Ko'chki xodisasi ma'lum bir sharoitlarda sodir bo'ladi, yani jins o'z joyidan siljishi uchun yonbag'ir usti tikroq jins qatlamlari qalin bo'lishi, atmosfera yog'inining mavsumiy yoki yillik miqdori ko'p bo'lishi, suv o'tkazuvchan yoki o'tkazmaydigan qatlamlar qat-qat bo'lishi lozim. Yomg'ir va qor suvlari yonbag'irlikdagi soz tuproq, qum, oxaktosh kabi jinslarga shimilib ularni yumshatadi va og'irlashtiradi. Suv o'tkazmaydigan qatlamlar grunt suvlari bo'yicha pastga qarab harakat qila boshlaydi va jinslarning tabiiy yopishqoqligini susaytiradi, natijada jinslarni yonbag'irlikda ushlab turuvchi kuch qiymati uni pastga siljitadigan kuchga nisbatan keskin kamayadi va pastga qarab ko'chish xodisasi sodir bo'ladi.

Har qanday ko'chkining tanasi, tili, markasi, , uzunlish yoriqlari va yuzasi deb ataladigan elimentlari bo'ladi. Ko'chki tanasi suriladigan massani tashkil qilib, uning ustki qismining relefi past balandlikdan iborat bo'ladi.

Yer usti suvlarining ko'chuvchan jinslarga singishining oldini olish uchun har xil qurilmalar yasab, ularni boshqa yo'nalishda oqizish, yer yuzasidan filtratsiyani kamaytirish uchun uni nishablash, gil beton, shalg'al, beton, asfalt, neft yotqizish lozim bo'ladi.

Ko'chuvchan massaning og'irligini kamaytirish, yer osti suvlari sathini pasaytirish, suffoziya xodisasi rivojlanishini kamaytirish yoki butunlay yuqotish maqsadida yopiq yoki ochiq zovurlar qaziladi, ulardan yer osti va usti suvlarini yig'ish hamda ularni relefnig pastki qisimlariga oqizish uchun faydalaniladi.

Ikkinch guruhga kiradigan chora-tadbirlarga tirgovuch devorlar, ustun qoziqlar va kontrobankitlar qurish kiradi. Ko'chadigan massani tutib turish uchun ko'chish tekisligiga nisbatan chuqur qilib tirgovuch devorlar o'rnatiladi. Yer osti suvlari chiqib ketishi uchun devorlar tagidan zovur qaziladi. Ustun qoziqlar temir-beton, temir va yog'ochlardan tayyorlangan bo'lib, oldindan qazilgan quduqlarga tushuriladi, qoziqlarning pastki uchi yonbag'irning turg'un qismigacha tushuriladi va u ko'chadigan massani ushlab turadi. Kontirbankitlar yonbag'irning nishabligi kichik bo'lgan taqdirda ko'chadigan massani ushlab turish uchun ishlatiladi. Buning uchun yonbag'irlikdagi do'ng joylat tekislanib, chiqqan guruntlar uning etak qismiga yotqiziladi va ko'chadigan massani ushlab turadigan devor hosil qilinadi. Uchunchi guruhga ta'luqli chora-tadbirlarga ko'chadigan jinslarning mustahkamligini va yopishqoqligini sun'iy yo'l bilan oshirish kiradi. Buning uchun tog' jinslari silikatlanadi, semintlanadi, betonlanadi va kimyoviy ishlov beriladi. Bunday ishlar zarur bo'lgan hollardagina ko'chadigan massaning ayrim uchastkasida bajariladi. Bu uchastka ko'chish qiyaligida suv o'tkazmaydigan ekran yoki tirgovuch devor vazifasini ham o'tashi mumkin. To'rtinchi guruhga kiruvchi tadbirlar-ko'chadigan massani yonbag'irdan butunlay olib tashlashdan iborat. Agar

suriladigan massaning qalinligi va katta-kichikligi katta bo'lmasa, uni yonbag'irning turg'un qoyasi chiqqunga qadar qazib olib tashlash mumkin, bu ishni bajarishda buldozerlardan foydalaniladi. Bunday tadbirlar katta kuch va mablag' talab qilishiga qaramay GES qurilishida keng qo'llaniladi. Gidrometerologik favqulodda vaziyatlar haqida umumiy ma'lumotlar. Keyingi vaqtlarga kelib Respublikamiz hududining ko'pchilik qismida gidrosfera holati o'zgarishi tufayli aholining xayot faoliyati sharoitiga ta'sir etuvchi vaziyatlar vujudga kelmoqda. Bunda umumiy tabiiy geologik sharoitlarni xisobga olmaslik, yangi yerlarni o'zlashtirishda yo'l qo'yilgan xatoliklar, sug'orish tizimida zamonaviy samarador texnologik usullarni keng joriy etilmagani sabab bo'lmoqda. Hozirgi paytda yuqorida qayd etadigandek sel, suv toshqinlari, qor ko'chkilari, kuchli shamollar kabi gidrometerologik favqulodda vaziyatlar Respublika xalq xo'jaligiga jiddiy zarar keltirmoqda, odamlarning turmush sharoiti yamonlashishiga olib kelmoqda, ayrim hollarda esa aholi nobut bo'lmoqda. Hanuzgacha viloyat, shahar, tuman hokimliklari tegishli xizmatlarining ruxsatlarisiz xafli zonalarda tartibsiz ravishda uy joylar qurilishiga yo'l qo'yilmoqda. Misol tariqasida agar 1998 yilda favqulodda vaziyatlar vazirligi ma'lumotiga ko'ra Respublikamiz hududida 600 ga yaqin ko'chki, sel va suv toshqinlari bo'lgan bo'lsa, ularning zararli oqibatlari natijasida 16 ming aholi jabrlangan, moddiy zarar esa 100 milliard so'mdan ortgan. Gidrometerologiya sohasi mutaxassislarining xulosasiga ko'ra Respublika hududida 238 xavfli ko'llar, 46 ming kv\km hududlar suv va sel toshqinlari ruy beradigan xavfli joylar, mingga yaqin xavf sodir bo'lishiga olib keluvchi daryo va soylar mavjudligini aniqlangan.

4.Selning kelib chiqish sabablari va halokatli oqibatlari.Tog' hududlarida kuchli yomg'irlarning yog'ishi, muzlik va qorlarning tez erishi natijasida hosil bo'lgan daryo toshqinlarini, tog' yon bag'irlarida nuragan tog' jinsi bo'laklarini suv oqimi bilan tekislikka qarab oqizib tushirishigha sel hodisasi deb yuritiladi.Sel oqimi massasining tahminan 50-60% ni turli kattalikka ega bo'lgan tog' jinsi bo'laklaridan o'simlik va daraxtlar bo'laklaridan iborat bo'ladi. Sel oqimining davomiyligi 0,5-2 soatdan 12 soatgacha, tezligi 5-8 m/s dan 12 m/s gacha yetishi mumkin, sel massasining zichligi esa 1,2-1,9 t/m³ ni tashkil etadi. Bunday fizik ko'rsatkichlarga ega bo'lgan oqim juda katta kuchga ega bo'lib, uning kuchi quyidagi ifoda bilan aniqlanishi mumkin:

$$P = m \frac{V^2}{2}$$

P-sel oqimi kuchi, m- sel oqimi massasi, V-sel oqimi tezligi. Sel jarayoni xalq xo'jaligiga juda katta zarar keltiradi, oqim yo'lida uchragan inshootlarni, yo'llarni, qishloq va shaharlarni, bog'-rog'larni, ko'priklarni voyron qilib ketadi, katta maydonlarni loy, qum, tosh qatlamlari bilan ko'mib tashlaydi. Sel –arabcha so'z bo'lib, tog'lik hududlardagi suv toshqini ma'nosini anglatadi.Sel oqimlari ozi bilan olib ketayotgan qattiq zarrachalarni o'lchamiga qarab 3 guruhga bo'linadi:
-suv-toshli sellar;

-loyqa sellar;
-aralash sellar;

oxirgi 100 yil ichida Ozbekiston Respublikasi hududida 2500 dan ortiq sel oqimi ko`zatiladi. Bulardan 1400 dan ortig`i loyqa, 350 dan ortig`i suv-toshli, 650 dan ortig`i aralash sellardir. Respublikamizning Farg`ona vodiysida, Toshkent oldi hududlarida ham sel oqimlari kuzatilib turiladi. Sel oqimlari respublikamiz hududlarida bahor mavsumida va yozning birinchi oyida yuz beradi, bunga sabab hududimiz joylashgan mintaqaning tabiiy sharoiti bo`lib, bahor oylaridagi kuchli (jala) yomg`irlar, haroratning issiq kelishi, tog`liklarda muzlik va qorlarning tez erishi, daryo o`zani qiyaligining 3-5<sup>0</sup> dan kattaligi, suv yig`ish maydonida zarrachalarni bog`lanmagan bo`shroq tog` jinslarining mavjudligi asosiy omillardan bo`lib hisoblanadi.

Sel oqimlarining oldini olish, ularga qarshi kurashish, sel bo`lishi mumkin bo`lgan maydonlarni aniqlash, ularni vujudga kelish sabablarini chuqur o`rganish, atrof muhitni muhofaza qilishning asosini tashkil etishda katta xalq xo`jalik ahamiyatiga ega. shuning uchun sel xodisasini bartaraf qilish maqsadida olib boriladigan ishlar ilmiy amaliy xulosalarga tadbir-choralarga asoslangan bo`lmog`i kerak. Bular qo`yidagilardan iborat:

1. Sel bo`lishi mumkin bo`lgan daryolarning suv yig`ish maydonlarida doimiy kuzatish ishlarini olib borish. Bunda suv yig`ish maydonida bo`shroq tog` jinslarining yig`ilishini oldini olish, oqar suvlar oqimiga to`squinlik qiluvchi tabiiy va sun`iy to`siqlardan tozalash ishlari.

2. Sel oqimi yuzaga kelishi mumkin bo`lgan daryolarning suv yig`ish maydonlarini muhofaza qilish, yani bu maydonlarda o`simlik dunyosini saqlash, daraxtlar va butalarni kesish, maydonlarda shudgor qilish va sug`orish ishlarini olib borishni chegaralash.

3. O`rmon xo`jaliklarini rivojlantirish, yani, tog` yonbag`irlarida butalar va daraxtlarning ekilishini yo`lga qo`yish talab etiladi. Chunki bu o`simliklar tog` jinslari qatlamlarini mustahkam ushlab turadi, qor erishini sekinlashtiradi yer yuzasini yuvilishdan saqlaydi.

4. Tog`li hududlardagi daryolarning o`zanida suv oqimini boshqaruvchi inshootlar qurish, tabiiy, sun`iy to`g`onlarni tartibga solish, temir, avtomobil yo`llari ostiga sel o`tkazuvchi katta diometrlri quvurlar yotqizish ishlari.

Qor ko`chkisi, kelib chiqishi sabablari va falokatli oqibatlar.

Tog`larning tik yonbag`irlaridan qor massasining ag`darilib yoki sirpanib tushishi qor ko`chkilari deb ataladi.

Baland tog`larning o`stiga qish faslida ko`p qor yog`ib uning qalinligi oshadi. O`z og`irlik kuchi ta`sirida zichlashib, qayta kristallanib yonbag`irlikda pastga qarab osilib turadi va qalinligi oshgan sari turg`unligi susayib boradi. Kuchli shamol yoki biror kuchli tovushdan hosil bo`lgan havo tebranishi ta`sirida qalin qor massasi harakatga kelib yonbag`irdan pastga qarab siljiy boshlaydi yoki ag`darilib tushadi. Qor kuchkilari quruq yoki ho`l bo`lishi mumkin. Agar qorning o`stki qismi biroz muzlagan bo`lib, uning ustiga qalin qor yog`sa va ma`lum sabablarga ko`ra pastga qarab siljisa, quruq kuchki hosil bo`ladi. Bunday hollarda ko`chkilar juda ham katta bo`ladi. Bahor oylarida qor erigan suvining shimilib,

qorning tagini ho'llashi natijasida qor massasining turg'unligi kamayib pastga ag'darilib tushushidan ho'l ko'chki hosil bo'ladi.

Quruq ko'chkilar pastga qarab harakat qilgan vaqtda yon atrofdagi qor massalarini va tog' jinslarini o'zi bilan surib ketadi. Natijada qorning massasi kattalashadi, hajmi 2 mln.km³ ga, ko'chki kuchi esa soatiga 250-350 km ga yetib, o'z yo'lidagi o'rmonlarni sindirib ketadi, imorat va inshootlarni vayron qiladi. Harakat qilayotgan qor massasining oldida vayronalik keltiradigan kuchga ega bo'lgan havo to'liqini yuzaga kelib, uning kuchi har kv.m ga 100-120 m ga to'g'ri keladi.

Hozirgi vaqtda tog'li hududlarda suv omborlari yani GES lar, bolalar oromgohlari, dam olish uylari, davolanish maskanlari qurilishi munosabati bilan qor ko'chkilari sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hududlar haritalarga tushirilib, o'rganib chiqilgan. Ularning xavfi bor maydonlarda qurish man etiladi. Lekin bunday maydonlarda qor ko'chkilarining oldini oladigan muhandislik choralari ko'rib, imorat va inshootlar qurish mumkin bo'ladi. Bu choralarga yonbag'irlarni tekslab, daraxtzor barpo etish, harakatga kelishi

mumkin bo'lgan qor uyumlarini oz-ozdan yuqotish, maxsus muhandislik qurilmalari-damba, qor ko'chkisining harakat yo'nalishini o'zgartiradigan ariqlar devorlar qurish yonbag'irlaridagi yo'llarni tosh va temir betondan yasalgan galeriya bilan to'sish, qor ko'chkilarini o'tkazib yuboradigan tunillar qurishdan iborat.

5. MAVZU: AHOLINI VA HUDUDLARNI TEXNOGEN XUSUSIYATLI FAVQULODDA VAZIYATLARDAN MUHOFAZA QILISH.

Reja:

1. Hidrotexnik obyektlardagi avariya va halokatlar.
2. Hidrotexnika inshootdagi favqulotda vaziyatlar muayyan hududdagi avariya olib kelishi mumkin bo'lgan halokatlar.
3. Transport avariya va kimyoviy xavfli ob'ektlardagi favqulotda holatlar haqida ma'lumot.
4. Hidrotexnika inshootlarining turlari va ularning buzulishi natijasida kelib chiqadigan favqulotda holatlar.

Texnogen tusdagi favqulotda vaziyatlarga 7 xil turdagi vaziyat kiradi:

1. Transportlardagi avariya va halokatlar (kema, samolyot, temir yo'l, vokzal,)
2. Kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariya;
3. Yong'in-portlash xavfi mavjud bo'lgan ob'ektlardagi avariya;
4. Energetika va komunal tizimdagi avariya; (GES, GRES)
5. Bino va inshootlarning birdan qulab tushishi bilan bog'liq avariya;

6. Radioaktiv va boshqa xavfli hamda ekologik jihatdan zararli moddalardan foydalanish yoki ularni saqlash bilan bog'liq avariya;lar;

7. Gidrotexnika inshootlaridagi halokatlar va avariya;lar; (suv omborlari, kanallar)

Gidrotexnika inshootidagi favqulodda vaziyat muayyan hududdagi avariya;ga olib kelishi mumkin bo'lgan, shuningdek, gidrotexnika inshootining avariya;si natijasida vujudga kelgan bo'lib, odamlar qurbon bo'lishiga, odamlar sog'lig'iga yoki atrof tibbiy muhitga zarar yetkazilishiga olib kelgan vaziyatdir.

Suv omborlaridagi, daryolardagi, kanallardagi gidrotexnika inshootining (GTI) buzulishi, baland tog' ko'llarning suv urib ketishi natijasida suv bosishi, falokatlar va halokatlarga olib keladi hamda odamlar qurbon bo'lishiga, sanoat va qishloq xo'jaligi va ob'ektlarining ishini izdan chiqarishga, suv bosgan joylardagi aholining hayot faoliyati buzulishiga sabab bo'ladi va shoshilinch evakuatsiya tadbirlari o'tkazishni talab qiladi.

Respublikamizda gidrodinamik xavfli ob'ektlar (GXO) juda ko'p bo'lib, aholi va hududlarda xatar manbai hisoblaniladi va muayyan sharoitda favqulodda vaziyat o'chog'iga aylanib ketishi mumkin.

GXO bu suv oqimi bo'ylab o'zidan oldingi va o'zidan keyingi suv sathlarida farq paydo qilib beradigan inshoot va tabiiy hosiladir. Aksariyat gidrotexnika inshootlari (sun'iy to'g'onlar) va tabiiy to'g'onlar shular qatoriga kiradi.

To'g'onlar sun'iy va tabiiy bo'lishi mumkin. Sun'iy to'g'onlarni odamlar o'z ehtiyojlari uchun barpo etadilar. Bular GES lar, suv tortgichlar, irrigatsiya tizimlari va boshqa ob'ektlarning to'g'onlari. Tabiiy to'g'onlar tabiat hodisalari (ko'chkilar, sellar, qor kuchkilari, o'pirilishlar, zilzilalar va.b) ning ta'sirida hosil bo'ladi. Masalan: qattiq qoya jinslarining 1911- yildagi zilzila sodir etgan o'pirilishi natijasida Tojikistondagi Murg'ob daryosi va Sarez qishlog'i o'rnida Sarez ko'li paydo bo'lgan.

Gidrotexnika inshootlarining turlari:

1. Qayerdaligiga qarab:

- yer usti (daryo, ko'l kanal va h.k) inshootlari;
- yer osti (o'tkazgich quvurlar, tunellar va h.k) inshootlari.

2. Foydalanish xarakteri va maqsadiga qarab:

- suv-energetika inshootlari;
- suv ta'minoti inshootlari;
- sug'orish inshootlari;
- Oqova, chiqindi suvlar chiqarish inshootlari;

3. "Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhifazasi" Toshkent 2005 yil

- suv –transport inshootlari;
- baliq xo'jaligi inshootlari;
- sport inshootlari;
- bezak inshootlari va h.k

3. Funksional vazifasiga qarab:

- GES va boshqa GTI ning suv bo'g'ish inshootlari(to'g'onlar, ko'tarmalar);

- suv oqish (suv o'tkazgich) inshootlari: kanallar, tunellar, quvur o'tkazgichlar;

- tartiblash (to'g'rilash) inshootlari suv oqib ketishi sharoitini hamma daryolar o'zani va qirg'oqlarini muhofaza qilish sharoitini yaxshilash uchun ko'tarmalar, g'ovlar, qirg'oq mahkamlagichlar va h.k;

- baliq xo'jaliklari inshootlari baliq o'tkazish va baliq boqish uchun.

-Har bir GTI da gidrotexnik qulf, vintel, g'ov, surma to'siq va shu singari maxsus uskuna-jihozlar va turli qurilmalar bo'ladi.

-Bir qancha vazifalarni bajarishga mo'ljallanib, bir butun qilib birlashtirilgan GTI majmui gidrouzellar deb ataladi.

-Gidrotexnika inshootlaridagi falokatlarining sabablari va turlari:

GTI ga quyidagi yemiruvchi kuchlar doimo ta'sir ko'rsatib turadi: suv oqimi, tebranishlar zirillashlar, balchiq cho'kindilar, o'zgaruvchan harorat, statistik va dinamik kuchlar, metal zanglashi, betonning suyuqlikka qorishib yuvilishi, yerning uvilib ketishi va h.k.

Markaziy Osiyo hududida ma'lumotlarga ko'ra, qo'yidagi GTI ishlab turibdi: Qayroqum, Chordara, To'xtagul, Andijon, Karkidon, Tolimarjon, Nurek, Ragon va boshqalar.O'zbekiston Respublikasida hozirgi paytda 18,9 mlrd. 700 mln m³ suv sig'dira oladigan 53 suv ombori, daryosuvlarini viloyat va tumanlarga taqsimlab beruvchi 150 dan ortiq suv to'g'onlari, 28122 km uzunlikdagi magistral kanallar va boshqa zarur suv inshootlari mavjud. Harbiy holat sharoitida yoki favqulodda vaziyat jarayonida ular ma'lum xavf to'g'diradilar. Masalan: Chorvoq suv omborida favqulodda vaziyat sodir bo'lib inshoot buzilsa, Toshkent viloyatining 25 km² maydoni suv ostida qolishi mumkin, natijada, shu hududida joylashgan sanoat korxonalari moddiy zarar ko'radi.

Gidrotexnika inshootlarining ayrimlari katta shaharlar va yirik aholi yashash joylari yaqinida bo'lib, yuqori darajadagi xavfli ob'ektlardir. Bularning buzulishi juda katta hududlar, jumladan, shaharlar va aholi yashash joylarini suv ostida qolishiga olib kelishi mumkin, natijada shoshilinch evakuasiya tadbirlarini o'tkazilishini talab etadi, shuningdek, o'sha joylar iqtisodiga juda katta zarar yetkazishiga sabab bo'ladi.

Gidrotexnika inshootlari quyidagilar natijasida buzulishi mumkin:

1. Xavfli tabiat hodisalari tabiiy ofatlar (zilzila, ko'chki, yuvib ketish, jala va.h.k).

2. Uskunalarining tabiiy yeyilishi va eskirishi.

3. loyihalash va qurishdagi xatolar.

4. Foydalanish qoidalarining buzilishi.

5. Portlatishlar (jangovor harakatlar, terroristik ishlar va h.k)

Shikastlanuvchi omillar va ko'rsatmalar:

1. To'g'onni urib ketgan to'lqinning balandligi 2-20 m , tezligi 3-100 km\soat.

2. To'g'onning urib ketgan to'lqin cho'qqisi va old tomonining yetib kelish vaqti (to'lqin tezligiga va joyining qancha oraliqda ekanligiga qarab).

3. Suv bosish hududining chegaralari (yer yuzi relifining qandayligiga qarab).

4. Suv bosishining maksimal va amaldagi chuqurligi (relefning qandayligiga, to'g'onning urub ketgan to'lqinning balandligiga qandayligiga qarab).

5. Suv bosish qancha davom etishi (bir necha soatdan bir kecha-kunduzgacha).

Halokatli suv bosishning shikastlovchi omillar va parametrlari suv omborining o'lchamlariga, to'g'onning balandligiga, urib ketgan to'lqinning tezligi va balandligiga, yer yuzasi qandayligiga va boshqa sharoitlarga bog'liq bo'ladi.

Suv bosish joyi hududining GTI ga tutash va suv tagida qolish mumkin bo'lgan qismi.

Gidrotexnika inshootidagi falokat oqibatlar:

1. GTI shikastlanishi buzulishi hamda ozroq yoki uzoq vaqt o'z vazifasini bajarmay qo'llishi.

2. urib ketgan to'lqin odamlarga shikast yetkazishi va turli ob'ektlarni, inshootlarni buzib yuborishi.

3. Hududni suv bosib, mol-mulkka, yer, hosil, ekin, inshoot, imorat va boshqa infrastrukturallarga moddiy zarar yetkazishi.

Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan falokatlarning xarakteri va ko'lami quyidagi omillarg bog'liq:

-GTI ko'rsatgichlari (suvning hajmi, to'g'onning balandligi, qurilmasi, chidamliligi va h.k);

-buzulish xarakteri va ko'lami;

-urib ketgan to'lqinning tavsifi;

-yer yuzasi reliefi, o'simliklar, qurilishlar va h.k;

-yil fasli, kecha-kuduz vaqti, ob-havo sharoiti va h.k;

-muhofaza inshootlari (aylanma kanallar, tashlamalar, ko'tarmalar va h.k) mavjudligi;

- rahbar, vakil tarkibining, boshqaruv organlarining, ko'chva vositalarning faoliyatga tayyorlanganlik darajasi;

-xabar berish cheklangan tizimning mavjudligi, ishlay olishi va samaradorligi;

-favqulodda vaziyat chegarasida vaqt davomida avariya-qutqruv va boshqa shoshilinch ishlarning mohirona boshqarilishi uyushqoqligi va samaradorligi;

-FV bo'lishi ehtimoliga ishlab chiqarish ob'ektlarining va aholining tayyorgarlik ko'rganligi.

Oldindan taxminlashga birlamchi shikast omillari va ularning oqibatlaridan tashqari, quyidagi ikkilamchi omillar ham hisobga olinadi:

-suv va yer yuzasining turli zararli moddalar bilan ifloslanganligi;

-odamlar va hayvonlarning ommaviy kasallanganligi;

-transport va energomagistral tuzimlardagi avariyaalar;

-ko'chkilar, o'pirilishlar va h.k;

-imorat va inshootlarning chidamliligining yo'qolganligi;

-atrof-muhitdagi ekologik buzilishlar;

Halokat sodir bo'lgan ob'ekt va joyidagi aniq sharoitga bo'g'liq boshqa sal'biy oqibatlar.

Oldindan taxminlashda, shuningdek, ko`lamiga qarab ko`rilishi mumkin bo`lgan quyidagi zararlar ham hisobga olinadi.

- aholi orasidagi talofatga (halok bo`lganlar, bedarak yo`qolganlar, shikastlanganlar, boshpanasiz qolganlar qanchaligini hisoblab baho beriladi;
- moddiy zararga (buzulgan, shikastlangan, ishdan chiqqan ob`ekt va inshootlar) qanchaligini hisoblab, shuningdek, pul bilan ifodalab baho beriladi, bundan tashqari, bevosita va bilvosita zararlar (ishlab chiqarishga aynan shu halokat yetkazgan ziyon va shikastlanganlarni ta`minlash harajatlari hisoblab chiqiladi.

Bevosita zararlar:

- GTI, imoratlar, avtomobillar va temir yo`llar, elector uzatish va aloqa simlari, energotizimlar, sug`orish tizimlari va boshqa ob`ektlar;
- Chorva mollari, qishloq xo`jaligi ekinlar, yer-suv va boshqalarni nobud bo`lishi;
- Xom ashyo, yoqilg`i, ovqat maxsulotlari, chorva oziqlari, sanoat maxsulotlari, o`g`itlar va h.k. yo`qotish va buzulib qolishi;
- Xavfsiz joylarga aholini vaqtincha evakuatsiya qilish va moddiy boyliklarni tashish xarajatlari;
- Hosildor qatlam yuvilib ketishi va tuproq ustiga balchiq cho`kib qolishi.

Bilvosita zararlar:

- ovqat maxsulotlarini, kiyim-kechak, dori-darmon, qurilish ashyolari, texnika, chorva oziqlarni sotib olish, gumanitar yordamlarni shikast topgan joylarga yetkazib berish xarajatlari;
- sanoat va qishloq xo`jalik maxsulotlarini tayyorlashni kamayishi hamda iqtisodiyotning rivojlanish sur`atini pasayishi;
- mahalliy aholining tirikchilik sharoitining yomonlashuvi;
- suv bosish ehtimoli bor joylardagi hududdan ratsional foydalanishning iloji yo`qligi;

- shunngdek, aniq mahalliy sharoitga bog`liq boshqa noqulay omillar;

Halokatli suv bosgandagi sharoitga baho berish tartibi:

1. dastlabki ma`lumotlarga aniqlik kiritish.
 - 1.1. GTI ga va undagi avariyaqa tavsif berish (vaqti, ahvoli va h.k).
 - 1.2. ob`ekt joylashgan yer yuzasiga tavsif berish (relef o`simliklar, qurilishlar, transport magistrallari va boshqa infrastrukturani mavjudligi).
 - 1.3. ob-havo, iqlim sharoiti (yil fasli, kecha-kunduz vaqti, ob-havo ahvoli va h.k).
 - 1.4. aholiga hududga va fuqaro muhofazasiga ta`sir darajasi.
2. Xafvli joyni shikastlovchi omillari va ko`rsatgichlarni aniqlash:
 - 2.1. Urib ketgan to`lqinning balandligi va tezligi.
 - 2.2. Suv bosishning maksimal va amaldagi chuqurligi.
3. Halokatli suv bosish joyining xaritaga (rejaga, chizmaga) tushirish.
4. Halokatli suv bosishning vaqt omillarini aniqlash.
 - 4.1. Urib ketgan to`lqinning muayyan chegaralarga va muhim ob`ektlarga (aholi yashash joylariga) yetib kelish vaqti(daqiqa, soat kabi vaqt birliklarida).

4.2. Suv bosish qancha davom etishi (butun suv bosish joyida va uning alohida qisimlarida).

5. Ehtimol bo'lgan talofat va zararlarni aniqlash.

6. Muhofaza qilish va favqulodda vaziyat chegarasi (FVCh) yuzasidan asosli qarorga kelish uchun, halokatli suv bosishining aholiga, hududga va fuqaro muhofazasiga ta'sirini aniqlash.

GIDROTEXNIKA INSHOOTLARINI MUHOFAZA QILISH CHORALARI.

1. GTI ni loyihalash va qurishda xatoliklarga yo'l qo'ymaslik.

2. GTI dan to'g'ri foydalanish.

3. GTI dagi belgilangan tadbirlarni va ta'minlash ishlarini vaqtida bajarish.

4. Qirg'oqni mahkamlash va inshoot tubini mustahkamlash ishlarini o'tkazish.

5. Suv chiqarish vaqtiga muvofiq qayta taqsimlash yo'li bilan suvning maksimal zahirasi va maksimal sarflanishini kamaytirish.

6. Qushimcha suv omborlari yordamida toshqin suvlar oqimini tartibga solib turish.

7. GTI aholini doimo kuzatib turish (uskuna-jihozlar va yuksak malakali mutaxassislar yordamida).

8. FVDT tarkibiga kiruvchi funksional kichik tizimlari va organlarini sohaga aloqali faoliyatini tizimli nazorat qilib turish.

9. GTI hududini chetdan kishilar kirishdan ishonchli qo'ruqlash.

10. Falokatlarga olib keladigan noqulay omillar bo'lishi ehtimolini oldindan aytish taxminlarini tuzish uchun gidrometerologik sharoitini muntazam kuzatib borish.

Aholini va hududlarni muhofaza qilish choralari:

1. Oldindan aytilgan to'g'ri taxminlarning doimo mavjud bo'lishi.

2. Yaxshi yo'lga qo'yilgan axborot xizmatining bor bo'lishi.

3. Doimo va samarali ishlab turadigan xabar berishning cheklangan tizimi bo'lishi.

4. GTI xodimlarining uyushqoqligi, bilimdonligi, intizomligi.

5. Ehtimoli bor halokatli suv bosish joyida istiqomat qiluvchi aholining FV dagi hatti-harakatlarga tayyorgarlik ko'rganligi.

6. FM rahbarlik tarkibining GTI da falokatlar va halokatlar oldini olish hamda bunday hodisalar ehtimoli paydo bo'lgandagi faoliyat masalalari yuzasidan tayyorgarlik ko'rganligi (zamonaviy vositalar va usullar yordamida sharoitni bilib va tez oldindan taxminlay olish hamda unga baho bera olish, asosli qarorlarga kela olish va ularni turmushga tezkorlik bilan tadbiq eta olish).

7. Muhofaza tadbirlarini bevosita o'tkazish:

- GTI da falokat xavfi tug'ilgani haqida alohida xabar berish;

- suv ostida qolishi mumkin bo'lgan joylarda aholini, qishloq xo'jalik hayvonlarini, moddiy boyliklarni barvaqt evakuatsiya qilish;
- suv bosish ehtimoli bor zonadagi korxona, tashkilot muassasalar ishini qisman cheklash yoki to'xtatish hamda moddiy boyliklarni muhofaza qilish;
- GTI ni loyihalash va qurish prinsipi: GTI ni ular foydadan ko'proq zarar keltiradigan joylarda qurmaslik

6-MAVZU: FAVQULOTDA VAZIYATLARDA KIMYOVIY VA RADIATIV XAVFLI OBYEKDAGI AVARIYALAR VA HALOKATLAR.

Reja:

1. Kimyoviy xavfli inshootlar.
2. Radiatsiyaviy xavfli inshootlar.
3. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatadigan kimyoviy va radiatsiyaviy xavfli inshootlar.
4. Navoiy shaxrida faoliyat ko'rsatadigan kimyoviy va radiatsiyaviy xavfli inshootlar.

1. Kimyoviy va radiatsion xavfli inshootlardagi halokatlar (avariyalar) deganda kuchli ta'sir qiluvchi zaharli moddalarning atrof-muhitga tarqalishi, radioaktiv moddalardan foydalanish va saqlash tartiblariga rioya qilmaslik tufayli favqulodda vaziyat vujudga kelishi tushuniladi. Favqulodda vaziyat natijasida zaharli moddalar ta'sirida odamlar, hayvonlar, o'simliklar ko'plab shikastlanadi.

Kimyoviy xavfli inshoot – xalq xo'jaligi korxonasi bo'lib, faoliyat ko'rsatish davrida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan halokat tufayli odamlarning ommaviy tarzda zaharlanishi, kimyoviy zaharli moddalarning atrof-muhitga tarqalishi kuzatilishi mumkin.

Xavfli inshootni harbiy holatda muhofazalanishi huquqiy ta'minlanishi «Fuqaro muhofazasi to'g'risida» Qonunining umumiy qoidalar bo'limining 1-moddasida bayon etilgan.

Kimyoviy zaharlanish maydoni – ma'lum o'lchovdagi zaharli moddalar bilan zaharlangan hududlar.

Zararlanish manbai – kimyoviy xavfli inshoot joylashgan hududdagi halokat tufayli odamlarning, o'simliklarning, jonvorlarning zararlanishi.

Ta'sirchanlik – kimyoviy modda xossasi bo'lib, zharlanishga olib kelishi mumkin bo'lgan modda miqdori bilan belgilanadi (kam zaharlanish, kuchli zaharlanish va b.).

Miqdori – miqdor o'lchov birligi, g/m^3 yoki mg/l larda o'lchanadi.

Kimyoviy xavfli inshootlar fuqaro muhofazasi nuqtai nazaridan ma'lum turlarga ajratiladi-miqdori, ta'sir kuchi, saqlash qonun qoidasi va b.

Kimyoviy xavfli korxonalardagi halokatlarning tavsiflanishi.

I-portlash tufayli sodir bo'lgan halokat, texnologik jarayon ishdan chiqqan, muhandislik qurilmalari buzilgan, natijada batamom yoki qisman mahsulot ishlab chiqarish to'xtab qolgan. Katta miqdorda moliyaviy yordam tiklash talab etiladi. Yuqori tashkilotlardan yordam so'rash kerak bo'ladi.

II-halokat natijasida asosiy yoki yordamchi texnologik qurilmalar ishdan chiqqan, ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun ma'lum miqdordagi yordam kerak bo'ladi.

2. Ma'lumki, o'zidan nur tarqatish va odam organizmida «nurlanish» deb nomlanadigan kasallikni vujudga keltirishi mumkin bo'lgan radiatsion materiallar xalq xo'jaligining bir qator sohalarida turli maqsadlar uchun ishlatib kelinmoqda. Bularni saqlash, to'g'ri ishlata bili shva tashlab yuborish, qayta ishlash jarayonlarida texnika xavfsizligiga rioya etilmasa, og'ir oqibatlarga – atrof-muhitning radioaktiv ifloslanishiga, odamlarning, mavjudotlarning halok bo'lishi va o'simliklarning yaroqsiz holga kelishiga olib keladi.

Radiatsiyaviy xavfli inshoot-bu muassasa bo'lib, unda sodir bo'lgan halokat tufayli ommaviy radiatsion zararlanish holati vujudga kelishi mumkin. Bu turdagi xavfli obektlarga fuqaro muhofazasining shayligini ta'minlash uchun Qonunning 2-moddasida bayon etilgandek radiatsion, kimyoviy va biologik vaziyat ustida kuzatish va laboratoriya nazorati olib borish lozim bo'ladi.

Radiatsiyaviy avariya – uskuna nosozligi, hodisalarning xatti-harakatlari (harakatsizligi), tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar tufayli kelib chiqqan, fuqarolarning belgilangan me'yorlaridan ko'proq nurlanish olishiga yoki atrof-muhitning radioaktiv ifloslanishiga boshqaruvning izdan chiqishi. Bu halokatlarning 3 turi ma'lum:

- bir joyda-bunda radiatsiyaviy xavli inshootda yo'l qo'yilgan nosozlik tufayli, radioaktiv xossaga ega bo'lgan moddalar shu inshootdagi uskunalar chegarasida bo'lib, tashqariga chiqmagan;

- mahalliy-bunda radioaktiv xususiyatga ega bo'lgan moddalar miqdori yuqori bo'lib. sanitar himoya hududga tarqalishi mumkin va zarari yuqori bo'ladi. O'z miqdoriga ko'ra shu radiatsion xavfli inshoot uchun belgilangan me'yoriy miqdordan oshiq bo'lib, radioaktivlashgan holatning ta'siri katta hisoblanadi;

- umumiy-radiatsiyaviy xavfli inshootda sodir bo'lgan nosozlik tufayli, halokat katta hududga tarqalishi va odamlardan nurlanishga olib keladi.

Aloqalar sodir bo'lishi mumkin bo'lgan radiatsiyaviy xavfli inshootlarning turlari ko'p-atom stantsiyasi, yadro yoqilg'isi ishlab chiqaruvchi korxona, yadro reaktori bo'lgan ilmiy-tekshirish institutlari va h.k.

Raditsiyaviy xavli inshootdagi halokatlarning tavsiflanishi:

I tur halokat – birinchi xavfsizlik to'sig'ining nosoz holatga kelishi – issiqlik ajratuvchi elementlar qobiqlarining buzilishidir.

II tur halokat – birinchi va ikkinchi xavfsizlik to'sig'ining buzilishi, ya'ni reaktor qobig'ining buzilishi tufayli radioaktiv moddalar tarqalishiga sharoit yaratilishiga aytiladi.

III tur halokat – uchchala xavfsizlik to'sig'ining buzilishi tufayli vujudga keladi. Birinchi va ikkinchi to'siq buzilishi tufayli radioaktiv moddalar reaktorning himoya qobig'i yordamida to'siladi, undan o'tgan moddalar tashqariga chiqib ketib tarqalishi mumkin.

Og'ir sharoit vujudga kelgan chog'da, issiqlik yoki yadro portlash sodir bo'ladi.

3. Hozirgi kunda kimyoviy xavfli inshootlarning asosiylari «O`zbekkimyosanoat» uyushmasiga qarashli korxonalar bo`lib, ular Qo`qor, Samarqand, Buxoro, Navoiy, Chirchiq, Olmaliq va boshqa shaharlarda joylashgan. Bu korxonalardan tashqari kimyoviy zaharli moddalar bilan ishlaydigan boshqa korxonalar ham mavjud - «O`zgo`shtsut», «O`zbeksavdo», «O`zqishloqxo`jalik» mahsulotlari uyushmalari, Bekobod metallurguya korxonasi, Mikond korxonasi, Toshkent lak bo`yoq, to`qmachilik korxonalari, Kommunal xo`jalik vazirligi inshootlari va boshqalar. Hammasi bo`lib respublika hududida 200 dan oshiq kimyoviy xavfli inshootlar bor. Ular ishlab chiqaradigan yoki xalq xo`jaligida turli mahsulotlar ishlab chiqish uchun olib kelinadigan, saqlanadigan suyuq, qattiq, gaz holatidagi inson va hayvon sog`ligi uchun zararli, kuchli ta'sir ko`rsatuvchi moddalar turi ko`p.

Kimyoviy muhofaza – bu KTZM (kuchli ta'sirchan zaharli moddalar) ning aholiga, fuqaro muhofazasi kuchlariga va xalq xo`jaligida turli mahsulotlar ishlab chiqarish uchun olib kelinadigan, saqlanadigan suyuq, qattiq, gaz holatidagi inson, hayvon sog`ligi uchun zararli, kuchli ta'sir ko`rsatuvchi moddalar turi ko`p.

Kimyoviy muhofaza – bu KTZM (kuchli ta'sirchan zaharli moddalar) ning aholiga, fuqaro muhofazasi kuchlariga va xalq xo`jaligi inshootlariga zararli ta'sirini oldini olishga yoki uni imkoni bor darajada kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi.

Radiatsion muhofaza-bu radioaktiv moddalarning aholiga, fuqaro muhofazasi kuchlariga va xalq xo`jaligi inshootlariga zararli ta'sirini oldini olishga yoki uni imkoni bor darajada kamaytirishga qaratilgan tadbirlar majmui. Qonunning asosiy tushunchalariga ta'rif berilgan qismida, radiatsiyaviy xavfsizlik to`g`risida quyidagilar bayon etilgan – bu fuqarolar va atrof muhitning ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta'siridan muhofazalanganlik holati.

Kimyoviy va radiatsiyaviy muhofazaning eng asosiy vazifasi kimyoviy xavf obektlaridagi, radiatsiyaviy xavfli ob'ektlaridagi halokatlar bilan bog`liq favqulodda vaziyatlar oldini olishdan iborat.

Kimyoviy xavfga binoan hamma ma'muriy-hududiy birliklar 3 ta xavflilik darajasiga bo`linadi:

Avariya-halokat – mahsulot tayyorlashga ishlatiladigan mashinalar, jihozlar, texnologik tizimdagi uskunalar majmuasidagi nosozlik, elektr bilan ta'minlashdagi nosozlik, binolar, qurilmadagi nosozliklar tufayli vujudga keladigan voqeaga aytiladi.

Transport turlarini o`zaro to`qnashuvi, korxonadagi texnologik nosozliklar, moddalarni saqlashda yo`l qo`yilgan xatoliklar tufayli sodir bo`ladigan halokatlar natijasida kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar atrof-muhitga tarqalishi mumkin.

Katastrofa – halokat bo`lib, oldingisidan farqli holda halokat qamrovi kengroq va odamlar halok bo`lishiga olib kelgan voqeaga aytiladi.

Poezlar o`zaro to`qnashishi, samalyot halokati, sanoat korxonasida sodir bo`lgan halokatlar tufayli atrof-muhitning yomonlashuvi, insonlar qurboni, talofat darajasining ortib borishi – hammasi bu turdagi halokat turiga xos xususiyatdir.

Hozirgi kunda mutaxassislar tahlil qilib aniqlagan ma'lumotlarga ko`ra kimyoviy xavfli inshootlarda bo`ladigan halokatlar tufayli tez ta'sir etuvchi zaharli

moddalarni atrof-muhitga tarqalishiga bir qator sabablar mavjud. Asosiylari quyidagilar:

- korxonadagi texnologik jihozlardagi nosozliklar;
- uzoq muddat ishlatilgan uskuna-jihozlarning eskirish;
- moddalarni ishlab chiqarishda, saqlashda, topishishda yo'l qo'yilgan xatoliklar tufayli;
- portlash, yong'in sodir bo'lishi, halokatlar tufayli;
- moddalar bilan ishlashda, ularni saqlashdagi texnika xavfsizligi qoidalarining buzilishi tufayli;
- chetdan olib kelingan texnologik jarayon xavfsizlik talablariga to'liq javob bermaydi;
- korxonada mehnat intizomi past, mutaxassis va ishchilarning malakasi etarli emas;
- mahsulot ishlab chiqarishda murakkab texnologik jarayon tizimi qo'llanadi.

Ayrim o'tilgandan farq qiluvchi ayrim sabablar tufayli ham texnogen tusdagi favqulodda vaziyat vujudga kelishi mumkin. Qonunda texnogen ravishda o'zgartirilgan radiatsiyaviy va tabiiy radiatsiyaviy fon qanday mazmunga egaligi va ularni ham e'tiborga olish kerakligi ta'kidlangan.

Zaharli va zararli moddalardan muhofaza qilishni rejalashtirish va tashkil qilish va radiatsiyaviy xavfli inshootlardagi halokatlar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar oldini olishan iborat.

Kimyoviy xavfga ko'ra ma'muriy hududiy birliklar (MHB) 3 ta xavflilik darajasiga bo'linadi:

I daraja – kimyoviy zaharlanish ehtimoli bor oraliqda ma'muriy-hududiy birlikning 50% fuqarosi yashab turgan bo'lsa;

II daraja – kimyoviy zaharlanish ehtimoli bor oraliqda ma'muriy-hududiy birlikning 30 % dan 50% gacha aholisi yashab turgan bo'lsa;

III daraja - kimyoviy zaharlanish ehtimoli bor oraliqda ma'muriy-hududiy birlikning 10% dan 50% gacha aholisi yashab turgan bo'lsa.

Kimyoviy va radiatsiyaviy muhofazaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Favqulodda vaziyatning vujudga kelishini oldindan taxmin qilish va sharoitga baho berish. Buning uchun shu kimyoviy va radiatsiyaviy xavfli inshoot joylashgan hudud to'g'risida aniq ma'lumotga, korxona haqida, moddalarning miqdori, turi, saqlash sharoiti, saqlash joyini aholi yashaydigan joydan qanday oraliqda joylashganligi to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lishlari kerak.

2. KTZM va radioaktiv moddalarni maxsus saqlash joylariga chiqarib tashlash, moddalarning ta'sirini oldini olishga, ta'sirini kamaytirishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish.

3. Fuqarolarni kerakli miqdorda shaxsiy muhofaza vositalari (ShMV) bilan ta'minlashni tashkil etish.

4. Kimyoviy va radiatsiyaviy nazorat va tekshirish ishlarini o'z vaqtida amalga oshirish.

5. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va unga barham berish uchun kerakli kuch va vositalarning doimo shay turishini ta'minlash.

6. Kimyoviy va radiatsiyaviy xavf vujudga kelgan favqulodda vaziyatlarda fuqarolarning qanday vazifa bajarishlari lozimligiga tayyorlab borish.

Kimyoviy va radiatsiyaviy vaziyatni oldindan taxminlash va baholash.

A) vaziyatni oldindan taxminlashga quyidagilar kiradi:

-favqulodda vaziyatning aniq turini bilish;

-vaziyat tafsiloti va ko'lamini aniqlashning ishlovchi usullarini, uskuna-jihozlarini topish;

-fuqaro muhofazasi kuchlarini va aholini o'z vaqtida ogohlantirish;

-talofatlar va moddiy zararlarning oldini olish yoki ularning ta'sir kuchini mumkin bo'lgan darajada kamaytirish yuzasidan kerakli choralarni ko'rish;

-fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarini favqulodda vaziyatlarni yoki ular oqibatlarini yo'qotishga tayyorlab qo'yish.

B) vaziyatni oldindan baholash.

1. Olingan ma'lumotlarni aniqlashtirish.

a)kimyoviy va radiatsion halokatlarning tafsilotini bilish (turi, vaqti, tarqalish mydoni, holati va h.k.);

b) hudud tafsiloti (aholi yashash joyi, uy-joylarning soni, yaqin-uzoqligi, transport yo'llarining bor-yo'qligi va h.k).

-ob-havo sharoiti (yil fasli, kun, ob-havo holat);

-aholiga va hududga kimyoviy va radioaktiv moddalar ta'sir darajasi;

-zaharlangan havo oqimi etib keladigan vaqtni va ular qancha muddat ta'sir ko'rsata olishlarini bilish kerak.

-zaharlangan hudud maydonida qancha odam qolgan, ulardan qanchasi talofat ko'rishini mumkinligi ehtimolini aniqlash;

-maxsus ishlov berishdan o'tkazilishi lozim bo'lgan odamlar, texnika, uskunalar, hududlar miqdorini aniqlash.

Baholashga ko'ra to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish asosida qisqacha xulosalar qilgan holda, qilinishi lozim bo'lgan ishlarni belgilab olish kerak.

Mavzu bo'yicha savollar

1) Kimyoviy xavfli inshootlarga misollar keltiring.

2) O'zbekistondagi radiatsion xavfli ob'ektlar haqida nima bilasizq

7.MAVZU: FUQAROLAR VA OBYEKTЛАRNI TERRORIZMDAN HIMOYALASH.

Reja:

1. zamonaviy qirg'in qurollar haqida qisqacha ma'lumot, ularning turlari, va ta'sir etish omillari.

2. Xalqaro terrorizim va terorchilik harakati, mintaqaviy mojarolar.

3. Terrarezimga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik .

4. Terrarezimga qarshi kurashning strategik ahamiyati.

Xalqaro terrorizim, umuman olganda terrorchilik harakatlari xozirgi davrning eng mudxish ofatlaridan biriga aylanib bormoqda.

Ushbu harakatlar jarayonida qanchadan-qancha begunoh tinch aholi ayollar va bolalar, qariyalar qurbon bo`lmoqda. Bu fojialarning oldini olish, sodir bo`lishiga yo`l qo`ymaslik davlatning, davlat hafsizlik organ;larining va mahsus xizmatlarning asosiy vazifalaridan biridir. Lekin har bir fuqaro, shu jumladan o`quv yurti talabalari, ham terroristik harakatlarning shakil tamoillari, amalgam oshirish usullari to`g`risida tushunchaga ega bo`lsa, shunday ofatlar sodir bo`lishi hafi to`g`ulganda yoki yuz berganda vaziyat va sharoitdan kelib chiqqan holda to`g`ri harakatlanishni bilsa, o`zining va atrofdagilarning hayoti va sog`lig`ini saqlab qolishga hissa qo`shishi mumkin.

Keyingi paytlardagi terrorchilik harakatlarining tez-tez takrorlanayotgan va yana qaytarilishi mumkin bo`lgan shakillari:

Portlovchi qurulma va moslamalar o`rnatilishi yoki qoldirilib ketilishi, shu bilan birgalikda ularni harakatga keltirish usullari xilma-xilligi (joydan qimirlatganda portlaydiganlar, radio orqali masofadan boshqariladiganlar, terrorchining o`zi bilan birgalikda portlaydiganlar va boshqalar):

Talaba va o`quvchilarni garovga olish. Bunday harakatlar o`quv yurti hududida ham, o`quv yurti tashqarisida ham-erskursiya, sayoxat va umumiy saflanish paytlarida ham yuz berishi mumkin. Portlash bilan bog`liq xodisalar to`g`risida talabalar

Nimalarni bilishlari kerak.

-Portlash yuz bergandagi asosiy haflarni-xar tomonga tarqaladigan metal parchalari, portlash zarb to`lqini va qulab tushishi mumkin bo`lgan qurulumalarni;

-portlovchi uskunalar o`rnatilishi mumkin bo`lgan o`quv yurti hududidagi joylar va ularning hafsiz nuqtalari-o`quv yurtiga kirish-chiqish moydonlari, sport va majlis zallari, umumiy saflanish va ovqatlanish joylari:

- portlovchi qurulumalar joylashtirilishi mumkin bo`lgan buyumlar har hil qutilar, sumkalar, chemodonlar, bolalar o`yinchoqlari, sport anjomlari.

Nimalarga ahamiyat berish kerak.

-o`quv yurti hududida begona, shubhali kishilarni paydo bo`lishiga:

-talabalar ko`p tuplanadigan joylarda qarovsiz qoldirilgan sumkalar, qutilar va boshqa buyumlarning paydo bo`lganligiga.

-ovoz chiqish mumkin bo`lmagan buyumlar ichidan chiqayotgan soat chiqillashi va boshqa shubhali ovozlar eshitilishiga:

-hududda mumkin bo`lmagan joyda qarovsiz qoldirilgan avtomobillar va boshqa texnik vositalarning turishiga.

Qanday harakatlanishlari kerak

-portlashni oldini olsh uchun yuqorida sanab o`tilgan, ahamiyat berishlari kerak bo`lgan barcha ma`lumotlarni darxol o`qituvchilarga, rahbaryat yoki ichki ishlar xodimlariga yetkazish:

Portlovchi uskuna o`rnatilganligi aniqlanganda

Binoning ichida –vahima va sarosimaga tushmaslik, olomon bo`lib eshik va boshqa chiqish joylariga urulmaslik, xonaning hafsiz nuqtalari orqali chiqish yo`nalishi tanlab, tartib bilan harakatlanish, yuqori qavat derazalaridan pastga sakramaslik, binolardan chiqib ketishning iloji bo`lmay qolganda hafsiz joy tanlash va yashirtinish, tanlagan joyingiz pastlikda, qattiq va qalin, hamda ag`darilib yoki qulab tushib bosib qolmaydiga tusinlar ortida bo`lishi kerak.

Binodan tashqarida-tezda hafli joydan uzoqlashish (eng kamida 50 m) ga harakat qiling, harakat davomida vahima va tupolon chiqarmaslik choralari ko`ring, agar hafli hududdan uzoqlashish imkoniyati bo`lmasa, hafsiz joyga –har qanday pastlik, ariqlar, qalin va mustahkam tusinlar orqasiga yashirining. Unutmang – ki, portlash tulqiniyo`nalishidagi har qanday tusiq uchib kelayotgan metallparchalaridan va zarb to`lqinidan ma`lum darajada himoya qilishi mumkin. Portlash sodir bo`lgandan keyin o`zingizning holatingizni va vaziyatni to`g`ri baholashga urunib ko`ring. Harakatlanishni imkoni bo`lsa, sharoitga qarab hafsiz joyga chiqishning ilojini qidiring. Qimirlashning iloji bo`lmasa, ortiqcha vahima va sarosimaga tushmasdan sabir bilan yordam kuting, albatta yordam berishadi.

Terrorchilik harakatlarining ikkinchi bir turi talaba va o`qituvchilarni garovga olish – terrorchilik tomonidan amalgam oshirilayotgan usul sifatida tez-tez takrorlanmoqda. Bunday terrorchilik aktini oldini olish, sodir bo`lishga yo`l qo`ymaslik juda qiyin

masala, chunki ular kim tomonidan, qachon, qanday va qayerda amalgam oshiriladi, hech kim bilolmaydi hamda bo`nday voqealar bo`lmaydi deb hech kim kafolat bera olmaydi. Shu sababli o`quv yurti talabalari uchun shunday ofat jarayonida o`zini tutish va hatti -harakatlarining umumiy qoidalarini tavsiya qilish mumkin.

Ular qo`yidagilar:

- terrorchilar bilan iloji boricha muloqat qilmaslik, gaplashmaslik (faqat o`qituvchilar va kattalar orqali);

- boshqalardan ajralib turiladigan harakatlar, xaqorat so`zlar-umuman, terrorchilarning g`ashiga tegadigan, g`azabini kuzatadigan yoki ahamiyatini tortadigan harakatlar va so`zlarga yo`l qo`ymaslik;

- bunday xollarda ishonchli vosita –vaqtini chuzishga harakat qilish, chunki yordam yetib kelishi ma`lum bir vaqt o`tishini talab qiladi. Faqat shuni unutmang! Bu shartni terrorchilar ham biladi!

- sabr va chidam bilan kutish bemor va kichiklarga, hamda qurqoqlarga yordam va dalkda berish, opatish.

Xurmatli talabalar va o`qituvchilar! Biz yuqorida tuxtab o`tgan maslahatlar va tavsiyalar terrorchilik harakatlarining ko`p takrorlanayotgan turlari va ularning umumiy hususiyatlariga xos harakatlanish tartib qoidalarini bilishimizni talab qilishi mumkin.

Xalqoro terrorizim asosan tinchlikka putur yetkazish, qurolli tuqnashuvlarni vujudga keltirish quroli bo`lib xizmat qiladi. Uning deyarli hamma vaqt boshqa hududda tayyorlanishi va amalgam oshirilishi, xorijiy manbalardan mablag` bilan ta`minlanishi terrorizim jinoyatining o`ziga xos jihatini tashkil etadi. Chunonchi,

mamlakatimizda buzg`unchilik harakatlarini amalgam oshirayotgan terrorchilarning rahbaridan biri bo`lmish Toxir Yuldoshev xalqaro terrorist Usama Benladen va Amir xattob bilan o`zaro jinoiy til bitiktirib, O`zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tizimiga qarshi jixod e`lon qildilar. Shu munosabat bilan, xalqaro munosabatlarni chigallashtirish, urush chiqarish uchun ig`vo qilish va O`zbekiston respublikasidagi vaziyatni barqarorlashtirish maqsadida Afg`onistonning ba`zi bir hududlarida O`zbekistondan qochgan jinoiy unsurlardan iborat harbiy uyushmalar tuzdilar.

Terrorizim xalqaro huquqning davlat suverenitetini xurmat qilish, mamlakatning ichki ishlariga aralashmaslik, inson huquqlarini hurmat qilish kabi aossiy prinsiplariga zid harakatlardir. Ushbu prinsiplarga asosan, uning barcha shakillari batamom taqiqlanishi kerak. O`zbekiston Respublikasi davlatlar va ularning vakillari yuritayotgan diplomatic faoliyatni, transport aloqalarini, xalqaro aloqalar va muzokaralar jarayonini buzadigan har qanday terrorchilik harakatlariga uta hafli jinoyat deb qaragan va doimo qarshi bo`lgan.

Amaliyotning kursatishicha, xalqaro terrorizim bilan bir qatorda davlat ichidagi terrorizimning ham xilma-xil turlari mavjud bo`lib, ularning kriminologik nuqtai nazardan, u yuz beradigan ijtimoiy hayot sohasini inobatga olgan holda va kuzlanayotgan maqsadlaridan kelib chiqib, siyosiy davlatga xos, g`arazli, etno-milliy, jinoiy, diniy, funksional va ba`zi bir boshqa turlarni ajratish maqsadga muvofiq.

Biz terrorizimning ushbu turlarini alohida-alohida tavsiflashga tuxtalamiz, ammo ularning har birida qo`rqitish belgisi mavjudligini ta`kidlash lozim. aynan shu bois mazkur tasniflarni terrorchilik hususiyatlariga ega jinoyatchilarning kriminologik guruhlari sifatida ta`riflash mumkin, o`z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsi yoki uning yaqin qarindoshlarini uldirish, milliy yoki irqiy adovat zamirida odam uldirish; odam ug`irlash; genosid; milliy, irqiy yoki diniy adovat kuzatish; O`zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajavuz qilish; quparuvchilik; xokimyat vakili yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko`rsatish; ozadlikdan maxrum qilish jazosini ijro etish muassasalarining ishini izdan chiqaruvchi harakatlar; tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishg aralashish; jinoiy uyushma tashkil etish; ommaviy tartibsizliklar; diniy, ekstremistik, separatistik, aqidaparastlik yoki boshqa ruxdagi tashkilotlarni tuzish, ularga raxbarlik qilish, ularda ishtirok etish, shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish, temir yo`lning harakatlanadigan tarkibini, havo, dengiz yoki daryo kemasini olib qochish yoki egallab olish.

Huquqni qo`llash amaliyotida terrorizimning jinoyat kodeksining 155-moddasida ifodalangan va uning jinoyat-huquqiy tushunchasini tashkil etadigan ta`rifi yagona ta`rifdir. Jinoyat qonunlarida terrorizim va terrorchilik harakatlari ancha jiddiy jazo choralari, xatto ulim jazosi belgilanishi mumkin bo`lgan og`ir va o`ta og`ir jinoyatlar sifatida qaraladi.

Aytish joizki, jinoyat qonuni "terrorizim" tushunchasini birinchi marta JK 155-m 1- qisimdan ifadalab beradi. Bu oldinga tashlangan katta qadam bo`ldi, chunki 1994 yilgach faqat terrorchilik harakati uchungina jinoiy jazo nazarda tutiladi.

Terrorizim xalqaro havsizlikni, davlatlarning suverenitetini va mustahkamligini, hokimyat va davlat organlarining maromida ishlashini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarga tajovus qiladigan ko'p ob'ektlilik jinoyatidir. Ushbu ijtimoiy munosabatlarning har biri muayyan vaziyatda, terrorizimning namoyon bo'lishidagi muayyan holatlarga qarab asosiy bevosita ob'ekt sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, davlat, xalqaro tashkilot, jismoniy yoki yuridik shaxsni terroristlarning sharti bo'lmish biror harakat sodir etishdan o'zini tiyishga majbur etuvchi vosita sifatida odam uldirish, zurovonlik kabilardan foydalanishni inobatga oladigan bo'lsak, terrorizimning qo'shimcha bevosita ob'ektini fuqarolarning hayoti va salomatligi, ularning mulklari tashkil etishi mumkin.

Terrorizim, ob'ektiv tomonidan, davlat, xalqaro tashkilot, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron harakat sodir etishga yoki biron harakat sodir etishdan o'zini tiyishga majburlashga, ya'ni muayyan davlat tuzilmalari yoki muayyan mansabdor shaxslarga yoxud soni noma'lum ko'plab fuqarolarga, shaxar yoki ma'muriy hududiy birliklar aholisiga qonunda belgilangan muayyan maqsadlarga erishish uchun qo'rqitib ta'sir ko'rsatishga qaratilgan faol harakatlar bilan karakterlanadi.

Terrorizim chog'ida a) uldirish bilan qo'rqitish; b) zurlik bilan qo'rqitish; v) mulkni egallab olish yoki ushlab qolish bilan qo'rqitish; g) shaxsni garov sifatida egallab olish yoki ushlab qolish bilan qo'rqitish; d) xorijiy davlatlar yoki xalqaro tashkilotlarning xalqaro himoyadan foydalanayotgan vakolatxonalaridagi xizmat xonalarni yoki ularga tegishli turar joy xonalariga bostirib kirishdan qo'rqitish yoki majburlash vositasi sifatida foydalaniladi.

Terrorizim davlat, xalqaro tashkilot, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron harakatni qilishga yoki qilmaslikka majburlashga qaratilgan real harakatlar amalga oshirilgan paytdan boshlab tugallangan deb hisoblanishi lozim. Bunda yuz bergan oqibatlar hamda terrorchilik talab qilinayotgan harakatlar amalda yuz bergan yoki yuz bermaganligini ahamiyati yo'q.

Sub'ektiv tomondan, terrorizim qasddan sodir etilgan jinoyatdir. Bu o'rinda to'g'ri qasd haqida so'z boradi, chunki aybdor o'zi sodir etayotgan harakatlar tegishli sub'ektlarni o'zi muayyan vositalarni qo'llagan xolda erishmoqchi bo'lgan muayyan harakatlarni sodir etishga o'zini tiyishga majburlashga qaratilgan harakatlar ekanligini anglaydi. Aybdor shaxs ko'zlayotgan: a) xalqaro munosabatlarni chigallashtirish; b) urush chiqarishga ig'vo qilish; v) mamlakatdagi vaziyatni barqarorlashtirishdan iborat maqsadlar ham to'g'ri qasdnin mavjudligidan dalolat beradi. Ushbu maqsadlar majburiy-muqobil xususiyatga ega.

16 yoshga yetgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs terrorizim sub'ekti bo'lishi mumkin.

JK 155-m 2-qismida davlat yoki jamoat arbobi yoki hokimyat vakilining davlat yoki jamoatchilik faoliyati munosabati bilan uning hayotiga suiqasd yoki uning badaniga shikast etkazish sifatida tushuniladigan terrorchilik harakati uchun javobgarlik belgilangan. Bunday faoliyatning terrorchilik harakatiga kiritilishiga sabab shundaki, bu harakatlar ochiq ko'rinib turgan qo'rqitish xususiyatiga ega, chunki ular qonunda aniq belgilangan qo'yidagi muqobil maqsadlarga erishish

uchun amalgam oshiriladi: a)vaziyatni barqarorlashtirish; b)davlat organlarining qarorlar qabul qilishiga ta'sir ko'rsatish; v)siyosiy va boshqa ijtimoiy faoliyatga tusqinlik qilish.

Ob'ektiv tomondan, terrorchilik harakatiga ikki muqobul turning bo'lishi xos. Birinchisi, hayotga qaratilgan har qanday harakatlarda namoyon bo'ladi. Terrorchilik harakatining bu turi, amalda yuz bergan oqibqlardan qat'iy nazar, bevosita harakatlar amalgam oshirilgan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

Terrorchilik harakatining ikkinchi turi har qanday darajadagi badanga shikast yetkazishdan iborat bo'lib, bo'nday oqibatlar yuz bergan paytdan boshlab tugallangan jinoyat deb hisoblanadi.

Qonunda terrorchilik harakati sodir etilishining aniq belgilangan maqsadlari mavjudligi sub'ektiv tomondan faqat to'g'ri qasdning mavjudligidan dalolat beradi.

JK 155-m 3-qismda terrorizimning va terrorchilik harakatining umumiy kvalifikatsiyalovchi xolatlar sifatida: a)inson ulimi yoki; b)boshqa og'ir oqibqlarning yuz berishi nazarda tutilgan.

Binobarin agar terrorizim yoki terrorchilik harakati natijasida odam ulsa, qilmish ushbu norma bilan to'liq qamrab olinadi va jinoyat qonuning boshqa moddalari bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiya qilish talab etilmaydi.

8. MAVZU: FAVQULOTDA VAZIYATLARDA FUQAROLAR VA XALQ XO'JALIGI SOHALARI OBYEKTLARINI HIMOYALASHNING QONUNIY HUQUQIY NEGIZI

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasining huquqiy asoslari.
2. O'zbekiston Respublikasida fuqaro muhofazasining roli va vazifalari.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar mahkamasining fuqaro muhofazasi to'g'risidagi qonun va farmonlari haqida ma'lumot.

Aholini va hududlarni favqulotda vaziyatlardan muhofaza qilishining qonuniy asoslarini O'z. Res. Prezidentining farmonlari. O'z.Res qonunlari, vazifalari mahkamasining qarorlari va favqulotda vaziyatlar vazirligining ko'rsatma va buyruqlari tashkil etadi.

Aholini va hududlarni favqulotda vaziyatlardan muhofaza qilishning mohiyati va asosi. Bizga ma'lumki, XX asrning 60 yillaridan fuqaro muhofazasi tizimi faoliyat ko'rsatib kelgan. Uning asosiy vazifasi tinchlik davrida va urush davrida, urush sharoitida mamakat aholisini yalpi qig'rin qurollari va boshqa hujum vositalaridan himoya qilish, urush sharoitida mamalakat aholisini xalq xo'jaligi obyektlarining barqaroro ishlashini ta'minlash hamda falokat

o'choqlarida qutqarish va tiklash ishlarini o'z vaqtida samarali amalga oshirishdan iborat edi.

Lekin aholi hayotiga faqatgina ommaviy qirg'in qurollari emas, balki boshqa xavf xatarlar ham tahdid solib turadiki, ularni nazardan chetga qochirish also mumkin emas. Ular turli tabiiy ofatlar, avariya, halokatlardir. Sodir bo'lib o'tgan bir nechta halokatlarda (masalan Chernobil atom elektr stansiyasidagi avariya 25000 odamning yostig'ini quritgan, Spitak zilzilasi va boshqalar). Fuqaro muhofazasining o'rni va vazifalariga boshqacha ko'z bilan qarash kerak ekanligini ko'rsatib berdi. Fuqaro mudofaasi qo'shinlari bunday yirik ko'lamdagi ofatlarga qarshi kurashishga tayyor emas ekanligi, fuqaro mudofaasi vazifalari faqatgina harbiy davr chegarasida qolishligi mumkin emasligi, ular oldiga qo'yilgan vazifalar ko'lamini kengaytirish lozimligi ayon bo'lib qoldi. Endilikda fuqaro mudofaasi uchun avariya halokat va tabiiy ofatlarning oqibatlarini tugatish, avariya qutqaruv ishlarini olib borish bilan birga sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulotda vaziyatlarning oldini olish, bunday vaziyatlarni bashorat qilish vazifasi yetakchi rol o'ynashi lozim edi.

1990 – yillarda kelib yadro urushi xavfi kamayadi, biologik qurollardan foydalanish cheklab qo'yildi, yangi-yangi zamonaviy qurol turlari kashf qilindiki, ular odamlar uchun xavfli bo'lmay, balki xalq xo'jaligi obyektlarini ishdan chiqarishga qaratilgan edi. Bular hammasi fuqaro mudofaasi tizimi o'rnida yangi bir tizim tashkil qilishi lozimligini isbotlab berdi.

Statistik ma'lumotlarga nazar tashlasak, 1960 – yillarda yer yuzi aholisining 1,6% (har 62 kishidan biri) tabiiy ofat, avariya, falokatlardan jabrlanganligi, 1990 –yillarga kelib esa bu ko'rsatkich 3,5% (har 29 kishidan biri) ni tashkil etganligini ko'ramiz. Bu esa o'z navbatida yuqoridagi fikrlarni to'g'ri ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Fuqaro mudofaasi o'rnini bo'lishi mumkin bo'lgan yirik ko'lamdagi favqulotda vaziyatlarga avvaldan tayyorgarlikni ta'minlovchi yangi maxsus davlat tizimi egalashi, bu tinchlik hamda urush davrida aholini va hududlarni favqulotda vaziyatlardan muhofaza qilish lozim edi. Bu tizim aholini favqulotda vaziyatlarda muhofaza qilish va qutqaruv ishlarini o'tkazibgina qolmay, boshqa muhim tadbirlarni xavfli hududlarni xaritalashtirish, seysmik mustahkam bino va inshootlarni ko'rish, qisqa, o'rta va uzoq muddatli bashoratlash ishlarini tashkil qilish va aholi tayyorgarligini amalgam oshirishi lozim edi.

Shu o'rinda yana bir masalani oydinlashtirib olishga to'g'ri keladi. Favqulotda vaziyatning o'zi nimaq Undan aholi va hududlarni muhofaza qilish deganda nimani ko'zda tutishimiz lozim

Favqulotda vaziyat - odamlar qurbon bo'lishi, ularning sog'ligi yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishi, jiddiy moddiy talofatlar keltirib chiqarishi hamda odamlar hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishiga mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa yoki boshqa tabiiy ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan vaziyat.

Aholini va hududlarni favqulotda vaziyatalardan muhofaza qilish favqulotda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralari, usullari, vositalari, tizimi, say-harakatlari majmui.

Favqulotda vaziyatlarning oldini olish, oldinda o'tkazilib, favqulotda vaziyatlar ro'y berishi, xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro'y bergan taqdirda esa odamlar sog'lig'ini saqlash, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talofatlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi.

Favqulotda vaziyatlarni bartaraf etish-favqulotda vaziyatlar ro'y berganda o'tkazilib, odamlar hayoti va sog'lig'ini saqlash, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talofatlar miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulotda vaziyatlar ro'y bergan zonalarini olib, xavfli omillar ta'sirini tugatishga qaratilgan avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlar kompleksi.

Aholi va hududlarni favqulotda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida qo'yilgan dadil qadamlardan biri-avval mudofaa vazirligi qoshida fuqaro mudofaasi va favqulotda vaziyatlar boshqarmasining, so'ngra esa, shu boshqarma negizida O'z.R Prezidentining 1996 - yil 4 - martdagi PF -1378 farmoni bilan favqulotda vaziyatlar vazirligining tashkil etilishi bo'ldi.

Farmon bilan favqulotda vaziyatlarni bartaraf etish, aholi hayoti va salomatligini, moddiy va ma'naviy qadriyatlarini muhofaza qilish shuningdek tinchlik va xarbiy davrda favqulotda vaziyatlar vujudga kelganda ularning oqibatlarini tugatish hamda zararlarini kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish vazirlikni asosiy vazifalaridan biri deb belgilanadi.

Aholi va xalq xo'jaligi obektlarini muhofaza etishni taminlashga raxbarlik qilish Respublikada O'z.R bosh vazirining 1 - o'rinbosari favqulotda vaziyatlar vaziriga yuklatildi. Farmonning ushbu bandiga O'z.R. Prezidentining 1998 - yil 11- dekabrda FV 2153 - farmoni bilan o'zgartirish kiritilib O'z.R. aholi va xalq xo'jaligi obektlarini muhofaza etishni ta'minlashga raxbar etib O'z.R. bosh vaziri belgilandi.

Favqulotdda vaziyatlardan muhofaza qilish soxasidagi Uz. R. qonunlari.

Vatanimiz Prezidenti tomonidan olib borilayotgan odilona siyosat tufayli inson manfaati, inson qadriyati eng oldingi o'rindadir. Asosiy qomusimiz bo'lgan O'z.R. konstitutsiyasining asosini ham inson, uning qadr-qimmati salomatligi tashkil etadi. Insonning xayoti yashashga bo'lgan xuquqi konstitutsiya bilan muhofaza qiladi. Asosiy qomusimizda xavfsizlik fuqorolar muhofazasi masalalariga ham o'rin berilgan. O'z.R. Prezidenti konstitutsiyasining 93- moddasida shunday deyiladi: O'z.R.Prezidenti favqulotdda vaziyatlar (real tashqi xalq, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat,epedemiya) yuz bergan taqtirda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashni ko'zlab O'z.R.ning butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulondda holat joriy etadi, qabul qilingan qarorini 3 kun mobaynida O'z. R.Oliy majlisining tastig'iga kiritiladi. Favqulotdda holat joriy etish shartlari va qonun bilan belgilanadi.

Oliy majlisning vakolatlariga O'z R. Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulotda holat joriy etish va uning muddatini uzaytirish,va to'xtatish to'g'risidagi farmonlarni tasdiqlash kiradi. So'ngi

yillarda oily majlis tomonidan yangi asrda aholining xavfsizligini kafolatlovchi fuqarolar mas'ulyati va jamiyat taraqqiyotining huquqiy zamini belgilovchi bir nechta qonunlar qabul qilindi. “Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risidagi”, “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida”, “Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishning oldini olish to'g'risida”, “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida”, “Fuqoro muhofazasi to'g'risida”, “Qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish to'g'risida”, “Radiatsiyon xavfsizlik to'g'risida”, “Terrorizimga qarshi kurash to'g'risida” gi qonunlar shular jumlasidandir. Yuqorida sanab o'tilgan qonunlar ichida 1999 – yil 20 – avgustda qabul qilingan “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarda muhofaza qilish to'g'risida” gi qonun favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi asosiy hujjatlardan biri hisoblaniladi.

Ushbu qonun aholi va hududlarni tabiiy boyliklarni muhofaza qilish, shuningdek favqulotda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish va zararni kamaytirish yuzasidan choralar ishlab chiqadi ham amalga oshiradi;

Aholini va hududlarni favqulotda vaziyatlarda muhofaza qilish sohasida maxsus dasturlar ishlab chiqilishi va ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilishini tashkil etadi;

O'z vakolati doirasi vazirlik va idoralar, korxona, muassasa va tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqorolar uchun bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qilinadi;

Boshqaruv organlarining, aholini va hududlarni muhofaza qilish kuchlari va vositalarning favqulodda vaziyatlar sharoitida harakat qilishga tayyor bo'lishini tashkil etadi,

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuchlari va vositalari boshqaruvni amalga oshiradi, boshqaruv punktlarilari xabar berish va aloqa tizimlarini tuzadi;

Favqulodda vaziyatlar sharoitida avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlar o'tkazilishini tashkil etadi;

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlari bajarilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

Ishlab chiqarish va ijtimoiy ob'yektlar bo'yicha loyihalar va qarorlar yuzasidan davlat ekspertizasi o'tkazilishida ishtirok etadi;

Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

9. MAVZU. YUQUMLI KASALLIKLAR BILAN BOG`LIQ FAVQULODDA VAZIYATLAR.

Reja:

1. Yuqumli kasalliklar haqida ma'lumot ularning kelib chiqish sabablari.
2. Favqulodda vaziyatlar bilan bog`liq yuqumli kasalliklar ularni oldini olish chora tadbirlari.
3. Dezinfiksiya, dezinseksiya va deratizatsiya haqida ma'lumot.
4. Bakterial vositalarni ishlatish usullari.

Yuqumli kasalliklar bilan bog`liq favqulodda vaziyatlar.

Kasallik tug`diruvchi mikroblar (bakteriyalar, viruslar rikketsiyalar, zamburug`lar), ular ajratadigan zaharlar toksinlar va ularni qo`llash vositalari (bombalar, raketalar) bakteriologik qurol deb ataladi. Dushman bu quroldan odamlarni chorva mollarni va o`simliklarni yuqumli kasalliklar bilan kasallantirish uchun foydalanadi. Mikroblar faqat mikroskopda ko`rinadigan, bu hujayra juda mayday organizimlardir. Ular odam organizimiga ko`rsatadigan ta`siriga qarab juda mayday organizimlardir. Ular odam organizimiga ko`rsatadigan ta`siriga qarab bir necha xil bo`ladi. Organizimda yashab unga hech qanday zarar keltirmaydigan mikroblarsapofit mikroblar deyiladi, jumladan odam tanasidagi normal mikroblar vakillari bo`lgan ichak tayoqchasi, protey, enterokokk, stafiakokklar shu guruppga mansub organizimning mikroblar shartli patogen mikroblar deb ataladi. Odam organizimiga tushib unda ko`payadigan va ma`lum darajada organizimga zarar yetkazadigan ya`ni yuqumli kasalliklar keltirib chiqaradigan mikroblar potogen yoki kasallik qo`zg`atuvchi mikroblar deyiladi.

Mikroblar juda mayday mavjudod bo`lgani tufayli ular millimikron bilan o`lchanadi.

Mikroblar tuzilishiga sgakliga va biologic xossalariga ko`ra qo`yidagi guruhlarga: bakteriyalar, viruslar, pikketsiyalar zamburug`lar oddiy mikroblarga bo`linadi.

Bakteriyalar-bir hujayrali organizimlar bo`lib, asosan bo`linish yo`li bilan ko`payadi. Tashqi ko`rinishga qarab 3 ga bo`linadi:

1. Sharsimon bakteriyalar-kokklar. Ular o`z navbatida hujayralarning bir-biriga nisbatan joylashishiga qarab mikrokokklar streptokokklar. Stafilokokklar va boshqalar.

2. Tayoqchalar. Ich terlama va dizenteriya tayoqchalari odatda spora hosil qiluvchi tayoqchalar basillalar, spora hosil qilmaydiganlari bakteriya deb ataladi.

3. Qotirilgan va spiraisimon buralgan bakteriyalar. O`z nomiga yarasha va gruppaga mansub bakteriyalar spiral shaklida bo`ladi.

Bakteriyalar turli kattalikda bo`ladi. Stafilokokk va steptokokklarning diometrik, odatda 0,75 dan 1,25 mk gacha bo`ladi. Bakteriyalarning shakli va yirik maydaligi ularning yosh, o`sayotgan muhitning tarkibiga va temperature va boshqalariga bog`liq. Bakteriyalarning hujayrasi qobiq parda, sitoplazma, yadro xivchinlar yordamida harakat qilinadi. Xivchinlar soni 1 tadan 20-30, hatto 100 ta gacha bo`ladi. Qobig`I butunlay yoki qisman yo`qotgan mikroblar L-simon bakteriyalar deb ataladi. Juda mayday bo`lgan, lekin sun`iy oziq muhitida o`sishi bilan viruslardan farq qiladigan mikroblar mikoplazmalar deb ataladi.

Bakteriyalardan zaharlanish o`chog` deganda odamlarda kasallik keltirib chiqadigan bakteriyal aepozollar bilan zaharlanish territoriyasi tushuniladi. Bu joyda qolgan odamlarning hammasi kasal bo`lgan-bo`lmaganligidan qat`iy nazar zaharlangan hisoblanadi. O`choq chegaralarini dastlab kuzatish postlari va tibbiy xizmati aerezollar o`choq chegaralarini dastlabki bakteriyali bombalar, raketalar,

snariyadlarning portlashiga qarab aniqlaydi, bakteriyalardan zaharlanish o`chog`i hosil bo`lgan taqdirda tezda uni yuqotish tadbirlari ko`riladi. Agar eng xavfli yuqumli kasalliklar tarqatuvchi yuqumli kasalliklar mikroblari bo`lsa observatsiya e`lon qilinadi. Bundan o`choqqa kirish chiqish va buyumlarni olib chiqish kamaytiriladi. Faqat dizenfeksiyadan keyingi epidimiolog ruxsati bilan ish ko`riladi.

Bakteriologik kuzatuv va bakteriologik vositalarni zararsizlantirish.

Bakteriologik kuzatuv, kuzatuvpostlari va fuqaro muhofazasi nibbiy xizmati tomonidan o`tkazilgan. Bakteriologik qurollar portlaganda, odatdagi qurollar portlaganda sekin ovoz chiqadi. Dushman bakteriologik vositalarni ishlatganligi va zaharlanish chegaralari hujum vaqtidagi ba`zi bir belgilarga qarab aniqlanadi. Bu belgilar quyidagilardan iborat; havo bug`, tuman va changdan iborat yengil bulut hosil bo`ldi, uchub o`tayotgan samaliyot, vertaliyot va raketa orasida asta-sekin chiqib tarqaluvchi qora yo`l hosil bo`ladi, qurollar portlagan joylarda zaharlovchi moddalar va radiaktiv modda bo`lganligi (kimyoviy kuzatuv va dozimetrik asboblar ko`rsatishga binoan) juda ko`p miqdorda hashoratlar, kanalar va kemiruvchilar to`planishi bakteriologik vositalar ishlatilganligidan dalolat beradi. Dushman ishlatgan kasal qo`zg`atuvchi mekroblarning turini zararsizlantirish uchun tashqi muhit ob`ektrlaridan namuna olinadi. Havo bakteriya tutuvchi asbob yordamida yig`iladi. Tuproq o`simliklari, suv va oziq-ovqatdan polietilen xaltachalarga namuna olinib, og`zi mahkam berkitiladi. Tashqi tomondan dezenfeksiya qilinadi. Sanitariya-epidemiologiya nazorati xizmatining bakteriologik laboratoriyalarida bakteriologik vositalar aniq tekshiriladi, ya`ni mikroskopik va sepologik tekshirishlar va oziq muhitlariga ekish va hayvonlarda tekshirib ko`rish natijasida dushman qaysi mekrobni ishlatganligi aniqlanadi.

Mekroblar hayot faoliyati jarayonida juda kuchli zahar-toksin ajratadi. Botulism tayoqchasi ayniqsa zaharli hisoblanadi. Mekrob faoliyati tufayli atrofdagi muhitga ajraladigan toksinlar ekzotoksin deb ataladi. Formalin yoki issiqlik ta`sirida zararsizlantirilgan toksinlar anatoksin deb ataladi. Ular ba`zi kasalliklar uchun (ko`kshol, bug`ma, botulism) ni oldini olishda emlash uchun ishlatiladi. Mikroblar oddiy bo`linish yo`li bilan har 10-30 minutda ko`payadi. Suvda va oziq-ovqat moddalarida turg`un bo`lib, havoda quyosh nurlari ta`sirida tezda nobud bo`ladi.

Bakteriofag. Ba`zi hayot faoliyati jarayonida ularning o`zini eritib yuboriladigan maxsus agent paydo bo`ladi. U bakteriofag yoki bakteriyalarni yashovchi deb ataladi. Bakteriofag tuzilishi va tabiatiga ko`ra verus hisoblanadi. Ba`zi yuqumli kasalliklar profilaktikasida qo`llaniladi. Viruslar organizimga tushganda ular ta`sirida organizim hujayralarida paydo bo`ladigan va virusning ko`payishiga tusqinlik qiladigan modda interferon deb ataladi. Hozirgi vaqtda interferon ba`zi virus kasalliklari profilaktikasida va davolashda ishlatiladi.

Bakteriyali vositalarni ishlatish usullari.

Bakteriyali vositalar (BV), ya`ni harxil mikrob reseoturalari suyuq yoki quritilgan juda mayday paroshok bulib, ularni havoda va joylarda purkash mumkin. Bunda havoda muallaq tarqalgan juda mayday zarrachalardan iborat

aerozolli bulut hosil bo`ladi. Bakteriyali vositalarni muljalga yetkazish uchun bombalar, snaryadlar, portlovchi raketalar, ampulalar, paketlar, qoplar, qutilar har xil masofagacha uchib bora oladigan raketalat xilma-xil tukish aviyatsiya asboblari, samaliyot, vertaliyotlarga joylashtirilgan bakteriyali aerezollar solingan generatorlar va boshqalar ishlatiladi. Bakteriyali vositali shamollashning tezligiga qarab bir necha 10 km masofaga tarqalishi mumkin. Bundan tashqari, ular hashoratlar, kanalar va kemiruvchilar yordamida ham tarqaladi.

Bakteriyali vositalarning zararli ta`siri juda xavflidir, chunki aholi o`rtasida chuma vabo, chin chechak, sariq isitmaga o`xshash o`ta xavfli kasalliklar tarqalishi mumkin.

Bakteriyali vositalar o`ziga xos husysiyati bakteriyali aerezollarning katta teritorialarga tarqala olishi, xonalar va yashirin joylarga havo bilan kira olishi, juda kam mikroob dozalari kasallik to`g`dira olishdan iborat, bundan tashqari ko`p mikroblar juda beqaror bo`lib, uzoq vaqtgacha yuqumli kasalliklar tarqalishi manbaibo`lishi mumkin. Bakteriyali vositalarni tashqi muhitda payqab bo`lmasligi ham xavf to`g`diradi. Ularni laboratoriya va maxsus asboblari yordamida aniqlab olish mumkin. Mikroblar organizimga tushganda keyingina kasallik belgilari namoyon bo`ladi. Yuqumli kasalliklar kasal odamdan sog`lom odamlarga o`tishi natijasida kasallik ko`p joyga tarqalib epidemiya paydo bo`ladi.

Rikketsiyalar-shakli va kattaligi bilan bakteriyalargga yaqin tursa ham, organizmdagi muayyan hujayralar ichida yashashi va ko`payishi bilan ulardan farq qiladi. Hozirgi vaqtda rikketsiyalarning 32 tadan ortiq turi ma`lum bo`lib, ulardan 11 tasi pothogin hisoblanadi, toshma, terlama, kulixoradkasi, qoya tog`- toshlar lixoradkasi keltirib chiqaradigan rikketsiyalar ma`lum. Bu mikroblar kuzatadigan kasalliklar rikketsioz deb ataladi.

Viruslar- faqat elektron mikroskopda ko`rinadigan, tuzilishi va biologik hususiyatlariga ko`ra boshqa mikro organizmlardan farq qiladigan nihoyatda mayda mikroblardir. Viruslar hujayra ichi parazitlari hisoblanadi, ular faqat irik to`qimalarda o`sadi. Chinchechak, qizamiq, gripp, poliometit, quturish, insefalitlar sariq lixoradka va boshqa ko`pgina yuqumli kasalliklarni viruslar kuzatadi. Antibiotic va sulfanilamide preporatlari virusga ta`sir qilmaydi.

Spiroxitalar- harakatchan mikroorganizmlarga kiradi. Ularning shakli uzun, ingichka, parmasimon buralgan mikroblardir. Uzunligi 7 mk gacha. Ularning tanasi elastic bo`lganligi sababli buralib harakat qiladi. zaxm kuzatuvchisi-rangsiz spiroxita shu gruppami mikroblarining tipik vakili hisoblanadi.

Zamburug`lar-xlorofilli yo`qotgan tuban o`simlikdan bo`lib 70 ming dan ortiq turi ma`lum. Ular sanoatda vino, pivo tayorlashda, non pishirishda va xalq xo`jaligining boshqa sohalarida ko`p ishlatiladi. Zamburug`lar 5- sinfga bo`inadi. Ko`pgina antibiotiklar zamburug`lardan olinadi. Masalan: ko`p ishlatiladigan pinsilin antibioti mog`or zamburug`idan olinadi. zamburug`lar kandidos kabi teri kasalliklarni kuzatadi.

Oddiy mikroblar-bir hujayralari mayday turli shakldagi organizmlar. Xozir ularning 15 mingdan ortiq turi ma`lum bo`lib, ular ko`pchiligi turli kasalliklar kuzatadi. Dizenteriya omyobasi, bezgak plazmadiyalari, lyambliyalar va

boshqalar shu guruhga kiradi. Ular bezgak omyobali dizenteriya lismoniyos va boshqa kasalliklarni keltirib chiqaradi.

Boshqa barcha tirik organizmlar kabi mikrobar ham to'xtovsiz ravishda rtivojlanadi va ko'payadi.har xil sinflarga mansub mikroblar turli usullar bilan ko'payadi. Bakteriyalar asosan ko'ndalang bo'linib ko'payadi.

Yashash erkin kisloroddan foydalanadigan mikroblar *aeroblar* deb ataladi. Boshqa grupp mikroblari esa kislorodsiz muhitda yashaydi. Ular *anayepoblar* deyiladi. Bazi potogen mikroblar tashqaridan ma'lum ta'sir o'tkazib ularning kasalik qo'zg'atish xususiyatlari kuchsizlantirish yoki butunlay yo'qotish lekin antigenlik immunitet qo'zg'atish xususiyatini saqlab qolishi mumkin. Shu usul bilan tayorlangan preparatlar *vaksina* deb ataladi. Vaksina odam organizmiga yuborilganda yuqumli kasalik paydo bo'lmaydi lekin immunitet hosil bo'ladi.

Mavzu – 10. Yuqumli kasalliklarning aholiorasida tarqalishi. Epidimologiyasi.

O'ta xavfli yuqumli kasalliklar haqida tushuncha..

Reja:

- 1.Yuqumli kasalliklar haqida tushuncha.
- 2.Epidemiologik kasalliklarni vujudga kelishi va tarqalishi.
- 3.Bolalar induksiylari haqida ma'lumot.
4. Immunitet va uning turlari.
5. o'lat va vabo haqida tushuncha berish

Patogen mokoorganizmlar qo'zg'atadigan, sog'lom odamlarga bemorlardan yoki kasal hayvonlardan yuqadigan va odamlar orasiga yoppasiga tarqaladigan kasalliklar *yuqumli (infekzion) kasalliklar* deb ataladi. Bunday kasalliklar hanuzgacha ko'p uchraydi. Yer yuzida har yili 1 milliarddan ortiq odam turli yuqumli kasalliklar bilan kasallanadi.

Epidemiologiya asoslari.

Epidemiologiya yuqumli kasalliklarning kelib chiqishi, odamlar orasida tarqalishi va yo'qolishi qonuniyatlarini o'rganadigan hamda ularning profelaktikasi va butunlay tugatilishi metodlari to'g'risidagi fandir. Yuqumli kasalliklarning kollektiv orasida tarqalishi murakkab bo'lib, u *epidemic prossess* deb ataladi. Epidemic prossesning qanday kechishi, birinchidan mikroorganizm (odam organizmi) va mikroblarning xususiyatiga bog'liq bo'lsa, ikkinchidan sotsial; faktorlar: aholining turmush darajasi, zichligi, ma'daniyati, ovqatlanish va suv bilan ta'minlanish xarakteri, kasbi va boshqalarga bog'liq. Epidemic protses ro'y berishi uchun quyidagi 3 zveno: 1) infeksiya manbaii 2) kasallik qo'zg'atuvchilarning tarqalish imkoniyati; 3) kasallikka moyil kolliktev mavjut bo'lishi shart. Ular tashqi muhitning ma'lum sharoitidagina o'zaro duch keladi.

Kasallik mikroblari tabiiy yo'l bilan ko'payadigan organizm (odam yoki hayvon organizmi) *infeksiya manbaii* hisoblanadi. Ko'pgina yuqumli kasalliklarda bemor odam infeksiya manbaidir. Mikroblar bemor organizmidan turli yo'llar

bilan ajraladi. Ularning qay yo'sinda ajralishi kasallik protsessida asosan organizmning qaysi joyi jarohatlanishiga bog'liq. Jumladan yuqumli oshqozon-ichak kasalliklarida mikroblar asosan najas bilan ajraladi. Yuqori nafas yo'llari infeksiyalarida qo'zg'atuvchilar bemor aksirganda va yo'talganda, so'lak va tufuk tomchilari bilan chiqadi va hokazo.

Kasallikning turiga qarab, mikroblarning tashqi muhitga tarqalishi turli davrlarda har xil bo'ladi. Chin chechak, qizamiq, quturish kabi kasalliklarning yashirin (hali kasallik belgilari paydo bo'lmagan) davrida mikroblar tashqariga ko'plab ajraladi. Aksari o'tkir yuqumli kasallik bilan og'rikan bemorlarda kasallik zo'raygan davrda qo'zg'atuvchilar ko'plab ajraladi. Ba'zi yuqumli kasalliklarda (ich terlama, paratif, dezinteriya va boshqalarda) tuzalish davri-rekonvalesensiyada ham mikroblar intensiv ajraladi. Ayrim hollarda esa bemor kasallikdan tuzalib ketganidan keyin ham ma'lum vaqtgacha infeksiya ajratib turishi mumkin. Bunday odamlar *bakteriya tashuvchilar* deyiladi. Agar bakteriya tashuvchilik 3 oydan kam muddatda to'xtasa-o'tkir *bakteriya tashuvchi*, 3 oy muddatdan ortiq davom etsa- *surunkali bakteriya tashuvchi* deyiladi.

Bundan tashqari sog'lom bakteriya tashuvchilar ham bo'ladi. Ularda kasallik shuncha yengil o'tadiki, hech qanday belgilar bilan namoyon bo'lmaydi. Bunday odamlar o'zi sezmaganda holda bakteriya ajratadi.

Epidemiologik, ya'ni kasalliklarni tarqatish nuqtaiy nazaridan bakteriya tashuvchilar, kasallik belgilari yaqqol ifodalangan bemorlarga nisbatan xavflidir. Chunki ular o'zini sog'lom hisoblab, boshqalar bilan muomalada bo'ladi, kasallik tarqatadi.

Ayrim turdagi hayvonlar asosiy infeksiya manbai hisoblanadigan va ulardan odamga yuqadigan kasalliklar zoonozlar deb ataladi.

Brusellyoz, toun, kuydirgi, oqsim, manqa va boshqalar shular gruppasiga kiradi. Kasallik kasal hayvonlardan odamga turli yo'llar bilan: 1) bevosita kasal hayvon tishlaganda, ining go'shtini nimtalaganda; 2) kasal hayvon mahsulotlari (go'sht, sutini) iste'mol qilganda; 3) hayvon xomashyolari: terisi, juni orqali yuqishi mumkin.

Tarqalish mexanizmi. Mikroblar infeksiya manbaidan ajralib, tashqariga chiqqanidan so'ng nobut bo'lishi yoki uzoq vaqt saqlanishi mumkin. Manashu davrda ularda ta'sir etish va qirish oson bo'ladi. Ular ko'pincha quyosh nuri, yorug'lik, quritish ta'sirida nobut bo'ladi. Gripp, meningokokk infeksiyasi va so'zak qo'zg'atuvchilari tashqi muhitda bir necha minut ichida nobut bo'ladi. Ba'zi mikroblar esa tashqi muhitda hayot faoliyatini uzoq saqlab turadi. Masalan kuydirgi, qoqshol va botulizm tayoqchalari tashqi muhitda spora aylanib, tuproqda bir necha yillar saqlanishi mumkin.

Bemor organizmidan ajralishiga va tashqi muhitda saqlanish xususiyatiga qarab, kasallik mikroblari sog'lom odamga turli yo'llar bilan yuqadi.

Havo- tomchi orqali tarqalishi. Qizamiq, ko'kyutal, gripp, chechak, bo'g'ma, qizilcha va boshqalar shu yo'l bilan tarqaladi. Bunda bemorning nafas yo'llari bilan ajralgan havo va tufuk tarkibidagi mikroblar tomchi holida tashqariga tarqaladi. Yirik tomchilar og'irligi tufayli tez cho'kib, uzoqqa tarqalmaydi. Sog'lom odam nafas olayotganda havo bilan birga undagi mikroblar

ham burun va nafas yo'llariga tushadi. Shunday qilib kasallik yuqadi. Tashqi muhitda turg'un bo'lgan bo'g'ma, chechak mikroblari, streptokokklar chang orqali tarqalib ham nafas yo'llariga tushishi mumkin.

Kontakt yo'li Kontakt bevosita va bilvosita bo'ladi. Quturish zahm va so'zak kasalliklari bevosita kontakt yo'li bilan yuqadi. Shunday yo'l bilan ba'zi nafas infeksiyalari- bo'g'ma qizilcha bemor sog'lom odamni o'pkanida yuqishi mumkin. Qo'zg'tuvchilari tashqi muhitda turg'un bo'lgan ko'pkina kasalliklar bilvosita kontakt yo'li bilan yuqadi. Bunda turli idish tovoq, o'yinchoqlar, sochiq, dastro'mol, kiyim kechak mikroblar tarqatuvchi faktor hisoblanadi. Ichak infeksiyalari: ich terlama dezinteriya, salmonelyoz, vabo va boshqa kasalliklarning tarqalishida bu faktorlar muhim rol o'ynaydi. Ular vositasida mikroblar sog'lom odam organizmiga og'iz orqali tushadi.

Oziq-ovqat bilan yuqishi Yuqorida aytib o'tilgan ichak infeksiyalari, shuningdek bruselyoz va oqsim kasalliklari anashu yo'l bilan yuqadi. Bu mikroblarning bilvosita kontakt yo'li bilan tarqalishining bir turi bo'lib, alimantal yo'l deb ham ataladi. Oziq-ovqatning mikroblar bilan zararlanishi turlicha ro'y beradi. Kasallik hayvon go'shti yaxshilab pishirmasdan istemol qilinganda bruselyoz, kuydirgi, salmonelyoz va boshqa kasalliklar yuqadi. Oziq-ovqat mahsulotlarini tashish yoki pishirishda bemor odam ishtirok etsa, yoki zararlangan idish-tovoq ishlatilsa ham ularga mikroblar tushib qoladi. Ko'pchilik istemol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlari (sut, muzqaymoq, krem, go'sht va boshqalar) ga mikroblar tushib qolishi birdaniga ko'pchilikning kasallanishiga sabab bo'ladi.

Suv orqali tarqalishi ham ichak infeksiyalari va tulyaremiya uchraydi. Suvda zararli mikroblar turli yo'l bilan tushishi mumkin. Yomg'ir suvlari tuproqdagi turli chiqindilar va mikroblarni yuvib ariq, anhorlarga qo'shilishi mumkin. Oqar suvga bevosita turli chiqindilar, yuvindi suvlar, shuningdek, turli korxonalar, ayniqsa kasalxonalarining oqava suvning qo'shilishi natijasida ham mikroblar ko'payib ketadi. Zararlangan suvni ko'pchilik iste'mol qilishi suv epidemiyasini keltirib chiqaradi.

Ko'pkina yuqumli kasalliklar qon so'ruvchi hasharotlar vositasida yuqadi. Kasallikning bunday tarqalishi *transmissiya* deb ataladi. Turli chivin, iskabtopar (moskit) kanalar, bezgak, qaytalama tif, rikkitsiozlarni bemordan sog'lom odamga yuqtiradi.

Epidemik prosessning uchinchi zvenosi aholining *kasallanishga moyilligi* hisoblanadi. Odamlarning turli yuqumli kasalliklarga nisbatan sezgirligi tulicha bo'ladi. Chin chechak, qizamiq, gripp va boshqa kasalliklar bilan katta-kichik hamma og'rishi mumkin. Boshqa kasalliklarga (bo'g'ma, tif, paratif kasalliklari ham hokazolarga) nisbatan odam organizmi uncha sezgir bo'lmaydi. Sotsial sharoit, aholining yoshi, madaniyati, ovqatlanish xarakteri, immunitet yuqumli kasalliklarning odamlar orasida tarqalishiga ta'sir ko'rsatadi. Yuqumli kasalliklarga qarshi kurashda epidemik prosessning uchala zvenosiga ta'sir ko'rsatish kerak. Infeksiya manba'i mikroblarni boshqalarga tarqatmasligi uchun ko'pkina yuqumli kasalliklarda bemor darhol maxsus kasalxonaga yotqiziladi. Bunda uni iloji boricha ertaroq kasalxonaga jo'natishga harakat qilinadi. Yuqumli kasalliklarning

tarqatish yo'li (2-zveno) ta'sir ko'rsatish uchun asosan dezenfeksiya tadbirlari amalga oshiriladi.

Aholining yuqumli kasalliklarga moyilligi (3-zvenoni) kamaytirish maqsadida aholi emlanadi va kollektiv immunitet hosil qilinadi.

Yuqumli kasalliklar konkret sharoitda yoki oz uchrashiga qarab, ular turli epidemiologik iboralar bilan ifodalanadi. Kasallik ma'lum joyda alohida kasallanish shaklida bir necha yil davomida bir darajada saqlanib tursa, *sporadik kasallanish* deb ataladi. Shu joyda kasallanishning bir necha marta ko'payib ketishi yoki ilgari uchramagan yangi kasallik bilan ko'p odamlarning birdaniga kasallanishi *epidemiya* deb ataladi. Bir necha tuman, mamlakat va hatto qita'larga juda ko'p tarqaladigan epidemiya *pandemiya* deyiladi.

Yovvoyi hayvonlar va qushlar orasida kasallik qo'zg'atuvchilarning tabiiy iqlim sharoitida uchraydigan kasalliklar *tabiiy manbali kasalliklar* deb ataladi.

Klinikasi. Kasallikning inkubatsion davri II kundan 21 kungacha (o'rtahisobda 14 kun) davom etadi. Kasallikning yashirin davri kam kuzatiladi. Bemor o'zini lohas sezadi, isitma subreflir bo'ladi, ba'zan qizamiq yoki skarlatinaga o'xshash toshmalar toshadi. Chin suvchechakda toshma yuzda, boshning sochli qismlarida, badanda, barmoqlarda paydo bo'ladi. Toshmalar dastlab pushti rang shaklida bo'ladi, keyin tezda papulalarga, undan keyin esa ichida tiniq suyuqlik bo'lgan geperemiya bilan keskin chegaralangan pufakchalarga aylanadi. Pufakchalar 1-2 kundan so'ng qurib qora qo'tir po'st bog'laydi va 1-3 haftadan keyin tushin ketadi. Suvchechak toshmali birin-ketin 4-5 kun davomida toshadi.

Ba'zan toshmalar og'iz bo'shlig'idagi shilliq qavatlarda, halqumda, jinsiy a'zolarida paydo bo'ladi.

Kasallikning yengil turlaridan toshmalar butun tananing u yer bu yeridagina uchrab, intoksikatsiya belgilari aniqlanmaydi. Kasallikning og'ir turlarida esa toshmalar ko'plab toshadi, isitma ko'tariladi, intoksikatsiya belgilari yuzaga chiqadi.

Davosi. Gigiyenaga rioya qilish zarur. Bunda infeksiyadan ikkilamchi shikastlanishining ahamiyati katta. Toshma pufakchalariga 1% li brilliant yashil yoki margansovka (to'q rangda) tavsiya etiladi. Yiringli asoratlar rivojlanganda antibiotiklar va sulfanilamidlar qo'llanadi.

Profilaktikasi. Sanitariya chora tadbirlar qo'llanadi. Bemor uy sharoitida toshma toshgandan keyin 5 kun ichida alohida yotqizilishi kerak. Dezenfeksiya qilish talab qilinadi. Kasal bilan aloqada bo'lgan va ilgari suvchechak bilan og'rimagan bolalar II kundan 21 kunga qadar ajratib qo'yiladi.

Immunitet

Organizmning ichki muhitini turli mikroblar va begona agentlar ta'siridan himoya qilishga qaratilgan vositalar majmuasi *immunitet* deb ataladi. Immunitetni immunologiya fani o'rganadi.

Himoya vositalarini ta'sir mexanizmi turlicha. Ulardan ba'zilar mikroblarning o'sishi va ko'payishiga mone'lik qilsa, boshqalari mikroblar ishlab chiqargan toksin (zaharli moddalarni) neytrallaydi. Immunitet shakllanishiga turli to'qima va organlar ishtirok etadi. Hozir qo'llanadigan klassifikatsiya muvofiq immunitet 2 xil bo'ladi.

1. Tabiiy-tug'ma yoki turga mansub immunitet.

2. Orttirilgan spisefik immunitet.

Ta'sir mexanizmiga ko'ra, mikroblarga qarshi va toksinga qarshi immunitet bo'ladi. *Biror tirik mavjudotga xos biologik xususiyatlar bilan bog'liq bo'lgan va evalyutsiya protsessida orttirilgan kasalliklar yuqtirmaslik holati tabiiy, ya'ni tug'ma immunitet* deyiladi. Boshqa morfologik va fiziologik xususiyatlarga o'xshab, bu xususiyat ham nasldan- naslga o'tadi. Ma'lum turdagi organizmlarda kasallik qo'zg'atadigan mikroblarga nisbatan boshqa turdagi organizmlarning turg'unligi, tug'ma immunitet bilan bog'liq. Masalan odamga it va qoramol o'lati yuqmaydi. O'z navbatida hayvonlarga meningit, qizamiq, ich terlama yuqmaydi.

Tabiiy immunitet spisefik emas. Vitaminlar yetishmasligi, sovqotish, toliqish ta'sirida u susayadi.

Organizmning individual rivojlanishi bilan birga uning butun hayoti mobaynida shakllanadigan immunitet orttirildan immunitet deyiladi. Orttirilgan immunitet doim spisefik bo'ladi. Masalan bo'g'ma bilan og'rib tuzalgan bemorning qon zardobi faqat bo'g'ma mikrobi toksinlarni neytrallaydi, boshqa mikroblar toksinlarga ega ta'sir qilmaydi.

Yuqumli kasalliklarni boshdan kechirgandan so'ng hosil bo'ladigan immunitet ta'biy orttirilgan, ya'ni infeksiyadan keyingi immunitet deb ataladi. Organizmga tirik yoki o'ldirilgan mikroblar (vaksina) lar yoki ularning mahsulotlarini yuborish yo'li bilan hosil qilinadigan immunitet suniy orttirilgan yoki emlashda so'ngi immunitet deyiladi. Tabiiy orttirilgan immunitet uzoq muddat, ba'zan o'n yillab, hatto umr bo'yi saqlanishi mumkin. (masalan qizamiq, chinchakdan so'ng). Suniy orttirilgan immunitet qisqaroq muddatda saqlanadi. Chinchak va bo'g'maga qarshi emlashdan so'ng 1-2 yilgacha saqlanadi.

Suniy orttirilgan immunitet o'z navbatida aktiv va passiv bo'lishi mumkin. Organizmga vaktsina (anatoksin) yuborib hosil qilinadigan immunitet aktiv immunitet hisoblanadi. Bunda yuborilgan antigen (vaktsina yoki anatoksin) ta'sirida organizmning himoya sistemalarida aktiv o'zgarishlar ro'y berib, antigenga qarshi moddalar- antitelo yoki antitoksinlar hosil bo'ladi. Natijada ma'lum kasallikka qarshi emlangan odamga shu kasallik yuqmaydi. Agar emlangan odamlarning yoki hayvonlarning qon zardobini olib, boshqa odamga yuborilsa unda ham shu kasallikka nisbatan yuqtirmaslik paydo bo'ladi. Bunda odam organizmi tayyor himoya moddalarini oladi. Shu sababli bunday yo'l bilan orttirilgan immunitet *passiv immunitet* deb ataladi. U qisqa bo'ladi va 3-4 haftaga yetadi. Onadan bolaga o'tadigan immunitet ham passiv bo'ladi. Odatda vaktsina va antitoksinlar aktiv immunitet hosil qilish uchun profelaktika maqsadida emlash uchun qo'llaniladi. Qon zardoblari asosan davolash maqsadida ishlatiladi.

Immunitetning mexanizmi va omillari turlicha. Ularga quyidagilar:

1. teri va shiliq qavatlarining himoya xususiyatlari.

2. Organizm normal mikroflorasining himoyaxususiyatlari.
 3. Yallig'lanish va fagositoz.
 4. Limfa to'qimasining baryer funksiyasi.
5. Immunitetning gumoral faktorlari (antitelolar, kompliment, qonning bakterisidlik xususiyati va boshqalar.
6. Hujayra va to'qimalarning reaktivligi kiradi.
- Yuqorida aytib o'tilgan faktorlarning o'zaro mutanosib bo'lishi natijasida immunitet shakllanadi.

Yuqumli kasalliklarga diagnoz qo'yishda immunitet reaksiyalaridan keyin foydalaniladi. Antigen va antitelolarning spesifikligi va o'zaro ta'sir reaksiyalari hisoblanadi. Immunitet reaksiyalariga asoslanib, yuqumli kasallik protsessida organizmning himoya kuchlari qanday o'zgarib borishini kuzatish mumkin. Agglyutinatsiya, presipitatsiya, toksin, neytralizatsiya, kompliment bog'lash reaksiyasi va boshqalar immunitet reaksiya hisoblanadi.

TOUN (O'LAT)

Toun – kuchli umumiy intoksikatsiya, limfa tugunlari, o'pka va boshqa organlarning spetsifik jarohatlanishi bilan kechadigan o'tkir yuqumli kasallik. Kasallik og'ir kechishi, o'lim hollari ko'p uchraydi, keng tarqalishga moyilligi tufayli toun o'ta xavfli infeksiyalar guruhiga kiradi.

Bu kasallikni toun tayoqchasi qo'zg'atadi. U tuxum shaklini eslatadi. Bo'yalganda qutblari yaxshi bo'yaladi. Tashqi muhitda uzoq saqlanadi, past harorat va muzlatishga chidamli.

Epidemiologiyasi. Tabiatda yovvoyi kemiruvchilar: yumronqoziq, sug'ur, sichqonlar, port shaharlarida kalamushlar infeksiya manbai hisoblanadi. Odamga kasallik aloqa yo'li bilan yoki burga vositasida kemiruvchilardan yuqadi. Bemor odamdan sog'lom odamga bubondan ajralgan yiring vositasida yoki nafas yo'llari orqali (o'pka tounida) yuqadi. Odamda toun kasalligi qayd qilinganda, darhol sog'liqni saqlash organlariga ma'lum qilinadi. Bitta odam kasallansa ham karantin joriy etiladi.

Klinikasi. Kasallikning inkubatsion davri bir necha soatdan 10 kungacha, o'rta hisobda 3-6 kun. Kasallikning bubonli, o'pka va septik turlari ma'lum. Keyingi ikki formasi birlamchi va ikkilamchi bo'lishi mumkin. Hamma turlarida kasallik to'satdan gavda haroratining 38-39° va undan yuqori ko'tarilishi, qattiq titrash, bosh og'rishi, alahlash, qusish bilan boshlanadi. Tounning bubonli turida limfa tugunlari kattalashib, bubon hosil qiladi. Keyinroq chov bezlarining buboni kuzatiladi. Bubon 4-5 kundan so'ng yumshab teshiladi va yiring ajralib turadi. Tounning o'pka formasi juda og'ir kechadi. U qattiq yo'tal, ko'krakdagi og'riq, gavda haroratining juda yuqori (41° gacha) bo'lishi, balg'am ajralishi bilan xarakterlanadi. Kasallikning septik turi organizmning kuchli umumiy intoksikatsiyasi bilan namoyon bo'ladigan juda og'ir formasidir. Bemor alahlaydi, harorati juda yuqori bo'ladi, nafasi qisadi, rangi ko'karib ketadi, pulsi ipsimon bo'ladi. Teri va shiliq qavatlarga qon quyiladi. Qon qusish, ichakdan qon ketishi, qon aralash siydik ajralishi kuzatiladi.

Diagnozi. Laboratoriya tekshiruvi uchun gemokulturaga qon, o'pka turida

balg'am, bubon turida bezdan punktat olinadi. O'lgan kemiruvchilarning jasadlari ham tekshiriladi. Olinadigan material juda yuqumli ekanligini hisobga olib, u o'zidan berkiladigan shisha idishlarga solinadi. Ustidan 5-10% li lizol eritmasida ho'llangan latta o'raladi va boshqa idish ichiga solinadi. Uni ham o'rab, qopqog'i zich yopiladigan qutichaga solib, plombalanadi va maxsus odam orqali laboratoriyaga jo'natiladi.

Davolash. Bemor maxsus izolyatorga yotqiziladi. Antibiotiklardan streptomitsin, tetratsiklin, levomitsin yaxshi natija beradi. Ko'pincha 2 xil antibiotik kombinatsiyasi yoki antibiotik bilan sulfanilamid preparatlar aralashtirib beriladi. Yurak preparatlari, vitaminlar keng qo'llaniladi. Dezintoksikasiya maqsadida gemodez, Ringer suyuqligi, reopoliglyukin, 5% li glyukoza eritmasi va boshqalarning birortasi quyiladi. Tounga qarshi gamma-globulin ishlatiladi.

Profilaktikasi. Keyingi yillarda o'lat onda-sonda uchraydi. O'zbekistonda 1990-yilda oxirgi marta o'lat bilan og'rikan bemor qayd qilingan. Mamlakatimizda o'latga qarshi kurash stansiyalari (Toshkent va Nukus shahri) va otryadlari (Buxoro va Zarafshon) mavjud. Ularning maqsadi o'latning ustidan epidemiologik nazorat olib borish.

Ular tabiiy o'choqda kemiruvchilarni tekshirish, ular orasida deratizatsiya tadbirlarini amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Bemor bilan aloqada bo'lganlar 6 kun izolyatsiya qilinadi. Maxsus profilaktika maqsadida tounga qarshi vaksina ishlatiladi. Emlangandan so'nggi immunitet bir yilcha saqlanadi.

KUYDIRGI

Kuydirgi – og'ir intoksikasiya, yuqori harorat, teri yoki ichki a'zolarining jarohatlanishi bilan kechadigan o'tkir yuqumli kasallik. Bu kasallikni kuydirgi tayoqchasi qo'zg'atadi. Organizmdan tashqarida spora holida uchraydi. Mikroba kuchli toksin ishlab chiqaradi. Kuydirgi tayoqchasi dezinfeksiyalovchi moddalar ta'sirida tez nobud bo'ladi, lekin sporasi tashqi muhitda juda turg'un. Suvda bir necha yil, tuproqda o'n yillab saqlanadi.

Epidemiologiyasi. Infeksiya manbai kasal uy hayvonlaridir. Mikroba ular organizmidan tashqariga chiqib, turli yo'l bilan odam organizmiga tushishi mumkin. Kasal hayvon go'shtidan tayyorlangan ovqat vositasida ham kasallik yuqadi. Hayvonlar terisini oshlashda va mo'yna orqali ham kuydirgi yuqib qoladi. Shu bois kasallik ko'proq chorva mollari bilan bog'liq odamlarda uchraydi.

Keyingi yillarda, Rossiya, Moldava, Ukraina, O'zbekiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Tojikiston va Qozog'iston respublikalarida kuydirgi kasalligi sporadik holda uchrayib turadi.

Klinikasi. Kasallikning inkubatsion davri o'rta hisobda 2-3 kun. Uning teri, ichak, o'pka va septik shakllari mavjud. Teri shakli eng ko'p uchraydi. Mikroba tushgan joy terisida dastlab dog', toshma, so'ngra vezikula, pustula va yara hosil bo'ladi. Yara yuzasi qoramtir parda bilan qoplanadi. U strup deb ataladi. Strup ostida infiltrat hosil bo'lib, atrofida mayda yangi pufakchalar shakllanadi. Yara va uning atrofi og'rimaydi. Bemor darmonsizlik, lohaslik, bosh og'rishidan shikoyat qiladi. Isitmasi 39-40° ga yetadi va 5-6

kun shu holda saqlanadi. 2-4 haftadan keyin yara bitadi. Kasallikning boshqa formalari juda og‘ir o‘tadi va ko‘pincha o‘lim bilan tugaydi.

Diagnostikasi. Laboratoriya tekshiruvi uchun teridagi elementlardan, boshqa formalarida qon, siydik, balg‘am, najas, qusuq massasidan namuna olib, ehtiyotlab jo‘natiladi. Materialdan mazok tayyorlash, Askoli pretsipitatsiya reaksiyasini qo‘yish mumkin. Teri ostiga 0,1 ml antraksin yuborib allergik reaksiya ham qo‘yiladi.

Davolash. Bemor alohida palataga yotqiziladi. Antibiotiklardan penitsillin yaxshi natija beradi. U 300000-500000 TB dan kuniga 6-8 marta 7-12 kun yuboriladi. Tetratsiklin, levomitsetin, streptomitsindan ham foydalanish mumkin. Spetsifik kuydirgi gamma-globulin 25-30 ml miqdorda mushaklar orasiga yuboriladi. Kuydirgiga qarshi zardob ham ishlatiladi. Bemorning idish-tovog‘i alohida bo‘ladi va foydalangandan so‘ng uzoq qaynatiladi. Bog‘lov materiallari yoqib yuboriladi. Bemor bilan aloqada bo‘lganlar 8 kun tibbiy nazoratda bo‘ladi.

Profilaktikasi. Profilaktika chora-tadbirlari shifokorlar va veterinariya xodimlari hamkorligida amalga oshiriladi. Kasal hayvon aniqlanganida karantin joriy etiladi, go‘shini sotishga ruxsat etilmaydi. O‘lgan hayvon jasadida maxsus joyda chuqur o‘ra kavlanib, tubiga va ustiga xlorli ohak sepib ko‘miladi. Shaxsiy profilaktika maqsadida veterinariya xodimlari STI vaktsinasi bilan emlanadi.

Adabiyotlar:

- 1.L.A. Isayeva “Detskiye bolezni” Moskva Tibbiyot-87
- 2.R.A. Ramazonova “Tibbiyot hamshiralari o‘quv qo‘llanmasi” T-85.
- 3.N.A. Paleev “Tibbiyot hamshiralari sravochnigi” T-83.
- 4.”Salomatlik ensiklopediyasi” T-1985.
- 5.R.A. Ramazonova “Favqulotda vaziyatlar uchun, tibbiy hamshiralar tayyorlash” Toshkent 2006.

1. MAVZU. BIRINCHI YORDAM KO‘RSATISHNING UMUMIY TAMOIYILLARI

Reja.

- 1) Birinchi yordam ko‘rsatishning tamoyillari vositalari
- 2) Birinchi yordam ko‘rsatish vositalari
- 3) yurakni sun‘iy masaj qilish va sun‘iy nafas berish.

Foydalangan adabiyotlar

1. G`.E.G`oipov Mehnat muhofazasi. T., "Mehnat" 2000y
2. O.Qudratov, T.G'aniev Hayotiy faoliyat xavfsizligi T., "Mehnat" 2004
3. Yu.Dodoboiev, M.Hamidov. qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi.T., "Mehnat" 2000y

4. G.I Belyakov Oxrana truda .M., "Agropromizdat" 1990 .

Birinchi yordam ko`rsatish vositalari:hozirgi traktorlar, murakkab qishloq xo`jaligi mashinalari va avtomobillarni korxona ma'muriyati dori-darmonlar to`plami bor tibbiyot aptechkasi bilan ta'minlashi zarur. Aptechkada qo`yidagilar bo`lishi lozim:

- | | |
|------------------------------------|----------------------------|
| 1 ichimlik soda - 200 g; | rezina arqon -1 dona; |
| 2 validol - 30 tabletka; | yod eritmasi - bir flakon. |
| 3 borat kislota - 60g; | shaxsiy paket- 3dona; |
| 4 leykoplastir - (1x15 Sm) 5 dona; | vazelin - 50 g; |
| 5 bint - 10 dona; | novshadil spirti - 20 g; |
| 6 paxta - 100 g; | shinalar - komplekt |

Aptechkadagi tibbiy preparatlar quyidagi mahsarlarda ishlatiladi:

y -ichimlik soda - kislota kuydirganda (ishhor va kislotalar bilan ishlashda) ko`zni yuvish va og`izni chayish maqsadida ichimlik sodaning 2-4% li eritmasini tayyorlash uchun;

y -validol - asab sistemasini tinchlantirish va yurak atrofidagi og`riqlarni yo`qotish uchun;

y- borat kislotasi ishg`or ta'sirida kuyganda ko`zni yuvish va og`izni 115 chayish maqsadida 2-4% li eritmasi tayyorlanadi;

y- vazelin - 1 darajali kuyishda, tiralganda, teri yallig`langanda, teriga surtash uchun;

y- rezina bog`lam - qon ketishini tuxtatash uchun;

y- shaxsiy paketlar, bintlar, paxta - lat yeganda, yaralanganda bog`lab qo`yish uchun;

y- novshadil spirti - hushdan ketganda hidlatish uchun;

y- yod nastoykasi - yaraning atrofiga, teridagi shilingan, tiralgan joylarga surtish uchun.

JAROHATLANGANDA BIRINCHI YORDAM KO`RSATISH

Jarohatlanganda 1 yordam ko`rsatish asosan qon oqishini vaqtincha to`xtatish (bog`lam, jgut) va infeksiya tuhshishining oldini olish tashkil etadi.

Jarohatga bog`lam qo`yishdan oldin gavdaninig shu qismidagi kiyim yoki poyafzalni ehtiyotlik bilan echish lozim.

Vaqtinchalik qon tuxtatishdan so`ng transport immobilizatsiyasi tegishli qoidalar asosida bajarilishi va bemor davolash muassasalariga yotqiziladi.

Shifokor kelguncha beriladigan yordamni tibbiyot xamshirasi jarohat yuz bergna joyda tug`ri ko`rsata bilishi kerak. Keyin bemorga qoqsholga qarshi zardob yuborish, uni ixtisoslashgan davolash muassasiga jo`natish kerak.

Jarohat yuzasini tozalash va birlamchi chok solish.

Muolajaning bu turini kichikroq yuza jarohatlari bol`gan bemorlarda yoki atroflari tekis, ifloslanmagan va ichkarida joylashgan to`qimalar hamda

anchagina shikastlangan kesilgan jarohatlarda bajariladi . Jarohat atrofi soch yoki jundan tozalanadi, teri spirt bilan artiladi a yod eritmasi surtiladi.

Jarohatga birlamchi xirurgik ishlov berish

bunda jarohat chekkalari, devorlari va tubini sog`lom to`qimalarigacha kesish, uni aseptik jarohatga aylantirish prinsipi yotadi. Jarohat og`riqsizlantiriladi, tozallanadi, qon oqishi uzil- kesil tuxtatiladi. Ichki tomondan ketgut chok solish va terini ipak bilan choklash yordamida jarohat chekkalari bir – biriga yaqinlatiriladi. Jarohat chekkalariga antibiotiklar quyiladi.

yuz, til, qo`l panjasi jarohatlanganda, ya`ni qon ta`minoti yahshi bo`lgan sohalarda jarohat chekkalari minimal darajada kesilib, choklar solinadi va zarurat bo`lganda immobilizatsiya qilinadi. Jarohatni birlamchi xirurgik tozalashdan so`ng normal bitayotgan choklar 7-8 kunida olinadi.

YURAKNI SUN'IY MASSAJ QILISH

Yurak tuxtaganda o`tkaziladigan reanimatsion tadbirlar yurakni tashqi massaj qilish va sun'iy nafas oldirish bo`lib, bular bir vaqtda bajariladi. Yurakni tashqi uqalash yo`lida tush suyagining pastki №1|3 qismi kaft bilan faol bosiladi. Bunda yurak tush suyagi va umurtqa pog`onasi oralig`ida qisiladi va ma`lum miqdordagi yurakdagi qon tomirga haydaladi. Bunday xarakat minutiga 50-70 marta takrorlanadi va muolaja tekis katta joyda bemorni chalqancha yotqizilgan holatda o`tkaziladi. Yurakni tashqi massaj qilish qo`yidagicha ijobiy belgilari bilan aniqlanadi:

- a) uyqu arteriyasida tomir urushining paydo bo`lishi.
- b) Kuz qorachiqklarining torayishi.
- c) yuz terisi, tirnoqlar va lablarning qizarishi
- d) mustaqil nafas xarakatlarining paydo bo`lishi
- e) mushaklar tonusining paudo bo`lishi.

Yurakni bilvosita massaj (yopiq) qilish.

Bu usulning mihiyati shundaki, yurakning tush suyagi bilan umurtqa pog`onasi o`rtasida qisilish natijasida katta va kichik qon aylanish doirasining yirik tomirlariga qon haydaladi va shu tariqa qon aylanish va hayotiy muhim a`zolar funksiyasi sun'iy ravishda quvvatlanib turiladi. Bemor qattiq uringa chalqancha yotqiziladi , bir qul kafti tush suyagining pastki 1\3 qismiga , ikkinchi kaft birinchisining ustiga qo`yiladi, qo`llar tirsak bo`g`imlarida yozilgan bo`lishi kerak, sungra yordam kursatayotgan odamtushni turtkisimon bosib uni umurtqa pog`onasi yo`nalishi bo`yicha 3-5 sm.ga siljitishga,shu vaziyatda taxminan 1,2 sk.kutib turishga sungra qo`llarni tushdan olmasdan turib, ularni tez bushatishga xarakat qiladi.

SUN'IY NAFAS BERISH USULLARI

Nafas yo`llari utkazuvchanligini tiklash, nafas - tovush boylamlarininig spazmi, nafas yo`llariga kusus massasininig tikilishi, intubatsion naychaninig

buralib ketishi ,tilning xalqumga ketib qolishi va shu kabilar oqibatida nafas faoliyati tuxtashi mumkin.

Nafas yo'llari tulik yoki qisman bekilishi mumkin. Bexush holatda yotgan odamda nafas yo'llari erkin o'tkazuvchanligini tiklash uchun tez va izchillik bilan qo'yidagi tadbirlarin o'tkaaizsh zarur:

- 1) Bemorni qattiq yuzaga chalqancha yoyqizish.
- 2) boshini orqaga engashtirish.
- 3) Pastki jag'ini oldinga va yuqori surish va og'zini och.
- 4) Og'iz va tomoqni shilimshiq va boshqalardan tozalash.
- 5) bemorni og'ziga xavo yuborib, kukrak qafasi ekskursiyasi va nafas chiqarishni kuzatib turish mumkin.

Og'izdan- og'izga yoki og'izdan-burunga nafas berish usuli nafas oldirishninig eng ta'sirchan va oddiy usulidir. bemor boshini orqaga ko`proq engashtirib, chalqancha yotqiziladi. Buning uchun bemorning kuraklari ostiga bolishga uxshatib yumoloqlangan adyol qo'yiladi. Bemorninig burni barmoqlar bilan qisiladi, Og'ziga doka yoki ro`molcha yopiladi va chuqur nafas olib xavo bemorninig og'ziga puflanadi. Nafas chiqarish susut bo`ladi, bir minutda taxminan 12-16 marta puflanadi. Bemorning jag`lari maxkam qisilgan xollarda og'izdan burunga sun`iy nafas oldirish usuli foydali hisoblanadi. bu maqsadda bir qul bilan bemorninig boshi manglayidan orqaga oqaga engashtiriladi. 2-kul bilan iyagidan ushlanadi va pastki jag'ini yuqoriga kutarilib, og'zi berkitiladi. So`ngra chuqur nafas olib lablar bilan burnini kamrab olib jadallik bilan nafas puflanadi.

2 MAVZU: JAROHATLAR TURLARI, BIRINCHI YORDAM.

Reja.

- 1) Jarohatlarning kelib chiqishiga ko'ra turlari.
- 2) Jarohatlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatishning umumiy qoidalari.
- 3) It qopganda birinchi yordam ko'rsatish

Jarohat to'qimalarning mexanik shikastlanishi bo'lib, bunda teri va shilliq pardalar zararlanadi, ko'pincha ichkarida yotgan to'qima va organlarga ham shikast yetadi. Jarohatlovchi buyumning bevosita ta'sirida kelib chiqqan shikastlar to'qimalarning kesilishi, uzilishi va majaqlanishida namoyon bo'ladi. Umuman yuza va chuqur jarohat (yara) farq qilinadi.

Yuza jarohat deganda, terining va shilliq pardalarning shikastlanishi tushuniladi. *Chuqur jarohatda* qon tomirlari, nerv, ichki organlar shikastlanishi mumkin. Qorin bo'shlig'i, ko'krak qafasi bo'shlig'i, kalla suyagi bo'shlig'i va hokazolardan *teshib o'tadigan jarohatlar* bo'ladi. Jarohatlarning boshqa turi, garchi organ ichiga teshib kirsada, *teshib o'tmaydigan jarohatlar* deyiladi.

Bulardan tashqari, jarohatlar *operatsion steril (toza) jarohatlar* va *infitsirlangan (infeksiya langan) jarohatlarga* bo'linadi. Operatsiya vaqtida sterilangan asboblari (yaxshilab zararsizlantirilgan asboblari) yetkazadigan jarohlardan boshqa hamma jarohatlar infitsirlangan jarohatlarga kiritiladi. Biror fizik yoki biologik omillar (zahar, zaharli moddalar, radiatsion nurlanish) ta'sirida yuz bergan jarohatlar *og'irlashgan jarohatlar* deyiladi.

JAROHATLARNING TURI

Jarohatlar organizm kesilgan, chopilgan, sanchilgan, urilgan, yulingan, lat yegan, o'q tekkan, yirtilgan va tishlangandagi turlarga bo'linadi.

Kesilgandagi jarohat o'tkir buyumlar (pichoq, shisha, oyna, skalpel, ustara va boshqalar) ta'sirida vujudga keladi. Kesilgan jarohatlarning cheti tekis, ezilmagan bo'ladi, yara yirtilib qoladi va ko'p qon ketishi bilan farq qiladi.

Chopilgandagi jarohat o'tkir, ammo og'ir qurollar (bolta, qilich va boshqalar) bilan urilganda paydo bo'ladi, jarohatning chetlari tekis, ammo yumshoq to'qimalar birmuncha majaqlangan bo'ladi, shikast yegan joy kattagina bo'lib, ko'pincha suyaklar ham shikastlanadi.

Sanchilgandagi jarohat nayza, pichoq, igna, bigiz, juvoldiz, mix va sanchadigan boshqa buyumlar urilishidan vujudga keladi. Jarohatning kirish teshigi kichik, kanali esa tor va chuqur bo'ladi. Jarohat kanali bo'ylab qon tomirlari, nervlar va organlar shikastlanishi mumkin. Sanchilgan jarohat, ayniqsa, xavfli hisoblanadi, chunki uning chuqurligini va ichki organlarga shikast yetgan-etmaganligini aniqlash qiyin bo'ladi. Bunda ichki organlardan ko'p qon ketishi va har xil asoratlar qolishi mumkin. Yurak va yirik qon tomirlari jarohatlanganda, qon gavda bo'shlig'iga (ko'krak, qorin bo'shliqlariga) bemalol quyiladi.

Urilgandagi jarohat to'qimalarga o'tmas, lekin og'ir narsa bilan urilganda (bolg'a, tosh bilan, og'ir yuk tushib ketganda) paydo bo'ladi. Jarohatning cheti majaqlangan, ezilgan, notekis bo'lib, kattagina joydagi yumshoq to'qimalar shikastlanadi. Deyarli uncha qon oqmaydi, lekin ezilgan yumshoq to'qimalar nobud bo'lishi va infeksiya rivojlanishi uchun qulay muhit tug'iladi.

Agar jarohatlar yulinish (qo'l yoki oyoq uzilib ketganda) va lat yeyishdan hosil bo'lsa, ular qattiq og'riydi va ko'pincha shokka sabab bo'ladi.

O'q tekkandagi jarohat o'q (miltiq, to'pponcha o'qi) tegishidan vujudga kelgan jarohatdir. Mina, bomba, snaryad parchalari tegishidan vujudga kelgan jarohatlar va sochma o'qdan jarohatlanish turlari ham bor. Sochma o'qdan jarohatlanishda jarohat ko'p va aksari yuza bo'ladi. Umuman o'q tekkandagi jarohat ancha xavfli hisoblanadi, chunki o'q, o'q parchasi bilan birga kirgan iflos kiyim parchalaridan, har xil xas-cho'p, tuproqdan organizmga infeksiya kirishi mumkin, bundan tashqari, o'q tekkanda yirik tomirlar, nervlar, bo'g'imlarga, ichki organlarga og'ir shikast yetishi mumkin. Agar jarohatning kirish va chiqish teshiklari mavjud bo'lsa (o'qning kirish teshigi chiqish teshigidan kichik bo'ladi), o'q (snaryad) teshigidan vujudga kelgan jarohat teshib o'tilgan jarohat deb ataladi.

Agar o'q yoki snaryad parchasi tanada qolsa, unda faqat bitta teshik- kirish teshigi hosil bo'ladi. Bunday jarohat *berk* yoki *yopiq jarohat* deb ataladi. O'q uchib borayotganda zich to'qimalar qarshiligiga (suyakka) duch kelganda *berk jarohatlar* vujudga kelishi mumkin. Agar o'q yoki snaryad parchasi gavdaning yuza

to'qimalariga tegib o'tsa, u *o'q yalab o'tgan carohat* deb ataladi. Bunday jarohatlar, odatda, yengil bo'ladi. Bulardan tashqari, yiringlagan, majaqlangan, tishlangan jarohatlar ham bo'ladi.

Jarohatning belgisi. Har qanday jarohatda og'riq, bo'shliq hosil bo'ladi va qon oqadi. Jarohatlanishning asosiy xavfi ko'p qon ketishi hamda yaraga yiringlatuvchi va anayerob mikroblar tushishidan iborat bo'ladi. Agar yara katta va chuqur bo'lsa, og'riq kuchli bo'lishi va qon ko'p ketishi natijasida shok ro'y berishi mumkin.

JAROHATLANGANDA BIRINCHI YORDAM KO'RSATISH

Odam jarohatlanganda agar hech kim bo'lmasa, o'ziga-o'zi yordam beradi, atrofdagi odamlar va kamdan-kam tibbiy xodimlari birinchi yordam beradi. Birinchi yordam berishdan asosiy maqsad qon oqishini to'xtatish, hech bo'lmasa vaqtincha jarohatni iflos va infeksiya tushishidan saqlash, yarador bo'lgan odamni tezlik bilan yaqindagi tibbiyot muassasasiga yuborishdan iborat. Shikastlangan sohadan qon ketishini to'xtatish va bog'lab qo'yish uchun eng avval shu sohani ochish kerak. Kiyimni yechgandan so'ng, tibbiyot hamshirasi qo'lini sovunlab yuvib, spirt bilan artishi, tirnoqlari atrofiga va barmoqlari uchiga yod nastoykasi surtishi kerak.

Jarohat chetiga 2 marta yod nastoykasi surtiladi, yod bo'lmasa spirt, aroq yoki odekolon bilan ham artsa bo'ladi. Yaraning ustidagi ifloslar (cho'p-xaslar, kiyim parchalari) olib tashlanadi. Qon ko'p oqayotgan bo'lsa (asosan, qo'l va oyoqdan) jgut qo'yib, qon oqishi to'xtatiladi. Yarani infeksiya dan saqlash uchun aseptik bog'lam qo'yiladi. Jarohatga sterillangan salfetka yopish, qo'l tekkizmaslik kerak. Bog'lab qo'yishdan oldin jarohat sathiga birorta antibiotik kukunini sepish maqsadga muvofiq bo'ladi. Har qanday jarohatlanishda qoqsholga qarshi zardob va anatoksin yuborish shart. Og'riqni kamaytirish uchun promedol yoki morfin ineksiya qilinadi.

KLINIKASI

Jarohatninig klinik manzarasi qattiq og'riq jarohat chetlarininig ochilib turishi, qon oqishi va gavdaninig shu qismida yuz beradigan funksional o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Odam ayrim sabablar (janjallashish, engil avariya uchrash) natijasida kuplab jarohatlanganda uning umumiy ahvoli ancha yomonlashadi. : kuchli og'riq, bosh aylanishi, qon bosimininig pasayishi. teri va shilliq qavatlarninig oqarib ketishi, xushidan ketishi mumkin.

Jarohdtlanganlarga birinchi yordam ko'rsatishdan oldin qo'yidagi ishlarni bajarish lozim: y jarohatlanish sabablarini yo'qotish (masalan, jarohatlanuvchini gazlar, zaharlar to'lgan xonadan olib chiqish); elektr simini olish (elektr toki urganida; jarohatlanuvchining ahvolini yomonlashtiradigan barcha narsalarni yo'qotish (jarohatlanuvchi ustidagi yukni, devor parchalarini olish, xonadan yoki yonayotgan joydan olib chiqish); y jarohatlanuvchining umumiy ahvolini aniqlash va birinchi navbatda odam hayoti va salomatligiga eng ko'p xavf

tug`dirayotgan narsani yo`qotish (masalan, arteriyalar kesilganida qon oqishini to`xtatish, nafas olish to`xtab qolgan va yurak faoliyati buzilgan bo`lsa, sun'iy nafas oldirishni yoki yurakni uqalashni boshlash va h.k.); y agar bemorga xavf tug`ilmaydigan

bo`lsa, birinchi tibbiy yordami ko`rsatishda uni ko`zg`atmaslik; y xushidan ketganda tashlab ketmaslik;

y birinchi yordam ko`rsatash uchun jarohatlanganning kiyimini yechishda yoki yaralangan joyidagi kiyimini qirqishda juda ehtiyot bo`lish zarur; y jarohatlanganni avaylash. y Arteriyadan oqadigan qon och qizil rangli, kuchli qon oqimi bosim ostida beto`xtov otilib turadi. Arteriyadan qon oqqanda, yirik arteriyalar. jarohatlanganda tezlikda yordam ko`rsatish zarur. Birinchi navbatda tomirni barmoqlar bilan qattiq bosib, suyakka siqish kerak. Bog`lam qo`yishda quyidagi ishlarni bajarish lozim: y teriga bir necha qavat qilib taxlangan latga (dastro`mol) qo`yish; y bog`lamni qon to`xtaguncha tortish; y bog`lam ostiga kun 24 soat deb hisoblaganda u qachon qo`yilganligi aniq yozilgan (masalan, 05 soat 35 min.) qog`oz qo`yish. qon oqqanda arteriyalarning va tizza bo`kishidan siqib 116 qo`yiladigan joylari: 1-tirsakka oid; 2-nurli; 3-elkaga oid; 4-o`mrov-osti; 5-o`ng uyquga oid; 6-kurak; 7-chakkaga oid; 8-chap uy-quga oid; 9-birinchi qo`l ostidagi; 10-o`ng songa oid; 11-chap songa oid; 12-orqa katta songa oid; 13-oyoq kafti oyoq (a) va qo`llardan (b) qon oqqanda jgut qo`yish venadan oqadigan qon to`q rangli bo`ladi, yaradan otilib chiqadi, kapillyardan qon ozroq miqdorda sekin chiqadi. Vena va kapillyar qon oqishni to`xtatishda bosib turadigan bog`lam qo`yishning o`zi kifoya. Jarohat atrofidagi teriga yod surtiladi, sterillangan bint parchasi yoki toza ip-gazlama qo`yiladi va bint bilan mahkam bog`lanadi. Qorinning ustki qismi va bo`shlig`ining ichi shikastlanganda bemor sanitariya zambiliga chalqanchasiga yotqiziladi, tizzalari biroz bukiladi. Jarohatning butun yuzasiga katta doka (toza adyol, sochiq) yopish va yarani bint bilan yaxshilab bog`lab qo`yish kerak. Jarohatlanganga suv berish va yarani suv bilan yuvish yaramaydi. Ko`krak qafasi ichida o`pka, yurak hayot uchun xavfli darajada jarohatlangan bo`lishi mumkin. Teri atrofidagi jarohatga yod eritmasi surtilgandan keyin uning ichiga havo kirmasligi uchun zich yopishib turadigan bog`lam qo`yiladi. Buning uchun jarohat ustiga havo o`tkazmaydigan

material ho`yib, ustidan 3-4 havat sterillangan ro`molcha yoki bint va paxta qo`yiladi. Shundan keyin jarohat bint bilan qattiq bog`lab qo`yiladi. Agar shikastlangan kishining ko`ziga biror o`tkir narsa tegib jarohatlangan bo`lsa, u holda dokali tiqin qo`yib darhol kasalxonaga jo`natish kerak. Ko`zga xas-cho`p tushganda uni qo`l bilan artish yaramaydi. Bug`imlarga ziyon yetishi-shish hosil bo`ladi. Teri ko`karadi, og`riq paydo bo`ladi. Bunday holatda bemor harakat kilmasligi lozim jarohatga muz qo`yiladi. Kishi issiqlik, kimyoviy yoki elektr manbalaridan biror joyini kuydirib qo`ysa jarohatlangan joyni kaliy permanganat eritmasi yoki ichimlik sodaning 2% li eritmasi bilan xo`llash lozim. 2- va 3-darajali kuyishlarda terining shu joyiga kaliy permanganat eritmasi surtiladi, quruq sterillangan bog`lam qo`yiladi va darhol shifoxonaga yuboriladi. Kimyoviy kuyishlarda tananing kuygan qismini suv bilan kamida 20

minut yuvish kerak. Shundan keyin sodaning 2% li eritmasi yoki borat yoxud sirka kislotalarining 1% li eritmasi bilan qo'llangan nam bog`lam qo'yiladi.

Pestisidlar bilan zaharlanganda, jabrlanuvchini pestisid sepilgan daladan ochiq havoga olib chiqish va teriga tushgan bo'lsa, u holda terini suv oqimi bilan yuvish yoki artib tashlash lozim. Agar pestisid organizmga oshqozon-ichak yo'lidan o'tgan bo'lsa, jabrlanuvchiga bir necha stakan suv yoki kaliy permanganatning och pushti eritmasi ichiriladi va og'izga barmoqni tiqib qayt qildiriladi (2-3 marta). Shundan keyin 2-3 qoshiq aktivlangan ko'mir bilan yarim stakan suv, so'ngra surgi (20 g taxir tuzning 0,5 stakan yeuvdagi eritmasi) ichiriladi. Nafas olish susayganida novshadil spirti qidlatiladi, nafas olish to'xtaganida sun'iy nafas oldiriladi. Chang va zaharli gazlar ta'siri natijasida zaharlanish kishiga hid sezish va xis etish organlarini qo'zg'atadi, shuningdek, umumiy holsizlanish paydo bo'ladi. Zaharlanishni eng birinchi belgilaridan bosh og'rishi, ko'ngil aynishi, boshda og'irlik va quloqda shovqin paydo bo'lishi, bosh aylanishi va yurak urishining tezlashishidir. Zaharlangan odamning zaharlangan muhitda bo'lishining davom etishi uni yana ham holsizlantiradi, uyhuga tortadi, nafas olishi uzuh-uzuh bo'ladi, tomir tortishi paydo bo'ladi va nafas olish markazining falajlanishidan o'lim yuzaga keladi. Jabrlanuvchida zaharlanish alomatlari paydo bo'lishi bilan uni toza havoga olib chiqish, sovuq kompressni boshiga qo'yish va novshadil spirtini hidlatish lozim. Yuzaki sust nafas olishda yoki u to'xtaganda sun'iy nafas oldiriladi. Zaharlanganda birinchi navbatda nafas olish yo'li, teri, oshqozon-ichak trakti orqali zaharli moddalarning o'tishi to'xtatiladi. U teriga tushishi bilan suvda yuvib tashlanadi. Agar zahar oshqozon-ichak trakti orqali organizmga o'tsa, bir necha stakan iliq suv yoki kuchsiz kaliy permanganat aralashmasi ichiriladi, ya'ni ko'ngil aynashini to'xtatish uchun. Undan keyin yarim stakan suvni ikki-uch qoshiq aktivlashtirilgan ko'mir bilan ichiriladi. Qustirish uchun iliq suv yoki kuydirilgan magneziiy eritmasi beriladi va jabrlanuvchining oshqozon atrofi uqalanadi, so'ngra jabrlanuvchiga xom tuxum beriladi. GXSG va rux fosfidi bilan zaharlanganida sut tavsiya etilmaydi. Jabrlanuvchiga ichni yumshatadigan tuz glauber yoki angliyskiy) berish mumkin, zahar kuchini yanada oshirib yubormaslik uchun zigir moy (kanakunjut moyi va shunga o'xshashlarni) bermaslik kerak. Jabrlanuvchining yuragi xasta hollarda unga efirli valerian tomchisi beriladi.

Jarohatlanganda 1 yordam ko'rsatish asosan qon oqishini vaqtincha to'xtatish (bog`lam, jgut) va infeksiya tushishining oldini olish tashkil etadi.

Jarohatga bog`lam qo'yishdan oldin gavdaninig shu qismidagi kiyim yoki poyafzalni ehtiyotlik bilan yechish lozim.

Vaqtinchalik qon tuxtatishdan so'ng transport immobilizatsiyasi tegishli qoidalar asosida bajarilishi va bemor davolash muassasalariga yotqiziladi.

Shifokor kelguncha beriladigan yordamni tibbiyot xamshirasi jarohat yuz bergna joyda to'g'ri ko'rsata bilishi kerak. Keyin bemorga qoqsholga qarshi zardob yuborish, uni ixtisoslashgan davolash muassasiga jo'natish kerak.

Jarohat yuzasini tozalash va birlamchi chok solish.

Muolajaning bu turini kichikroq yuza jarohatlari boʻlgan bemorlarda yoki atroflari tekis, ifloslanmagan va ichkarida joylashgan toʻqimalar hamda anchagina shikastlangan kesilgan jarohatlarda bajariladi. Jarohat atrofi soch yoki jundan tozalanadi, teri spirt bilan artiladi a yod eritmasi surtiladi.

Jarohatga birlamchi xirurgik ishlov berish

bunda jarohat chekkalari, devorlari va tubini sogʻlom toʻqimalarigacha kesish, uni aseptik jarohatga aylantirish prinsipi yotadi. Jarohat ogʻriqsizlantiriladi, tozallanadi, qon oqishi uzil- kesil tuxtatiladi. Ichki tomondan ketgut chok solish va terini ipak bilan choklash yordamida jarohat chekkalari bir – biriga yaqinlatiriladi. Jarohat chekkalariga antibiotiklar quyiladi.

yuz, til, qoʻl panjasi jarohatlanganda, yaʼni qon taʼminoti yaxshi boʻlgan sohalarida jarohat chekkalari minimal darajada kesilib, choklar solinadi va zarurat boʻlganda immobilizatsiya qilinadi. Jarohatni birlamchi xirurgik tozalashdan soʻng normal bitayotgan choklar 7-8 kunida olinadi.

3. MAVZU. QON KETISH TURLARI VA UNDA BIRINCHI YORDAM KOʻRSATISH

Reja:

- 1) Qon ketish turlari haqida maʼlumot
- 2) Oʻtkir qon ketganda shoshilinch yordam koʻrsatish.
- 3) Qon guruhlarini aniqlash.
- 4) Bemorlarni qon quyishga tayorlash va uning asoratlari.

Qon ketish qon tomirlari devortininig shikastlanishi, biror kasallik natijasida emirilishi yoki uning oʻtkaszuvchanligi oshib ketishi sababli kelib chiqadi.

Shikastlangan tomirning xususiyati va turiga qarab qon oqishininig qoʻyidagi turlari farq qilinadi.

1. Arterial qon ketishi- qon ketishninig eng havfli turi boʻlib bu arterial qon tomirlari shikastlanganida yuqori bosim ostida pulssimon qizil alvon rangli qon otilib chiqishi bilan xarakterlanadi.. Bunda bemorda qisqa muddat ichida koʻp miqdorda yoʻqotilganligi uchun kamqonlik kelib chiqadi.

2 Venoz qon ketishi- bu vena qon tomiri jarohatlanganda yuzaga chiqadi.Bunda qon bir tekisda , birmuncha sekin oqadi va uning rangi toʻq qizil boʻladi. Bunda markaziy qon tomitrinnig jarohatga yaqin joyini bosganda qon oqishi tuxtaydi.

3. Kappilyar qon ketishi - bu kappilyaralr jarohatlanishidan yuzaga kelib , jarohatning yuzaki qonashi bilan farqlanadi. Qon kurinishi jihatidan arterial va venoz qon orasidagi oʻrtacha oʻrinni egallaydi. Odatda kappolyardan qon ketishi uz-uzidan tuxtashga moyil buladi.

4. parenximatoz qon ketishi- bunday qon ketishi ichki a`zolar – jigar, taloq, upka, buyraklarning hamma tomirlari shikastlanganda kuzatiladi. Bunday qon ketishi g`oyat havfli hisoblanib, bunda qon ketishi tomirlar devorining parenximatoz a`zo stromasi tomonidan tutib turilishi, a`zoda antikogulyant moddalar tufayli tromb hosil bo`lmasligidan uz- uzidan tuxtamaydi.

Qon ketishi birlamchi va ikkilamchi(operatsiyadan keyin) shuningdek tashqi, ichki (biror yopiq bo`shliqqa) bo`lishi mumkin. qon oqishining keyingi turi jigar, taloq , upka va buyrak kabi a`zolar shikastlanganda kupincha kuzatiladi.

O`tkir qon ketishi klinikasi.

Bunda teri va shilliq pardalarning birdaniga oqarib ketishi bilan xarakterlanadi. Bemorning yuzi sulib, kuzi kirtayadi, arterial va venoz qon bosimi pasayadi, puls tezlashib , tuliqligi sust va ipsimon bo`ladi, nafas tezlashadi , bosh aylanadi, a`zoyi badani bushashadi, tashnalik , kuz oldining qoromg`ilashuvi, kungil aynishi, ba`zan qusish kuzatiladi.

Qon yo`qotishda ulim og`ir kislorod etishmovchiligi natijasida nafas markazining falajlanishi va yurak faoliyatining tuxtashi natijasida ruy beradi. Chaqaloqlar va keksalarda oz miqdorda qon ketishi juda asoratlarga , xatto ulimda olib kelishi mumkin.

Qon ketishini tuxtatish turlari.

Yordam berish sharoitlari va tibbiyot xodiminig malakasiga kura qon oqishini tuxtatish vaqtinchalik yoki uzil- kesil bulishi mumkin.

Qon oqishini vaqtincha tuxtatish usullari.

- Bosib turuvchi bo`g`lam- qo`l oyoqni immobilizatsiya qilib bva balandga kutarib , bosib turuvchi bog`lab quyiladi. Bunda jaroxatga doza bir necha qavat steril quyiladi va uning ustidan maxkam bintlanadi yoki jgut quyiladi.

- Qulni bug`imidan bukish - taqim, elka, son arteriyalari jarohatlanganida yuz beradigan qon oqishi ba`zan oyoq- qulni maksimal bukish yoki bo`g`lam tortib quyish yo`li bilan tuxtatiladi.

- Jarohatda tomirni bosib turish - qo`lga steril qo`lqop kiyiladi va jarohat spirt yoki yod bilan artiladi. Kursatkich barmoq jarohatga kiritiladi va sizib chiqayotgan qon tomirini bosib qon ketishi tuxtatiladi.

- Jarohatni tarang tamponlash- buinig uchun tampon olinib, uni kornsang bilan birin- ketin va tarang qilib tuldirish orqali qon tuxtatiladi. Odatda bu usul burun jarohatlarida kuzatiladi.

- Qonab turgan tomirga qisqich qo`yish – oyoq, qo`l, chanoq , qorin bo`shlig`ida chuqur joylashgan tomirlardan oqayotgan qonni tuxtatish uchun qo`llaniladi. Bunda jarohat orqali qisqich yoki kornsang kiritilib, qonayotgan qon tomirini qisib qon tuxtatiladi.

- Tomir bo`ylab bosib turish – bu usulda ayrim yirik arteriyalardan oqayotgan qonni tuxtatish tomirni usha yirik arteriyalardan oqayotgan qonni tuxtatish tomirni usha tomir yaqinida joylashgan suyakka bosish yo`li bilan amalga oshiriladi: umrov osti arteriyasini umrov suyagi ostida

joylashgan nuqtadagi 1 qovurg`aga bosiladi. Uyqu arteriyasi barmoq bilan 6- buyin umurtqasining kundalang usimtasiga , Son arteriyasi Pupart boylamidan pastroqqa kov suyagining gorizonta1 suyagining tarmog`iga tarmog`iga bosiladi.

**jgut bog`lash** - bu arterial qon ketishi ni tuxtatishda asosiy usul xisoblanadi. Arterial qon ketishida jgut jarohatga nisbatan markaziy tomonga qo`yiladi. Jgut solishdan oldin jgut solinadigan terini qisib qo`ymaslik uchun oyoq yoki qo`lga sochiq yoki bint uraladi. Jgutni cho`zib o`yoq atrofidan aylantiriladi ,jgut uchlari maxkamlanadi va jgut solingan vaqt yozilgan qog`oz qistiriladi.

Jgut tug`ri solinganida oyoqning jgutdan chetrog`idagi qismi oqaradi, jgutdan

pastda puls yuqoladi qon oqishi tuxtaydi . Arteriyaga quyilgan jgut ko`pi bilan 1.5-2 soat qoldirilishi mumkin.

Maxsus jgut bo`lmaganda tasma, ro`molcha , tizimcha kabilar ishlatiladi. Yasama jgutning bosish kuchini oshirish uchun unga ytayoqcha suqiladi va burash yol`i bilan qon oqishi uzil-kesil tuxtatiladi.. Venoz qon oqishida venoz jgut deb ataladigan jgut ishlatiladi.

Uni shikastlangan joydan pastroqqa chamasi 6 soat muddatga solinadi va u qattiq tortilmaydi.

Bunda oyoq yoki qo`l ko`karadi, arteriyada puls saqlanib qoladi , qon oqishi tuxtaydi.

Qon oqishini uzil- kesil tuxtatish.

Mexanik usullar : Jarohatdagi tomirni bo`glash bunda qonagan tomir istalgan chok materiali (ipak, lavsan, ketgut)\bilan bog`-di.

-Tomir bo`ylab bo`glash jarohat qattiq infeksiyada, jarohatdagi tomirni topish qiyin bulganda qullaniladi.

-0 tomirlarga chok solish - maxsus chok materiali bilan travmatik ignalar yordamida tomirlarga mexanik chok solinadi.

Fizikaviy usullar: - Sovuqni maxalliy quyish- bunda muz solingan rezina yoki polietilen xaltachalar ishlatiladi.

- Elektr koagulyatsiya- maxsus koagulyator yordamida operatsiya vaqtida mayda tomirlardan qon ketishida qullaniladi.

-Issiq fizilogik eritmani qullash- 60-80 %gacha qizdirilgan eritmaga xullangan salfetka qonayotgan soxaga bir necha minutga quyiladi.

Kimyoviy usullar :- Tomirlarni toraytiradigan preparatlar 0.1 % li adrenalın preparati maxalliy yoki parenteral ish-di.

-Qonning ivish xususiyatini oshiradigan preparatlar- vodorod peroksid, kalsiy xlorid, aminokapron kislotasi va vıkasol ish-di.

Biologik usullar: - Gemostatik vositalarni ot zardobi,gemostatik bulut , fabrin pardasi kabilardan foydalaniladi.

-Gemostatik vositalarni venaga qo`llash – qon , plazma, gemofobin, antigemofil globulin va antimofil plazma, fibrinogen va boshqalardan kichik dozalarda bo`lib- bo`lib quyiladi.

QON GRUPPASINI ANIQLASH

Odamda qonning 4 guruhi uchraydi:

- Birinchi guruh-0(1)

eretrotsitlarda aglyutinogenlar yo`q (0)

zardobda esa 2 ta aglyutenin alfa va betta bor.

- Ikkinchi guruh - A (II) eretrotsitlarda agglyutinogen (A) zardobda esa agglyutin beta bor.

-Uchinchi guruh – B (III) eretrotsitlarda agglyutinogen B, zardobda esa agglyutinin alfa bor.

- To`rtinchi guruh – AB (IV) eretrotsitlarda ikkala aglyutinogen A va B bor bioq zardobda agglyutinlar bo`lmaydi.

Qon guruhini standart zardoblar bilan aniqlash.

Bu usul bo`yicha qon guruhini aniqlash uchun aniqlanadigan qon guruhlari avvaldan ma`lum zardob bilan aralashtiriladi va aglyutinatsiya bor - yuqligiga qarab qon guruhi to`g`risida xulosa chiqariladi. Aniqlash uchun 3 guruh oldindan tayorlangan qon o (I),A(II),B(III) standart zardobinining xar bir guruh uchun 2 ta xar xil guruh seriyalari qullaniladi. Buyum oynasi yoki chinni tarelkaga xar bir seriyadan bir juftdan ikki (seriyadan) tomchidan standart zardob tomiziladi. Zardoblar alohida pipetkalar orqali olinadi.

tekshiriladigan bemorning barmog`i spirt bialn artilib, unga maxsus skarifator bilan igna sanchiladi va 6 tomchidan qon olinib, standart zardoblar bilan alohida shisha tayoqchalar yordamida aralashtiriladi.5 minutdan so`ng soxta aglyutinatsiya

reaksiyasini aniqlash uchun zardobga bir tomchidan fiz. eritma qo`shildi.

Agar natijada:

a) uchala aralashtirilgan tomchilarda aglyutinatsiya ro`y bermasa, bu tekshirilayotgan qon O(I), b) O(I) va B(III) zardoblar bilan aglyutinatsiya ro`y bersa qon guruhi A(II) bo`ladi.

b (I) hamda A (II) zardobi bilan aglyutinatsiya ro`y bersa, B (III) qon guruhi bo`ladi. G) Uchala aralashtirilgan zardobda aglyutinatsiya reaksiyasi bo`lsa, AB(IV) guruhi bo`ladi.

Xato qilmaslik uchun guruhi 2 seriyadagi standart zardob bilan aniqlanadi.

Agar uchala zardob bilan aglyutinatsiya ro`y bersa AB (IV) qon guruhini AB (IV) qon guruhi zardobi bilan qo`shimcha aniqlash o`tkazish zarur bo`ladi

QON QO`YISH

Qon quyiosh tirik to`qimani ko`chirib o`tkazish bo`lib, bemor organizmiga xar tomonlama ta`sir qiladi. Shuning uchun xam bu mutloq ko`rsatmalar bo`lgandagina bajarilishi shart.

Qon qo`yish qat`iy tartib bilan amalga oshiriladi. Retsipientnin qon guruhi va rezus mosligi aniqlanadi. Donor qoni to`g`risida ham ana shunday

ma'lumotlar bo'lishi kerak. Qon qo'yishdan oldin bu ko'rsatkichlar yana bir bor aniqlanadi. mOs kelish kelmaslikka va rezus mos kelish0 kelmaslikka va biologik sinamaga bevosita reaksiya o'tkaziladi. Qo'yishdan oldin qon uy xaroratigacha isitiladi.

QON QUYISH USULLARI

- To'g'ridan to'g'ri qon quyish qon donor venasidan retsiient venasiga bevosita quyiladi.

- Bilvosita qon qo'yish - donor qoni vval maxsus idishlarga yig'iladi, sterealizatsiya qilinadi, konservaladi va keyinchalik zarur bo'lganda qo'yiladi.

Qon qo'yishning qo'yidagi usullari mavjud:

- venaga qon qo'yish – ko'p yo'qotilganda qon oqim qilib yoki bemorning xolati imkon berganda va ko'p miqdorda qon quyish talab etilganda tomchilatib (1 daqiqada 20-30 tomchidan) qiy-di.

- Arteriyaga qon quyish – klinik o'lim xolatidagi yoki shunga yaqin holatdagi bemorlarga qon bosim ostida quyiladi.

- suyak ichiga qon quyish - qon suyakninig g'ovak moddasiga k-di.

- almashtirib qon quyish - qon olib, urniga donor qonini kuyish - gemolitik zaharlanganda, ovqatdan zaharlanishda qo'llaniladi.- qayta qon qo'yish- bemorning seroz bo'shlikka oqib tushgan uz qonini quyish (Qon yig'ilib natriy sitrat shimdirilgan 4 qavat dokadan filtrlab u'tkaziladi.

- murda qonini quyish- murda qoni icvimaydi, shuninig uchun uni stabilizatorsiz ko'p miqdorda ulgan kishilarninig jasadidan olib tayorlanadi)

QON QUYISHDA RO'Y BERADIGAN ASORATLAR

1 Gemotransfuziya shoki- bu mos kelmaydigan qon quyilishdan keyin yuz beradi ,Bunday xollarda qon quyish darhol tuxtatiladi plazma , shokka qarshi eritmalar 5 % li glyukoza eritmasi quyiladi. Mos keladigan bir hil guruhdagi qon quyiladi va paranefral blokada qilinadi.

2. Rezus omili mos kelmaydigan qonni kuyishda ham qon quyishdagi kursatladigan davo qilinadi.

3. Ifloslangan qon quyish- klinik simptomlari qisqa muddatdan so'ng paydo bo'ladi (Bunda antibiotiklar qo'llaniladi.)

4. Anafilaktik shok- shokka qarshi antigistaminlar kul-di.

5. Sitrat shoki- 10% li kalsiy xlorid er-si venaga

6. Pirogen reaksiyalar- analgin, antigistamin pr-lar.

7. yurakning tusatdan kengayishi

8. xavo emboliyasi.

9. Tromb emboliyasi

4 Mavzu: Yumshoq to'qimalarning shikastlanishi

Reja:

- 1. Lat yeyish, klinik belgilari, davolash usullari**
- 2. Ezilish sindromi. Sabablari, klinik belgilari, davolash usullari**
- 3. Mushaklar cho'zilganda yoki uzilganda birinchi yordam ko'rsatish**
- 4. Paylarning cho'zilishi, sabablari davolash usullari.**

Turli favqulodda vaziyatlarda shikastlanganlarning ko'pchiligini yopiq shikastlanishlar tashkil qiladi. Yopiq shikastlanishlarda teri va shilliq qavatlarining butunligi buzilmaydi. Lekin zaralanish turli organ va to'qimalarga, yumshoq to'qimalarga, ko'krak va qorin bo'shlig'i organlariga, bosh miyaga, bo'g'imlarga, siydik tanosil organlariga tarqalishi va ularda lat yeyish, paylarning cho'zilishi va uzilishi, bo'g'imlarning chiqishi, yumshoq to'qimalarni tuproq, buzilgan binolar va inshootlarning bo'lak-lari bilan ezilishini vujudga keltiradi.

Lat yeyish - yopiq shikastlanish bo'lib, qattiq jismlar bilan urish yoki qattiq jismga urilish natijasida vujudga keladi va yumshoq to'qimalarni qorin va ko'krak bo'shliqdagi turli organlarni zararlanishi bilan xarakterlanadi. Lat yeyish natijasida vujudga keladigan o'zgarishlar xarakteri va og'ir yengilligi urilish kuchiga jismning kattaligiga, og'ir-ligiga, shakliga, shikast beruvchi jismning yo'nalishi va davomiyligiga, tananing zararlangan joyini kattaligiga va ahamiyatliligiga va shikast berish vaqtidagi anatomo – fiziologik xususiyatlariga bog'liq. Lat yeyish vaqtida teri osti yog' qavatidagi limfatik va qon tomirlar u yoki bu darajada zararlanib, lat yeyish belgilarini kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Lat yeyishning belgilari unchalik ko'p emas, lekin ular shunday aniq va ravshan yuzaga keladiki, tashxis qo'yish juda oson bo'lib qoladi: og'riq, shish, ko'karish (qon quyilishi, gemotoma) funksiyaning buzilishi. Og'riq - har xil intensivlikda bo'lib, zararlanish zonasi va nerv va qon tomirlari bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Ba'zan kuchli og'riqlar travmatik shokka olib kelishi mumkin (oyoq yoki qo'lning yumshoq to'qimalarini ezilishi, qorinni lat yeyishi, yirik nerv tolalarining yopiq shikastlanishi) Og'riqning xarakteri organizmning og'riqqa shaxsiy moyilligiga ham bog'liq.

Shish - yumshoq to'qimalarga qonning shimilishi va aseptik yallig'lanish natijasida ro'y beradi. Shishning kattaligi yog' qavatini kattaligiga bog'liq: yog' qavati qancha katta bo'lsa shish ham katta bo'ladi. Qon quyilish va ko'karish - qon tomirlarining urilish zahoti yoki bir necha soat keyin uzilishi natijasida ro'y beradi. Uning kattaligi uzilgan tomirning kalibiriga, qonning ivishiga, teri osti yog' qavatiga bog'liq. Teri qavatlari dastlab to'q ko'kimtir rangga, keyinchalik gemoglobinni parchalanishi natijasida yashil va sariq rangga kiradi. Funksiyaning buzilishi dastlab organizmning shikastlanishga qarshi himoya reaksiyasi bo'lib hisoblanadi va uni lat yeyish joyiga, shikastlangan odamni og'riqqa bo'lgan reaksiyasiga va shikastlanish natijasida ro'y bergan o'zgarishlar xarakteriga bog'liq. Organning funksiyasini buzilishi uning to'qimalarida qon va limfaning shimilishi natijasida ro'y beradi. Mahalliy va umumiy haroratning ko'tarilishi katta gematomaning so'rilishi yoki uning yiringlashi natijasida ro'y beradi. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish – lat yeyish ro'y bergan zahoti o'sha joyga siqib turuvchi bog'lam qo'yish, iloji bo'lsa, lat yegan joyga dam – badam sovuq jismlar bosish, muz xaltasini qo'yish 40-50 minutdan keyin 10-15 minut dam beriladi. Yana qaytariladi. Sovuqning qo'llanilishi qon quyilishini kamaytiradi, to'xtatadi, og'riqni kamaytiradi. Siqib bog'lash natijasida zararlangan teri osti qon tomirlari bosilib, shishni kamaytiradi. Katta miqdordagi lat yeyishlarda bemorni harakatlari chegaralanib, (immobilizatsiya) og'riqni qoldiruvchi vositalar beriladi.

Davolash – lat yegan vaqtdan 2-3 kun o'tgach issiq muolajalar qo'llaniladi (iliq isitgich qo'llash, isituvchi kompress, suv vannalari) massaj (uqalash), davolash gimnastikasi qo'llaniladi. Katta o'lchamli lat yeyishlarda, rentgen orqali tekshirib, suyaklar sinishi bor yo'qligini aniqlash kerak. O'zicha so'rilib ketmaydigan katta gematomalarni punksiya qilinib, ketidan antibiotiklar yuboriladi, ba'zan jarrohlik yo'li bilan ivigan qon olib tashlanadi.

Paylarning cho'zilishi va uzilishi. Simptomlari.

Birinchi tibbiy yordam va davolash.

Paylarning cho'zilishi tashqi kuch ta'sirida to'qimalarning haddan tashqari zo'riqishi natijasida ro'y beradi. Tashqi kuch ta'sirida bo'lg'im yuzalari vaqtincha

fiziologik me'yordan chiqqan holda bir-biridan uzoqlashadi va bunda bo'g'im xaltasi va uni ushlab turuvchi pay va muskullar zararlanmaydi. Ko'pincha boldir-tovon bo'g'imi paylari cho'ziladi. Paylar cho'zilganda ularning anatomik butunligi buzilmaydi, qon tomirlar uzilishi mumkin. Natijada bo'g'im atrofida shish va aseptik yallig'lanish ro'y beradi. Dastlabki vaqtlarda qon quyilishi bilinmasligi mumkin, keyinchalik esa tqq ko'kimtir dog'lar paydo bo'ladi. Bo'g'im harakati yo'qolmasa ham, harakat vaqtida og'riqni zo'rayishi harakatni chegara-laydi. Birinchi tibbiy yordam xuddi lat yeyishdagiga o'xshash bo'lib, qon quyilishini kamaytirish maqsadida dastlab (muz xaltasi, sovuq jismlar, sovuq kompress) bosiladi. Uchinchi kundan boshlab, iliq muolajalarga o'tiladi. Bemor tinch yotgan holatda oyoqlari ko'tarilgan bo'lib, siqib turuvchi bog'lam qo'yiladi. Ko'rilgan choralar taxminan 10 kunlardan keyin bemor yurishiga imkon yaratadi.

Muskul, pay va boylamlarning uzilishi to'satdan bo'ladigan keskin harakat natijasida ro'y beradi. Muskul, pay va boylamlarning uzilishi qisman yoki to'liq bo'lishi mumkin, boylamlar suyak to'qimasining bo'laklari bilan uzilib ketishi ham mumkin. Muskul, pay va boylam-larning uzilish belgilari yengil, o'rta darajada va og'ir formada namoyon bo'lishi mumkin. Hamma darajaga xos bo'lgan umumiy belgilar:

- boylam va paylarning suyakka birikkan joyida va muskulning uzilgan joyida kuchli og'riqni bo'lishi;
- bo'g'imni o'rab turgan to'qimalarga qon quyilishi, yoki bo'g'im bo'shlig'iga qon quyilishi (gemartroz) oqibatida shikastlanish joyi atrofida gematoma va shish paydo bo'lishi;
- bo'g'im qo'l yoki oyoq harakati funksiyasini buzilishi, shikast-langani muskulning funksiyasini buzilishi.

Ko'pincha bloksimon bo'g'implarning (boldir-tovon, tizza, bilak-panja) kamroq sharsimon bo'g'implarning boylamlari zararlanadi. Birinchi tibbiy yordam shikastlangan joylarni tinchlantirgan holatda siqib bog'lash, shina yoki qo'l ostidagi materiallar bilan harakatni chegaralab, qimirlatmaslik (immobilizatsiya qilish), kuchli og'riq bo'lganda shprints yordamida og'riq qoldiruvchi vositalarni

in'eksiya qilish, shikastlangan joyga sovuq jism yoki muzqo'yish va o'z vaqtida tibbiy muassasalarga evakuatsiya qilish.

Tibbiy muassasada shikastlangan joyga tinch holat yaratib beriladi. I darajali uzilishda 7-10 kun, II darajada 21 kun, III darajada 4-6 haftacha immobilizatsiya qilish tavsiya etiladi. Shikastlangan joyni immobilizatsiya qilish shinalar, mahkamlovchi bog'lamlar va gipsli longetlar yordamida amalga oshiriladi. Muskul, pay va bo'g'imlarning to'liq uzilishi ro'y berganda jarrohlik yo'li bilan tikib qo'yiladi. Keyinchalik davolash gimnastikasi, uqalash (massaj), fizioterapiya (quruq issiq, parafin va balchiqli applikatsiyalar) tavsiya etiladi.

Muskullarni yirtilishi.

muskullarining shikastlanishi yopiq va ochiq bi'lishi mumkin. Muskul qattiq cho'zilganda va unga zo'r kelganda, masalan, og'ir yuq ko'tarilganda u yirtilishi mumkin. Qorin muskullari va oyoq - qo'llarni yozuvchi muskullar eng ko'p yirtiladi. Muskullar qisman va to'liq yirtilishi mumkin.

Yirtilgan zonani paypaslab kurishdi, ayniqsa muskul nuqsoni aniqlanadi. Keyinroq gematoma xosil bo'lish hisobiga usmasimon tuzilma paydo bo'ladi.

Odatda shu muskul funksiyasi pasayadi yoki butunlay yo'qoladi. boylamlarning cho'zilishi va yirtilishi. Bug'imda uniing hajmidan oshib ketadigan xarakat bulganda uni maxkam ushlab turadigan boylam apparati cho'ziladi. Ba'zan esa yirtiladi. Bug'im sohasida og'riq, va shish xarakatlarninig cheklanish kuzatiladi. Boylamlar yirtilganda gematoma paydo bo'ladi va xarakat keragidan ortiqcha bo'ladi. Oyoq - qo'lga orom berish zarur. Bug'im soxasiga bosib turadigan bog'lam bog'lanadi. Dastlabki kunlari sovuq, keyinchalik issiq muolajalar mahalliy qullaniladi. Boylam yirtilganda gips bog'lam quyiladi, konservativ davoalsh yahshi natija bermaganda operatsiya yo'li bilan davo qilinadi.

EZILISH SINDROMI.

Oyoq - qullar tananing boshqa qismlari yumshoq tuqimalarninig zilzila vaqtida, bosib qolishda va boshqalarda uzoq muddatgacha turli narsalar (daraxt, toshlar, beton plitalar, uta og'ir buyumlar va hokazo) ostida bosilishi oqibatida yuz beradigan ma'lum simptomlar kompleksi e z i l i sh sindromi deyiladi. yoki shikastlanish taksikozi deyiladi. Bunda muskullar teri osti yog` kletchatkasi tomirlar va nervlar suyaklar majaklanadi va sinadi.

Uzoq vaqt ezilish natijasida muskullar va boshqa tuqimalar qonga yolchimay qoladi natijada bu tuqimalarda nekroz boshlanib tuqimalar o'la

boshlaydi va uzidan zaharli moddalar ajratadi. So`ng to`qimalarda yig`ilgan toksinli moddlar, shuningdek og`riq impulslari oqimi organizmga tushadi va shokni eslatuvchi klinik manzarani keltirib chiqaradi.

Ezilish sindromining belgilari.

bemorning umumiy ahvoli dastlab ancha yahshi bo`ladi u umuman beholligidan ezilgan joyi og`rishidan shikoyat qilmaydi. Oradan 6-8 soat o`tgach shikastlangan oyoq- qo`lda shish paydo bo`ladi. Bu soxaning terisi avalgiga qaraganda oqaradi, so`ngra qizg`ish- ko`kimtir tusga kiradi. Terida ichi suyuqlikka to`la pufakchalar paydo bo`ladi , oyoq- qo`lini qimirlatib bol`may qoladi. Bemorning umumiy ahvoli og`irlashadi. Tana harorati 39 / 40 ga ko`tariladi. boshi qattiq og`riydi , qon bosimi avvaliga ko`tarilib keyin tushadi pulsi tezlashadi , buyrak ishi buziladi , oldin siydik ajralishi kamayadi so`ngra siydik umuman ajralmay qoladi – anuriya.

5. MAVZU. TAYANCH HARAKAT APARATINING MEXANI SHIKASTLANISHI

Reja:

1. Suyaklar sinishiniing turlari va belgilari.
2. Suyaklarning chiqishi va uninig trurlari.
3. Suyaklar chiqqanda 1-yordam ko`rsatish.
4. Suyaklar chiqishi va unga birinchi yordam.

SUYAK sinishi deb, suyak butunligininig buzilishiga aytiladi. Suyak sinishida ko`pchilik hollarda suyak siniqlarining siljishi ro`y beradi. Bir qator hollarda suyak siniqlari bo`lmaydi. . (bolalarda bo`ladigan suyak sinishlarida)

Suyak sinishi tug`ma va orttirilgan bo`lishi mumkin.

Homilaninig ona qornidagi davrida turli omillarniing ta`sirida yuz beradigan shikastlanish turiga t u g ` m a sinish deyiladi.

Katta yoshdagi kishilarda va bolalarda qanday bo`lmasin mexanik omillar natijasida ro`y beradigan sinish turlarini orttirilgan suyak sinishi dab atash rasm bo`lgan. Tug`ruq vaqtida yuz beradigan sinishlar orttirilgan sinishlar qatoriga kiradi. Suyak kasalliklarida ro`y beradigan sinishlar patalogik sinishlar deyiladi.

Suyaklarniing elastikligi yo`qolishi natijasida keksa yoshdagi kishilarda suyak sinishlari ko`p uchraydi.

Suyak sinishlarida 1 yordam shikastlangan qo`l yoki oyoqni immobilizatsiyalashdan iborat. Ochiq suyak sinishida oldin aseptik bog`lam qo`yiladi. Bemorga anal`getiklar yuboriladi va uni shifoxonaga etkaziladi.

SINISHLARNI DAVOLASH PRINSIPLARI.

Sinislarninigi davolash asosini suyak sinislarnini joy- joyiga silish va suyak qadog'i hosil bo'lguncha ularni shu vaziyatda tutib turish tashkil etadi. Suyak sinislarnini joyiga solishdan oldin og'riqsizlantiriladi. Suyak sinislarnini to'g'ri vaziyatda ushlab turish uchun:

- 1) Gips bog'lam qo'yiladi.
- 2) teri ustidan va skeledann tortish qo'llaniladi.
- 3) Suyak sinislarnini xirurgik metod bilan fiksatsiya qilinadi.

transport immobilizatsiyasi- suyak sinislarnida va yumshoq to'qimalar anchagina shiakstlanganda gavgdaniing shu qismiga orom berish, og'riqni kamaytirish, to'qimalarni keyingi shikastlanishini oldini olish, Shuningdek travmatik shokni profilaktika qilish maqsadida qo'llaniladi. Transport immobilizatsiyasininigi qo'yidagi turlari farqlanadi:

- 1) Oddiy immob-ya - bunda bemor gavgdasining sog'lom qismlaridan foydalaniladi.M: oyog'i singanda 2 sog'lom oyog'iga bog'lanadi. Shikastlangan qulini tanasiga bo'g'lanadi.
- 2) Mavjud vositalar bilan imm-sh. Tayoq taxta bo'lagi, bir dasta sim, shox- shabbalardan shunday vositalar yordamida ofyhdalanish mumkin.
- 3) Zavodda ishlab chiqilgan transport shinalari bilan imm-ya qilish.

Transport shinalari ikkiga:

Fiksatsion va distraksion shinalarga bo'linadi.

Fiksatsion shinalar yordamida gavgdaning shikastlangan qismi fiksatsiya qilinadi.

Kramer shinasi yoki narvonsimon shinani yumshoq simdan tayorlanadi. gavgdaniing qaysi qismi immob- ya qilinishiga qarab, shina shaklini istagancha uzgartirish mumkin. Tursimon shina ham yumshoq simdan yasalgan turdan iborat. Uni osonlikcha yumoloqlab urash mumkin. Asosan bilak, qo'l va oyoq panjasini immob-ya qilish uchun qo'llaniladi. Faner shinalar aksariyat tarnov shaklida tayorlanadi. Vakuum tibbiyot shinalari – oyoq va qo'llarni immob-ya qilish uchun ishlatiladi.

Distraksion shinalar- bu sinig suyak uchlarini bir- biridan uzoqlashtirib, qon tomir va nerv tolalari shikastlanishini oldini oladi. Bularga- Diterixs shinasi kiradi.

Transport shinalarini qo'ytishda qator qoidalarga amal qilish zarur. Shina shikastlangan zonadan tashqari ikkita qo'shni bo'g'imni mahkam ushlab turish zarur. Immob- ya qo'pol manipyulyar qilish yaramaydi. Shikastlangan kishininigi kiyim- boshi yechiladi, bog'lam shikastlangan qismigagina bog'lanadi. Shinaga max sus paxta, doka, uraladi.

Narvonsimon shina qo'yish.

Shian gavgdaniing qaysi qismiga qo'yilishiga qarab oldindan modellanadi. Elka suyagi singanda shina sog'lom tomondagi kurakning ichki chetidan boshlab quyilishi, yaqinlashtirilgan qulning yarim bukilgan tursak bug'imining tashqi yuzasi bo'ylab borishi va barmoqlar uchidan birmuncha oshirib tugallanishi kerak. Bilak shikastlanganda elkaning uchdan bir o'rta qismi shinaning yuqori sathi, barmoqlarninigi uchlari shinaning pastki sathi hisoblanadi. Boldir shikastlanganda uchala

tomondan fiksatsiya qilgan yahshi: Bitta shianni boldir va oyoq panjasi barmoqlari uchining orqa sathidan sonning uchdan bir qismigacha , boshqa ikkitasini boldirning yon tomonlari bo`ylab fiksatsiya qilinadi. Bunda shinalarning oyoq kaftlariga tegib turadigan qismini boldir- panja bug`imini birmuncha mustahkamlash uchun uzangi ko`rinishida qayriladi. Derixs shinasini qo`yish. Shinaning oyoq kaftiga mos keladigan qismini oyoq panjasininig kaft qismiga bint bilan fiksatsiya qilinadi. Birmuncha uzun tashqi qismini qo`ltiqdan boshlab qo`yiladi va oyoq qismiga metall halqaga kiritilib, undan 8- 10 sm tashqariga chiqarib qo`yiladi.

SUYAK CHIQISHI.

Suyak chiqishi deganda bir yoki bir nechta suyaklarning buzilishidan bug`im yuzasiniing patologik siljishi, Ularning normal anatomik uzaro munosabatlarning buzilishi tushunilishi. Suyaklarning to`la va chala chiqishi tafovut qilinadi:

Suyak chiqishining qo`yidagi turlari ma`lum:

- 1) Shikastlanish oqibatida yuz bergan travmatik chiqishi.
- 2) Boylam apparati va suyaklarning boylam uchlari zararlanishi bilan bog`liq bulgan kasalliklarda sodir bo`ladigan patalogik chiqishi.
- 3) Tug`ma chiqishi.
- 4) Suyakning boylam apparatining cho`zilishi natijasida ko`pincha suyakning travmatik chiqishi noto`g`rio davolanganda yuz beradigan odat bo`lib qolgan chiqishlar.
- 5) O`z vaqtida joyiga solinmagan - eskirgan suyak chiqishi.

Suyakning chiqishi vaqtida qattiq og`riq bo`ladi. kkeyingi kunlarda og`riq esa asta- sekin pasayadi . Qo`l va oyoq suyagi chiqqanda ular majburiy vaziyatni egallaydi. Bug`imlardagi harakatlar hajmi keskin buzilgan. Bug`im konfiguratsiyasi bo`gim yuzasi vaziyati uzgarishining hosibiga ham, gematoma hisobiga ham keskin uzgaradi.

SUYAKLAR CHIQANDA BIRINCHI YORDAM.

Oyoq va qo`lni immob-ya qilish zarur. Og`riqni pasaytirish maqsadida suyak chiqqan zonada muz yoki sovuq suv solingan xaltachada qo`yiladi. analgetiklar yuboriladi shundan so`ng bemorni zudlik bilan davolash muassasasiga junatiladi. Chiqqan suyakni vrach tug`rilaydi.

Suyak chiqishining turiga va qaerdagi suyak chiqqaniga qarab, uning urniga solishning muayyan usullari mavjud. Bug`im bo`shlig`iga novokain yuborib, mahalliy og`riqsizlantirishdan so`ng suyak joyiga solinadi. M: Yirik bo`g`i9mda chanoq-son bo`g`imda suyak chiqqanda skelet muskullari tonusni bushashtirish uchun miorelaksantlar bilan umumiy og`riqsizlantirishga to`g`ri keladi. Chiqqan suyak joyiga solingandan so`ng oyoq yoki qo`lni bog`lam yoki gips longeta bilan 4-5 kunga qimirlamaydigan qilib q

o`liladi. Shundan so`ng davo gimnastikasi, massaj va issiq muolajalar buyuriladi.

Eskirgan suyak chiqishlarida suyakni operatsiya qilinib, urniga solinadi. Odat bo`lib qolgan suyak chiqishida boylam apparatini operatsiya yo`li bilan mahkamlanadi

KOK`RAK QAFASINING YOPIQ SHIKASTLARI.

Ko`krakning yopiq shikastlari tinchlik davrida 10 % ni tashkil etadi. Ko`krakning yopiq shikastlari kup uchraydi va nafas olish ritmining buzilishi bilan kehcadi.

Ko`krak qafasi yumshoq to`qimalarining lat eyishida usha joyda shish, og`riq, teri osti gematomasi bo`ladi. Og`riq chuqur nafas olganda, bosib kurganda qattiq og`riydi.

Qovurg`aning sinishi. Bevosita travmalarda yoki ko`krak qafasining bosilishidan sinadi. Qovurg`alar yoriladi, suyak ust pardasi ostidan sinadi va bitta yoki bir nechta qovurh`alar tula sinadi. Qovurg`alar sinib o`pka yoki plevrani shikastlashi m-n.

Klinik manzarasi: Qovurg`alar yakka singanda utkir cheklangan og`riq kuzatiladi. bu- nafas olganda, yutalganda va gavda vaziyatini uzgartirganda kuchayadi. Paypaslash yuli bilan og`riq aniqlanadi, suyak siniqlari siljigan sinishda qovurg`alarning shakli pog`onasimon bo`lib qoladi.

Qovurh`lar ko`p joyidan singanda klinik manzara yomonlashadi, bemor shok holaqtda bo`lishi mumkin. Upka tuqimasi shikastlanganda teri osti emfizemasi hosil bo`ladi – havo teri osti kletchatkasifa chiqadi, bemor qon tupuradi, nafas olish qiyinlashadi akrotsianozi (lab, burun uchi, quloq chig`anog`i barmoqlar uchi ko`karadi) taxikardiya bo`ladi. Plevra bo`shlig`ida qon yig`ilganda va havo bulganda upkaning nafas olishi eshitilmaydi. Qovurg`alar sinishini tasdiqlash uchun ko`krak qafasini rentgenologik tekshiriladi.

Birinchi tibbiy yordam ko`rsatish.

Singan zonaga 5- 10 ml 2% navokain eritmasi yuboriladi. Ko`p joydan singanda ularning zonasiga 0.5% li navokain eritmasi kiritiladi va shu tomonning uzida vagosimpatik blokada qilinadi. 10 min. utgach ignani chiqarmay turib qo`shimcha ravishda 0.02% li sovkain eritmasi va 0.04 5 dikain e-si yuborish lozim.

Upka yallig`lanishini profilaktika qilish uchun bemor nafas gimnastikasi bilan shug`ullanishi kerak. Qovurg`alar singanda kukrak qafasini bintlash tavsiya etilmaydi.

UMROV suyagining chiqishi

Umrov suyagi akromial va tush uchlarining chiqishi farq qilinadi. Boylam apparatining yirtilish darajasiga ko`ra uning tula va qisman chiqishi tafovut qilinadi. Tula chiqishda shu soxadagi boylam apparati batamom yirtiladi, qisman saqlanib qoladi

Klinik manzarasi: umrov suyagi akromial uchidan chiqqanda elka usti soxasida akromial uchining chiqib qolishi sabablari . pog`onasimon deformatsiya kuzda tutiladi. Qisman chiqqanda umrovning akromial uchi unchalik ruy-rost turtib chiqmaydi.

Umrov tush uchi chiqqanda bu sohada umrov suyagining turtib chiqqanligi va gematoma k`orinadi. Diaqnozni oydinlashtirish uchun rentgenografiya qilinadi.

Birinchi yordam: elka suyagi uzoqlashtirilganda va umrovning chiqib turgan uchi bosilganda umrov joyiga tushadi. Umrov suyagiga qalin karton pelot qilinadi va gips bog`lam bilan fiksatsiya qilinadi. umrovning chiqqan uchunu tutib turishning iloji bulmagani operatsiya yo`li bilan davolanadi.

Umrov suyagining sinishi

Bevosita zarb tushganda yoki yozilgan qo`lga, tirsakka , elkaning yuzasiga yiqilganda umrov suyagi sinadi. Katta yoshda kishilarda kundalang, qiyshiq va parchalanib sinish qayd qilinadi Odatda umrov sinishi suyak siniqlarining siljishi bilan utadi.

Suyak siniqlari tomir, nerv tutamini, plevra gumbazi yoki teri shikastlanishi mumkin.

Klinik manzarasi: kuchli og`riq va singan zonada pog`onsimon deformatsiya kuzatiladi. Elka osti zonasi sog`lom tomonga ko`ra qisqaradi. Bemor shikastlangan tomondagi qulini kutarib turadi.

1 yordam ko`rsatishda shikastlangan tomondagi qulga Dezo bog`lami yoki kasinkasi foydalaniladi. Sinishni davolshda shikastlangan zonaga navokain yuboriladi yoki blokada qilinadi. Bemorning elkalarini iloji borihca uzoqlashtirladi va ikkala elka uchi soxasiga 2 ta doka halqa kiygizilib, ularni rezina naycha bilan bog`lanadi ( Delbe metodi) Kerilgan elkalar usga halqalar urnigga sakkizsimon bog`lam quysa ham bo`ladi. Suyak siniqlari 3-4 haftada bitadi. Suyak siniqlarini joyiga solib bulmasa operatsiya qilinadi. Operatsiya mohiyati suyak siniqlarini lavsan ip yoki sim bilan shuningdek, umrov suyaginign ikkala uchidan utkazilgan zanglamaydigan pulat kegay bilan biriktirishdan iborat.

Ko`krak qafasini teshib kiradigan ochiq shikastlar.

Ko`krak qafasining chiq shikastlari deganda teri, teri kletchatkasi va muskul qavatini, parietal plevra shikastlanadigan zararlanishlar tushuniladi. Kok`rakning ochiq yaralanishi sovuq qurol yoki uqotar quroldan sodir bo`ladi.

Ko`krak qafasini teshib kiradigan, yaralanishlarda ko`pincha pnevmotoraks - plevra bo`shlig`ida havo yig`ilishi, gemotoraks plevra bo`shlig`ida qon yig`ilishi va gemopnevmotoraks havo va qon yig`ilishi kuzatiladi.

6.MAVZU. INSON ORGANIZMIGA ELEKTR TOKINING TA`SIRI, SHOSHILINCH TIBBIY YORADAM XIZMATINI CHAQIRISH.

Reja:

1. Elektr tokining odam va hayvonlarga ta'siri
2. Elektr tokidan jarohatlanish sabablari va uning oldini olish
3. Elektr toki ta'siri tufayli kelib chiqadigan jarohatlanishdan himoyalaniş tadbirlari
4. Statik elektr toki va undan himoyalaniş

1. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish omillaridan biri uni elektrlashtirishdir. U mehnatni engillashtirish bilan bir qatorda odamlar hayotiga va sog'ligiga juda katta xavf tug'diradi. Boshqa xavfli manbalardan elektr tokini asboblarsiz va ma'lum masofada turmasdan aniqlab bo'lmaydi.

Elektr toki bilan jarohatlanishlar umuman olganda 0,5-1,0 % ni tashkil etadi. Ammo ulardan elektr toki natijasida o'lim bilan tugagani 20-40 % ga to'g'ri keladi.

Elektrjarohat- elektr toki yoki elektr yoyi ta'siri natijasida kelib chiqqan jarohatdir.

Elektr tokidan har xil sharoitlar: sim yoki tok o'tkazuvchi ochiq qismlarga tegib ketishdan, himoyalanganligi buzilgan bo'lsa, yoy orqali elektr tokini ta'sir qilishi, uskunalarining metall qismlariga tegib ketishdan, tasodifan kuchlanish ostiga tushib qolish, elektr uzatuvchi qismlarga katta o'lchamli mashinalarning(avtokranlar, don o'rish va paxta terish kombaynlari) ruxsat etilmagan darajada yaqinlashuvi va boshqalarda jarohatlanish mumkin.

Elektrxavfsizlik(GOST 12.1.009-76) – tashkiliy va texnik chora- tadbirlar tizimi va vositalaridir, ular odamlarni elektr maydonidan va statik (turg'un) elektr tokini zararli va xavfli ta'siridan himoyalanişini ta'minlaydi.

Elektr tokining odam organizmiga va hayvonlarga ta'siri juda o'ziga xos murakkab shaklda vujudga keladi. Organizmdan elektr tokining o'tishi natijasida kimyoviy, issiqlik va biologik ta'sir ko'rsatadi. Kimyoviy ta'sir tufayli qon tarkibidagi moddalar va boshqa organik suyuqliklar parchalanadi. Issiqlik ta'siri natijasida terining ayrim qismlari kuyadi. Elektr tokining biologik ta'siri natijasida organizmdagi tirik hujayralar qo'zg'aladi, teri qichishadi, tomir tortishadi va muskullar qisqaradi. Elektr toki urishi katta xavf tug'diradi, u butun organizmni jarohatlaydi, asab sistemasini, yurak va nafas olish organlarini to'liq yoki qisman falajlashi mumkin.

Organizmni elektr tokidan jarohatlanishiga bir necha omillar: tok kuchi, insonning qarshiligi, kuchlanish qiymati, tok chastotasi va turi, ta'sir qilish muddati. shungdek odam organizmining alohida xususiyatlari ta'sir ko'rsatadi.

Xavf yuz berishi mumkin bo'lgan quydagi tok qiymatlarini ajratish mumkin:

1. Seziluvchan tok (2mA gacha)- organizmdan o'tganda sezilarli qo'zg'atishni keltirib chiqaradi;

2. Qo'yib yubormaydigan tok (10-25mA)- organizmdan o'tganda qo'l muskullarida engib bo'lmaydigan tomir tortishishlar ro'y beradi.

3. Fibrilyatsion tok (50 mA dan yuqori)- organizmdan o'tganda yurakni fibrilyatsiyalaydi (yurak muskullarining tartibsiz qisqarishi).

Elektr tokidan jarohatlanishda odam tanasining qarshiligi katta ahamiyatga ega. Odam tanasining elektr tokiga qarshiligi keng 100000 dan 1000 Om oraliqda o'zgaradi vat eri qoplaminig holatiga (quruq, nam, dag'allashgan, shikastlanmagan yoki shikastlangan teri), bog'lanishning maydoni va zichligiga, shungdek o'tayotgan tokning kuchi va chastotasiga va ta'sir qilish muddatiga bog'liqdir. Charchaganda, kasallanganda, terlaganda, elektr qurilmalari ostida ishlayotganda diqqat e'tibor boshqa narsaga chalg'iganda organizmning elektr toki ta'siriga qarshiligi keskin kamayadi. Yuragi kasal, terisida qichima kasalligi bor, oshqozoni yara, epilepsiya bilan og'rigan, jigar hamda buyragi kasal va boshqa kasalliklari bor kishilar elektr qurilmalarida ishlashga yo'l qo'yilmaydi.

Hayvonlarning organizmiga ham elektr toki, odamlardagi kabi ta'sir qiladi. Hayvonlar qanchalik og'ir bo'lsa, elektr tokiga qarshiligi shuncha ko'payadi. Tok qiymati 100 mA bo'lganda, yurak faoliyatida yoki nafas olishning ishida hech qanday o'zgarish bo'lmaydi. Ammo hayvon tanasining qarshiligi, odam tanasining qarshiligidan ancha kam. Yirik shoxli mollarning oldingi va orqa oyoqlari orasidagi tana qarshiligi 400-600 Om, hayvon yiqilganda esa 50-100 Om gacha kamayadi.

Hayvonlarga kichik kuchlanishlar bilan har doim ta'sir qilib turilsa, ular mahsuldorligi kamayib ketishi kuzatilgan. Agar kuchlanishning kattaligi 4-8 V bo'lsa, sut berish 20-40 % ga kamayadi.

Qishloq xo'jaligida, odatda, o'zgaruvchan elektr tokidan foydalaniladi. Ko'pgina jihozlar 380 V kuchlanish bilan ishlaydi, yoritish uchun esa 220 va 127 V kuchlanishlardan foydalaniladi. Elektr xavfsizligi shartlariga ko'ra, elektr qurilmalar 1000 V gacha va 1000 V dan yuqori kuchlanishli qurilmalarga bo'linadi.

2. Elektr toki urishiga kishining elektr zanjiriga ulanib qolishi sabab bo'ladi. Elektr tokiga ulanib qolishning ikki xil shakli bor: ikkita sim orasida ulanib qolish va sim bilan er orasida ulanib qolish. Ikkala holda ham jarohatlanish darajasi kuchlanish kattaligiga, pol va poyafzal himoyalashning holatiga, ishlab chiqarish xonasidagi muhit sharoitiga, simlarga tekkan paytda kishining holatiga bog'liq. Tana, qo'llar orqali tok o'tishi eng xavfli hisoblanadi, chunki tok o'tadigan yo'lda yurak, o'pka, miya joylashgan. Odamning elektr tokidan jarohatlanishining boshqa hollariga quydagilar sabab bo'ladi:

1. Elektr qurilmalarini o'rnatish va ulardan foydalanishda xavfsizlik texnikasi qoidalarining buzilishi;

2. Elektr jihozlarining kuchlanish ostida qolgan tok o'tkazmaydigan metall qismlarga tegib ketishi;

Jarohatlanishning xavfsiz mehnat usullarini bilmaslik.

3. Elektr tokidan jarohatlanish sabablarini ko'rib chiqishda jarohatlanishga sabab bo'lgan elektr jihozlarini mufassal ko'zdan kechirish lozim. Jihoz va elektr tarmog'i to'g'risidagi ma'lumotlarni, qurilmaning ko'chlanish kattaligi, chastotasi, quvvatini, simlarning markasini, tarmoqning hamda ta'minlash manbainig erga nisbatan himoyalash (izolyatsiyalash) tartibini, asboblarning jarohatlanishdan oldingi va keyingi ko'rsatishlarini, jarohatlangan kishining kiyimi hamda poyafzalining holatini (quruq, nam, zaxligini); havo haroratini aniqlab olish kerak.

3. Qishloq xo'jaligida elektr tokidan jarohatlanishning oldini olish uchun profilaktik ishlar o'tkazish zarur. Ular quydagilardan iboratdir:

1. Ishlab turgan butun elektr jihozlarini istimolchilarning elektr qurilmalarini ishlatishda rioya qilinadigan TIQ (texnik ishlatish qoidalari) va XTQ(xavfsizlik texnikasi qoidalari)talablariga javob beradigan holatga keltirish.
2. Mahalliy sharoitlardan kelib chiqib, elektr qurilmalar bilan ishlash xavfsizligini oshiradigan qo'shimcha tadbirlar ko'rish.
3. Elektr asbobolarini, tezda almashlab ulashlarni, ta'mirlash ishlarini pasaytirilgan kuchlanishga o'tkazish.
4. Ishlatiladigan shaxsiy himoyalani vositalarini takomillashtirish.
5. Xavfsiz mehnat usullarini ko'rsatish orqali odamlarning o'qish sifatini yaxshilash.

Elektr tokidan jarohatlanish ko'pincha muhitga bog'liq, qayerda elektr qurilmalar ishlatilsa, elektr qurilmalarning tok o'tkazadigan va simlarning himoya qismlarini yuqori namlik, gazlarning ta'siri sekin-asta emiradi. Atrof muhit namligining yuqori bo'lishi tana qarshiligini kamaytiradi.

Atrof muhitga qarab elektr havfsizligi uch guruhga: xavfi kam bo'lgan, xavfi yuqori bo'lgan va o'ta xavfli xonalarga bo'linadi.

Xavfi yuqori xonalar pollar tok o'tkazuvchan (metall, tuproqli, betonli), xonalarning namligi (havoning nisbiy namligi 75 % dan yuqori) yoki tok o'tkazuvchan changlarning mavjudligi, havo haroratining yuqoriligi (Q300 dan yuqori); er bilan ulangan bino va uskunalarining metalkonstruktsiyalari hamda elektr jihozlarining metall korpuslariga ishchining bir vaqtda tegib qolish ehtimoli borligi bilan harakterlanadi. O'ta xavfli xonalar havoning nisbiy namligi 100% ga yaqin, muhitning kimyoviy aktivligining (kislota bug'lari, ishqorlar), yuqori bo'lishi shuningdek, ikki shartlarni bir vaqtda mavjudligi bilan tavsiflanadi. Shu kategoriyalarga ochiq maydonlarda, xonadan tashqarida ishlatilayotgan. Elektr qurilmalarni kiritish mumkin. Qishloq xo'jaligidagi ko'pchilik xonalar yuqori xavfli xonalarga kiradi (poli er xonalar) yoki o'ta xavfli (molxonalar, cho'chqaxonalar, issiqxonalar va boshqalar).

Elektr qurilmalarini ishlatishda yuz beradigan asosiy avariyalardan biri himoyalovchi (izolyatsiya) ning shikastlanishidir. Tok o'tkazuvchi qismlarning kuchlanishiga mos keladigan himoyalani (ETQ) vositalari tanlanadi. Elektr simlarini himoyalagichining erga nisbatan qarshiligi 0,5 Om dan kam bo'lmasligi kerak. Yuqori harorat, agressiv suyuqliklar va boshqa zararli omillar ta'sir etadigan sharoitlarda himoyalagich holatini hamisha nazorat qilib turish, ya'ni jihozni ta'mirlash vaqtida hamda ishga tushirish oldidan qarshiligini o'lchash lozim. Himoyalagich yaxshi ishlashi uchun u eng pasidan (nominaldan) 5-6 marta katta kuchlanish bilan profilaktik sinovdan o'tkaziladi.

Ishlovchilarni himoyalash maqsadida elektr qurilmalarining hamma tok o'tkazmaydigan metall qismlari va elektr jihozlarining korpusi ishonchli qilib erga ulanadi. Erga ulash simlari erga ulagichlarga va erga ulanadigan konstruktsiyalarga payvandlab, mashinalar, apparatlar korpusiga esa payvandlab yoki boltlar yordamida mustahkam qilib ulanadi. Egiluvchan erga ulash simlarining uchlariga albatta uchliklar payvandlanadi. elektr tarmog'ining shikastlangan qismlarini uzib

qo'yish uchun ishlab chiqarishda tez ishlab ketadigan avtomatik uzgichlar o'rnatiladi.

4. Ma'lumki, ikki dielektrik moddalarni bir-biri bilan ishqalanishi natijasida, ularda elektr zaryadlari hosil bo'ladi va to'planadi, bu statik degan nom olgan. Bunday zaryadlar, bir shkivdan ikkinchisiga aylanma harakat uzatilganda tasmalarda hosil bo'ladi, agar u holatda tasmani shkivga ishqalanish va sirpanish hollari bo'lsagina amalga oshadi. Statik zaryadlar metall quvurlari orqali o'tadigan suyuqliklarning devoriga ishqalanish natijasida hosil bo'ladi. Ayniqsa xavfli zaryadlar dielektrik suyuqliklarni havo bo'ylab tez harakati natijasida hosil bo'ladi (masalan, sig'imlarni tubigacha etmagan shlanglar orqali metall sig'imlarga benzin, kerosin quyganda). Bu holda trubalarda ishqalanish natijasida suyuqliklarda hosil bo'lgan zaryadlar shuningdek, gazlar va bug'larni siqqanda yoki tez kengaytirganda hosil bo'lishi mumkin.

Statik zaryadlar odam va yong'in xavfsizligi uchun xavflidir. Elektrostatik zaryadlardan himoyalashning asosiy chora-tadbirlari suyuqliklari qo'zg'atishda (bir joydan ikkinchi joyga etkazishda) ishlatiladigan uskunalarni, quvur yo'llarini yoki metall sig'imlarini erga ulash yo'li bilan zaryadlarni erga o'tkazib yuboriladi. Shuningdek, quyidagi talablarni bajarish shart:

- dielektrik suyuqliklarni oqizganda shlangani sig'imning tubigacha tushirish lozim;
- dielektrik suyuqliklarni tashish paytida sig'im erga osilib sudraladigan zanjir yordamida erga ulangan bo'lishi kerak;
- qayishli uzatmalarda elektr zaryadlarini hosil bo'lishini kamaytirish maqsadida qayishlarni moylab turish tavsiya qilinadi;
- vaqt-vaqti bilan xonalarni umumiy nisbiy namligini 70 % chiqarib namlab turish zarur;
- uskunalarda elektr zaryadlarini paydo bo'lishini va ularni hosil bo'lish sabablarini yo'qotish tadbirlarini har doim nazorat qilib turish kerak.

Mavzu bo'yicha savollar

- 1) Elektr tokidan erga ulab muhofazalashning mohiyati nimaq
- 2) Elektr tokidan muhofazalashning umumiy usullarini aytingq

7.MAVZU. SHOK HOLATI. UZOQ MUDDATLI BOSIB QOLISH SINDROMI.

Reja:

- 1) Shokning kelib chiqishga ko'ra turlari.
- 2) Shok holatida shoshilinch yordam ko'rsatish
- 3) Ezilish sindromi klinik belgilari
- 4) Ezilish sindromida birinchi yordam ko'rsatish usullari.

SHOK

Shok deganda hayotiy tizimlar funksiyasining to'satdan shiddatli tarzda pasayib ketishi tushunilib, uning kelib chiqishiga mikrotsirkulyatsiya bilan

to'qimalarning kislorodga to'yinishining nomutanosibligi sabab bo'ladi. Shokning turlari:

1. Travmatik shok.
 - a) mexanik ta'sir natijasida (jarohat, shikastlar, jarrohlik muolajasida, to'qimalarning ezilishi);
 - b) kuyish shoki (termik, kimyoviy kuyishlar);
 - d) elektr ta'siridan bo'ladigan shok;
 - e) sovuqdan bo'ladigan shok;
2. Gemorragik yoki gipovolemik shok (qon ketishi, suvsizlanishdan);
3. Kardiogen shok (miokard infarkti, aritmiya, o'tkir yurak yetishmovchiligi).
4. Toksik- infeksiyon shok (grammusbat, grammanfiy infeksiya).
5. Anafilaktik shok.

TRAVMATIK SHOK VA SHOKKA QARSHI KO'RILADIGAN CHORALAR

Baxtsiz hodisalardan keyin, kuchli va og'ir shikastlanish, ko'p joyning og'ir kuyishi yoki uzoq davom etadigan og'ir operatsiyalardan so'ng yuzaga keladigan eng og'ir asoratlardan biri shok hisoblanadi. Bu og'ir holat nerv tizimi va hayotiy zarur jarayonlarning susayishi bilan hamda qon bosimining zo'r berib pasayishi bilan ifodalanadi. Shok holatini keltirib chiqaradigan sabablar turli-tuman. Baxtsiz hodisa natijasida jarohatlanishdan keyingi bu holat *travmatik shok* deb ataladi. Travmatik shok jarohatlanishlarda, ya'ni yumshoq to'qimalarning katta sohalari butunligining buzilishi, ko'krak qafasi va qorin bo'shlig'i yoki katta nerv dastaklarining shikastlanishi, suyaklarning maydalanib ketishi, qo'l yoki oyoq qismlarining uzilishi va hokazolarda, kuyishda ko'p uchraydi.

Jismoniy toliqish, uzoq vaqt uxlamaslik, och qolish va ozib ketish, sovuqotish, qon yo'qotish, nurlanish kasalligi, hayajonlanish shokka sabab bo'ladi. Shok aksari ko'p qon yo'qotishdan kelib chiqadi. Xirurgik operatsiyadan keyingi shokning paydo bo'lish sabablari quyidagicha: operatsiya uzoqqa cho'zilishi, to'la og'riqsizlantirmaslik yoki narkozning yetarli bo'lmasligi, ko'p miqdorda qon yo'qotish, operatsiyaning og'ir o'tishi, ayniqsa, sezuvchan joylarda yaralarni operatsiya qilish va hokazo. Ko'pincha shok holati shikastlangandan keyin oz vaqt o'tgach yuzaga kela boshlaydi. Bu *birlamchi yoki dastlabki shok* deb ataladi. Ba'zan jarohatlangandan yoki operatsiyadan keyin birmuncha vaqt o'tgach shok yuz beradi. Bu *ikkilamchi shok* deb ataladi. Ikkilamchi shok shikastlangan sohaning qattiq og'irishi natijasida ayniqsa, bemorni transportda tashiganda shikastlangan oyoq-qo'l yaxshilab qattiq qilib bog'lamaslik (singan suyak parchalarining bir-biridan qochishi, transportdagi silkinishlar), shuningdek, to'qimaning yemirilishi tufayli kelib chiqishi mumkin.

Shokning kechishida ketma-ket ikkita: erektel (*qo'zg'alish holat*) va torpid (tormozlangan holat) davr qayd qilinadi. Shokning erektel davrida bemorda qo'zg'alish va qo'rqish, bezovta bo'lib oyoq-qo'llarini tipirchilatishi kuzatiladi, yuzi qizaradi, tomiri tez uradi. Torpid davrda esa kasal ko'pincha loqayd bo'lib, qon bosimi past, qon tomir urishi tezlashadi (120 marta va undan ortiq), ba'zan puls butunlay yo'qoladi. Biroq amalda bu davrlarni aniqlash qiyin.


Shok quyidagi belgilar bilan ifodalanadi: nafas olish tezlashishi, harorat pasayishi, siydik miqdori kamayishi, teri oqarib ketishi, sovuq ter bosishi, yuzlarning soʻrpayib qolishi va boshqalar, koʻz qorachigʻi kengayib ketadi, biroq yorugʻlikka reaksiya beradi: koʻpincha koʻngil ayniydi, hiqichoq tutadi bemor qusadi.

Oxirgi vaqtda olimlar shok holatini uch darajaga boʻldilar: birinchi daraja shokda bemorning umumiy ahvoli yaxshi boʻlib, puls minutiga 90-100 marta urib turadi, maksimal qon bosimi 100 millimetr simob ustunidan ortiq boʻladi. Ikkinchi darajada bemor qizarib, sovuq yeyishi mumkin, puls minutiga 120-140 marta uradi, maksimal qon bosimi 70-80 mm simob ustuni oʻrtasida boʻladi. Uchinchi darajada bemorning ahvoli ancha ogʻirlashadi, puls minutiga 120-160 marta uradi, maksimal qon bosimi 70 mm simob ustunidan kam boʻladi.

TRAVMATIK SHOKNING OLDINI OLISH VA DAVOLASH

Shokning oldini olish va davolash ishlarini bemorni evakuatsiya qilishning hamma bosqichlarida: hodisa roʻy bergan joyda, tez yordam mashinasida va kasalxonalarda amalga oshirish mumkin.

Hodisa sodir boʻlgan joyda bemorga birinchi yordam berish quyidagi eng muhim tadbirlardan iborat boʻlishi kerak: bemor shikastlovchi faktorning taʼsiridan xalos qilinadi, tashqi qon oqishi vaqtincha toʻxtatiladi (jgut, zakrutka va hokazo bogʻlanadi), ogʻriqsizlantirish chorasi koʻriladi — teri ostiga morfin (1% eritmasidan 1 ml, pantapon (2% li eritmasidan 1 ml) yoki promedol (2% li eritmasidan 1 ml) yuboriladi, bemor isitiladi (issiq choy ichiriladi, issiq koʻrpa bilan oʻraladi), yordamchi vositalar (tayoq, taxta va shunga oʻxshash) yoki shinalar bilan immobilizatsiya qilinadi, «ogʻizdan-ogʻizga» yoki «ogʻizdan-burunga» sunʼiy nafas oldiriladi. Iloji boricha, bemor darrov zambilga yoki taxtaga olib, yaqin orada joylashgan kasalxonaga joʻnatiladi. Urush vaqtida esa OMPdagi shokka qarshi palatalarga yuboriladi (47-rasm). Bemorlarga, ayniqsa, terminal holatda yotgan kishilarga barvaqt malakali yordam berish uchun soʻnggi vaqtda ixtisoslashtirilgan tez yordam mashinalari tatbiq etilgan. Bu mashinalarda intubatsiya qilish va azot (I)-oksid bilan narkoz berish, apparatlar yordamida kisloroddan sunʼiy nafas oldirish, traxeotomiya qilish, venaga va arteriyaga qon hamda suyuqliklar quyish uchun hamma zarur narsalar bor.



47 - rasm. Shokdagi jarohatlanganlarning yotqizish holatlari.

Shikastlangan organga, shuningdek, butun organizmga orom berish zarur. Bemorni ehtiyotlik bilan goh u yoniga, goh bu yoniga, goh chalganchasiga yotqizish, avaylab to'g'ri tashish, shikastlangan qo'l (oyoq o'z vaqtida va to'g'ri immobilizatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Bemor shok holatidan chiqarilguncha immobilazatsiya buzilmasligi lozim. Og'riqqa qarshi kurashish uchun mahalliy infiltratsion anesteziya (novokain blokadas), shuningdek, analgetiklar qo'llaniladi. Naysimon suyaklarning singan joyiga novokain (1-2% li eritmasidan 10-20 ml) yuboriladi. Ko'krak qafasi jarohatlanganda Vishnevskiy usulida vagosimpatik blokada qilish, qorin jarohatlanganda buyrak atrofidagi kletchatkaga novokain eritmasini yuborish samara beradi.

Analgetik moddalardan morfin, promedol, pantopon ko'proq ishlatiladi, 0,25% li novokain eritmasini venaga tomchilab yuborish og'riqni bosadi. Venaga qon quyish shokni davolashning asosiy usullaridan biridir. Shokka qarshi eritma yuborish bilan birga qon yoki plazma quyish ham kerak. Qonning o'rnini bosadigan eritmalardan poliglyukin, sinkol, polivinil-alkogol samaralidir, ular shokda har gal 500 ml dan 2000 ml gacha tomchilatib quyiladi.

Qon tomirlari tonusini oshirish uchun kamfora, kofein, kordiamin, noradrenalin ishlatiladi.

Nafas olishni normallashtirish va kislorod yetishmovchiligiga qarshi kurashish uchun kislorod bilan davolash kerak; yostiqlardan yoki yanada yaxshisi burun yo'liga halqumning orqa devoriga kiritilgan kateter orqali kislorod beriladi. Nafas olish og'ir darajada buzilgan bo'lsa, maxsus apparatlar yordamida boshqariladigan nafas olishga o'tiladi, shuningdek, traxeotomiya qilib, o'pka ventilyatsiyasi osonlashtiriladi.

Ko'pincha og'ir shikastlanishlardan keyin, kuyganda, operatsiya vaqtida hamda operatsiyadan keyin bolalarda shok holati yuzaga kelishi mumkin. Shok bolalarda kattalarga nisbatan juda o'zgaruvchan bo'ladi. Shuning uchun bolalarga orom berish, novokain blokadas qilish, har xil narkotik dorilarni qo'llash katta ahamiyatga ega. Og'riqni kamaytiradigan dorilar sifatida 1% li promedol, morfin yoki pantopon eritmasidan foydalanish mumkin. Bu narkotik moddalarga yosh bolalar juda sezgir bo'ladi. Shuning uchun ham juda ehtiyot bo'lish kerak. Ko'pincha bu maqsadda promedol ko'p ishlatiladi, chunki u boshqa narkotik

moddalarga nisbatan nafas markazini kamroq ta'sirlaydi. U faqat teri ostiga yuboriladi, dozasi esa yoshga qarab kamaytiriladi.


EZILISH SINDROMI

Oyoq - qullar tananing boshqa qismlari yumshoq tuqimalarninig zilzila vaqtida, bosib qolishda va boshqalarda uzoq muddatgacha turli narsalar (daraxt, toshlar, beton plitalar, uta og'ir buyumlar va hokazo) ostida bosilishi oqibatida yuz beradigan ma'lum simptomlar kompleksi e zilish sindromi deyiladi. yoki shikastlanish taksikozi deyiladi. Bunda muskullar teri osti yog` kletchatkasi tomirlar va nervlar suyaklar majaklanadi va sinadi.

Uzoq vaqt ezilish natijasida muskullar va boshqa tuqimalar qonga yolchimay qoladi natijada bu tuqimalarda nekroz boshlanib tuqimalar o'la boshlaydi va uzidan zaharli moddalar ajratadi. So'ng to'qimalarda yig'ilgan toksinli moddlar, shuningdek og'riq impulslari oqimi organizmga tushadi va shokni eslatuvchi klinik manzarani keltirib chiqaradi.

Ezilish sindromining belgilari.

bemorning umumiy ahvoli dastlab ancha yahshi bo'ladi u umuman beholligidan ezilgan joyi og'rishidan shikoyat qilmaydi. Oradan 6-8 soat o'tgach shikastlangan oyoq- qo'lda shish paydo bo'ladi. Bu soxaning terisi avalgiga qaraganda oqaradi, so'ngra qizg'ish- ko'kimtir tusga kiradi. Terida ichi suyuqlikka to'la pufakchalar paydo bo'ladi , oyoq- qo'lini qimirlatib bol'may qoladi. Bemorning umumiy ahvoli og'irlashadi. Tana harorati 39 / 40 ga ko'tariladi. boshi qattiq og'riydi , qon bosimi avvaliga ko'tarilib keyin tushadi pulsi tezlashadi , buyrak ishi buziladi , oldin siydik ajralishi kamayadi so'ngra siydik umuman ajralmay qoladi – anuriya.



8 MAVZU: KUYISHLAR. MUZLASHLAR. ZAHARLANISHLAR VA UNDA SHOSHILINCH BIRINCHI YORDAM KO'RSATISH

REJA

- 3) Kuyish turlari, davrlari va darajalari
- 4) Kuyishda birinchi yordam ko'rsatish
- 5) Sovuq urishi , birinchi tibbiy yordam

Kuyish va unda birinchi yordam.

Kuyish – termik, kimyoviy, elektrik

yoki nur ekologiyasining ta'sirida vujudga keladigan shikastlanishdir. Kuyish sabablariga ko'ra: termik kuyish (quyosh nuri, ultrabinafsha nurlari, ochiq yong'in, yonib turgan gaz, olov, issiq suyuqliklar, suyuq metall sochmalari, bug' va boshqalardan); kimyoviy kuyish – bular ba'zi kimyoviy moddalar ta'sirida (kislota, ishqor, og'ir metallar tuzi, fosfor va boshqalardan kuyish); nurlanishdan kuyish ionlantiruvchi radiatsiya ta'sirida kuyish; elektr tokidan kuyish, chaqmoqdan kuyishlarga bo'linadi (50-rasm). Yumshoq to'qimalar qanchalik chuqur jarohatlanganiga qarab, kuyishning quyidagi darajalari farq qilinadi (52-rasm):

I daraja — yuzaki epidermal kuyish. Teri qizaradi va shishadi.

II daraja — teri yuqori qavatining kuyishi. Teri qizaradi va har xil kattaliklardagi pufakchalar hosil bo'ladi, ularning ichi tiniq yoki xiraroq suyuqlikka to'la bo'ladi.

III daraja — kuyish – terining butun qavatini va qisman teri osti yog' to'qimasini egallaydi. Bunda to'qimalardagi oqsillarning ivib qolishi natijasida teri po'stloq hosil qilib nekrozlanadi (o'ladi).

IV daraja – chuqur to'qimalarning, ya'ni pay, suyak, mushaklarning kuyishi (to'qimalar nekrozi, ko'mirga aylanishi).

Kuyish darajalari va sovuq urish.

1-I-II darajali kuyish; 2-II-III darajali kuyish; 3-sovuq urish

Barcha xildagi kuyish qattiq og'riq bilan kechadi: ko'p joy qattiq kuyganda shok paydo bo'lishi mumkin. Kuyishning og'ir-engilligi xavfi faqat kuyish darajasiga bog'liq bo'lmasdan, balki kuygan sathning katta-kichikligiga ham bog'liqdir. Masalan, badan sathining 1/3 qismi (bolalarda esa hatto 1/4 — 1/8 qismi) kuyishi odam hayoti uchun xavfli bo'lishi, badan sathining 1/3 — 1/2 qismidan ko'prog'ining kuyishi, odatda, o'limga sabab bo'lishi aniqlangan.

III darajada agar badanning 10% idan ko'prog'i kuysa, kuyish kasalligi boshlanadi. Bu kasallik nerv tizimi faoliyatining buzilishi bilan xarakterlidir. Ko'p suyuqlik yo'qotish va kuchli og'riq natijasida shok boshlanadi. Tana harorati 39° -

40⁰ ga ko'tariladi. Kuygan soha bitishdan to'xtaydi, yiringli jarayon kuchayadi, umumiy ahvol og'irlashadi, ishtaha yo'qoladi, bemor qusadi, oza boshlaydi va organizmniig umumiy intoksikatsiyasi boshlanadi.

Kuyganda to'g'ri tibbiy yordam jarayoni ko'rsatish uchun kuygan joyni o'lchash muhim ahamiyatga ega.

1. Kaft bilan o'lchash — katta yoshli odamda kaftning ichki yuzasi butun badan yuzasining 1-2% ini tashkil etadi. Kuygan joyga sterillangan salfetka yopib o'lchanadi va shu son 1 yoki 1,2 ga ko'paytiriladi.

2. To'qqizlar qoidasiga muvofiq o'lchash — bosh, bo'yin yuzasi badanning 9% ni, bir qo'l yuzasi 9% ini, tana 36% ini, har bir oyoq yuzasi 18% ini, oraliq va jinsiy organlar 1% ini tashkil etadi. Raqamlardan foydalanib kuygan yuzani taxminan aniqlash mumkin.

3. Kishi tanasining umumiy sathi 16000 sm² ga tengdir. Uni hisobga olib Postnikov (1949) kuyish joyiga steril sellofan qo'yib, kuygan sathni aniqlash tarhini ishlab chiqqan.

Kuyishda birinchi yordam ko'rsatish umumiy va mahalliy choralardan iborat bo'ladi.

Bu holda asosiy vazifalardan biri zararlangani yong'indan olib chiqish, yonayotgan joyni o'chirish yoki kuyayotgan kiyimni yechib olishdir. Kiyimni tez o'chirmoq darkor, buning uchun shikastlanganni choyshabga tez o'raladi, yoki bu maqsad uchun qalin matoni ishlatga ham bo'ladi. Kuygan joydan kiyimlar kesib olinadi, dastlabki 20 daqiqada kuygan sathlar sovuq suv bilan chayiladi, yoki botirib turiladi. Bu yordam ta'sirida og'riq kamayadi, travmatik shokning oldi olinadi. Keyinchalik kuygan joylar spirt bilan artilishi mumkin. So'ngra kuygan sath toza choyshab yoki uzunasiga qirqilgan, iloji bo'lsa, dazmollangan kiyim-kechak bilan o'raladi. Quruq, imkon boricha sterillangan bog'lam ishlatilgani ma'qul. Keyingi vaqtlarda birinchi yordam sifatida metall bog'lamlar – metall folga yaxshi yordam bermoqda. Shuningdek maxsus ayerozollar (olazol, amprovizol, pantenol, oleol — ko'pik hosil qiluvchi ayerozol + senovokain + dioksidin) va og'riq qoldiruvchi moddalar ishlatiladi.

Oyoq-qo'lining ko'p joyi kuyganda, transport shinasi qo'yish shart. Badan sathining ko'p joyi kuyganda bemor sterillangan choyshabga o'raladi. Kislota va ishqor ta'sirida kuyganda teriga tushgan kimyoviy moddalarni tezda sovuq suv bilan yaxshilab yuvish kerak. Shundan keyin kislotalar ta'siri ishqorlar bilan (2% li soda eritmasi, sovunli suv, bo'r kukuni, qizdirilgan magneziya sepmasi), ishqorlar ta'siri esa kislotalar (1-2% li sirka va limon kislota) bilan neytrallanadi. Qizilo'ngach va me'da kimyoviy moddalardan kuygan birinchi soatlarda me'da ehtiyotlik bilan ko'p miqdordagi cyvda yuviladi, agar yuvish mumkin bo'lmasa, kuygan bemorga sut yoki paxta yog'i ichiriladi. Birinchi yordam ko'rsatilgandan keyin bemor tibbiyot muassasasiga jo'natiladi.

Davolash. Kuyishni davolash bir qancha umumiy va mahalliy chora tadbirlardan iborat.

Umumiy choralar bemorning ahvoliga qarab shokka, zaharlanishga, suvsizlanishga, sepsisga va kamqonlikka qarshi kurashishdan iborat bo'ladi. Bemor ko'p miqdorda issiq shirin choy, mors va boshqalarni (bir kunda 4-5 litrgacha) ichishi lozim. Shuningdek, suyuqlik teri ostiga, mushaklar orasiga yoki klizma holida yuboriladi. Yuqori kalloriyali, oqsil va vitamiga boy ovqat yeyish katta ahamiyatga ega.

Kuyishni mahalliy davolash uning darajasiga bog'liq. Birinchi darajali kuyishda kuygan sohaga sterillangan vazelin surtish kifoya qiladi. Ikkinchi darajali kuyishda toza bog'lam xonasida morfin ineksiya qilingandan keyin kuygan sohani birlamchi tozalash shart. Og'riqni kamaytirish uchun kuygan sohaga 1% li novokain eritmasiga ho'llangan sterillangan salfetka yopiladi. Tozalash asosan, kuygan sohani va uning atrofini fiziologik eritma hamda 5% yoki 0,5% li nashatir spirt eritmasi bilan ohista yuvishdan, iflos qilib turgan narsalarni va pufakchalarning qolgan qismlarini olib tashlashdan iborat. Tozalashdan keyin har xil bog'lamlar qo'yiladi: quruq aseptik, penitsillin yoki novokain eritmasi bilan ho'l, ko'pincha esa mazli bog'lamlar (vazelin yog'i, sintomitsin emulsiyasi, Vishnevskiy mazi) va boshqalardan foydalaniladi. Kuyishni hech qanday bog'lamsiz ochiq davolash maqsadga muvofiqdir. III-IV darajali kuyishda o'lgan to'qimalarni olib tashlash

(nekro-ektomiya) va terini ko'chirib o'tkazish tavsiya etiladi.

Kuyishni mahalliy davolashda bir necha maqsad ko'zda tutiladi. Bunda infeksiyaning oldini olish yoki uni susaytirishga, plazma yo'qotishning oldini olish yoki kamaytirishga, og'riq sezgilarini tugatishga, kuyishdan zararlangan to'qimalarning parchalanish mahsulotlari qonga so'rilishini kamaytirishga va nihoyat, kuygan badanni epiteliy bilan tezroq qoplanishiga intilish kerak.

Hozirgi vaqtda kuyishni davolashning ikkita asosiy: ochiq va yopiq usuli tatbiq etilmoqda. Ochiq usul bog'lamsiz usul deb ham ataladi. Yopiq usulda har xil dorilar surtilgan bog'lamlar ishlatiladi. Kuyishni davolashning ochiq usulida har xil dorilarni ishlatish ham, ishlatmaslik ham mumkin.

Hozirgi vaqtda terining kuygan qatlamlarini koagulyatsiyalaydigan va zich strup hosil bo'lishiga yordam beradigan moddalar keng qo'llanilmoqda. Shu maqsadda kuygan yuzaga kaliy permanganatning quyuq (10% li) eritmasi yoki taninning 5% li eritmasi surtiladi, ba'zan tanindan hosil bo'lgan pardaga 10% li nitrat (lyapis) eritmasi surtiladi. Bu tozalash juda og'riqli bo'lib odatda, narkoz berish (yaxshisi azot (I)-oksid) kerak bo'ladi. Hozir bolalar kuyganda va katta odamlarning yuzi kuyganda shu usulda davolanmoqda.

Ochiq usulda davolaganda maxsus vositalardan foydalaniladi. Kuygan soha birlamchi tozalanib, bemor karkas ostidagi sterillangan choyshabga yotqiziladi. Karkas ustidan sterillangan choyshab va adyol yoyiladi. Karkaz ichidagi lampalar yoqilib bemor isitiladi. Qurigan havo isituvchi ta'sir etib, kuygan soha ustida strup — zich quruq po'st hosil qiladi. Bu esa kuygan sohani yaxshi himoya qiladi. Hozirgi paytda kuygan jarohatga terini ko'chirib o'tqazish usuli ham keng qo'llanilyapti.

Ba'zan yuz va yuqori nafas yo'llari kuyganda (qaynoq suv, bug' yoki gaz) halqum tez shishib, nafas qisganda traxeostomiya xirurgik davolash sifatida qo'llaniladi.

Qo'l-oyoq to'qimalari qorako'mir bo'lganda tirik to'qima chegarasida amputatsiya qilinadi.

Kuygan bemorlarni parvarish qilish. Kuygan bemorning to'shagi iflos bo'lmasligi uchun matras bilan choyshab orasiga albatta kleyonka solinadi. Ichki

kiyimlarini umumxirurgik bemorlarga nisbatan, tez-tez almashtirib turish kerak, chunki bunday bemorlarda yara yuzasi katta bo'lganidan kiyim ko'pincha yaradan ajralayotgan suyuqlikni shimadi. Uncha katta bo'lmagan soha kuyganda terini haftada bir marta oddiy gigiyenik vanna qilib tozalash oson. Ko'p joy kuyganda esa tadrijiy, umumgigiyenik vannalardan tashqari, terining sog'lom joylari har kuni 2% li bor spirt eritmasi bilan artib turiladi. Davolashda va parvarish qilishda kuygan bemorni ovqatlantirish juda katta ahamiyatga ega.

SOVUQ URISHI.

Sovuq urishi past harorat ta'sir etganda kelib chiqadi.

Bunda bemor a'zolarini noqulay sharoitlar : ho'l, tor poyafzal, holdan toyish paytida gradus da va hatto undan past haroratda sovuq urishi mumkin. Kupincha qul va oyoq barmoqlari, quloq burun sovuq uradi.

Sovuq urishning 4 darajasi farq qilinadi:

1 darajasi terining oqarishi va sezuvchanligining yuqolishi bilan xarakterlanadi. bemor isitilganidan keyin terisining shu qismi kukimtir – qizil bo'lib qoladi, ozgina shishadi va og'riydi. Sog'yishdan oldin odam sovuqqa sezgir bulib qoaldi, ba'zan terining kukimtir rangi saqlanib qoladi.

2 – darajasiga qon aylanishining birmuncha chuqur buzilishi kuzatilib, keyinroq tiniq suyuqlik bilan tulgan pufakchalar hosil buladi. Pufaklar atrofida teri kukimtir - qizil tusga kiradi. Infeksiya tushmasa urta hisobda 2 hafta ichida tuzaladi.

3- darajasida teri va uning ostidagi tuqimalar irib, nekrozlanadi. Jonsizlanish gemmoragik suyuqlik bilan tulgan yumshoq pufaklar hosil bulishi ifodalanadi. Bu pufaklar pustloq paydo bulishiga olib keladi. Kupincha unga yiringlanish qushiladi. Nobud bulgan tuqimalar kuchib tushgandan keyin ularnign urnida granulyatsiyalar yuzaga kelib, chandiqlanish va epitelizatsiya boshlanadi. Kasallik – 1-2 oy ichida tuzaladi.

4 darajasi nekroz chuqur joylashgan tuqimalar, shu jumladan suyaklarni ham qamrab oladi. GAvdaning shikastlangan qismi tuq kukimtir rangga, qoramtir suyuqlik bilan tula pufaklar bilan qoplanadi. Odatda pufaklar sovuq urishidan 2 hafta keyin paydo buladi (ikkilamchi pufaklar) Demarkatsiya chizig'I asta- sekin kurinadi va unchalik yaqqol sezilmaydi. Sovuq urgan sohada sezuvchanlikning hamma turi yuqoladi. Keyinroq shikastlangan qism qurib, kuchib tushadi va urnida chandiq hosil

bo`ladi. Sovuq urishda bemorning umumiy ahvoli uning darajasiga bog`liq bo`ladi. Sovuq urishining dastlabki 2 darajasida bemorning umumiy ahvoli unchalik yomon emas keyingi darajalarida toksemiya va infeksiya qushilishiga bog`liq holdagi klinikasi namoyon bo`ladi. (yuqori harorat, xolsizlik, ishtaha yuqolishi).

BIRINCHI TIBBIY YORDAM VA DAVOSI.

bemor issiq xoanga yotqiziladi, unga issiq choy, alkogolli ichimliklar, yurak faoliyatini yaxshilovchi dorilar va og`riq qoldiruvchi vositalar beriladi, bemorni vannaga tushiirib, suv haroratini 18-20 gr.dan boshlab asta- srekin 37 gacga oshiriladi. Bemorni vannada qon ta`minoti yaxshilanguncha qadar ehtiyotlik bilan massaj qilish kerak. oyoq yoki qul terisi spirt bilan artiladi va qalin doka qavatli aseptik bog`lam quyiladi. terining sovuq olgan sohasini qor bilan uqalash tavsiya etilmaydi, mayday muz parchalari shikast etkazishi va infeksiya tushishiga sabab bulishi mumkin.

Sovuq urishinig 1 –darajasiga 1 yordam tadbiralrining uzi kifoya qiladi. 2-darajasida esa pufaklar olinadi va aseptik yoki muzli bog`lam quyiladi, 5-7 kun utkach fizioterapevtik muolajalar qullaniladi. 3-4 darajasida shish va zaharlanishni kamaytirish uchun ba`zan nekrotomiya va nekroektomiya utkaziladi: nekrozlangan tuqimalar umuman olibtashlanadi, qul – oyoqlar amputatsiya qilinadi.

MUZLASH organizmga past harorat umumiy ta`sir qilishi natijasida sodir bo`ladi. Bunda hayot uchun muhim a`zolarida chuqur, qaytmas uzgarishlar sodir buladiki, bular ulimga olib kelishi mumkin. Shikastlangan kishi bushashadi, junjiydi, charchaydi uyqudan boshini kutara olmaydi. Puls sekinlashadi, nafas yuzaki bo`lib qoaldi.

QALTIRASH urtahca past haroratda uzoq vaqtgacga bir nehca marta ta`sir qilishi natijasida paydo buladi. Ko`pincha oyoq va qul panjasi qaltiraydi. urush davrida bunday hodisalar askarlarda kuzatilganda bu- “transheya oyoq panjasi”deb nom olgan. Bunda terida tuq qizil tusga kiradigan yoki kukimtir qizil dog`lar paydo buladi. teri sal shihsadi, qichishadi, achishadi va oz- moz bezillab og`riydi.

Sovuq urishini umumiy davoalshda yuqoti kallotiyali, oqsillar va vitaminlarga boy ovqatlar buyurish za5urr. Infeksiyaga qarshi kurashish uchun antibiotiklar qullaniladi. toksilozni lkamaytirish uchun qon, qon urnini bosadigan suyuqliklar quyish, ko`p syuqlik ichirish tavsiya etiladi.

ZAHARLANISHNI BARTARAF ETISH USULARI

Odam organizmi turli zaharli moddalar kirishi natijasida ro'y beradigan holat zaharlanish deyiladi. Dorilar bilan zaharlanish tasodifan yoki o'z joniga qasd qilish oqibatida ro'y beradi, ba'zan tibbiyot xodim-larining xatosi tufayli yuz berishi mumkin. Zaharli moddalar organizmga turli yo'llar bilan asosan, og'iz orqali nafas yo'llari orqali, teridagi jarohatlar, shilingan, yorilgan joylar orqali kiradi. Qaysi yo'l bilan kirishdan qat'i nazar zaharli moddalar qonga so'rilib butun organizmga tarqaladi. Ularning ba'zilar butun organizmga zaharli ta'sir ko'rsatsa, boshqalari ayrim organ va tizimlarga tanlab ta'sir etadi.

Zaharlanishning umumiy belgilari: umumiy lohaslik, darmonsizlik, ishtaha yo'qolishi, uyquning buzilishi, bosh og'rig'i, me'da-ichak yo'llari faoliyati buzilishi, qorin og'rig'i, ko'ngil aynishi, qusish, zaharlanish ro'y berganda ko'pincha yurak tomirlar faoliyatining keskin buzilishi kuzatiladi.

Bunday hollarda tez yordam ko'rsatish zarur. Davolash usullari 3 prinsipga asoslanadi.

1. Zaharning qonga so'rilishini to'xtatish.
2. Zaharni zararsizlantirish.
3. Zaharni tanadan chiqarib yuborish va zaharlangan a'zo va to'qimalar faoliyatini tiklash.

Kimyoviy modda teriga tushgan bo'lsa paxta, doka yoki iliq suv va sovun bilan ichimlik sodasining kuchsiz eritmasi bilan yaxshilab yuviladi va bog'lam qo'yib shifoxonaga yuboriladi. Agar zaharli modda ichga qabul qilingan bo'lsa parchalash maqsadida me'da 2-3 litr suv bilan chayiladi yoki 0,1% li kaliy permanganat eritmasi qo'llaniladi. Bemorning hushyorlik holatida 1% li apomorfin yordamida qusish refleksi uygotish mumkin. Bemorning behush holatida apomorfin qilinmaydi. Ichakdagi zahar moddasi surgi dorilar yordamida tozalanadi. Adsorbtsiyalovchi vosita sifatida faollangan ko'mir berish mumkin. Zaharlanish nafas yo'li orqali vujudga kelgan bo'lsa, bemorni toza havoga olib chiqish, kislorod berish kerak, yoki sun'iy nafas oldiriladi.

Zaharlanishga sabab bo'lgan modda noma'lum bo'lsa vena qon tomiriga gemodez, reopoliglyukin kiritish bemor holatini yaxshilashga yordam beradi. Tanadagi zahar moddalarini kamaytirish uchun tanaga turli eritmalar, glyukoza kiritiladi, venaga lobelin, sititon eritmasi kiritiladi. Yurak faoliyatini yaxshilash uchun yurak glikozidlari eritmasidan foydalaniladi. M.N.S faoliyatini tiklash uchun kofeindan foydalaniladi. Qon bosimini tiklash uchun adrenalin, noradrenalin eritmaları ishlatiladi. Zaharlanishni bartaraf qilish uchun o'z vaqtida ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida bemorni saqlab qolish mumkin.

Dorilarni shifokor tavsiyasiga binoan iste'mol qilish kerak. Bu borada o'zboshimchalik yomon oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin.

9.MAVZU. YONISH ASOSLARI. MATERIALLAR VA TEXNOLOGIK JARAYONLARNING YONG`IN VA PORTLASH XAVFSIZLIGINI BAHOLASH

Reja:

1. Yong`inga qarshi ishlarni tashkil qilish.
2. Korxona, muassasa va tashkilotlarda yong`in xavfsizligini ta'minlash ishini tashkil qiladi.
3. Yong`inga qarshi kurash choralari.
4. Dastlabki avtomatik o't o`chirish choralari.

1. Yong`in xalq xo`jaligiga moddiy zarar keltiradi. Bir necha minut yoki soat ichida juda katta miqdordagi xalq boyliklari yonib, kulga aylanadi. Yong`in vaqtida ajralib chiqadigan tutun, karbonat angidrid va boshqa zararli hid hamda gazlar atmosferaga ko'tarilib, havoning tarkibini buzadi. Bundan tashqari, kishilarning jarohatlanishiga, hatto o'limiga sabab bo'ladi. Bularning hammasi, yong`inga qarshi kurash tadbirlari va ishlarning xavfsiz bajarish usullarini mehnat muhofazasi bilan birgalikda o`rganishni taqozo qiladi.

Yonish deb. yonuvchi modda bilan havodagi kislorodning o'zaro ta'siri natijasida juda tez kechuvchi va ko'p miqdorda issiqlik ajralib chiquvchi kimyoviy reaksiyaga ayliladi. Ko'p hollarda yonisli yonuvchi modda zarrachalarining nuiianishi bilan birga kechadi. Yonish hosil bo'lishi va u davom etishi uchun yonuvchi modda (qatiiq, suyuq yoki ga/.simon), oksidlovchi modda (oddiy sharoitda oksidlovchi modda vazifasini havodagi kislorod o'tashi mumkin) va yondiruvchi manba (uchqun, ochiq alanga va cho'g'langan narsa) mavjud bo'lishi kcrak. Shuni aytish kerakki, havodagi kislorod miqdori 15%/f dan yuqori bo'lgandagina oksidlovchi vazifasini bajara oladi. undan past konsentratsiyada esa yonish mavjud bo'la olmaydi. Bundan tashqari oksidlovchi modda vazifasini tegishli sharoitlarda xlor. brom. kaliy vaboshqa moddalar ham o'tashi mumkin.

Xavlliligi bo'yicha barcha modda va ashyolarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin: yonmaydigan moddalar. yonish xavfi mavjud moddalar. yonish va portlash xavfi mavjud hamda portlash xavfi mavjud moddalar.

Yonmaydigan modda va ashyolar- yonish yoki yong'inni uzatish xususiyatlari yo'q narsalardir. Masalan. g'isht. melall. bcton va boshqalar.

Hozirgi paytda respublikamiz to'qimachilik korxonalarida yong'in havfini kamaytirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Xususan, korxonalarda yong'in chiqish xavfi kamaytirilgan va butunlay xavfsiy ishlaydigan elektr uskunalari ishlatilmoqda. O't o'chirishning mexanizatsiyalashgan va avtomatlashgan tizimlari tobora kengroq qo'llanilmoqda.

Lekin yong'in chiqishining oldini olish va o't o'chirishda asosiy ma'suliyat kishilar zimmasiga tushishini hamda ularning yong'inni o'chirish texnikasining barcha talablarini to'liq bajarilishiga bog'liq ekanligini unutmaslik kerak. To'qimachilik korxonalarida bu tadbirlar tartibli ravishda, yong'in texnikasi haqidagi nizom, yong'in xavfsizligi qoidalari, yo'riqnoma va boshqa hujjatlar asosida olib borilishi shart.

Respublikamizning har bir fuqarosi jamoat va davlat mulkini ko'z qorachig'iday saqlashi, asrab avaylashi, uni boyitish haqida qayg'urishi va o't o'chirish tadbirlari keng jamoatchilikka suyanan holda, sexlardagi har bir ishchining ishtirokida olib boriladi. Yong'in muhofazasini tashkil qilish kasbiy va ixtiyoriy turlarga bo'linadi.

Kasbiy yong'in muhofazasi o'z navbatida, harbiylashtirilgan (yirik shahar va muhim obektlarga xizmat ko'rsatadi), harbiylashtirilmagan tuman markazlari va yirik sanoat obektlariga xizmat ko'rsatadi va tarmoq (ayrim birlashma va korxonalarga xizmat ko'rsatadi) turlariga bo'linadi. Yirik sanoat korxonalarida kasbiy yong'in qismlari tashkil qilinadi. QM va Q 11-8980 «Sanoat korxonalarining bosh rejalari» ga asosan ishlab chiqarishning yong'in xavfi bo'yicha A, B va V toifalari uchun (to'qimachilik korxonalari V toifasiga mansub) kasbiy yong'in qismlarining xizmat ko'rsatish radiusi 2 km. dan oshmasligi kerak. Bu qismlar odatda korxona hududidan tashqariga joylashtiriladi.

Yong'in xavfi kam bo'lgan hamda kichikroq korxona muassasalarda yong'in muhofazasi va obektni qo'riqlash xizmati birgalikda qo'shib olib boriladi. To'qimachilik korxonalarida yong'in muhofazasini tashkil qilish va yong'in chiqishini ogohlantirish o't o'chirish texnikasini hamda qurollarini aloqa va o'chirish vositalarini jangovar holatda saqlash, yong'in chiqqan taqdirda ularni o'chirishda faol qatnashish, xalq mulkini asrab-avaylab saqlash borasida targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borishni taqozo qiladi.

2. Korxona, muassasa va tashkilotlarda yong'in xavfsizligini ta'minlash ishini tashkil qilish. Ishchilar, xizmatchilar va muxandis-texnik xodimlarning ko'pchiligi jalb etilgandagina korxona, muassasa hamda tashkilotlarda yong'inga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borish mumkin. Buning uchun har bir ob'ektda yong'in-texnik komissiyasi tuziladi. Komissiyaga bosh muhandis, texnik rahbar yoki rahbarning birinchi o'rinbosari boshchilik qiladi, ularning vazifasi quyidagilardan iborat:

- yong`inni oldini olish qoidalarining buzilishlarini va yong`in chiqishiga olib keluvchi kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish tadbirlarini ishlab chiqish;
- ob'ektiv yong`inning oldini olish tartibini ishlab chiqish va ularni o`tkazishda qatnashish;

- ishchi xizmatchilar va muhandis-texnik xodimlar o`rtasida yong`inning oldini olish tartibi hamda qoidalari bo`yicha ommaviy tushuntirish ishini olib borish.

Bu vazifalarni bajarish uchun yong`in texnik-komissiyasi ishlab chiqarish xonalari, elektr jihozlari, shamollatish, isitish tizimlari va shu kabilarni ko`zdan kechirib, qoida buzilishlarini aniqlaydi hamda ularni bartaraf etish muddatlarini belgilaydi; ishlovchilar o`rtasida yong`inning oldini olish mavzularida suhbatlar, leksiylalar o`tkazadi; ratsionalizatorlar hamda ixtirochilar uchun mavzular ishlab chiqishda qatnashadi; sexlar, bo`limlar, omborxonalar, laboratoriyalar va hokazolarning yong`inga qarshi holatini tekshirishga keng jamoatchilikni jalb etadi.

Ipakchilik sanoati korxonalaridagi yong`in muhofazasiga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

- har kuni yong`inning oldini olishni amalga oshirish;
- yong`in chiqishiga yo`l qo`ymaydigan tadbirlarni ishlab chiqish;
- ishchi-xizmatchilar, muhandis-texnik xodimlarga yong`inga qarshi kurash yuzasidan yo`l-yo`riqlar berish va ular bilan mashg`ulotlar o`tkazish;
- Hamma o`t o`chirish tizimlari va qurilmalari hamda yong`in, aloqa va signalizatsiya vositalarining holatini nazorat qilish;
- qo`riqlanayotgan ob'ektdagi yonayotgan narsalar va yong`inni o`chirish.

3. Ishlab chiqarishda yuz beradigan yong`inlarning kelib chiqish sabablarini ikki turga bo`lish mumkin.

1. Ishlab chiqarish texnologik jarayonidan alanga manbaini chiqarib tashlab bo`lmaydigan va sexlarda yonuvchi yoki portlovchi moddalar yig`ilib qolgan holat. Masalan, pardozlash fabrikasida matoning tukini kuydirish jarayoni yuqori haroratda olib boriladi, ya'ni kuydiruvchi yuza cho`g`lanib turganda 100 mG`min tezlikda mato o`tkaziladi. Mashinaning harakat qismlaridan birortasi to`xtab qolsa yoki mato ozgina bo`lsa-da, to`planib qolsa, darhol alangalanib yong`in chiqishi mumkin.

2. Ishlab chiqarish texnologik jarayonidan yonuvchi yoki portlovchi moddalarni chiqarib tashlab bo`lmaydigan va alanga manbaini qo`llashga yo`l qo`yilgan holat. Masalan, xomashyo va tayyor mahsulot omborlarida, titish-savash sexlarida paxta va matolar ko`p miqdorda to`planishi tabiiy. Lekin bu xonalarda ma`lum ehtiyot choralari ko`rilmasdan ochiq alanga manbai ishlatilsa yong`in chiqishi mumkin.

To`qimachilik korxonalari uchun xarakterli bo`lgan yong`inlarning sabablarini quyidagicha tasniflash mumkin:

- texnologik jarayonning buzilishi;
- mashina va apparatlardan texnik foydalanish qoidalariga rioya etilmasa;
- xomashyo va tayyor mahsulotlarni saqlash qoidalarining buzilishi;
- mashina va apparatlarning aspiratsiya hamda changli havoni tozalash tizimlarining qoniqarsiz ishlashi;
- elektr uskunalarining noto`g`ri o`rnatilganligi va noto`g`ri ishlatilishi;

- ishlab chiqarish sexlarida va korxona hududida o'tirgan changlarni tozalash ishlari qoniqarsiz tashkil etilishi;
- ishlab chiqarish sexlarida va korxona hovililarida alanga bilan bog'liq ishlarni noto'g'ri olib borish;
- o't o'chirish va xabar berish vositalarining texnik jihatdan qoniqarsizligi;
- korxona ishchi va xizmatchilarining hamda ko'ngilli o't o'chirish komandalarning tayyorligi qoniqarsiz ekanligi.

Korxonalarining yong'in xavfi bo'yicha tasnifi ularni loyihalash, rekonstruktsiya va ekspulatsiya qilish jarayonlarida katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek o'tga chidamlilik darajasi qavatlar soni, binolar orasidagi masofalarni to'g'ri tanlash muhim rol o'ynaydi. Korxonaning yong'in xavfi bo'yicha toifasi, binosining o'tga chidamlilik darajasi va hajmiga qarab ichki hamda tashqi o't o'chirish vodoprovod tizimiga kerakli suvning sarfini, isitish tizimi, ventilyatsiya va havoni mo'tadillash, suv ta'minoti, yoritish, elektruskunalari va o't o'chirish vositalari turlarini tanlash mumkin.

4. Yonish jarayoni to'xtashi uchun oksidlanish-tiklanish ekzotermik zanjir reaksiyasi tuzilishi kerak. Bu reaksiyada to'xtashning fizik hamda kimyoviy usullari qo'llaniladi. Fizik usullari: alangani yonuvchi modda yuzasidan uzib tashlash, yonuvchi modda yuzasi haroratini alangalanish haroratidan pasaytirish, oksidlovchi modda (kislorod) konsentratsiyasini kamaytirish (ko'pincha yonmaydigan gazlar konsentratsiyasini oshirish hisobiga) va yonuvchi modda bilan oksidlovchini bir-biridan ihotalash. Kimyoviy usullar yonish reaksiyasini tormozlash hisobiga amalga oshiriladi.

O't o'chirish vositalari asosan uch guruhga bo'linadi:

- 1) yonishni tugatish usuli bo'yicha – sotuvchi, aralashtiruvchi ixotalovchi, ingibirlashtiruvchi;
- 2) elektr o'tkazuvchanligi bo'yicha – elektr tokini o'tkazuvchi (suv, bug', ko'pik), elektr tokini o'tkazmaydigan (gazlar, kukunli birikmalar);
- 3) zaharliligi bo'yicha – zaharli (freon, brometil), kam zaharli (karbonat angidrid, azot), zaharsiz (suv, ko'pik, kukunli birikmalar).

Suv o'tni o'chirishda eng keng tarqalgan moddadir. O'zining quyidagi xususiyatlari tufayli o'tni o'chirishda eng afzal hisoblanadi. Issiqlik sig'imi katta, yonayotgan yuzaga tushganda uning issiqligini yutib oladi. Yuqori haroratli yuzalarga tushgan suv tezda bug'lanadi. Bug'lanish natijasida uning hajmi 1700 marta ortadi va vaqtincha yonayotgan yuzani qamrab olib havodagi kislorod miqdorini kamaytiradi. Suvning yuzalarni ho'llash xususiyati yong'inning tarqalmasligida katta rol o'ynaydi. Uning sirt tarangligi kichik (0,073 nG'm) bo'lganligi uchun yonayotgan moddlarning tirqish va teshiklariga tezda kirib ularni sovitadi.

Karbonat angidrid gazini yong'in chiqqan hududga yo'naltirish u erdagi havoning tarkibida kislorod miqdorini kamaytirish orqali yong'in o'chiriladi. Agar havodagi kislorod miqdorini 15 % gacha tushirishga erishilsa, yonish susayadi. Karbonat angidrid gazi yong'in o'chog'iga gaz holatida yoki suyultirilgan karbonat angidridi o't o'chirish holatida berilishi mumkin. Suyultirilgan karbonat angidridi

o`ta`chirgichda u havo bilan reaksiyaga kirishib -70°C haroratli qorsimon modda hosil qiladi, bu yonayotgan buyumlar yusasini yaxshi sovutadi.

Inert gazlardan azot va argon yong`inni o`chirishda ishlatiladi. Ular ham karbonat angidrid gazi singari havodagi kislorod miqdorini aralashtirib kamaytiradi va bu yong`inni o`chirishga olib keladi. Bu gazlar karbonat angidrid gazichalik samarali emas.

Tutun gazlarda kislorod havodagidan birmuncha kam bo`lib, taxminan 18-19% ni tashkil qiladi. Bu gazlar oxirigacha yondirilsa, undagi kislorod miqdorini 5-6% gacha tushirish mumkin. Bunday gazlar yong`inni o`chirishda bemalol qo`llanilishi mumkin. O`ta`chirishda samolyotlarning o`z ish muddatini o`tagan reaktiv yuritkichlarini ishlatish ham yo`lga qo`yilgan. Bular o`ta`chirish mashinalariga o`rnatiladi va tutun gazlari suv oqimi bilan birga yong`in yuzalarida yo`naltiriladi.

Ingibitorlar. Galloidlangan uglevodlar yonish reaksiyasiga kimyoviy susaytirgich orqali ta'sir ko`rsatib yong`inni to`xtatadi. Bular inert gazlarga nisbatan ancha samaralidir. Bu maqsadda bromli etil, bromil etilen, dibromtetraftoretan, freon (114 B2) lar ishlatiladi. Freon suv bug`iga nisbatan 20 marta, uglerod oksidiga nisbatan 12 marta samaraliroqdir. Galloidlangan uglevodlar cho`g`langan paxta xomashyosi va tolasini o`chirishda, ayniqsa, qo`l keladi. Elektr tokini o`tkazmaydi va sovuq havoda muzlab qolmaydi. Ularning qimmatliligi keng qo`llashga imkon bermaydi. Bundan tashqari, qaynash haroratiningpastligi ($38-980^{\circ}\text{S}$) va uchuvchanligi ochiq joylardagi yong`inlarni o`chirishda qo`llashga monelik qiladi.

Kukunli birikmalar yonayotgan gazlar, engil alangalanuvchan, yonuvchan suyuqliklar, kuchlanish ostida bo`lgan elektr uskunalarni o`chirishda ishlatiladi. Ular arzonligi tufayli tobora ko`proq qo`llanilmoqda. Asosiy qismi natriy karbonatdan iboratdir.

Metalloorganik birikmalarni o`chirishda SI-2 kukuni ishlatiladi. Uning asosiy qismini freon (114 B2) bilan tindirilgan selikogen zarrachalari tashkil etadi. Yong`inga tushgach kukun zarrachalaridan alangaga kuchli tormozlovchi (ingibitor) sifatida ta'sir qiluvchi freon ajralib chiqadi.

Ko`pik yonayotgan yuzaga tushgach, uni qoplab olib, kislorod kirishidan to`sadi va ajralib chiqayotgan suyuqlik yonayotgan yuzani sovutadi. Ko`pik asosan qattiq moddalar va yonuvchan suyuqliklarni o`chirishda ishlatiladi. U paydo bo`lishiga ko`ra ikki xil bo`ladi: ko`pik hosil qiluvchi qorishmani havo oqimi bilan mexanik aralashtiruv orqali olinadigan havo-mexanik va ishqor eritmasi bilan kislotaning aralashishi natijasida paydo bo`ladigan kimyoviy ko`pik.

Mavzu bo`yicha savollar

- 1) Ishlab chiqarishning yong`in bo`yicha tasnifi.
- 2) Texnologik jarayonlarning yong`inni o`chirish bo`yicha o`ziga xos tomonlari.

10-MAVZU.Yong`inga qarshi texnika vositalari va o`chirish usullari(suv,qum,ko`pik,gazlar.).

Reja.

1. Yong'inning kelib chiqish sabablari va xatarli omillari.
2. Yong'in xavfsizligiga doir asosiy qoidalar va talablar.
3. Yonish sharti va yonishning turlari.
4. Yong'inni o'chirish vositalari.
5. Yong'inni o'chirishda qo'llaniladigan moddalar, ularning turlari va xususiyatlari.
6. Yong'inni o'chirishda suv ta'minoti.

Yong'inning kelib chiqish sabablari va xatarli omillari.

Ishlab chiqarish va hayot faoliyati davomida yong'inni kelib chiqishiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

- a. isitish pechlarini qurish yoki ishlatish qoidalarining buzilishi;
- b. ishlab chiqarishda yoki uyda olovni ehtiyotsizlik bilan ishlatish;
- c. kerosinda ishlaydigan yoritish yoki qizdirish asboblari noto'g'ri o'rnatish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish;
- v. yashin yoki statik elektr razryadlar, mashinalar va ishlab-chiqarish jihozlarining nosozligi hamda ularni ishlatish qoidalariga rioya qilmaslik (ichki yonuv dviga-teldaridan chikdsigan uchqunlar, elektr qurilmalaridagi qisqa tutashuvlar yoki ularning yerga ulanib qolishi, elektr simlarida zo'riqishning yo'l qo'yilmaydigan darajada ortib istishi, kontaktlari yomon bo'lgan joylarning qizib ketishi va ulardan uchqun chiqishi, bug` qozonlarining portlashi);
- d. qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yoki yonilg'ining saqlash qoidalariga rioya qilmaslik natijasida o'z-o'zidan yonib ketishi sabab bo'ladi. Yonish - yonuvchi moddaning havo kislorodi yoki boshqa oksidlovchi modda bilan oksidlanishining tez kechadigan kimyoviy reaksiyasi bo'lib, bunda yorug'lik va issiqlik ajraladi. Yonish quyidagi turlarga bo'linadi:

Alangalanish - mahalliy qizish natijasida yonuvchi moddaning (uning bug` va gazlarning) turqun yonishi. Alangalanishga yonuvchi moddaning alanga yoki Cho`g`langan jismga tegishi sabab bo'lishi mumkin. Chaqnash - yonuvchi modda bug'i bilan havo yoki kislorod aralashmasining alangaga, elektr uchqunga yoki qizigan jismga tegishi natijasida tez yonib tugashi. Chaqnashda siqilgan gazlar hosil bo'lmaydi.

Portlash - moddaning bir holatdan ikkinchi holatga juda tez o'tishi (portlab yonishi) bo'lib, bunda ko'p miqdorda energiya chiqadi va ko'p miqdorda 123 siqilgan gazlar hosil bo'ladi, bu siqilgan gazlar yemirilishga olib kelishi mumkin. Portlashda hosil bo'ladigan yonuvchi gazsimon mahsulotlar havoga tegib, ko'pincha alangalanishi va buning oqibatida yong'in chiqishi mumkin. O`z – o`zidan alangalanish - modda ma'lum haroratgacha qizdirilganda unga bevosita tegmasdan turib sodir bo'ladi. O`z - o`zidan alangalanish harorati

moddaning yong'in jihatidan xavfli xossalarini belgilovchi muhim parametrdir. Moddaning o`zida kechadigan fizikaviy, kimyoviy biologik jarayonlar ta'sirida

va moddaning qizishi natijasida yuz beradi. Yong`in - maxsus manbada ega bo`lmagan va moddiy zarar eltiruvchi nazoratsiz yonishdir.

YONG`IN XAVFSIZLIGIGA DOIR ASOSIY TALABLAR VA QOIDALAR

Vujudga kelishi mumkin bo`lgan yong`inni oldini olish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

y tashkiliy (ko`ngilli o`t o`chiruvchi drujinalari yoki yong`indan muhofazalash drujinalari tuzish, omma orasida tushuntirish ishlari olib borish); y texnikaviy tadbirlarga ishlab chiqish (yong`in yoki portlash jixatidan xavfli xonalarga alohida konstruksiyali elektr jixozlar o`rnatish, nosoz pechlar, mashinalar, elektr jixozlardan, shuningdek, oson

alanganadigan suyuqliklar saklanadigan yoki ishlatiladigan joylarda olovdan foydalanishni taqiqlab qo`yish, yashin kaytargichlar o`rnatish; y chiqqan yong`inning tarqalishiga yo`l qo`ymaslik maqsadida ob'ektlarni o`tga chidamli materiallardan qurish;

y binolar orasidagi yong`inga qarshi oraliqlarga rioya qilish; y yonayotgan binolardan odamlar, qayvonlar va qimmatbaho xo`jalik buyumlarini muvaffaqiyatli ravishda ko`chirishga imkon beradigan choralarni ko`rish (kerakli mikdorda eshiklar, zarur kenglikda yo`laklar qurish va ularni to`sib qo`yishni man etish; y yong`inni o`chirishni osonlashtiradigan tadbirlarni ko`rish (yong`inni o`chirish, narvonlar, yonqin kuzatish minoralari, suv havzalari va binolarga kelish yo`llari qurish, yong`inga qarshi avtomatlashtirilgan uchirish vositalarini hamda signalizasiyasini o`rnatish).

YONISH SHARTI, YONISHNING TURLARI.

Yonuvchi modda bilan havodagi kislorodning o`zaro ta'siri natijasida juda tez kechuvchi va ko`p miqdorda issiqlik ajralib chiquvchi kimyoviy reaksiyaga yonish deyiladi. Ko`p hollarda yonish yonuvchi modda zarrachalarining nurlanishi bilan birga kechadi. Yong`in hosil bo`lishi va davom yetishi uchun yonuvchi modda (qattiq, suyuq yoki gazsimon), oksidlovchi modda (oddiy sharoitda oksidlovchi modda 124 vazifasini havodagi kislorod o`tashi mumkin) va yondiruvchi manba (uchqun, ochiq alanga va cho`qlangan narsa)mavjud bo`lishi kerak. Shuni aytish kerakki, havodagi kislorod miqdori 15 %dan yuqori bo`lgandagina oksidlovchi vazifasini bajara oladi, undan past konsentrasiyada esa yonish sodir bo`lmaydi. Bundan tashqari, oksidlovchi modda vazifasini tegishli sharoitlarda xlor, brom, kaliy va boshqa moddalar ham o`tashi mumkin. Xavfliligi bo`yicha barcha modda va ashyolarni quyidagi turlarga bo`lish mumkin: yonmaydigan, yonish yoki yonish va portlash xavfi mavjud hamda portlash xavfi mavjud moddalar. Yonmaydigan modda va ashyolarning yonish yoki yong`inni uzatish xususiyatlari Yo`q. Masalan, g`isht, metall, beton va boshqalar. Yonish xavfi mavjud modda va ashyolar havoda yonish va yong`inni uzata olish xususiyatiga egadir. Masalan, yog`och, Qog`oz, paxta

tolasi, mazut va portlash xossasiga ega bo'lmagan changlar Yonish va portlash xavfi mavjud modda va ashyolar, qattiq va suyuq yonuvchi moddalar bilan birikkanda bir zumda alangalanib ketish xossasiga ega. Bunday moddalarga vodorod angidridi, azot kislotasi va boshqalar hamda yonuvchi moddalar bilan aralashganda o'zidan kislorod ajratib chiqaruvchi kislota ta'sirida, qizdirilganda yoki mexanik ta'sir ostida portlovchi birikmalar kiradi. Masalan, paxta yoki tamaki changi bilan selitra aralashganda shu hol ro'y berishi mumkin. Shu bilan birga havoda tarqalgan holda portlovchi aralashmalar hosil qiluvchi changlar ham bunga mansubdir. Masalan, lub, tamaki va kanop tolalari changlari. Yonish va portlash xavfi mavjud moddalarga o'zi yonmaydigan, lekin suv bilan aralashganda parchalanib, gaz ajratib chiqaruvchi va bu gaz havo bilan birikkanda portlovchi birikma hosil qiluvchi moddalar ham kiradi (kalsiy karbid).

Portlovchi narsa va moddalar havo bilan aralashib, portlovchi birikmalar (yonuvchi gaz, vodorod, asetilen) hosil qiladi. Portlash xavfi mavjud moddalarga yonuvchi gazlar bilan aralashganda portlash xavfini vujudga keltiradigan yonmaydigan gazlar ham kiradi (kislorod yonuvchi gaz bilan aralashganda portlashga olib keladi). Ayrim holda yonmaydigan va yonishni ta'minlay olmaydigan portlovchi gazlar ham bo'lishi mumkin. Masalan, balonlarda siqilgan holda saqlanuvchi karbonat angidrid gazi. Portlovchi moddalarga, shuningdek, havo bilan aralashgan holdagi noorganik moddalar ham (alyuminiy, magniy va boshqa moddalar kukunlari) kiradi.

YONG`INNI O`CHIRISH VOSITALARI.

Yong`inni o`chirish uslublari va o`t o`chirgich moddalarning xususiyatlariga mos ravishda yong`inni o`chirish vositalari tanlab olinadi. Ular asosiy, maxsus va yordamchi vositalarga bo`linadi. Asosiy vositalar - yong`inga o`t o`chirgich moddalarni (suv, ko`pik, kukun, karbonat angidrid gazi va boshq.) sepish uchun belgilangan. Bularga avtomobil, avtosisterna, motopompa, o`t o`chirgichlar va boshqalar kiradi.

Maxsus vositalar - yong`inni o`chirishda maxsus ishlarni bajarish uchun ishlatiladi. Ularga avtonarvonlar va tirsakli ko`targichlar, yoritish va aloqa avtomobillari, shuningdek operativ avtomobillar kiradi.

Yordamchi vositalar - yong`inni o`chirishdagi ishlarni bajarish uchun yetarli sharoit yaratadi. Bularga avtosuv quygichlar, yuk avtomobillari, avtobuslar, traktor va boshqa mashinalar kiradi.

Birlamchi o`t o`chirish vositalari yong`in boshlanganda alangani keng tarqalib ketmasligini to`xtatish va o`chirish uchun qo`llaniladi.

Ishlab chiqarish korxonalariga va qishloq xo`jaligi mashinalari uchun zarur bo`lgan birlamchi o`t o`chirish vositalariga talab O`zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo`jaligi Vazirligining 1998 yil 12 iyundagi № 44 3-5-21 sonli qaroriga asosan aniqlanadi.

O`t o`chirgichlar - yong`in boshlanish vaqtida o`chirish uchun qo`llaniladi. O`t

sovitish xususiyati past. Shuning uchun kukun bilan o`chirilganda qizigan jismlar yana alanganib yoiishi mumkin.

Yong`in o`chirish vositalari chorvachilik binolari joylashgan maydonda maxsus taxtalarga (shitlarga) terib qo`yiladi. To`siqlar imoratlar orasidagi masofadan 100 m o`tgacha xavfli materiallar saqlanadigan joydan 50 m oraliqda qo`yiladi. Yong`in o`chirish vositalari qizil rangga bo`yaladi, undagi yozuvlar esa oq rang bilan yoziladi. Har bir obektda albatga birlamchi o`t o`chirish vositalari bo`lishi kerak. Ishlab chiqarish binolarida va omborlarda yong`in inventarlari bilan ta`minlash tashkilotlarining raqbarlariga yoki boshqa javobgar shaxslarga topshiriladi. Yong`in inventari va qurilmalarining o`t o`chirishga bog`liq bo`lmagan ishlarga qo`llash qat'iy man etiladi. Yong`in o`chirish vositalari ob'ektning maydoni va texnologik jarayonlarga qarab hisoblanadi.

Sprinkler qurilmalari suv quvurlari tarmoqidan iborat bo`lib, imoratni shipiga purkagich-kallaklar (forsunka-lar) quvurlarga burab mahkamlanadi. Bu tarmoqqa suv quvurlar yoki idishdan nasoslar yordamida suv beriladi. Qurshshaning asosiy qismi - sprinkler purkagich-kallak hisoblanadi. Harorat belgilangan qiymatdan oshib ketganda unga o`rnatilgan oson eruvchi metall erib ketadi va suv yo`li ochiladi. Suv sprinkler lappagiga urilib maydalanib atrofga sochiladi. Lappaqdagi o`rnatma 72° , 95° , 141° va 182° haroratga mo`ljallangan. Bu maqsadda suyuqlik to`ldirilgan shisha kapsula o`rnatgichlar ham ishlatiladi. Sprinklerlarni shunday joylashtirish kerakki, har bir kallak 12 m²

pol yuzasiga va yong`in xavfi yuqori bo`lgan joylarda 9 m² yuzaga suv sochilishga mo`ljallangan bo`lishi kerak.

YONG`INNI O`CHIRISHDA QO`LLANILADIGAN MODDALAR, ULARNING SINFLANISHI VA XUSUSIYATLARI.

Qishloq xo`jaligi bino va inshootlarining yong`inni o`chirish uchun suv, suv bug`i, ko`pik, inert gazlar, poroshoklari (kukunlar), siqilgan havo va qattiq moddalar keng qo`llaniladi. O`t o`chirish moddalari elektr o`tkazish (suv va boshq.) va elektr o`tkazmaslik (gazlar, kukunlar) xossalari ega bo`ladi. Shuningdek, zaharli (3,5-brom-etil, freon), kam zaharli (azot, ko`mir kislota) va zaharsiz (suv, ko`pik, kukunlar) turlarga bo`linadi. Shuning uchun ishlab chiqarish ob'ektlari va maydonlarini yong`in o`chirish moddalari bilan ta`minlashda va yong`inni o`chirishda biror uslubni qabul qilganda ularni hisobga olish kerak.

Suv - eng ko`p tarqalgan, oson topiladigan, qulay ishlatiladigan o`t o`chiruvchi modda hisoblanadi. U yuqori issiqlik sig`imiga ega bo`lgani uchun olovni o`chirish jarayonida yonayotgan moddalardan juda ko`p issiqlikni oladi. Bir gramm suvni bug`ga aylantirish uchun 2,26 kJ issiqlik sarf qilinadi. Suvning kamchiliklari - issiqlik sig`imidan foydalanish koeffisienti past, elektr o`tkazuvchan, chang qatlamiga ta`sir etganda portlovchi xavfli

130
aralashma hosil qiladi. Shu sababli suv ko`p holatlarda ishlatilmaydi.

Ayniqsa kalsiy karbidga suv tushganda yong`in sodir bo`ladi va portlashga xavfli gaz-asetilen ajraladi, so`ndirilmagan ohak esa - juda katta issiqlik chiqarib, yonidagi yonuvchi materiallarni yondiradi.

Ko`pincha yong`inni o`chirish uchun suv va 3-10% li brometil va boshqa aralashmalardan tayyorlangan eritmalar ishlatiladi. Eritmani namlaydi, sovitadi va yonuvchi materialni bug` bilan qoplaydi. Ko`pik sovutkich vazifasini bajarib, ma`lum vaqt ichida kislorodni issiq yuzaga kirishiga qarshi turish qobiliyati ega. Kimyoviy ko`pik ko`piksimon kukunlarni qo`llaganda generatorlar yordamida hosil qilinadi. Ko`pik kukun sariq-kul rang ko`rinishda bo`lib, kislota va ishqordan iborat. Kislota qismiga odatda mayin maydalangan alyuminiy sulfat, ishqorga esa - maydalangan natriy gidrokarbonat olinadi. Bu ko`pik neft maqsulotlari, spirt, aseton va boshqa moddalarni o`chirishda qo`llaniladi. Kimyoviy ko`pik hajmi bo`yicha 80% karbonat angidrid, 19,7% suv va 0,3% ko`pik hosil qiluvchi moddadan iborat. Ko`pikning turg`unligi (to`la parchalanguncha) 40 daqiqaga yaqin. Mexanikaviy-havo ko`pik neft mahsulotlarini o`chirishda qo`llaniladi. U suv, havo va ko`pik hosil qiluvchi moddalarni maxsus elektr generator stvollarida va o`t o`chirgichlarda tez aralashishi natijasida olinadi. Mexanikaviy havo ko`pik amalda agressiv kimyoviy xossalarga ega emas, kimyoviy ko`pikka nisbatan elektr o`tkazuvchanligi kamroq bo`lgani uchun elektr qurilmalarni kuchlanishi bo`lganda ham (masofadan turib, tizillab chiquvchi ko`pik bilan) o`chirishda qo`llaniladi.

Karbonat angidrid gazi - SO_2 , - inert, rangsiz gaz, havodan 1.5 marta og`ir,  $0^\circ$  da bosimi 3,6 MPa da suyuq holatga aylanadi. Ut o`chirgichdan purkalganda juda tez kengayadi (500 martagacha) va past (-72°) haroratli, qorsimon massaga aylanadi. Karbonat angidridning asosiy xossalaridan biri shundan iboratki, u erimasdan to`g`ridan-to`g`ri gaz holatiga aylanadi. Karbonat angidrid gazining elektr neytralligi kuchlanish ostida bo`lgan elektr qurilmalarni o`chirishda qo`llash imkoniyatini beradi. Yonayotgan xonadagi hajmga nisbatan  $\text{SO}_2$  aralashmasi 30% dan kam bo`lmasa karbonat angidrid gazi ishlatilganda yong`in butunlay to`xtaydi. Bu gaz yordamida berk imoratlarni o`chirishda yaxshi natijalar olinadi.

Kukunlar suv bilan reaksiyaga kirishuvchi ishqoriy metallar, alyuminiy organik birikmalar, fosfor. yonuvchi suyuqliklar va boshqa moddalar. Ular suv va ko`pikdan buziluvchi qimmatli xujjatlar, suratlar va boshqa qimmatbaho materiallarni o`chirish uchun mo`ljallangan. Kukunli o`t o`chirgichlar PS-1 va PS-2 tarkibi bilan ishlab chiqariladi. Kukun elektr o`tkazmaydi, odam uchun zararsiz, arzon, tashish va saqlash qulay. Past haroratda muzlamaydi. Juda ko`p yonuvchi suyuqliklarni o`chirishda qo`llaniladi.

YONQINNI O`CHIRISHDA SUV TA'MINOTI

Suv yong`inni o`chirishda eng ko`p ishlatiladigan vositadir. Hajmi 1000 m<sup>3</sup> 131 dan katta bo`lmagan, o`tga chidamlilik darajasi I va II bo`lgan aloqida binolarda joylashgan D toifadagi korxonalar hamda 50 tagacha odam yashaydigan bir-ikki qavatli binolardan tashqari barcha aqoli yashaydigan joylar va ishlab

chiqarish korxonalari yong`inga qarshi suv bilan ta'minlanishi zarur. 8000 tagacha aholi yashaydigan joylar yoki yong`inni tashqi tomondan o`chirishda 20 l/s gacha suv sarflanadigan V, G, D toifadagi korxonalarda yong`inni o`chirish uchun suv avtonasoslari mavjud bo`lganda bino va inshootlardan uzoqi bilan 200 m, motopompalar mavjud bo`lganda uzog`i bilan 150 m va dastaki nasoslar mavjud bo`lganda uzog`i bilan 100 m masofada joylashgan daryolar, ko`lmak suvlardan olinishi mumkin. Aholi soni 500 tagacha bo`lgan qishloq joylarida yong`inni o`chirish uchun hisobiy suv sarfi 5 l/s, 500-5000 aholi yashaydigan joylarda 10 l/s, bundan ko`p aholi yashaydigan joylarda esa 15 l/s hisobida olinadi. O`tga chidamlshshk darajasi I va II bo`lgan, xajmi 3000 m<sup>3</sup> gacha bo`lgan ishlab chiqarish hamda jamoat binolari uchun hisobiy suv sarfi - 5 l/s ni, III, IV va V

darajalari uchun 10 l/s ni tashkil etadi.

Bitta yong`inni o`chirishga sarflanadigan zaruriy suv miqdori uning sekund davomidagi sarfi miqdori va yong`inni davom etgan vaqti bilan hisoblanadi.

ISHLAB CHIQARISHDA YONQINGA QARSHI TIZIMLAR.

Yong`inga qarshi tizimlar majmuasi MMXS dagi GOST 12.1.004-76 talablariga binoan yong`inni oldini olish tadbirlari, yong`indan himoyalash va tashkilliy masalalardan iborat.

Yong`inni oldini olish tizimiga tashkiliy tadbirlar va yong`in xavfi mavjud ish joylarda yonqinndan ogoqlantiruvchi vositalar kabi texnik vositalarni ko`rsatib o`tish mumkin.

Yong`indan himoyalash tizimiga texnik vositalar va tashkiliy tadbirlarni birlashtirilgan holda, yong`inni kishilarga va moddiy boyliklarni himoyasini tashkillashtirish masalari kiradi. Ya'ni himoya sifatida yonmaydigan va yong`inni tarqalishiga yo`l qo`ymaydigan materiallardan binolarni qurish, yonilg`idan foydalanishga qattiq tartib o`rnatish, yong`inni o`chirishda, o`chirish vositalarini ta'minlanishi, tutun tarqalishi va atmosferaga chiqaruvchi tizim, jamoa va shaxsiy himoya vositalri bilan ta'minlanishlarni hamda aholini evauasiya qilish tadbirlarini ko`rsatib o`tish mumkin.

Yong`in xavfsizligin ta'minlashdagi tashkiliy masalalarga, yong`inga qarshi ishchilar hisobidan ko`ngillilar otryadini tuzish, yong`in xavfi yuqori bo`lgan ish joylarida profilaktik ishlarni belgilangan talab asosida o`tkazib turish, ishchilarni o`quv va malaka oshirish bilan bilimlarini oshirib borish, amaliy taktik o`quv ishlarini tashkillashtirish, yong`in xavfsizligini ta'minlash bo`yicha yo`riqnomalar ishlab chiqish va joriy qilish kabi tadbirlarni ko`rsatib o`tish mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 29 iyun 243-son qarorining "Mulkchilik shaklidan qat'i nazar, vazirliklar, idoralar, korporasiyalar, konsernlar, uyushmalarning sanoat korxonalari va boshqa ob'ektlaridagi ko`ngilli o`t o`chiruvchilar drujinalari to`g`risidagi Nizomga asosan ko`ngilli 132 o`t o`chiruvchilar drujinasiga quyidagi vazifalar yuklanadi:

- a) ob'ektda yong`inga qarshi tartib-qoidalarining qanday bajarilayotganini va unga qanday rioya etilayotganini nazorat qilishni amalga oshirish;
- b) ishchilar va xizmatchilar o`rtasida ob'ektda yong`inga qarshi tartib-qoidalariga rioya qilish bo`yicha tushuntirish ishlari olib borish;
- v) o`t o`chirish texnikasining, o`t o`chirish dastlabki vositalarining so`z va jangovar holatdaligini nazorat qilish;
- g) yong`in chiqqan hollarda o`t o`chirish komandasini chaqirish va odamlarni xavfli joydan ko`chirish hamda ob'ektdagi mavjud o`t o`chirish vositalari bilan yong`inni o`chirishga oid shoshilinch choralar ko`rish;
- d) zarur bo`lgan hollarda ko`ngilli o`t o`chiruvchilar drujinasi a'zolarining o`t o`chiruvchi mashinalarda, motopompalarda va ut o`chirishning boshqa ko`chma va turgan vositalarining jangovar guruhlaridagi ishlarda qatnashish, shuningdek, o`ta zarur hollarda, sexlar va boshqa ob'ektlarda navbatchilikda turish;
- e) ob'ektning yong`in-texnika komissiyasi va yong`inlarni aniqlash, oldini olish hamda o`t o`chirishning yangi usullarini joriy etuvchi davlat yong`in nazoratining mahalliy organlari bilan o`zaro birgalikda harakat qilish.

DAVLAT YONG`NNI NAZORAT QILISH ORGANI

Davlat yong`inni nazorat qilish respublika Ichki ishlar Vazirligining yong`indan muhofaza qilish Bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi. Davlat yong`inni nazorat qilish organlari zimmasiga yong`indan muhofaza qilishga oid qoidalar, qo`llanmalar ishlab chiqish va nashr qilish, yong`inni oldini olishga oid qoida va me'yorlar, tadbirlarning hamma korxonalar, hamda aloxida shaxslar tomonidan bajarilishini nazorat qilish, loyihalash, qurish vaqtida yong`inni oldini olishga oid talablarning bajarilishini tekshirish (xulosalar berish), o`t o`chiruvchi bo`linmalarining ishga shay turishini hamda o`t o`chirish vositalarining benuqsonligini tekshirish vazifalari yuklanadi.

Davlat yong`inni nazorat qilish organlari yong`inni oldini olishga oid qoida, me'yor va ko`rsatmalarining buzilishiga aybdor bo`lgan mas'ul shaxslarni ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortish, yong`in xavfi tug`ilganda ob'ektdagi ishlarni qisman yoki butunlay to`xtatib qo`yish huquqiga ega. Shaharlar va shahar tipidagi qishloq yong`in muhofazasi, shuningdek, o`zlarida o`t o`chiruvchi qismlar bo`lmagan korxonalarda, yangi qurilishlarda, turar joy va jamoat binolarida yong`inni oldini olish nazoratini amalga oshiradi.

Yong`in haqida xabar berish texnik qurilma va asboblari.

Yong`indan xabar bergichlar yong`inga qarshi kurashishda eng muhim vositachi hisoblanadi. Xabar bergich tizimi quyidagi talablarni bajarishi kerak: mahalliy yong`in muhofazasiga tezlik va uzluksiz xabar berish, elektr xabar bergich qo`llanilganda elektr zanjirida uzilish ro`y berganda qabul apparatiga 133 avtomatik tarzda xabar berish va boshqalar. Xabar berishni eng ishonchli turi elektr

tarmog`i (tizimli) hisoblanadi. Elektr yongan xabar bergichlar tizimi yong`inni aniqlash va uning joyini xabar berish uchun belgilanadi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR 2-KURS III SEMESTR

JAMI: 20 SOAT

Mavzu№1 Hayot faoliyatining asosiy shakllari.Amaliy mashg’ulotni olib boorish texnologiyasi.

<i>Talabalar soni;30ta</i>	<i>Vaqt;2 soat</i>
<i>Mashg’ulot shakli</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg;ulot.
<i>Amaliy mashg’ulot rejasi</i>	1.Hayot faoliyati xavfsizligi fanining maqsadi. 2. Xavflar haqida tushuncha. 3.Xavflar «Daraxti» shajarasini tuzish. 4.Xavflar tizimini tahlil qilish. 5.Mehnat xavfsizligi bo’yicha asosiy tushuncha. 6. Atama va aniqlashlar haqida tushuncha. 7.Xavflar taksomaniyasi haqida tushuncha. 8.Sabab va oqibatlar.
<i>Mashg’ulotning maqsadi:</i> Hayot faoliyati xavfsizligi fanining asosiy tushunchalari boi’yicha talabalarda chuqurroq bilimga ega bo’lish shart sharoitlarini yaratish va talabalar bilimini mustahkamlash.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O’quv faoliyatining natijalari.</i>
• Hayot faoliyati xavfsizligi fanining maqsad va vazifalari haqida tushunchalar berish.	Fanning maqsad va vazifalarilini anglab yetadilar.Tushuncha hosil qiladilar.
• Xavflar haqida tushuncha beradi va talabalarda ko’nikma hosil qiladi.	• Xavflar haqida tushunchaga ega bo’ladilar.
• Sabablar va xavflar mantiqiy «Daraxt» ini qurish orqali xavflarni tizimli tahlil qilishni o’rgatish	• Sababsiz oqibat vujudga kelmasligini va xavflarni tizimli tahlil qilishni o’rganadilar.
• Mehnat xavfsizligi bo’yicha asosiy tushunchalar berish,talabalarda ko’nikmalar hosil qilishdan iborat.	• Mehnat xavfsizligidan to’g’ri foydalanishni bilib oladilar,ko’nikma hosil qiladilar.
• Atama va aniqlashlar haqida ma’lumot berish.	• Atamalar haqida tushunchaga ega bo’ladilar.
<i>O’qitish usullari va texnikasi.</i>	Muommali uslub,aqliy hujum,bahs munozara,blits-so’rov.
<i>O’qitish vositalari.</i>	Ma’ruza-matni,markerlar,qog’ozlar doska,bo’r, маркерлар, коғозлар, доска, бър.
<i>O’qitish shakli.</i>	Jamoa va guruhlarda ishlash.
<i>O’qitish shart-sharoiti.</i>	Texnik vositalar bilan ta’minlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash.</i>	Og’zaki nazorat,savol-javob,o’z-o’zini nazorat qilish,reytim tizimi asosida baholash.

Amaliy mashg’ulotning texnologik xaritasi.(2-mashg’ulot)

<i>Ish jarayonlari vaqti</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	<i>O’qituvchi</i>	<i>Talaba.</i>
I-bosqich. Mavzuga kirish. (10 daqiqa)	1.1. O’quv mashg’uloti mavzusi,maqsadi,vazifalari va o’quv faoliyati natijalarini aytadi,dolzarbligi va ahamiyatiga to’xtalib o’tadi.	Tinglaydilar,UUMga qaraydilar.

	1.2. Olingan bilimlarini umumlashtirish maqsadida, talabalarni faollashtirish uchun « <i>Hayot faoliyati xavfsizligi</i> »ni qanday tushunasiz? «Aqliy hujum»o'tkazadi. Fikrlarni umumlashtiradi.	Erkin fikr bildiradilar.
II-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalarni 3 ta kichik guruhlariga ajratadi, ularni baholash mezonlari bilan tanishtiradi(1-ilova) mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi.(2-ilova).	Guruhlariga ajraladi,yozib oladilar,topshiriqlar ustida ishlaydilar.
	2.2. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi, qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb etadi.	Faol qatnashadilar.
	2.3. Har bir guruh topshiriqlarni vatman qog'ozlarga tushirib,taqdimotini o'tkazishda yordam beradi,izoh beradi,bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor beradi.Topshiriqlarni bajarilishining qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi.	Jamoa bo'lib bajarilgan ishning taqdimotini o'tkazadilar,bahs-munozara yuritadilar,qo'shimchalar qiladilar,baholaydilar,xulosa chiqaradilar.
	2.4. Talabalarining bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida blits-so'rov o'tkazadi.(3-ilova).Dars yakunini umumlashtiradi.	Savollarga javob beradilar.
III-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1.Ish yakunlarini chiqaradi.Bugungi mavzu dolzarb ekanligiga to'xtalib o'tadi.Olingan bilimlarini amaliyotda tadbiiq etishlari lozim ekanligini ta'kidlaydi.Faol talabalarni baholash mezonlari orqali rag'batlantiradi.	Eshitadi.Aniqlaydi.
	3.2. Uyga mustaqil bajarish uchun topshiriq beradi.:« <i>Hayot faoliyati xavfsizligi</i> » mavzusida uyda misollar yozib keeling. 3.3 Mavzuga doir testlarni o'rganib kelish..	O'UMga qaraydilar.3-mashg'ulot mavzu va rejalarini yozib oladilar.

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari. 1-ilova

Guruh	Baho	Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari			
		Mavzu haqida tushunchaga ega.	Guruh faol	Muommani yechish uchun takliflar berishadi.	Jamoa.
	Ball	1,0	0,5	1,5	3
1					
2					
3					

Guruhlarni ishlarini umumlashtiruvchi baho


<i>Guruh</i>	<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>Jamoa ball</i>	<i>Baho</i>
1					
2					
3					

2,2 – 3 ball –a’lo .1,2 – 2 ball –yaxshi.0,5 – 1,1 ball –qoniqarli.0 – 0,5 ball – qoniqarsiz

2-ilova.


I-guruhga tarqatiladigan savollar:

Inson_____Mashina_____Muhit




Xavfsizlikni tizimiy tahlil qiling. Inson → Mashina → Muhit. Yuqorida berilgan daraxt orqali Manashu so’zning ma’nosini shunday joylashtiring ki shajara hosil bo’lsin. Bu daraxt orqali nimalarni ifodalay olasiz? (insonga soladigan xavf xatar, e’tiborsizlik, tasoddif, halokat.)

II- guruhga tarqatiladigan savollar.



Yuqoridagi urgimchak to'ri orqali hayot davomida insonlar faoliyatiga va salomatligiga ta'sir etadigan salbiy omillarni har bir katakchalarga joylashtirib chiqing va o'z fikringizni himoya qiling.

III- guruhga tarqatiladigan savollar.



Xavfsizlikni tahlil qilish uslublari:

Yuqorida ko'rsatilgan tasvirdagi katakchalarga inson hayoti davomida sodir bo'ladigan oqibatlarning sabablarini yozing. Natijada Inson---E'tiborsizlik---Oqibat yuzaga kelsin.

3- ilova.

Blits-so'rov savollari.

<i>No</i>	<i>Savol</i>	<i>Javob.</i>
1.	Xavf-xatar deganda nimani tushunasiz?	
2.	Xavflar toksomaniyasi-bu.....	
3.	Xavflar ro'yxati deganda nimalar nazarda to'tilgan?	
4.	Xavflar kvantifikatsiyasi nima?	
5.	Oqibatning boshlanishi nima?	
6.	Sababning natijasi nima?	

Mustaqil ish uchun vazifa.

1. Uyda har bir talaba mustaqil ravishda mavzuga doir muommali masala tuzib kelish.
2. Mavzuga doir krassivord tayyorlab kelish.

Mavzuning qisqacha bayoni:

Xavf to'g'risida tushuncha:Xavf-hayot faoliyati xavfsizligining asosiy tushunchalaridan biri bo'lib,inson faoliyati davrida uning sog'ligiga bevosita yoki bilvosita zarar

keltiruvchi,ya'ni ko'ngilsiz oqibatlarga olib keluvchi holat,jarayon,ob'ekt va vositalardir.

Xavfni xarakterlovchi belgilar soni tahlil maqsadiga bog'liq holda ko'payishi yoki kamayishi mumkin.Shu sababli,xavfni xarakterlovchi belgilar standart tushuncha – «xavfli va zararli ishlab chiqarish faktorlari» shaklida talqin qiladi.Xavfli va zararli faktorlar kelib chiqish sabablariga bog'liq holda fizikaviy,kimyoviy ,biologic va psixofiziologik ko'rinishida bo'ladi.Shunga bog'liq holda xavf potensial(yashirin) va real turlarga bo'linadi.Potensial xavfni,yuzaga,birinchi navbatda ishlab chiqarish sharoitiga bog'liq bo'lib,xavfni yuzaga keltiruvchi sabablar orqali bog'lanadi.Xavf ta'sirida yuzaga kelgan baxtsiz xodisalarning sabablari esa texnik-texnologik,sanitary-gigiyenik,tashkiliy va psixofiziologik kabi turlarga bo'linadi.

Xavfning toksomaniyasi-bu uning kelib chiqishi tabiati turi,oqibatlari,tuzilishi insonga ta'sir etish xarakteri va shunga uxshash belgilari asosida tasniflanishi bir sistemaga keltirilishidir.Umuman, «toksomaniya» murakkab xodisalar,jarayonlar tushunchalar va ob'ektlarning tasniflanishi hamda bir sistemaga solinishi to'g'risidagi fan hisoblanadi.Xavfning quyidagi ko'rinishdagi toksomaniyasi mavjud:

- Xavfning yuzaga kelish tabiatiga ko'ra:tabiiy, texnik, antropogen, ekologik, aralash;
- xavf ta'sirida ko'ngilsiz oqibatlarni yuzaga kelish vaqtiga ko'ra:impulsive,kumulektiv.
- lokalizatsiya bo'yicha:litosfera,gidrosfera,atmosfera,kosmos bilan bo'g'liq xavflar;
- yuzaga keluvchi oqibatlar bo'yicha:charchash,toliqish,zo'riqish,kasallanish,shikastlanish,jarohatlanish,avariya,yong'in;
- keltirib chiqaruvchi zararga ko'ra;sotsial, texnik, ekologik;
- yuzaga kelish sohasi bo'yicha;madaniy,maishiy,transport,yul-transport,ishlab chiqarish,harbiy;
- xavfning tarkibi va tuzulishiga ko'ra:oddiy va xosilali(yasamali),ya'ni bir necha oddiy xavflar birikishi natijasida yangi,murakkab xavfning yuzaga kelishi;
- insonga ta'sir etish xarakteriga ko'ra aktiv va passiv;

Xavfning nomenklaturasi.Nomenklatura—ma'lum bir belgilariga ko'ra tartibga

solingan,sistemashtirilgan nomlar,terminlar ro'yxatidir.Hozirgi vaqtda xavfning alfavit tartibidagi nomenklaturasi ishlab chiqilgan bo'lib,u qisqacha quyidagi ko'rinishga ega.Alkogol,anomal harorat,anomal nisbiy namlik,anomal havotezligi,anomal barometrik bosim,anomal yoritilganlik,anomal ionlashgan havo,aqliy zo'riqish,bosim ostidagi idishlar,bug'balandlikgazlar,gipodinamiya,gipokniziya,qor ko'chishi,quyosh aktivligi,quyosh zarbasi.

Xavfning kvantifikatsiyasi.Kvantifikatsiya—sifat darajasi aniqlanadigan va baholanadigan murakkab tushunchalarga sonli xarakteristika berish demakdir.

Kvantifikatsiyaning sonli,balli va boshqa usullar qullaniladi.Xavfning eng keng tarqalgan soniy baholash mezoni-tavakkal(«risk»), tavakkalchilik,ya'ni xavf-xatarga qarshi bormoqdir.. Soniy baholash-ma'lum davrdagi faoliyat davomida yuzaga kelgan ko'ngilsiz oqibatlarni oldindan ehtirom qilingan,sodir bo'lishi mumkin bo'lganxavfga,ko'ngilsiz oqibatlarga nisbatidir.Tavakkalni aniqlashda oqibatlarning sinfi ko'rsatilishi lozim.

Xavfning identifikatsiyasi.Xavf potensial,ya'ni yashirin xarakterga ega.Shu sababli,hayot faoliyat xavfsizligini ta'minlashda xavfni oldindan aniqlash muhim rol o'ynaydi.

Identifikatsiya –xavfni va uning soniy hamda vaqtli ko'rsatkichlarini aniqlash jarayoni bo'lib,uning soniy hamda vaqtli ko'rsatkichlarini aniqlash.jarayoni bo'lib,uning natijasida hayot faoliyat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan.

1.2.Sabab va oqibat

Potensial xavf yuzaga keladigan, amalga oshadigan sharoitlar baxtsiz hodisalarning sabablari deyiladi. Baxtsiz hodisalar turli xil, ya'ni jarohatlar, shikastlanishlar, kasallanishlar va boshqa ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

Xavf, sabab va oqibat-baxtsiz hodisalarni, favqulodda holatlarni, yong'inlarni va shu kabi boshqa ko'ngilsiz hodisalarni asosiy xarakteristikasi hisoblanadi.

«Xavf – sabab – ko'ngilsiz oqibatlar» - bu logic rivojlanish jarayoni bo'lib, yashirin xavfni yuzaga chiqishiga hamda real zarar keltirib chiqarishga olib keladi. Quyida yuqoridagi uchlikka misol keltiramiz:

Elektr toki(xavf) – qisqa tutashuv (sabab) – kuyish (oqibat);

Pestisidlar (xavf) – to'g'ri foydalanmaslik (sabab) – zaharlanish(oqibat).

Mavzu №2. Mehnat faoliyati og'irligi va tig'izligini baholash

. Semenar mashg'ulotning o'qitish texnologiyasi.

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni 25-30 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli.	Munozarali semenar.
Semenar mashg'uloti rejasi.	1. Mehnat sharoitini aniqlovchi asosiy omillar tahlili. 2. Mehnat sharoitini xususiyatlari. 3. Ishlab chiqarishdagi xavfli va zararli omillar. 4. Ishlarni og'irlik va xavflilik va zararlilik darajasi bo'yicha tasniflanishi. . 5. Jarohatlanish ko'rsatkichlari va sabablarini o'rganish uslublari. 6. Mehnat qonunlariga rioya etilishini nazorat qilish.
O'quv mashg'ulotning maqsadi: Ishlab chiqarish jarayoni va natijalarini tahlil qilishni o'rgatish, bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish.	
Pedagogik vazifalar: - Mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash; - Darslik bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish; - Ishlarni og'irlik, xavflilik va zararli darajalarini tahlil qilishni o'rgatish va o'z fikrini ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirish. - Jismoniy va aqliy mehnat darajalarini baholashni va tahlil qilishni o'rgatishdan iborat..	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: - Mavzudagi asosiy tushunchalar ya'ni mehnat og'irligi va zararli, xavflilik darajalarini farqlay oladilar. - ularni guruhlay oladilar, tizimlashtiradi, ishlab chiqarish omillari va ta'sirlarini biladilar tahlil qila oladilar. - Jismoniy va aqliy mehnat darajalarini baholay oladilar va tahlil qila oladilar.
O'qitish uslubi va texnikasi.	Munozarali semenar, suhbat, aqliy hujum
O'qitish shakli.	Jamoadi va guruhlarda ishlash.
O'qitish vositalari.	Ma'ruza matnlari, proektor, marker, skotch, A32 F qog'oz, konspektlar.
O'qitish sharoitlari	Guruhlarda ishlashga muljallangan auditoriya.

Semenar mashg'ulotning texnologik xaritasi.

Bosqichlar vaqti.	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba

1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1.Mavzuni maqsadi,rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi va ularning ahamiyatini hamda aktualigini asoslaydi. 1.2.Semenar munozara tarzida o'tishini e'lon qiladi. 1.3.Bilimlarni faollashtirish maqsadida "Siz qanday Ishlab chiqarishdagi xavfli va zararli omillarni bilasiz?"savoli bilan murojat qiladi. 1.4. Munozara qoidalarini eslatadi.	Mavzuni yozadilar,savollarga javob beradilar.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1.Talabalarni munozara savollari bilan tanishtiradi. - Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni qanday? - Ishlab chiqarish omillarining mazmunini va tarkibini bilasizmi? - Mehnat unumdorligi nima? - Mehnat qonunlari haqida nimalarni bilasiz? 2.2. Talabalar munozarasini tashkil etadi. Har bir javobning mazmuniga va mantiqligiga e'tibor beradi.Savollar berishni taklif etadi.Turli nuqtai nazarlar tinglanadi va umumlashtiradi.Har bir savol muhokamasi xulosa bilan tugaydi. 2.3.Talabalarning qo'shimcha savollariga javob beradi.	2.1.Eshitadilar va javoblarni tayyorlaydilar.. 2.2.Talabalar savollarga o'znuqtai nazarlarini bildiradilar,qo'shimcha qiladilar va savollar beradilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1.Semenar mashg'ulotini yakunlaydi,savollar bo'yicha xulosalar chiqaradi,munozara ishtirokchilarini baholaydi. 3.2. Mustaqilish uchun vazifa beradi.	Eshitadilar.Xulosalarni yozib oladilar.Topshiriqni oladilar.

1-ilova.

Munozara qatnashchilariga eslatma 1. Munozara munosabatlar yig'indisi emas,balki muomma yechimi uslubiyatidan iborat. 2. Ko'p gapirmasdan boshqalarning gapirishiga imkon ber. 3. Maqsadga erishih yulida hissiyotlarni jilovlab,batafsil o'ylagan holda so'zla. 4. Raqiblarning vaziyatini o'rganib,ularga hurmat bilan murojat qil. 5. Raqiblarning tomonidan aytilgan fikrlarga tanqidiy va istehzoli yondash. 6. Munozara predmeti bo'yicha chetga chiqmagan holda yondashib gapir.	
Muommali semenarning boshqaruv dastaklari. Boshlovchi - barcha vazifalarni o'ziga oladi—munozara bosqichlarini boshqarish,javoblarning asoslanishi va to'g'riligini tasdiqlash,qo'llangan termin va tushunchalarning aniqlash,munosabatlarni to'g'ri qo'llash va boshqalar.Taqdimotlarning taqsimotini to'g'ri boshqarish. Taqrizchi – tomonlarning ma'ruzalarini yunalishlar bo'yicha belgilash va to'liq xarakterda baholash:dolzarbligi,ilmiy jihat,mantiquyligi va masalalarning aniq qo'yilganligi,xulosalarning aniq ko'rsatilishi. Raqib – qabul qilingan tadqiqot o'rtasida raqobatchilik jarayonini shakllantiradi.U faqatgina ma'ruzachining asosiy holatini tanqid qilish emas,shu bilan birgalikda,uning aytgan fikrlaridan zaif yoki hatto tomonlarini topish hamda o'zining hal qiluvchi fikrlarini taklif qilishi ham mumkin. Ekspert – barcha munozaralarning,jumladan,munozara qatnashchilari tomonidan aytilgan fikrlarning,qilingan xulosalarning,talif va gipotizalarning mahsuldorligini baholaydi.	
Munozara reglamentini o'tkazish tartibi 1. Boshlovchi ma'ruza mavzusi va ma'ruzachilarning taqdimotlarini e'lon qiladi..	

2. Ma'ruza 5 minut davom etadi.
3. Taqrizchi – 2 minut.
4. Raqib – ma'ruza mavzusi bo'yicha fikrlarini 1-3 minut taqdim etadi.
5. Jamoaviy muhokama 5-10 minut.

2-ilova.

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari.

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari (ballarda)	Munozara ishtirokchilari			
	Ma'ruzachilar(F.I.Sh.)			
	1	2	3	4
<i>Ma'ruzaning mazmuni (2,5):</i>				
- Mavzuga mos kelishi (1,5);				
- mantiqiylik,aniqlik (0,5);				
- Xulosalarning qisqaligi (0,5);				
<i>Ko'rgazmali qurollardan foydalanganligi– (0,9).</i>				
<i>Reglament (0,6)</i>				
Jami (4,0)				
	Taqrizchilar(F.I.Sh.)			
<i>Ma'ruzaning tavsifi (3,0)</i>				
- Ma'ruzaning ko'chli tomonlari aniqlash (1,2)				
- Ma'ruzaning zaif tomonlari aniqlash (1,2)				
<i>Reglament (0,6)</i>				
Jami (3,0)				
	Opponentlar,ishtirokchilar(F.I.Sh.)			
<i>Savollar:</i>				
- Har biri uchun (0,3)				
<i>Qo'shimcha</i>				
- Har biri uchun (0,3)				
- Mohiyati bo'yicha (0,3)				
Jami(3,0)				

3-ilova.

Muhokama va xulosalarni shakllantirish uchun savollar.

Ishlab chiqarishdagi xavfli va zararli omillar bo'yicha.

- 1 Fizikaviy omillarga nimalar kiradi.?
2. Kimyoviy omillarga nimalar kiradi?
3. Biologik omillarga nimalar kiradi?

Baxtsiz xodisalarning sabablari bo'yicha.

- 1 Baxtsiz xodisalarning sanitary-gigiyenik sabablarga nimalar kiradi.?
2. Tashkillashtirish sabablarga nimalar kiradi?
3. Psixofiziologik sabablarga nimalar kiradi ?

**Ishlarni og'irlik va xavflilik–zararlilik darajasi bo'yicha
bo'yicha.**

tafsiflanishi

1. Yengil, o'rtacha, og'ir ishlarni bajarishga qancha J/s (joule/sekund) energiya sarflanadi?
2. Mehnat unumdorligini ortishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
3. Mehnat unumdorligi va iqtisodiy o'sish kategoriyalarining o'zaro bog'liqligi nimada?

4-ilova.

Muhokama va xulosalar chiqarish uchun savollar.

1. Jaroxatlanish ko'rsatkichlari va sabablarini qanday urganish uslublarini bilasiz?
2. Mehnat qobiliyatini yuqotgan ishchi uchun qanday hujjatlar rasmiylashtiriladi?
3. Jaroxatlanish holatini xarakterlovchi ko'rsatkichlar nimalardan iborat?
4. Mehnat qonunlari va mehnat sharoitlarini nazorat qiluvchi organlar tafsilotini ayting.
5. Kasaba uyshmalari tomonidan mehnat muhofazasi holatini nazorat qiluvchi jamoatchilar nima vazifani bajaradi?

Tayanch iboralar: texnik, sanitar-gigiyenik, infratovush, ultratovush, infraqizil

Mavzuning qisqacha ta'rifi.

Mehnat sharoitini xususiyatlari. Ishlab chiqarishdagi xavfli va zararli omillar.

Ishlab chiqarishda kasb- kasalliklarining oldini olish va ishlab chiqarish jaroxatlarini kamaytirishda, ushbu baxtsiz xodisalarni chuqur tahlil qilish asosida ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni hamda ishlab chiqarishdagi xavfli va zararli omillarni puxta urganish muhim rolo'ynaydi.

Baxtsiz xodisalarning sabablari asosan 4 guruhga bulinadi.

1. Texnikaviy;
2. Sanitar-gigiyenik
3. Tashkiliy;
4. Psixofiziologik.

Sanitar –gigiyenik sabablarga: mehnat gigiyenasi, sanitary normalar va qoidalarga amal qilmaslik, yoritilganlik, harorat, nisbiy namlik, havoning harakatlanish tezligi, havoning bosimi kabi ko'rsatkichlarni chetga chiqishi, yuqori miqdordagi shovqin, havoning changlanganligi yoki gazlanganligi kiradi.

Tashkiliy sabablarga:ishchi rejimi va dam olish rejimini noto'g'ri tashkil etilganligi,ishchilarni xavfsizlik qoidalari bo'yicha o'qitilmaganligi,insruksiyalarni bo'lmaganligiyetarli darajada mehnatni muxofaza qilish talablarini nazorat qilish bo'lmaganligi, ishchi joylarida ogohlantiruvchi belgilarni bo'lmasligi,jamoa bo'lib ishlayotgan joylarda vishni tashkillashtirishdagi kamchiliklar,mutaxassislik bo'yicha ishga qabul qilmaslik,maxsus kiyim boshlar va shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanmaganlik,asbob va uskunalardan noto'g'ri foydalanishlar misol bo'la oladi.

Psixofiziologik sabablarga –bajarilayotgan ishga e'tiborsiz qaralishi,ishchining o'z faoliyatiga bo'lgan nazoratning bushligi,jismoniy yoki asabiy toliqishlar misol bo'la oladi..

Ishlab chiqarishdagi xavfli va zararli omillar: ishning turi va mehnat sharoitiga bog'liq holda 4 guruhga bo'linadi:

- 1.Fizikaviy
- 2.Kimyoviy.
- 3.Biologik.

Psixofiziologik.

Fizikaviy omillarga:harakatdagi mashina va mexanizmlar,ularning himoyalanmaganqo'zg'aluvchimexanizmlari,ish joyi havosining yuqori darajada changlanganligi,gazlanganligi,yuqori miqdordagi shovqin,titrash,infratovush,ultratovush,ionli va elektr magnitli ionlanishlar,ultrabinafsha va infra qizil nurlar,yuqori kuchlanishdagi elektr yoki magnit maydonlari,yoritilganlik darajasining me'oridan chetga chiqish kabi omillar kiradi.

Kimyoviy omillarga-ishlab chiqarish jarayonlarida ishlatiladigan yoki ajralib chiqadigan turli xil kimyoviy moddalar kiradi.

Ularni insonga ta'sir etish xususiyatiga qarab quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:umumiy zaharlovchi,ko'payish funksiyalariga ta'sir etuvchi, inson a'zolariga kirish yuli orqali esa:nafas yuli orqali ta'sir etuvchi,hazm yo'li orqali,teri orqali ta'sir etuvchi omillarga bo'linadi..

Biologik omillar-har xil jaroxatlar va kasalliklarni keltirib chiqaruvchi mikro organizmlar,bakteriyalar,viruslar,rikket,zamburug'lar har xil zaharli o'simliklar va hayvonlar kiradi.

Psixofiziologik omillar- jismoniy va asabiy zo'riqishlar misol bo'la oladi.

Jismoniy zo'riqishlar ststik,dinamik va gipodinamik holda bo'lishi mumkin.

Asabiy zo'riqish esa kuchli aqliy mehnatdan,mehnatni doimiy bir xil ko'rinishida bo'lishidan,kuchli hayajonlanish yoki asabiylashishdan sodir bo'ladi.

Ishlarni og'irlik va xavfilik-zararlilik darajasi bo'yicha tafsiflanishi:

Barcha jismoniy ishlar 3 ta kategoriyaga ajraladi:

Yengil ishlar,
O'rtacha og'irlikdagi ishlar
Og'ir ishlar.

Yengil ishlarni bajarishga – 172 j/s, o'ryacha ishlarni bajarishga– 172, 293gacha j/s,og'ir ishlarni bajarishga 293 ж/с. dan ortiq energiya sarflanadi. Umuman, ishlarni og'irlik darajasi bo'yicha guruhlashda 50 ga yaqin mezon («kriteriya») hisobga olinishi mumkin.

Ishlar xavflilik va zararli darajasiga qarab esa zararli, xavfli va uta xavfli guruhlarga ajratiladi. Zararli ishlarga nomaqbul iqlim sharoitida bajariladigan ishlar (kuchli shamol, past yoki yuqori harorat, namlik, yuqori darajada shovqin, titrash, har xil nurlarta'sirida ishlash).

Xavfli ishlarga «montajchilar», o't yoquvchilar, elektriklar misol bo'la oladi.

Uta xavfli ishlarga esa yong'inni uchirish va uni oqibatlarini tugatish, tabii ofatlar davrida avariya – tiklash ishlarini olib boorish misol bo'ladi.

Jarohatlanish ko'rsatkichlari va sabablarini o'rganish uslublari.

Ishlab chiqarishda sodir bo'lgan baxtsiz hodisa tufayli ishchi o'z mehnat qobiliyatini bir kun va undan ortiq vaqtga yuqotsa yoki asosiy kasbidan boshqa ishga utishga sabab bo'lsa H-1 formali akt t'ziladi. H-1 formali akt tekshirish materiallari bilan birgalikda baxtsiz hodisa ruy bergan boshqarmada 45 yil saqlanishi kerak.

Og'ir ahvoldagi, ikki yoki undan ortiq kishilarning guruhli ulimi bilan tugagan baxtsiz hodisalar maxsus tekshiriladi. Agar bunday baxtsiz hodisalar ruy bersa boshqarma rahbari darhol yuqori tashkilotlarga, mehnat bo'yicha texnik inspektorga, mahalliy prokroturaga xabar berishi lozim. Baxtsiz hodisalarni to'g'ri tekshirish, ularni sabablarini o'rganish va baholash jarohatlanishlar ko'rsatkichlarini aniqlash orqali tahlil qilinishi mumkin. Ishlab chiqarishda ruy bergan jarohatlanishlarning holatini xarakterlovchi ko'rsatkichlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Jarohatlanish chastotasi - $K_{\text{ч}} 1000 * 1u \text{ ч } n \text{ } n = K$

Bu yerda n_1 – ish qobiliyatini yuqotgan va halok bo'lgan ishchilar soni;

n_u – o'rtacha ishchilar soni.

K_O – jarohatlanish og'irligi

$2 n$

D_H

$o = K$

bu yerda D_o – hisobot davrida yuqotilgan jami ish kunlar soni.

n_2 – ish qobiliyatini yuqotgan ishchilar soni.

Ish kunining yuqotilishi ko'rsatkichi – $K_{\text{ик}}$

$100 *$

u

n

$u_{\text{к}} n$

$D = K$

Ma'lumki, ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlarni kamaytirish uchun ularni sabablarini to'g'ri aniqlash va atroflicha tahlil qilish zarur.

Ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisalarning sabablarini o'rganish va baholashni quyidagi uslublar orqali amalgam oshirish mumkin:

Monografik usul. Ushbu usul har bir baxtsiz hodisani alohida chuqur tahlil qilish, uning aniq sabablarini urganishga asoslangan. Bunda ishlab chiqarish jarayonida ishlatilgan mashina, mexanizmlar va boshqa texnik jihozlarning mexanik

holati, ishlatiladigan materiallarning tarkibi, havo va sun'iy sanitariy-gigiyenik holati kabi faktorlar tekshirilib o'rganiladi.

Statistik usul –bu usulda jarohatlanishlarning sabablari keng masshtabda, ya'ni tuman, viloyat, Vazirliklar, tarmoqlar va umuman Respublika miqiyosida o'rganiladi. U tashkilotlar va korxonalarning baxtsiz hodisalar bo'yicha hisobotlarini statistik qayta ishlash va tahlil qilishga asoslangan bo'lib, baxtsiz hodisalarni ishchilarni kasbi, yoshi, jinsi, ish staji kabi ko'rsatkichlari bo'yicha yoritiladi.

Topografik usul-baxtsiz hodisa ruy bergan joyni urganish va tahlil qilishga asoslangan bo'lib, ushbu joyni ishlab chiqarish rejasi yoki topografik kartaga tushurish orqali amalga oshiriladi.

Iqtisodiy usulda esa mehnat muhofazasi uchun ajratiladigan mablag'lar va metallarning baxtsiz hodisalarni kamaytirishga qanchalik ta'sir etishi va baxtsiz hodisalarni iqtisodiy oqibatlarini urganiladi.

Mashg'ulot №3,1 "Fuqorolar himoyasi." bo'limidan Favqulodda vaziyatlardan fuqorolarni himoyalash. Amaliy mashg'ulot mavzusining amaliy mashfulotni olib borish texnologiyasi.

Mashfulot shakli	Muammoli amaliy mashfulot
Mashfulot rejasi	1. Kollektiv himoya vositalari va ularning turlari.. 2. Terini himoyalovchi shaxsiy himoya vositalari.. 3. Nafas yullarini himoyalovchi gaz niqoblar haqida tushuncha.
O'quv mashfulotining maqsadi	Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirishni ta'minlash
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari:
.Kollektiv himoya vositalari va ularning turlari haqida tlabalarga tushuncha beradi, ularda o'rganish ko'nikmasini hosil qiladi..	.Kollektiv himoya vositalari va ularning turlari haqida ma'lumotlarga ega bo'ladilar..

Terini himoyalovchi shaxsiy himoya vositalari.haqida talabalarga tushuncha beradi va bilish,o'rganish imkoniyatini yaratadi.Tabiatni muhofaza qilish ishlariga umumiy rahbarlik Vazirlar Mahkamasiga yuklatilgan. «Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning davlat boshqaruvi tizimi»ni tushuntirish;	Terini himoyalovchi shaxsiy himoya vositalari..haqida tushunchaga ega bo'ladilar va tabiatni muhofaza qilish ishlariga umumiy rahbarlik Vazirlar Mahkamasiga yuklatilgan. «Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning davlat boshqaruvi tizimi»ni aytib, izohlab beradilar;
Nafas yullarini himoyalovchi gaz niqoblar haqida tushuncha talabalarga tushuncha beradi,nafas a'zolarining asosiy vazifalari va ularning inson hayot faoliyatidagi asosiy roli nimalardan iborat ekanligini tuyshuntirib beradi.Gaz niqoblarni tuzulishi hamda undan qanday foydalanish haqida talabalarda tushuncha hosil qilishdan iborat.	Nafas yullarini himoyalovchi gaz niqoblar haqida tushunchaga ega bo'ladilar.Nafas a'zolarining asosiy vazifalarini bilib oladilar.Gaz niqoblar haqida tushunchaga ega bo'ladilar va undan qanday foydalanish va qaysi vaqtlarda foydalanish kerakligi haqida talabalarda tushuncha hosil qilishdan iborat.
O'qitish vositalari	qiy hujum, blits-so'rov, diagramma Venna, muammoli usul
O'qitish usullari	ta'lim berishda qo'llaniladigan matnlari, komp'yuter texnologiyasi, dasturlardan foydalanish.
O'qitish shakllari	Jamoa bo'lib ishlash, guruhlarda ishlash
O'qitish sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, o'qitish usullarini qo'llash mumkin bo'lgan auditoriya.
Monitoring va baholash	hazirlash, kuzatish, savol-javob

**“Fuqorolarhimoyasi .” bo’limidan Favqulodda vaziyatlardan fuqorolarni
himoyalash. Amaliy mashg’ulot mavzusining amaliy mashfulotni mavzusi bo’yicha amaliy
mashfulotning texnologik xaritasi**

Ish bosqich-lar	O’qituvchi faoliyatining mazmuni	Izoh	Talabalar faoliyatining mazmuni
1- bosqich. Mav- zuga kirish. (10 min)	O’quv mashfuloti mavzusi, maqsadi va o’quv faoliyati natijalarini aytadi.		Mavzu nomini yozib oladilar
	Talabalarni mashfulotdagi faoliyatini baholash ko’rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi	8.2.1- ilova	Yodga oladilar
	Mavzu bo’yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi	8.2.2- ilova	Topshiriqlar bilan tanishadilar
	Savollar berib suhbat tarzida tinglovchilar bilimlarini jonlantiriladi.	8.2.3- ilova	Javob beradilar.
2 - bosqich.	2.1. Mashfulotning asosiy vazifa-larini echish uchun talabalarni ixtiyoriy ikki guruhga ajratadi va ilovadagi ma’lumotlardan foydalanib prezentatsiya tayyorlash vazifasini topshiradi.	8.2.4- ilova	Tinglaydilar Talabalar ixtiyoriy tarzda 2 ta guruhga ajraladilar.
	2.2. Topshiriqlarni tushuntiradi va guruhda ishlashni tashkil etadi.		

Asosiy bo'lim (55 min)	2.3. Venna-diagramma asosida Terini himoyalovchi shaxsiy himoya vositalari hamda terini zaharlovchi vositalar va ularning turlari bo'yicha terida kuzatiladigan patologik jarayonlarning kasallanishdagi umumiylik aniqlanadi.		Berilgan savollar yuzasidan fikr bildiridilar.
	2.4. Talabalarining Venna-diagramma bo'yicha bergan javoblarini o'qituvchi doskaga yozib boradi va ular asosida terini ifloslovchi manbalar va ularning turlari bo'yicha jadvalni to'ldiradi.	8.2.5 -ilova	Ma'lumotlar asosida jadval to'ldiradilar. muhokama qilinadi va yozib olinadi.
	2.5. Har bir guruh berilgan mavzu bo'yicha prezentatsiya tayyorlaydi. Prezentatsiyada Terini zaharlovchi moddalar, nafas yullarini himoyalovchi vositalar, gaz niqblarining turlari, ulardan foydalanish jarayonlar va ularni xarakterini batafsil yoritib berish lozimligi ta'kidlanadi.		Prezentatsiya tayyorlanadi.
	2.6. Prezentatsiya uchun har bir guruhga 10 daqiqa vaqt ajratilgan bo'lib, uni o'qituvchi boshqarib, talabalar bilan birgalikda kuzatib boradi. O'qituvchi har bir savolga yakun yasaydi.		Talabalar kuzatib boradilar YAkuniy natijalar yozib olinadilar

3- bosqich. YAkun- lovchi (10 min)	3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi.		Savollar beradilar
	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi.	8.2.1- ilova	
	3.3. Mavzu bo'yicha bilimlarni yanada chuqurlashtirish uchun adabiyotlar beradi.		YOzib oladilar.
	3.4. Uyda mustaqil tayyorlanish va bajarish uchun vazifa beradi.	8.2.6- ilova	YOzadilar

8.2.1-ilova

Muhokama o'tkazish ko'rsatmalari.

1. Duskada izohlovchini so'zlarini bo'lmasdan, diqqat bilan uning fikrlarini tinglash.
2. Agarda doskadagi izohlovchini fikrlarini inkor qilmoqchi bo'lsangiz o'zingizni fikringizni aytishga ruxsat so'rang.
3. Duskadagi izohlovchini fikriga qo'shilsangiz, ko'rilayotgan savolga qo'shimcha qilishingizni ayting.

Natijalarni baholash varafi

SHaxsiy baho 1,0 ball, guruhda ishlaganlik bahosi ham 1,0 ball. Amaliy mashrulatga qo'yiladigan yuqori baho 2,0 ball: 1,8-2,0 ballgacha - «a'lo»; 1,7-1,5 - «yaxshi»; 1,4-1,0 ballgacha - «qoniqarli»; 0,5-0 ballgacha - «qoniqarsiz».

guruhda gi savollar tartibi	berilgan savollarga javob (1,0 ball)	boshqa savollarga (0,3 ball)	qo'shimchalarga (0,3 ball)	ko'rinarlilig i (sxema, tablitsa va boshqalar) (0,4 ball)	ballarni jami (2,0 ball)
1					
2					
3					
4					
N					

1-TOPSHIRIQ.

Himoya to'plamidan foydalanish jarayonlarini tushuntirib bering va ularni ketma –ketligini tushuntirib bering. 1.

2-TOPSHIRIQ.

Mamlakatimizning, atrof muhit va ekologik siyosatini, ijtimoiy-iqtisodiy yo'naltirilishi bizning qonunchiligimizni asosiy mohiyati hisoblanishini tahlil qiling. Terini himoyalovchi shaxsiy himoya vositalari..

3-TOPSHIRIQ.

.. Nafas yullarini himoyalovchi gaz niqoblar haqida tushuncha.bering nafas yullarini himoyalovchi qanday himoya vositalarini bilasiz? Undan foydalanish texnikasini amalda ko'rsatib bering.

8.2.3-ilova**Talabalarni mavzuga olib kirish va jonlantirish uchun savollar**

1. Himoya plashlari qanday o'lchamlarda bo'ladi?
 2. Himoya qo'lqoplari necha xil bo'ladi va qanday?.
 3. Zaharlangan joyda ish bajarib bo'lingandan kiyein kiyimlarni yechish tartibini tushuntirib bering.
 4. Odamning badani qizib ketmasligi uchun umumharbiy himoya to'plami va boshqa himoyalovchi kiyimlar qaysi vaqtda va qancha muddatga kiyish ro'xsat etiladi?
 5. Nafas yo'llarini himoyalovchi vositalarga nimalar kiradi?
- ularning turlarini tushuntirib bering.
6. Resperatorlar necha xil ulchamda tayyorlanadi?


8.2.4- ilova**Prezentatsiya uchun mavzular**

1-guruh – Terini himoya qilish vositalarini ketma-ketligi bo'yicha rasmini chizing va uni namoyish qiling.

2-guruh – Nafas olish a'zolarini himoyalash vositalarini(protivogaz) tuzulishini chizing va kiyish tartibini tushuntirib bering.

8.2.5- ilova

Venna-diagrammadan foydalanib himoya vositalarining turlari bo'yicha umumiylikni aniqlang.



Uyda mustaqil tayyorlanish va bajarish uchun vazifa

1.Mavzu boyicha himoya vositalarining foydalanish jarayonlari bo'yicha krassivord tuzish.

2.Mavzu bo'yicha 20 tadan iborat test tuzish.

Mavzuning qisqacha bayoni:

Nafas yo'llarini himoyalovchi vositalarga filtrlovchi umumharbiy, ajratuvchi protivogazlar resperatorlar kiradi.


PSh -4 markali umumharbiy filtrlovchi protivogazlar (gazniqob) nafas a'zolari ko'z va yuzni zaharlovchi radioaktiv moddalar, va bakterial vositalardan himoya qilishning asosi vazifasi bo'lib hisoblanadi. Bu bilan harbiy qo'shinlarning harbiy xizmatchilari ta'minlanadi. Protivogazlar (gazniqob) filtrlovchi - yutuvchi korobka nafas oladigan havoning radioaktiv zaharlovchi moddalar va bakterial vositalardan tozalash uchun xizmat qiladi. U silindr shaklida bo'lib korobkaning tagida nafas oladigan havo kiritish uchun teshik bo'ladi. Tozalangan havo korobka qopqog'iga burab o'rnashtirilgan naycha orqali o'tib keladi. Filtrlovchi korobka mustahkam bo'lishi uchun unda burama joylar bo'ladi. Korobkaning ichki qismi havo oqimi bo'ylab tutunga qarshi filtr va maxsus ishlov berib faollashtirilgan ko'mir solingan yutqich bilan ta'minlangan. Bu yutqich ko'pincha shixta deb ataladi. Protivogazning yuz qismi, shlem niqob rezinkadan tayyorlanib, u 2 ta yirik ko'z oynak, ko'z oynaklar terlashni kamaytiruvchi 2 ta obtekatel, shlem niqobni filtrlovchi qutichani birlashtiruvchi rezinali naydan iborat. Shlem niqobni old qismida og'zaki buyruqlar topshiriqlar suhbatlar yaxshi eshitilishi uchun mo'ljallangan maxsus moslama o'rnatilgan. Shlem niqoblar o'lchovini aniqlash uchun yuz vertikal aylana bo'ylab santimetrda o'lchanadi, yani lenta iyakning quyi nuqtasi orqali yonoqlar bo'yicha quloq chig'anog'i oldida o'tib, boshning tepasida tutash chiziq bo'yicha o'lchanadi. Protivogazni kiyish uchun nafas olmasdan ko'zlarni yumib turib bosh kiyim yechiladi. Protivogaz xaltachadan chiqarilib ikkala qo'l bilan shlem niqobning qalin joyi boshga kiyiladi. Shlem niqobning pastki joyi iyakka qo'yiladi. Undan keyigina chuqur nafas olinadi, ko'z ochiladi, bosh kiyimi kiyiladi. Xaltachaning qopqog'i yopiladi. Ko'z oynak shishalari ko'z ro'parasida turishiga e'tibor berish kerak. Protivogazni yechish to'g'risida buyruq olingandan so'ng, u yechiladi. Resperatorlar nafas a'zolarini radioaktiv va tuproq

changlaridan va bakterial a'erozollardan himoya qiladi. P – 2 resperator 3 qavat materialdan tayyorlangan bo'lib yuqori qavatni penopoliuretadan yasalgan nafas olish uchun 2 ta nafas oluvchi klapan o'rnatilgan va qavatlar orasiga material qo'yiladi. Resperator yana boshqa mahkamlash uchun 2 ta rezina tasma bilan jihozlangan. Nafas oliganda havo resperator bilan filtrning butun sirtidan aylanib o'tib, changdan tozalanadi va nafas olish klapanlari orqali nafas olish a'zolariga yetib keladi. Resperatorlar 3 xil o'lchovda tayyorlanadi (1, 2, 3). Shuni aytish kerakki resperator nafas olish uchun olingan havoni kislorod bilan boyitmaydi va zaxarli moddalarning gazlari hamda bug'laridan himoya qilmaydi.




NAFAS OLISH A'ZOLARI HIMOYA VOSITALARI

1. Gopkalit patroni




1-gopkalit;
2-namlik yutuvchi;

2. R-2 respiratori



1 - filtrlovchi yarim niqob;
2 - nafas olish klapanlari;
3 - nafas chiqarish klapani;
4 - burun qisqich.

3. Paxta-doka bog'ich




2. Protivogaz (gazniqob) o'lchamlari va moslashtirish



GP-7 protivogazi niqobi o'lchamini aniqlash

O'lchov yig'indisi (sm)	Shlem talab qiluvchi o'lcham
92 gacha	0
92 dan 95,5 gacha	1
95,5 dan 99 gacha	2
99 dan 102,5 gacha	3
102,5 dan yuqori	4

4. Changga qarshi matoli niqob



1-matoli niqob; 2-ko'rsatish bo'limi; 3-mahkamlash; 4,5-rezinka.

PTM-1 niqobini
kiyish usullari



Terini himoya qilish vositalari vazifasiga ko'ra maxsus vositalar bilan qo'lda mavjud vositalarga bo'linadi. Himoyalashning tabel vositalaridan foqaro muhofazasi tuzilmalarining shaxsiy tarkibi zaharlangan joyda ishlash vaqtida foydalaniladi.

L - 1 yengil himoya kostyumi teri qavatlarini va formali kiyimlarni, zaharlovchi moddalar, radioaktiv moddalar hamda bakterial vositalardan zararlanishdan himoya qilishga mo'ljallangan. U rezina matodan tayyorlangan bo'lib himoyalash kostyumi, himoyalash etigi, va qo'lqopi fartuk kiradi. Bu vositalar sanoatda plyonka hosil qiluvchi sintetik moddalardan tayyorlanadi, bular havoni batamom o'tkazmaslik bilan birga, o'ziga tushgan, zararli modda tomchilardan puxta himoya qiladi. Butun tanani tashqi muhitdan

izolatsiya qilish uchun terini himoya qilish vositalardan komplek tarzda foydalanadi. Himoyalaniş tabel vositalari himoyalaniş kiyimlari deb ataladi.

L – 1 yengil himoya kostyumi rezina matodan tayyorlanib kapyushonli ko'ylak, paypoqli shim, podshlemnik va ikki barmoqli himoya qo'lqoplaridan iborat. Paypoqli shimning yuqori qismiga 2 ta yelka tasmasi va paypoqni oyoqqa zich qilib bog'lash uchun bog'ichlar tikilgan, L – 1 yengil himoya kostyumi yr o'lchovda, bo'yi 165 sm gacha bo'lgan harbiy xizmatchilarga birinchi, 165 sm dan 172 sm gacha bo'lganlarga ikkinchi, 172 sm dan yuqori bo'lganlarga uchinchi o'lchovda tayyorlangan bo'ladi.

L – 1 yengil himoya kostyumi zararlangan joylarda ishlash uchun zararlanmagan joyda esa formada kiyim kechaklar ustidan kiyiladi.

Plyonkali himoya kostyumi harbiy xizmatchilaning teri qavatlarini zaharlovchi moddalar, radioaktiv moddalar, bakterial vositalardan himoyalash va formali kiyim kechaklar, aslaha - anjomlar, qurollaning zararlanishini kamaytirish uchun mo'ljallangan.

Plyonkali himoya kostyumi himoya plashi va himoya paypog'idan iborat bo'lib, polimer shaffor plyonkali materialdan tayyorlangan. Plyonkali himoya kostyumi vaqti – vaqti bilan qo'llaniladigan vosita bo'lib hisoblanadi. Zaharlovchi moddalar va bakterial vositalardan zaharlovchi moddalar va bakterial vositalardan zararlanganda maxsus sanitariya ishlovchi o'tkazmasdan yo'qotiladi, radioaktiv moddalardan zararlanganda dezaktivatsiya o'tkaziladi va qayta ishlatiladi.

Himoya kombinizoni rezina qo'shilgan materialdan tayyorlangan bo'ladi. Kombinizon yaxlit qilib tikilgan kurtka, shim va kapyushonda iborat. Kombinizon rezina etik, himoya qo'lqopi bilan birga komplekt holida qo'llaniladi.

DEZAKTIVATSIYA VA ODAMLARNI SANITAR ISHLOVLASH

BINOLAR, ICHKI XONALAR, BUYUMLARNI DEZAKTIVATSIYALASH




Binoni sirdan
dezaktivatsiyalash

Dezaktivatsiyalash
deb radiativ
moddalarni
zararlanishning
yo'l qo'yiladigan
me'yorigacha
yo'qotishga aytiladi.



Binoni ichkaridan
dezaktivatsiyalash

KIYIM-KECHAK, POYAFZAL VA HIMOYA VOSITALARINI DEZAKTIVATSIYALASH




ODAMLARNI SANITAR ISHLOVLASH

Qisman sanitar ishlovlash
qo'llanilganda sovun bilan suv (yoki
zararsizlantiruvchi suyuqlik vosita-
lari), nam sochiq, doka, paxtadan
bo'lgan tampon yoki ro'mol bilan
artishni o'z ichiga oladi.

To'liq sanitar ishlovlash
Vannada, dush ostida qaynoq suv
va sovun bilan butun tanani
yuvishni o'z ichiga oladi. Bunda
ich kiyimlar alamshtiriladi va
kiyimlar, poyafzal hamda
shaxsiy himoya vositalari to'liq
zararsizlantiriladi.

Qisman sanitar ishlovlash



1 Degazatsiyalovchi
suyuqlikka ega
idish



2 Kaftingizga kamroq
suyuqlikdan quying



3 Xuddi qo'l
yuvishdagidek
qo'llaringizni
ishqalab arting




4 Salfetkalar-
dan 2-3 ta
tampon
yasang va
birinchi
suyuqlik
bilan
ho'llang



5 Terining jaro-
hatlangan qismi-
ni tamponning
dastlab birinchi,
keyin ikkinchi
tomoni bilan
ishqalab arting

NAFAS OLIŞ A'ZALARINI HIMOYALASH VOSITALARI. IZOLYATSIYALOVCHI PROTIVOGAZLAR (GAZNIQOBLAR)



- 1- Yuz qismi;
- 2- Regeneratsiyalovchi patron;
- 3- Qo'yib yuboruvchi (puskatel);
- 4- Nafas olish xaltasi;

- 5- Karkas;
- 6- Sumka;
- 7- G'ilof;
- 8- Ko'krak kamari.

TERINI HIMOYA QILISH VOSITALARI

1. Terini himoya qiluvchi (izolyatsiyalovchi) maxsus vositalar



Plashch ko'rini-
shidagi umumqo'shin
himoya majmuasi
(UHV)



Kombinezon
ko'rinishidagi
(UHV)



Himoya
kombinezoni

2. Himoyalovchi filtrlovchi kiyim-bosh



Yengil himoya
kostyumi L-1



Filtrlovchi
himoya kiyimi
majmui

3. Terini himoya qiluvchi yasama (qo'lbola) vositalar

Qo'l va oyoqlar himoyasi uchun

Himoya plyonkasi



Qo'lqoplar




Turmush poyafzali



Kiyimni germesizatiyalash elementlari



1-ko'krak klapani
2-klin



Mashg'ulot №4 Favqulodda vaziyat yuz berganda aholiga xabar berish vositalari mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Amaliy mashg'ulot rejasi:

1. Favqulodda vaziyat yuz berganda aholini ogohlantiruvchi signallar bilan tanishirish.
2. Kimyoviy zararlalish yoki kimyo zavodlardagi avariya holatlarini sabablarini o'rganish..
3. Atom elektr stansiyasida yuz bergan avariya haqida ogohlantiruvchi signallar haqida ma'lumot.

Mashg'ulotning maqsadi:

- 1) Favqulodda vaziyat yuz berganda aholini ogohlantiruvchi signallarni uzatish qoidalarini talabalarga o'rgatish va ularda ko'nikma hosil qilish.
- 2) Favqulodda vaziyatlar yuz berganda talabalar o'zlarini qanday tutishi va yon atrofdagilarga qanday psixologik ta'sir ko'rsatishni o'rgatish va ularning o'zlarida ko'nikma hosil qilish.

Talabani o'quv faoliyati natijalari:

- Kimyoviy zararlalishlarning xavfli tomonlarini tushunib yetadilar.
- Aholiga «Diqqat hammaga» signalini yetkazish usullarini bilib oladilar. ;
- Bilish va o'rganishning ahamiyatini tushunib yetadilar.

Kichik guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar: 1. Guruhingiz bilan o'quv topshirig'ini bajaring. <i>Eslatma:</i> 1.1-ga qarang. 2. Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishib chiqing. <i>Eslatma:</i> 2.1-ga qarang. 4. Nazorat savollariga javob bering. <i>Eslatma:</i> 3.1-ga qarang.		
Nazorat shakli: Og'zaki nazorat, savol-javob va o'z-o'zini nazorat qilish.	Maksimal ball: 2 Talabaga qo'yilgan ball: _____	O'qituvchi imzosi: _____

.(1.1)

I-Guruh uchun topshiriq:

Aholiga «Diqqat hammaga» signalini yetkazish usullarini ketma-ket sxema tarzida yozing va yozganlaringizni guruhda misollar bilan izohlab bering.

II-Guruh uchun topshiriq:

Kimyoviy zararlanish sodir bo'lganda aholi o'rtasida qanday yo'l tutiladi? Javobingizni misollar orqali izohlab bering.

III-Guruh uchun topshiriq:

Atom elektr stansiyasida yuz bergan avariya haqida aholi qanday tartibda ogohlantiriladi? Fuqoro muhofazasi shtabining qanday yo'riqnomalarini bilasiz?

II. MA'LUMOTLI-AXBOROT MATERIALLAR.(2.1)

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

Guruhx	Baho	Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari			
		Ma'lumotni to'liq yoritishi	Guruh ishtirokchilarining faolligi	Ma'lumotning taqdimetilishi	Jami
	Ball	1,0	0,5	0,5	2
1					
2					
3					

Guruh ishlarini umumlashtiruvchi baho.

Guruh	1	2	3	Jami ball	Baho
1					
2					
3					

1,5 – 2 ball- «a'lo» 1,0 – 1,4 ball- «yaxshi» 0,5-0,9 ball- «qoniqarli» 0 - 0,4 ball- «qoniqarsiz».

III. O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN MATERIALLAR:

(3.1)

Nazorat savollari:

1. Diqqat hammaga signali qanday amalgam oshiriladi?
2. Aholini Diqqat hammaga signalidan tashqari yana qanday yo'llar bilan ogohlantirish mumkin?
3. Yer silkinishi bo'lganda qanday chora tadbirlar amalgam oshiriladi.?
4. Zaharlangan havo aholi yashaydigan tomonga tarqalmoqda. Sizning taktikangiz? Qanday ishni amalgam oshirasiz?
5. Kutilayotgan zilzila vaqtida qanday chora tadbirlar ishlab chiqish mumkin?

MAVZUGA QISQACHA TA'RIF.

Favqulotda vaziyatlarda fuqarolarning himoya qilishning eng samarali usullardan biri - bu ularni o'z vaqtida ogohlantirish hisoblanadi.

Ogohlantirish radio va televedeniye vositalari orqali amalga oshiriladi. Shuningdek sirena, ishlab chiqarish gudogi, transport vositalarining signallari va boshqa shunga o'xshash signallar orqali ham ogoh etiladi.

Bu ogohlantirish belgilari "**Diqqat barchaga**" ma'nosini bildiradi.

Ogohlantiruvsh signali matnlari qisqa, lo'nda oddiy, tushunarli bo'lishi shart.

Masalan: Yer silkinishi ehtimoli bo'ganda: Diqqat! Diqqat! Fuqarolar! Yer silkinishi ehtimoli bor.! Siz yashayotgan uyda yoki ish joyingizda gaz, suv elektr va boshqa yong'in chiqishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan manbalar tarmoqlardan o'chiring uylarini xavfsiz holatda qoldirib, o'zingiz bilan zarur bo'lgan kiyim kechaklar, hujjatlar suv va oziq ovqatlarni olib baland imoratlarda uzoqroq joylarda turing. Yer silkinishi vaqtida bino ichida bo'lsangiz darhol eshik yoniga va asosiy tayanch ustunlari tagiga turib oling. Tartib va osoyishtalikni saqlang.


Kimyoviy zararlanish yoki kimyo zavodlaridagi avariylar:

Diqqat! Diqqat! Fuqarolar Kimyo kombinatida odamga kuchli ta'sir etuvchi zararli modda - ammiakning to'kilishi oqibatida avariya sodir bo'ldi. Zaharlangan havo aholi yashaydigan tomonga tarqalmoqda. Kimyo korxonasiga yaqin bo'lgan ishlab chiqarish korxonalari ishchi xizmatchilari mahallada yashovchi aholi o'z uylarini, ish joylarini xavfsiz holatda qoldirib (gaz, suv, elektrni o'chirib xavfsiz hududga evakuatsiyaga tayyorlansin. Kimyo korxonasidan uzoq joylashgan uylarda qo'shimcha germetiklikni ta'minlashlari lozim.

Atom elektr stansiyasida yuz bergan avariya haqida aholi quyidagi tartibda ogoh etiladi: Diqqat Fuqaro muhofazasi shtabidan gapiramiz. Fuqarolar! Atom elektrostasiyasi atrofida joylashgan korxona aloqa uzatish tarmog'i yangi qurilayotgan binolarga mahalladagi xonadonlarga radioaktiv changlarning tushishi kutilmoqda shu hududda yashovchi barcha fuqarolar o'zlari yashaydigan uylarning germetikligini oshirishlari uy hayvonlarini pana joyga olishlari va oziq ovqat mahsulotlarini suvlarni radioaktiv chang tushishidan saqlashlari o'zlari esa yodli preparatlardan qabul qilishlari kerak. Fuqaro muhofazasi shtabining yo'riqnomalarini kuting.

Uyda bajarish uchun topshiriq:

1. Aholi himoya signallariga oid rasmlardan kolleksiya tuzish va kichik albomtayyorlash.
2. Mavzuga oid krassivord tuzish.
3. Kiyeingi kun mavzusiga: Tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlardan fuqarolarni himoyalash bo'yicha tayyorlanib kelish. (Foydalanish uchun adabiyotlar: 1. M.I. Ne'matov Favqulodda vaziyatlarda fuqoro muhofazasi Toshkent-2003y 2. G'Yormatov. Favqulodda






FUQARO HIMOYASI SIGNALLARI


"DIQQAT, HAMMAGA" signali

Radio, televizor va h.k.lardan
aytiladigan FH shoshilinch
xabarlaridan avval beriladi



Sirena, gudoklar signal-
larini eshitgandanox tele-
vizor, radiolarni qo'yish
zarur...

Sirenalar, gudoklar
yoqilishi bilan
beriladi



Mashg'ulot №5 Tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlardan fuqoralarni himoyalash.

Mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi.

I. Tayyorgarlik bosqichi.

Faoliyat mazmuni.	
Trener	Talaba
Mavzuni aniqlaydi va rejalashtiradi: 1.Tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlar to'g'risida ma'lumot berish.. 2.Zilzila va uning tavsilotlari. 3.Sella.ularning yurlar.	Mashg'ulotga tayyorlanadilar. Yozib oladilar.

II.Amalga oshiruvchi bosqich: amaliy ish.

Faoliyat mazmuni	
O'qituvchi	Talabalar.
1. Amaliy ishga kirish. 1.1. Mavzuning nomi, maqsadi va kutilajak natijalarni e'lon qiladi. 1.2. O'quv mashg'ulotning tuzilishi va o'tkazilishi tartibini tushuntirib beradi. 1.3. Tinglovchilarni kichik guruhlardagi faoliyatini baholash mezonlarini e'lon qiladi. (1-ilova). 1.4. Tezkor so'rov texnikasini qo'llab, talabalar bilimlarini faollashtiradi: Tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlar deganda nimani tushunasiz va qanday tabiiy ofatlarni bilasiz? 1.5. Javoblarni umumlashtiradi va asosiy mashg'ulot bosqichiga o'tilishini ma'lum qiladi.	Tinglaydilar. Savollarga javob beradilar.
2. Asosiy qism. 2.1. Talabalarni 3 ta kichik guruhga ajratadi va har bir guruhga topshiriqlarni (ekspert varaqlarini) tarqatadi (2-ilova). 2.2. Guruhlarda ishlash qoidasini yana bir bor eslatadi. 2.3. Guruhlar faoliyatini tashkil qiladi, kuzatadi, maslahatlar beradi, yunaltiradi. 2.4. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Har bir guruhdan bittadan a'zo chiqib o'z ishlarini taqdim qilishlarini aytadi. Guruh a'zolariga diqqat bilan eshitishtirishini va nazorat savollarini berishlarini aytadi. 2.5. Javoblarni to'ldiradi va qisqacha xulosalar qiladi. 2.6. Guruhlar bajargan ishlarini baholaydi.	Har bir guruh o'z ekspert varaqlari bo'yicha faoliyatni boshlaydi. Har bir guruhdan bittadan a'zo chiqib o'z ishlarini taqdim etadilar.

III. Yakuniy bosqich.

Faoliyat mazmuni	
<i>O'qituvchi</i>	<i>Talabalar.</i>
3. Amaliy ishni yakunlash. Amaliy mashg'ulot mavzusi bo'yicha yakun yasaydi: • Amaliy ish yuzasidan savollarga javob beradi; • Guruhlar ish natijasini tahlil qiladi; • Guruhlarning faolligini baholaydi; • Mustaqil ishlash uchun uyga vazifa beradi. • Mustaqil ish yuzasidan maslahatlar beradi.	Savollar beradilar. Tinglaydilar. Yozib oladilar.


1-ilova

Guruhlar	<i>Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari</i>			
	<i>Ma'lumotni aniq va to'liq yetkazilishi.</i>	<i>Taqdimotni rasmiylashtirilishi</i>	<i>Misollar bilan tushuntirilishi.</i>	<i>Jami</i>
	<i>1,0</i>	<i>0,5</i>	<i>0,5</i>	<i>2</i>
1				
2				
3				

Birinchi guruh uchun savollar.

Quyida berilgan sxemaga

A) tabiiy ofat turlarini joylashtirib chiqing va har birining salbiy oqibatlarini tushuntirib bering.



Quyida berilgan rasmlarni to'liq izohlab bering


Uchinchi guruh uchun savollar.

Quyida berilgan rasmlar orqli mavzuni jonlantiring.


Sxemani izohlab bering.

TABIY OFATLAR

1. Zilzila, vulqonlar otilishi va meteoritlar



Zilzila o'chog'ining sxemasi



Vulqon otilishi



Zilzila oqibatlari



Harkatdagi quyun

Zilzilalar ko'pincha yadroviy portlash oqibatlariga o'xshash og'ir oqibatlarni (ayrim vaqtlar halokatlarini) keltirib chiqaradilar.

2. To'fonlar, bo'ronlar va quyunlar

SHAMOL KUCHINI ANIQLASH UCHUN DARAJA

Bal-lar	Tezlik m/s	km/ soat	Shamol xarakteristikasi	Shamol kuchining tashqi belgilari	Shamol harakati
9	22,6	79,41	Shtorm (bo'ron)		Binolar bir oz buziladi. Daraxtlar bukiladi va shoxlari sinadi. Tutilin chiqarish qalpoqlari va cherepibalar uzilib ketadi. To'liqin eshkaklari to'ntarilib sochiladi.
10	26,4	95,0	Kuchli shtorm (kuchli bo'ron)		Binolar sezilarli buziladi. Daraxtlar to'rtinidan qopqiladi va sinadi. To'liqinlar juda baland va oq ko'pik bilan qoplangan. Korish holati yomon.
11	30,5	109,8	Qattiq shtorm (qattiq bo'ron)		Binolar kuchli buziladi. To'rtinlar uzilib ketadi. Dengiz to'liqlari shunchalik kuchli, o'rta o'lchamdagi kemalarni to'rtin va to'liqin chetlari ko'piklanib shishadi.
12	34,8	122,28	To'fon		Bo'shatuvchi vayronalik. Yopiq binolar vayron bo'ladi. Dengiz to'liqlari chiqqilari bilan qoplangan. Korish holati juda yomon.
13	39,2	144,6	Kuchli to'fon	>>	Bo'shatuvchi vayronalik.
14	43,8	157,68	O'shanday	>>	Metall ko'priklar va tosh qurilmalar vayron bo'ladi.
15	48,6	174,9	Qattiq to'fon	>>	O'shanday
16	53,5	192,6	O'shanday	>>	O'shanday
17	58,6	210,96	>>	>>	O'shanday

To'fon kinetik quvati markazidan 160 km radiusda kuchiligi 151-188 Mt bo'lgan yadro portlashi ekvivalentligiga teng.

© "EL" OAJ, 2002. 70303 Samarqand sh., U. Naqarov k., 2.

69

Tel/faks: (3662) 31-03-74, tel: 33-29-52 E-mail: el@el.smrk.uz

Faqarolar himoyasi

O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi



1-guruh uchun o'quv topshirig'i.

Tasavvur qiling siz yashab turgan xududda zilzila sodir bo'lish xavfi bor.Siz darsda olgan bilimingiz asosida mahallangiz fuqorolariga shoshilinch yordam berishingiz lozim.

Sizning taktikangiz.Siz qanday yo'l tutasiz?

2- guruh uchun o'quv topshirig'i

Siz yashab turgan xududda sel kelish xavfini e'lon qildi.Siz dars davomida olgan bilimingizga tayanib aholiga shoshilinch yordam berishingiz kerak chunki sizni ko'ngillilar jamiyatiga a'zo qilgan .Sizning taktikangiz qanday va nimadan ishni boshlaysiz ketma-ketlik asosida ishni amalga oshiring.

3- guruh uchun o'quv topshirig'i

Tuproqlarning yemirilishi nimalarga asosan yuzaga keladi

Uyda bajarish lozim bo'lgan topshiriqlar:

- 1.Mavzuga doir ma'ruza matnidan foydalanib bir karra o'qib chiqish, shu asosida 20 ta test savoli tuzish.
- 2.Mavzuga doir muommali masala tuzish.
- 3.Kiyeingi kun mavzusiga tayyorgarlik ko'rish.

Mavzuning qisqacha bayoni:

Zilzila:Tabiatda sodir bo'ladigan eng xavfli hodisalarning biri hisoblanadi.Yunesko ma'lumotiga ko'ra zilzila yuzaga keladigan iqtisodiy zarar va insonlar halokati bo'yicha tabiiy ofatlarning ichida birinchi o'rinni egallaydi.

Zilzilaning hosil bo'lishi sabablari turlicha bo'lib hozirgi vaqtda mukammal o'rganilgan bo'lishiga qaramay,zamonaviy ilm –fan taraqqiyot qachon,qayerda,qanday kuchlanishda yer silkinishi bo'ladi degan savolga hamon to'liq javob topilgani yo'q.

Yer ko'chishi:-Respublikamizda tog'li,tog' oldi,daryo bo'ylari zonalarida yashaydigan aholi va xalq xo'jaligi ob'ektlariga katta xavf tabiiy ofatlardan biri yer ko'chishi surilmadir.Yer ko'chishi –yer yuzasi bo'lagining yon bag'ir bo'yicha gravitatsion kuch ta'sirida surulishi,siljishiga aytiladi.

Selning kelib chiqish sabablari va halokatli oqibatlari.

Tog' hududlarida kuchli yomg'irlarning yog'ishi, muzlik va qorlarning tez erishi natijasida hosil bo'lgan daryo toshqinlarini, tog' yon bag'irlarida nuragan tog' jinsi bo'laklarini suv oqimi bilan tekislikka qarab oqizib tushirishiga sel hodisasi deb yuritiladi.Sel oqimi

massasining taxminan 50-60% ni turli kattalikka ega bo'lgan tog' jinsi bo'laklaridan o'simlik va daraxtlar bo'laklaridan iborat bo'ladi. Sel oqimining davomiyligi 0,5-2 soatdan 12 soatgacha, tezligi 5-8 m/s dan 12 m/s gacha yetishi mumkin, sel massasining zichligi esa 1,2-1,9 t/m³ ni tashkil etadi.

Bunday fizik ko'rsatkichlarga ega bo'lgan oqim juda katta kuchga ega bo'lib, uning kuchi quyidagi ifoda bilan aniqlanishi mumkin:

$$P = m \frac{V^2}{2}$$

P-sel oqimi kuchi, **m**- sel oqimi massasi, **V**-sel oqimi tezligi.

Sel jarayoni xalq xo'jaligiga juda katta zarar keltiradi, oqim yo'lida uchragan inshootlarni, yo'llarni, qishloq va shaharlarni, bog'-rog'larni, ko'priklarni voyron qilib ketadi, katta maydonlarni loy, qum, tosh qatlamlari bilan ko'mib tashlaydi.

Sel –arabcha so'z bo'lib, tog'lik hududlardagi suv toshqini ma'nosini anglatadi.

Sel oqimlari ozi bilan olib ketayotgan qattiq zarrachalarni o'lchamiga qarab 3 guruhga bo'linadi:

- suv-toshli sellar;
- loyqa sellar;
- aralash sellar;

oxirgi 100 yil ichida Ozbekiston Respublikasi hududida 2500 dan ortiq sel oqimi ko'zatiladi. Bulardan 1400 dan ortig'i loyqa, 350 dan ortig'i suv-toshli, 650 dan ortig'i aralash sellardir. Respublikamizning Farg'ona vodiysida, Toshkent oldi hududlarida ham sel oqimlari kuzatilib turiladi. Sel oqimlari respublikamiz hududlarida bahor mavsumida va yozning birinchi oyida yuz beradi, bunga sabab hududimiz joylashgan mintaqaning tabiiy sharoiti bo'lib, bahor oylaridagi kuchli (jala) yomg'irlar, haroratning issiq kelishi, tog'liklarda muzlik va qorlarning tez erishi, daryo o'zani qiyaligining 3-5⁰ dan kattaligi, suv yig'ish maydonida zarrachalarni bog'lanmagan bo'shroq tog' jinslarining mavjudligi asosiy omillardan bo'lib hisoblanadi.

Sel oqimlarining oldini olish, ularga qarshi kurashish, sel bo'lishi mumkin bo'lgan maydonlarni aniqlash, ularni vujudga kelish sabablarini chuqur o'rganish, atrof muhitni muhofaza qilishning asosini tashkil etishda katta xalq xo'jalik ahamiyatiga ega. shuning uchun sel xodisasini bartaraf qilish maqsadida olib boriladigan ishlar ilmiy amaliy xulosalarga tadbir-choralarga asoslangan bo'lmog'i kerak. Bular qo'yidagilardan iborat:

1. Sel bo'lishi mumkin bo'lgan daryolarning suv yig'ish maydonlarida doimiy kuzatish ishlarini olib borish. Bunda suv yig'ish maydonida bo'shroq tog' jinslarining yig'ilishini oldini olish, oqar suvlar oqimiga to'sqinlik qiluvchi tabiiy va sun'iy to'siqlardan tozalash ishlari.

2. Sel oqimi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan daryolarning suv yig'ish maydonlarini muhofaza qilish, yani bu maydonlarda o'simlik dunyosini saqlash, daraxtlar va butalarni kesish, maydonlarda shudgor qilish va sug'orish ishlarini olib borishni chegaralash.

3. O'rmon xo'jaliklarini rivojlantirish, yani, tog' yonbag'irlarida butalar va daraxtlarning ekilishini yo'lga qo'yish talab etiladi. Chunki bu o'simliklar tog' jinslari qatlamlarini mustahkam ushlab turadi, qor erishini sekinlashtiradi yer yuzasini yuvilishdan saqlaydi.

4. Tog'li hududlardagi daryolarning o'zanida suv oqimini boshqaruvchi inshootlar qurish, tabiiy, sun'iy to'g'onlarni tartibga solish, temir, avtomobil yo'llari ostiga sel o'tkazuvchi katta diometrli quvurlar yotqizish ishlari.

Qor ko'chkisi, kelib chiqishi sabablari va falokatli oqibatlari.

Tog'larning tik yonbag'irlaridan qor massasining ag'darilib yoki sirpanib tushishi qor ko'chkilari deb ataladi.

Sel: suvning mexanik faoliyatidan yuzaga keladigan murakkab jarayon bo'lib, turli omillarning (iqlim, gidrologik, gfeomorfologik, geologik) o'zaro ta'siri natijasida vujudga keladi.

Sel vujudga keladigan yoki sodir bo'lish ehtimoli yuqori bo'lgan joylarni sel o'chog'i deb yuritiladi.

Sel o'chogining paydo bo'lishining sabablaridan biri tinimsiz jala yog'ishi, yoki qisqa muddat ichida muzliklarning erish sabab bo'lishi mumkin.

Toshqin-bu tabiiy ofatlar ichida katta talofatlar keltiradigan, aholini og'ir tahlikaga soladigan va qisqa vaqt ichida shiddatli bo'ladigan suv toshqinlaridir.

Toshqin-daryo, soylar, dengizlar, ko'llarda suv satxining keskin ko'tarilishi natijasida sodir bo'ladigan jarayon hisoblanadi.

Mashg'ulot №6 Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan fuqoralarni himoyalash..

Mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi

Talabalar soni: 25-30 ta	O'quv soati.
O'quv mashg'ulot shakli	Bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish.
Amaliy mashg'ulot tuzilishi:	1. Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan fuqoralarni himoyalash.. 2. Gedrotexnik halokatlar va ularning sabablari. 3. Yong'in chiqish va portlash haqida tushuncha.
Mashg'ulotning maqsadi: Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan fuqoralarni himoyalash to'g'risida bilimlarni chuqurlashtirish va olgan bilimlarni mustahkamlash.	
Pedagogik vazifalar.	O'quv faoliyatining natijalari:
• Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan fuqoralarni himoyalash to'g'risida umumiy tushunchalar berish	• Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan fuqoralarni himoyalash bo'yicha umumiy tushunchaga ega bo'ladilar.
• Hidrotexnik halokatlar va ularning sabablari bo'yicha talabalarga tushuncha berish, ko'nikma hosil qilish.	• Umumiy tushuncha hosil qiladilar, so'zlab bera oladilar.
• Yong'in chiqish va portlash haqida tushunchalar beradi.	• Yong'in chiqish sabablarini bilib oladilar, texnik qoidalariga amal qiladilar.
• Transportdagi avariya va halokatlar haqida ma'lumot beradi. O'zboshimchalik oqibatida yo'l harakat qoidalarini bilmasdan transportni boshqarishning oqibatlari nimalarga olib kelishi haqida talabalarga tushuncha beradi.	• Transportdagi avariya va halokatlar haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. O'zboshimchalik oqibatida yo'l harakat qoidalarini bilmasdan transportni boshqarishning oqibatlari nimalarga olib kelishi haqida tushunchaga ega bo'ladilar va qoidaga amal qiladilar.
• Energetika tizimidagi avariya va halokatlar haqida ma'lumot beradi.	• Energetika tizimidagi avariya va halokatlar haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.
Ta'lim usullari.	Amaliy, so'zlash, tezkor so'rov.
Ta'lim vositalari.	UUM, format qog'ozlari, markerlar, skotch,

O'qitish shakllari.	Juftliklarda kichik guruhlarda ishlash.
O'qitish shart sharoiti.	Texnik vositalardan foydalanish va guruhlarda ishlashga muljallangan auditoriya.
Monitoring baholash.	Nazorat savollari,savol-javob,reyting tizimi asosida baholash.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi.

Faoliyat bosqichlari.	Faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
I. Kirish bosqichi (15 min.)	1.1.O'quv mashg'uloti mavzusi,maqsadi vazifalari va o'quv faoliyati natijalarini aytadi,dolzarbligi va ahamiyatiga to'xtalib o'tadi.	Tinglaydilar.
II. Asosiy bosqich 60 min.	1.2. Olingan bilimlarini umumlashtirish maqsadida,talabalarni faollashtirish uchun «Aqliy hujum» o'tkazadi.Fikrlarini umumlashtiradi.	Berilgan savollarga javob beradilar.
	2.1. Talabalarni 3 ta kichik guruhlariga ajratadi, ularni baholash mezonlari bilan tanishtiradi(1-ilova) mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi.(2-ilova).	Talabalar ixtiyoriy 3 ta guruhga bo'linadilar
	2.2. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi,qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi.Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb etadi.	Berilgan savollarga javob tayyorlaydilar..
	2.3. Har bir guruh topshiriqlarni vatman qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishda yordam beradi,izoh beradi,bilimlarini umumlashtiradi,xulosalarga alohida e'tibor beradi.Topshiriqlarni bajarilishining qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi.	Guruhdan bir kishi taqdimot olib boradi.
III. Yakuniy bosqich (15 min)	2.4. Talabalarining bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida blits-so'rov o'tkazadi.(3-ilova).Dars yakunini umumlashtiradi. 2.5 Mustaqil bajarish uchun uyga topshiriqlar beradi.	Tinglaydilar,savollarga javob beradilar.Yozib oladilar.

1-ilova

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari.

	Guruhlar	Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari			
		Ma'lumotni aniq va to'liq yetkazilishi.	Taqdimotni rasmiylashtirishi	Misollar bilan tushuntirilishi.	Jami
	Ball	1,0	0,5	0,5	2
1					
2					
3					

Guruh ishlarini umumlashtiruvchi baho

Guruh	1	2	3	Jamo ball	Baho
1					
2					
3					

1,5 – 2 ball- «a'lo».1,0 – 1,4 ball- «yaxshi» . 0,5 – 0,9 ball- «qoniqarli». 0 - 0,4 ball-«qoniqarsiz»

2-ilova

3-ilova

Nazorat uchun savollar:

1. Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarni sanab bering.
2. Yong'in chiqishiga nimalar sabab bo'lishi mumkin?
3. Portlash sodir bo'lishiga nimalar sabab bo'lishi mumkin?
4. Qanaqa portlovchi perasetik vositalarni bilasiz?.
5. Yer osti suvlarining zaharlanishi qanday sodir bo'lishi mumkin?
6. GES nima ?

Mustaqil ish uchun vazifa.

Mavzuga oid ma'ruza matnini qayta o'qib chiqish.

Mavzuni qisqacha bayoni:

.Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar O'zbekiston Respublikasida hozirgi paytda 18,9mlrd.700 mln m³ suv sig'ira oladigan 53 ta suv ombori,daryo suvlarini viloyat va tumanlarga taqsimlab beruvchi 150 dan ortiq suv to'g'onlari ,28122km uzunlikdagi magstral kanallar va boshqa suv inshootlari mavjud.

Transportdagi avariylar va halokatlar:

- A) Havo transportidagi avariya va halokatlar;
- B) Temir yo'ldagi avariya va halokatlar;
- C) Avtotransport avariya va halokatlari;
- D) Metropolitiyen stansiyalarida bo'lishi mumkin bo'lgan avariylar;
- E) Magistral quvur tarmoqlarida ,neft va gaz burg'ulash maydonlaridagi bo'lishi mumkin bo'lgan avariylar.

Energetika tizimidagi avariylar:

Energetika tizimida sodir bo'ladigan favqulodda vaziyatlarga quyidagilar kiradi;

- A) Hidroelektrostansiya(GES)larida;
- B) Issiqlik elektr markaz (TES)larida;
- C) Shahar,tuman elektr tarmoq GRESlarida;
- D) Elektr tarmoqlarida,issiqlik markazlarida;
- E) Issiqlik qozonlarida;
- F) Kompresorlarda;
- G) Gaz taqsimlash stansiyalarida.

Shikastlanuvchi omillar va ko'rsatmalar:

1. To'g'onni urib ketgan to'lqinning balandligi 2-20 m , tezligi 3-100 km\soat.

2. To'g'onning urib ketgan to'lqin cho'qqisi va old tomonining yetib kelish vaqti (to'lqin tezligiga va joyining qancha oraliqda ekanligiga qarab).

3. Suv bosish hududining chegaralari (yer yuzi relifining qandayligiga qarab).

4. Suv bosishining maksimal va amaldagi chuqurligi (relifning qandayligiga, to'g'onning urub ketgan to'lqinning balandligiga qandayligiga qarab).

5. Suv bosish qancha davom etishi (bir necha soatdan bir kecha-kunduzgacha).

Halokatli suv bosishning shikastlovchi omillar va parometrlari suv omborining o'lchamlariga, to'g'onning balandligiga, urib ketgan to'lqinning tezligi va balandligiga, yer yuzasi qandayligiga va boshqa sharoitlarga bog'liq bo'ladi.

Suv bosish joyi hududining GTI ga tutash va suv tagida qolish mumkin bo'lgan qismi.

Gidrotexnika inshootidagi falokat oqibatlar:

1. GTI shikastlanishi buzulishi hamda ozroq yoki uzoq vaqt o'z vazifasini bajarmay qo'lishi.

2. urib ketgan to'lqin odamlarga shikast yetkazishi va turli ob'ektlarni, inshootlarni buzib yuborishi.

3. Hududni suv bosib, mol-mulkka, yer, hosil, ekin, inshoot, imorat va boshqa infrastrukturallarga moddiy zarar yetkazishi.

Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan falokatlarning xarakteri va ko'lami quyidagi omillarga bog'liq:

-GTI ko'rsatgichlari (suvning hajmi, to'g'onning balandligi, qurilmasi, chidamliligi va h.k);

-buzulish xarakteri va ko'lami;

-urib ketgan to'lqinning tavsifi;

-yer yuzasi reliefi, o'simliklar, qurilishlar va h.k;

-yil fasli, kecha-kunduz vaqti, ob-havo sharoiti va h.k;

-muhofoza inshootlari (aylanma kanallar, tashlamalar, ko'tarmalar va h.k) mavjudligi;

- rahbar, vakil tarkibining, boshqaruv organlarining, ko'chva vositalarining faoliyatga tayyorlanganlik darajasi;

-xabar berish cheklangan tizimning mavjudligi, ishlay olishi va samaradorligi;

-favqulodda vaziyat chegarasida vaqt davomida avariya-qutquruvi va boshqa shoshilinch ishlarning mohirona boshqarilishi uyushqoqligi va samaradorligi;

-FV bo'lishi ehtimoliga ishlab chiqarish ob'ektlarining va aholining tayyorgarlik ko'rganligi.

Oldindan taxminlashga birlamchi shikast omillari va ularning oqibatlaridan tashqari, quyidagi ikkilamchi omillar ham hisobga olinadi:

-suv va yer yuzasining turli zararli moddalar bilan ifloslanganligi;

-odamlar va hayvonlarning ommaviy kasallanganligi;

-transport va energomagistral tuzimlardagi avariya;

-ko'chkilar, o'pirilishlar va h.k;

-imorat va inshootlarning chidamliligining yo'qolganligi;

-atrof-muhitdagi ekologik buzilishlar;

Halokat sodir bo'lgan ob'ekt va joyidagi aniq sharoitga bo'g'liq boshqa sal'biy oqibatlar.

Oldindan taxminlashda, shuningdek, ko'lamiga qarab ko'rilishi mumkin bo'lgan quyidagi zararlar ham hisobga olinadi.

- aholi orasidagi talofatga (halok bo'lganlar, bedarak yo'qolganlar, shikastlanganlar, boshpanasiz qolganlar qanchaligini hisoblab baho beriladi;

- moddiy zararga (buzulgan, shikastlangan, ishdan chiqqan ob'ekt va inshootlar) qanchaligini hisoblab, shuningdek, pul bilan ifodalab baho beriladi, bundan tashqari, bevosita va bilvosita zararlar (ishlab chiqarishga aynan shu halokat yetkazgan ziyon va shikastlanganlarni ta'minlash harajatlari hisoblab chiqiladi.

Bevosita zararlar:

- GTI, imoratlar, avtomobillar va temir yo'llar, elector uzatish va aloqa simlari, energotizimlar, sug'orish tizimlari va boshqa ob'ektlar;
 - Chorva mollari, qishloq xo'jaligi ekinlar, yer-suv va boshqalarni nobud bo'lishi;
 - Xom ashyo, yoqilg'i, ovqat maxsulotlari, chorva oziqlari, sanoat maxsulotlari, o'g'itlar va h.k. yo'qotish va buzulib qolishi;
 - Xavfsiz joylarga aholini vaqtincha evakuatsiya qilish va moddiy boyliklarni tashish xarajatlari;
 - Hosildor qatlam yuvilib ketishi va tuproq ustiga balchiq cho'kib qolishi.
- Bilvosita zararlar:

O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatadigan kimyoviy va radiatsiyaviy xafli ob'ektlar. Hozirgi kunda kimyoviy xafli inshootlarning asosiylari "O'zbekkimyosanoat" uyushmasiga qarashli korxonalar bo'lib ular Quqon, Samarqand, Buxoro, Navoiy, Chirchiq, Olmaliq va boshqa shaharlarda joylashgan. Bu korxonalardan tashqari kimyoviy zaharli moddalar bilan ishlaydigan boshqa korxonalar ham mavjud - "O'zgushtsut", "O'zbeksavdo", "O'zqishloqxoqjalik" mahsulotlari uyushmasi, Bekobod metallurgiya korxonasi, Mikond korxonasi, Toshkent lak-bo'yoq, to'qimachilik korxonalari, Kommunal xo'jalik vazirligi inshootlari (suvni tozalash) va boshqalar.

4-jadval

Kuchli ta'sir etuvchi moddalar nomi	O'rtacha zaharlovchi miqdori, Mg min/l	
	Boshlang'ich	O'limga olib keluvchi
Asetonitril	21,6	-
Ftorli vodarod	4	7,5
Xlorli vodarod	2	200
Metilamin	4,8	-
Azod oksidi	0,002	1,5
Oltingugurt angidridi	1,8	70
Kosentrlangan xlor kislotasi	2	30
Oltingugurtli vodarod	16,1	30
Ftor	0,39	-
Uch xlorli fasfor	3	30
Xlorsian	0,75	-
Sinil kislota	0,2	1,5

Hammasi bo'lib respublika hududida 200 dan oshiq kimyoviy xafli ob'ektlar bor. Ishlab chiqariladigan yoki xalq xo'jaligida turli mahsulotlar ishlab chiqarish uchun olib kelinadigan, saqlanadigan suyuq, qattiq, gaz holatdagi inson, hayvon sog'lig'i uchun zararli, kuchli ta'sir ko'rsatuvchi moddalar turi ko'p.

Bularga aniq misollarni quydagi jadvallardan ko'rish mumkin.

Kuchli ta'sir etuvchi moddalardan ayrimlari to'g'risida qo'ydagi tafsilotlarni keltirish mumkin:

Mashg'ulot: №7 Fuqoroviy ob'ektlarni qo'poruvchilik terroristik xurujlardan himoyalanganlikni baholash.

Amaliy mashg'ulotni olib boorish texnologiyasi.

Talabalar soni; 30ta	Vaqt; 2 soat
----------------------	--------------

<i>Mashg'ulot shakli</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg'ulot.
<i>Amaliy mashg'ulot rejasi</i>	1 O'zbekiston terrorizmga qarshi. 2.Terrorizm jamiyat va shaxsga qarshi jinoyat. 3.Xalqaro terrorizm va terorchilik harakati, mintaqaviy mojarolar. 4. Terrorezimga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik . 5. Terrorezimga qarshi kurashning strategik ahamiyati.
<i>Mashg'ulotning maqsadi:</i> Bugungi kunda yoshlarni terrorizmga qarshi kurashning yagona yo'li yoshlarni faqatgina ilmva ma'rifatga chorlash va ular ongini faqatgina yaxshilik hamda mehr oqibat egallashini talabalarga urgatish va uqtirishdan iborat.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyatining natijalari.</i>
Mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi, mavzu bo'yicha bilimlarini chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi;o'quv ma'lumotlar bilan mustaqil ishlashga imkoniyat yaratadi,taqqoslashga,tahlil qilishga umumlashtirishga ko'mak beradi,muommali vazifalarni yechishda shart sharoit yaratadi.; mantiqiy xulosa chiqarishga ko'mak beradi.	Amaliy mashg'ulot rejasi bilan oldindan tanishib chiqib,tayyorgarlik ko'radi;Valeologiya fanining o'ziga xos xususiyatlarini tushunib oladi,muommali vazifalarni yechishda nazariy bilimlarini qo'llaydi;muommani aniqlab uni hal qilishda yechim topadi.
<i>O'qitishni usullari va texnikasi.</i>	Muommali uslub,aqliy hujum,bahs munozara,blits-so'rov.
<i>O'qitish vositalari.</i>	,markerlar,qog'ozlar,doska,bo'r.
<i>O'qitish shakli.</i>	Jamoa va guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish shar-sharoiti.</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash.</i>	Og'zaki nazorat,savol-javob,o'z-o'zini nazorat qilish,reyting tizimi asosida baholash.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi.(1-mashg'ulot)

<i>Ish jarayonlari vaqti</i>	<i>Faoliyatning mazmuni.</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba.</i>
I-bosqich. Mavzuga kirish. (10 daqiqa)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi,maqsadi,vazifalari va o'quv faoliyati natijalarini aytadi,dolzarlighi va ahamiyatiga to'xtalib o'tadi.	Tinglaydilar,UUMga qaraydilar.
	1.2. Olingan bilimlarini umumlashtirish maqsadida,talabalarni faollashtirish uchun «Xalqaro terrorizm nima ?» deb savol beradi,«Aqliy hujum» o'tkazadi.Fikrlarini umumlashtiradi.	Erkin fikr bildiradilar.

II-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalarni 3 ta kichik guruhlariga ajratadi, ularni baholash mezonlari bilan tanishtiradi(1-ilova) mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi.(2-ilova).	Guruhlariga ajraladi,yozib oladilar,topshiriqlar ustida ishlaydilar.
	2.2. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi,qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi.Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb etadi.	Faol qatnashadilar.
	2.3. Har bir guruh topshiriqlarni vatman qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishda yordam beradi,izoh beradi,bilimlarini umumlashtiradi,xulosalarga alohida e'tibor beradi.Topshiriqlarni bajarilishining qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi.	Jamoa bo'lib bajarilgan ishning taqdimotini o'tkazadilar,bahs-munozara yuritadilar,qo'shimchalar qiladilar,baholaydilar,xulosa chiqaradilar.
	2.4. Talabalarining bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida blits-so'rov o'tkazadi.(3-ilova).Dars yakunini umumlashtiradi.	Savollarga javob beradilar.
III-bosqich Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. 3.2.Faol talabalarni baholash mezonlari orqali rag'batlantiradi.	Eshitadi. Aniqlaydi.

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari. 1-ilova

Guruh	Baho	Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari.			
		O'tilgan mavzuni bilishadi	Guruh faol	Muommani ychish uchun takliflar berishadi	Jami.
	<i>Ball</i>	<i>1,0</i>	<i>0,5</i>	<i>1,5</i>	<i>3</i>
1					
2					
3					

Guruh ishlarini umumlashtiruvchi baho.

Guruh	1	2	3	Jami ball	Baho.
1					
2					
3					

2,2 – 3 ball – a'lo
1,2 – 2 ball – yaxshi
0,5 – 1,1 ball –qoniqarli
0 – 0,5 ball – qoniqarsiz

2-ILOVA.

I-guruhga tarqatiladigan savollar:

Siz mahallangizda fuqorolar yig'ini raisisiz yuqori tashkilotdan sizga xabar keldi. Sizning mahallangizda shubhali shaxslar istiqomat qilar ekan. Shaxsini aniqlab bizga olib brogan chora tadbirlaringiz ro'yxati bilan yuboring.

Sizning taktikangiz: olib borilgan ishlaringiz haqida vatman qog'ozga sxematik tarzda chizib izohlab bering. .

II- guruhga tarqatiladigan savollar.

Siz maktab direktorisiz siz rahbarlik qilayotgan maktabda voyaga yetmagan ikki bola qandaydir noma'lum guruhda faoliyat olib bormoqda. Bu holatni siz emas balki fuqorolar yig'ini raisi sezib qolib sizga xabar berdi.

Siz rahbar sifatida qanday bu holatga qarshi chora tadbirlarni amalgam oshirasiz? Javoblaringizni sxematik ravishda vatman qog'ozga tushiring va javobingizni aniq qilib izohlab bering.

III- guruhga tarqatiladigan savollar.

Siz maktabda o'qituvchilik qilasiz. Ta'til vaqtida Yaltaga dam olishga bordingiz lekin u yerda siz qandaydir shubhali guruh tudasiga tushib qoldingiz. Bu vaziyatdan chiqish yo'llarini yozib chiqing.

3 ilova

Blits-so'rov savollari.

<i>Nº</i>	<i>Savol</i>	<i>Javob.</i>
1.	Fuqaro muhofazasining kuch va vositalari nimalardan iborat?	
2.	Favqulotda vaziyat nima?	
3.	Terrorchilik harakati nima?	
4.	. Jahonda qaysi mamlakatlar terrorchilar makoni deb topilgan?	
5.	Xalqaro terrorizm deganda nimani tushunasiz?	
6.	. Terrorizm olib kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarni oldini olish nimalarga e'tibor berish kerak.	

4 ilova.

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari.

<i>Guruh</i>	<i>Baho</i>	<i>Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari.</i>			
		<i>O'tilgan mavzuni bilishadi</i>	<i>Guruh faol</i>	<i>Muommani ychish uchun takliflar berishadi</i>	<i>Jami.</i>
	<i>Ball</i>	<i>1,0</i>	<i>0,5</i>	<i>1,5</i>	<i>3</i>
1					
2					
3					

Guruh ishlarini umumlashtiruvchi baho.

<i>Guruh</i>	<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>Jami ball</i>	<i>Baho.</i>
1					
2					
3					

2,2 – 3 ball – a'lo

1,2 – 2 ball – yaxshi

0,5 – 1,1 ball – qoniqarli

0 – 0,5 ball – qoniqarsiz

Mavzuning qisqacha bayoni.

Terrorizim, ob'ektiv tomonidan, davlat, xalqaro tashkilot, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron harakat sodir etishga yoki biron harakat sodir etishdan o'zini tiyishga majburlashga, ya'ni muayyan davlar tuzilmalari yoki muayyan mansabdor shaxslarga yoxud soni noma'lum ko'plab fuqarolarga, shaxar yoki ma'muriy hududiy birliklar aholisiga qonunda belgilangan muayyan maqsadlarga erishish uchun qo'rqitib ta'sir ko'rsatishga qaratilgan faol harakatlar bilan harakterlanadi.

Terrorizim chog'ida a) uldirish bilan qo'rqitish; b) zurlik bilan qo'rqitish; v) mulkni egallab olish yoki ushlab qolish bilan qo'rqitish; g) shaxsni garov sifatida egallab olish yoki ushlab qolish bilan qo'rqitish; d) xorijiy davlatlar yoki xalqaro tashkilotlarning xalqaro himoyadan foydalanayotgan vakolatxonalaridagi xizmat xonalarni yoki ularga tegishli turar joy xonalariga bostirib kirishdan qo'rqitish yoki majburlash vositasi sifatida foydalaniladi.

Terrorizim davlat, xalqaro tashkilot, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron harakatni qilishga yoki qilmaslikka majburlashga qaratilgan real harakatlar amalga oshirilgan paytdan boshlab tugallangan deb hisoblanishi lozim. Bunda yuz bergan oqibatlar hamda terrorchilik talab qilinayotgan harakatlar amalda yuz bergan yoki yuz bermaganligini ahamiyati yo'q.

Sub'ektiv tomondan, terrorizim qasddan sodir etilgan jinoyatdir. Bu o'rinda to'g'ri qasd haqida so'z boradi, chunki aybdor o'zi sodir etayotgan harakatlar tegishli sub'ektlarni o'zi muayyan vositalarni

qo'llagan xolda erishmoqchi bo'lgan muayyan harakatlarni sodir etishga o'zini tiyishga majburlashga qaratilgan harakatlar ekanligini anglaydi. Aybdor shaxs ko'zlayotgan: a) xalqaro munosabatlarni chigallashtirish; b) urush chiqarishga ig'vo qilish; v) mamlakatdagi vaziyatni barqarorlashtirishdan iborat maqsadlar ham to'g'ri qasdning mavjudligidan dalolat beradi. Ushbu maqsadlar majburiy-muqobil hususiyatga ega.

16 yoshga yetgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs terrorizim sub'ekti bo'lishi mumkin.

JK 155-m 2-qismida davlat yoki jamoat arbobi yoki hokimyat vakilining davlat yoki jamoatchilik faoliyati munosabati bilan uning hayotiga suiqasd yoki uning badaniga shikast etkazish sifatida tushuniladigan terrorchilik harakati uchun javobgarlik belgilangan. Bunday faoliyatning terrorchilik harakatiga kiritilishiga sabab shundaki, bu harakatlar ochiq ko'rinib turgan qo'rqitish hususiyatiga ega, chunki ular qonunda aniq belgilangan qo'yidagi muqobul maqsadlarga erishish uchun amalgam oshiriladi: a) vaziyatni barqarorlashtirish; b) davlat organlarining qarorlar qabul qilishiga ta'sir ko'rsatish; v) siyosiy va boshqa ijtimoiy faoliyatga tusqinlik qilish.

Ob'ektiv tomondan, terrorchilik harakatiga ikki muqobul turning bo'lishi xos. Birinchisi, hayotga qaratilgan har qanday harakatlarda namoyon bo'ladi. Terrorchilik harakatining bu turi, amalda yuz bergan oqibqlardan qat'iy nazar, bevosita harakatlar amalgam oshirilgan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

Terrorchilik harakatining ikkinchi turi har qanday darajadagi badanga shikast yetkazishdan iborat bo'lib, bo'nday oqibatlar yuz bergan paytdan boshlab tugallangan jinoyat deb hisoblanadi.

Qonunda terrorchilik harakati sodir etilishining aniq belgilangan maqsadlari mavjudligi sub'ektiv tomondan faqat to'g'ri qasdning mavjudligidan dalolat beradi.

JK 155-m 3-qismda terrorizimning va terrorchilik harakatining umumiy kvalifikasiyalovchi xolatlar sifatida: a) inson ulimi yoki; b) boshqa og'ir oqibqlarning yuz berishi nazarda tutilgan.

Binobarin agar terrorizim yoki terrorchilik harakati natijasida odam ulsa, qilmish ushbu norma bilan to'liq qamrab olinadi va jinoyat qonuning boshqa moddalari bo'yicha qo'shimcha kvalifikasiya qilish talab etilmaydi.

Mashg'ulot №8 Favqulodda vaziyat yuz berganda avariya qidiruv ishlarini olib borishga oid tadbirlar.

Amaliy mashg'ulotni olib boorish texnologiyasi.

Vaqt 2 soat	Talabalar soni: 25-30 nafar
O'quv mashg'uloti shakli.	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha seminar mashg'uloti.
O'quv mashg'uloti rejasi:	1. Jaroxatlanganlarni qutqarish. 2. jaroxatlanganlarni saralash va birinchi yordam ko'rsatish.
<i>O'quv mashg'ulotning maqsadi:</i> Talabalarga favqulodda vaziyat yuz berganda kechiktirib bo'lmaydigan shoshilinch qo'tqaruv tadbirlarini o'tkazish haqida tushuncha berish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash. - jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish - tibbiy ma'lumotlar va axboratlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Qidiruv kuchlari va ularning guruhlarini ajrata oladilar - Qidiruv ishlarini bosqichma-bosqich amalgam oshira oladilar - Jabrlanganlarni saralash qoidalarini bilib oladilar va amalgam oshira oladilar. - Jabrlanganlarga vrachgacha bo'lgan yordamni ko'rsata oladilar.
O'qitish uslubi va texnikasi.	Blits-so'rov, birgalikda o'qiymiz, diskussiya usullari
O'qitish vositalari	Mavzuga tegishli materiallar, UUM, proyektor, flipchart, marker, doska.
O'qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo'yicha o'qitish.
O'qitish sharoitlari	Kompyuter texnologiyalari, proyektor bilan ta'minlangan, guruhda dars o'tishga moslashtirilgan auditoriya.

Seminar mashg'ulotining texnologik xaritasi. 11-mashg'ulot.)

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich: kirish (10 min)	1.1. Mavzuni maqsadi rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi ularning ahamiyatini va aktualligini asoslaydi. Mashg'ulot hamkorlikda ishlash texnologiyasini qullagan holda o'tishini ma'lum qiladi. 1.2. Aqliy hujum metodidan foydalangan holda auditoriyaning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi: 1) Respublika qidiruv qutqaruv markazining vazifalari nimalardan iborat? Mavzuning muhokamasi guruhlarda davom etishini e'lon qiladi.	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradilar.
2-bosqich asosiy (60 min)	2.1. Talabalarga savollar tarqatiladi va javoblarni muhokama qiladi. (2-ilova). Kutilayotgan natijalarni eslatadi. 2.2. (1-ilova). Baholash mezonlarini namoish qiladi. 2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallari	2.1. O'quv natijalarini taqdim qiladilar 2.2. Savollar beradilar. 2.3. Javoblarni

	mavzuga oid adabiyotlar,UUMLardan foydalanish mumkinligini eslatadi.. Guruhlarda ishlashni boshlanish vaqtini e’lon qiladi. 2.4.Tayyorgarlikdan keyin taqdimotni boshlangani e’lon qilinadi 2.5.Talabalar javoblarini sharhlaydi,xulosalarga e’tibor beradi,aniq kiritadi. 2.6.Talabalarga B.B.B usuli bo’yicha ifodalangan jadvalni namoish qiladi va ustunlarni to’ldirishni aytadi. Tushunchalarga izohlarni to’g’rilydi va savollarga javob qaytaradi. Guruhlar faoliyatiga umumiy ball beradi.	to’ldiradilar. 2.4.jadvalni ustunlarini to’ldiradi va muhokamada ishtirok etadi.
3-bosqich:yakuniy (10 min)	3.1.Mashg’ulotni yakunlaydi talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag’batlantiradi, 3.2.Mustaqil ish sifatida Mavzuga oid krassivord tuzib kelishni topshiriq sifatida beradi. 3.3 Test savollariga aniq javoblarni topish.	3.1. Eshitadilar. 3.2 Topshiriqlarni yozib oladilar.

1-ilova.

Baholash mezonlari va ko’rsatkichlari(ball)

Guruh	1 topshiriq	2 topshiriq	3 topshiriq (har bir savol 0,2 ball)			Ballar yig’indisi.
	(1,0)	(1,4)	1 savol	2 savol	3 savol	(3,0)
1						
2						
3						

2-ilova.

B.B.B. Metodi asosida tarqatma materiallar

	Tushuncha	Bilaman “+”, Bilmayman “-”.	Bildim “+”, Bilolmadim “-”.
1	Maxsus harbiylashtirilgan qidiruv qismi		
2	Davlat suvda qutqaruv qismi		
3	Qutqarish xizmati		
4	Saralash		
5	Qidirish va topish		
6	Davolash,evakuatsiya		
7	Yalpi qirg’in qurollari		
8	Zararlangan o’choqlar		
9	Radiaktiv modda		
10	Ximiyaviy zaharlanish.		
11	Bakteriologik zaharlanish		
12	Baxtsiz hodisa		
13	RQQMM		

14	DSQX		
----	------	--	--

3.2.Uyda har biringiz mustaqil ravishda mavzuga oid krassivord tuzasizlar.

Mavzuning qisqacha bayoni:

Falokat uchog`iga sog`liqni saqlash kuchlari va vositalarini tezlik bilan olib kirish, ular ishini to`g`ri tashkil qilish va jabrlanganlar ofat joyidan tashqari evakuatsiya qilinishi oqilona tashkil etilishi bilan bu tadbirlar vaqtida bajarilishiga erishiladi. Jabrlangan aholi shunda tibbiy yordamning hamma turlari, yaniy birinchi tibbiy yordam, birinchi shifokor yordami, malakali va ixtisoslashgan tibbiy yordam birin –ketin ta`minlanadi.

“Tibbiy evakuatsiya bosqich” deganda tibbiy evakuatsiya yo`llarida shikastlanganlarni qabul qilish, saralash ularga tibbiy yordamning muayyan turlarini ko`rsatish hamda ularni yana naribroq evakuatsiya qilishga tayyorlash muljallangan sag`liqni saqlash kuchlari va vositalari tushuniladi. Xozirgi vaqtda O`zbekiston Respublikasidagi favqulodda vaziyatlarda shikastlanganlarni davolash-evakuatsiya qilish ko`zda tutiladigan ikki bosqichli tizim qabul qilingan.

Shikastlanganlarga ofat uchoqlari va joylarda tibbiy yordam ko`rsatish ishlarini shartli tarizda uch davrga: yakkalash (ezolatsiya qilish): qutqarish va sog`liqni tiklash davriga bo`lish mumkin.

Birinchi tibbiy yordam.

Shikast uchog`iga tushib, o`z holicha qoladigan shikastlanganlarni yakkalab olish davrida shikast olingan joyining o`zida hayotiy ko`rsatkichlarga muvofiq beriladigan birinchi tibbiy yordama alohida rol o`ynaydi. O`z vaqtida va to`g`ri ko`rsatilgan birinchi tibbiy yordam shikastlangan odamning hayotini saqlab qoladi va salbiy oqibatlar rivojlanishini oldini oladi. Bunda eng avvalo favqulodda vaziyatning shikastlovchi omillarini to`xtatish (suvdan olib chiqish, yonayotgan kiyimlarni uchirish, yonayotgan imorat ichidan yoki shikast zonasidan olib chiqish va h. k) choralarini ko`rish kerak, shuningdek jabrlangan kishining ahvolini tez va to`g`ri aniqlashning ahamiyati katta bo`ladi. Shikastlangan kishini ko`rib chiqishda shifokor muayyan algoritim (tartib, ketma-katlik) da foydalanishi mumkin. Bular:

- og`iz bushlig`I va yuqori nafas yo`llarini tekshirish (ularni begona, yot narsalardan tozalash);
- nafas olish harakatlarining hususiyatlari va qanchalik tezligiga baho berish (o`prani su`niy nafas oldirish va yurakni bevosita uqalash);
- qon tomirlari butunligini aniqlash(ayniqsa arterial tomirlardan qon oqishini vaqtincha yoki butunlay tuxtatish);
- yurak qon tomir tizimi (tomir urushi) ahvoliga baho berish;
- sezgi a`zolar, asosan ko`rish a`zolariga (organizim qanday ta`sirlanishiga) baho berish;
- shikastlangan kishining nutqiga baho berish.

Birinchi tibbiy yordam berishning eng qisqa muddati-shikastlangan ondan boshlab 30 daqiqa, nafas olish tuxtagan bo`lsa, bu vaqt 5-7 daqiqagacha qisqartiriladi. Zaharlangandan keyin dastlabki 30 daqiqa ichida birinchi yordam olganlarda umumiy ahvolning og`irlashuvi ikki barobar kamayishi vaqt omili naqadar muhumligini ko`rsatadi. Jaroxatlangandan so`ng bir soat mobaynida yordam ko`rsatilmasa ulimga sabab bo`lishi 30 % ga 3 soatgacha yordam berilmaganda esa 60 % va 6 soat yordam berilmaganda 90 % gacha ortadi.

Birinchi tibbiy yoramni shikastlangan kishining o`zi yoki uning yonida bo`lganlar aholi, sandrujenachilar, fuqaro muhofazasi tuzilmalarining shaxsiy tarkibi ko`rsatiladi,

Jabrlanganlarga tibbiy yordamning kiyengi yordamning bosqichi ularga shifokor kelgunga yordam ko`rsatish hisoblanadi. Bunday yordam ruyxatdagi tibbiy vositalardan keng

foydalanish va bunday yordam berishda o`rta tibbiy ma'lumotli odamlar (tibbiy hamsheralar, flitsherlar) ishtirok etishi hisobiga birinchi tibbiy yordam imkoniyatlarini kengaytiradi.

Birinchi shifokor yordami.

Bu shikastning jabrlanganlar hayotiga bevosita xavf soluvchi qibatlarni bartaraf qilish, jaroxat infeksiyasi yanada rivoj topishining oldini olish va shikastlanganlarni evakuatsiyaga tayyorlash maqsadida tibbiy evakuatsiyaning birinchi bosqichida shifokorlar bajaradigan davolash muhofaza majmuidir. Bunday yordamni umumshifokorlik tayyori bo`lgan va ixtisosli jarrox shifokorlar ko`rsatadi. Shikastlangan ondan kiyengi 3 soat, eng ko`pi bilan 6 soat birinchi shifokor yordami ko`rsatish uchun eng qisqa muddat hisoblanadi. Tibbiy yordamning bu turini hamma ixtisosdagi shifokorlar hatto muqum shifoxonalardagi o`rta tibbiy ma'lumotli bo`lgan tajribali xodimlar ham bilishlari kerak.

Malakali tibbiy yodam.

Davolsh muassasalarida tegishli ixtisosdagi shifokorlar amalgam oshiradigan, shikast oqibatlarini, birinchi galda hayot uchun xavfli oqibatlarni bartaraf qilishga ihtimoli bor og`irlashuvlar oldini olishga va rivojlana boshlagan sal`biy oqibatlarga qarshi ko`rashishning shikaslanganlarni o`zil kesil natijagacha davolashga qaratilgan jarroxlik va terapivtik tadbirlar majmuidir.

Ixtisoslashgan tibbiy yordam.

Ixtisoslashgan davolash muassasalarida odamning ba`zi a`zolari va tizimlaridagi buzulishlarini maksimal darajada tiklash maqsadida maxsus apparatlar va uskunalaridan foydalanib mutaxassis shifokorlar bajaradigan davolash muhofaza tadbirlari majmuidir.

Fuqaro muhofazasi tibbiy xizmati hamda "Halokatlar tibbiyoti" xizmatining favqulodda vaziyatda jabrlanganlarga tibbiy yordam ko`rsatish uchun jalb etiladigan kuch va vositalar.

Birinchi tibbiy yordam mumkin qadar ko`proq odamlar hayotini saqlab qolish, aholi, o`quvchilar, najotkorlar eng avvalo o`z-o`ziga va bir-biriga yordam berish usuli, qo`yilgan mavjud bo`lgan, ruyxatdagi vositalar shaxsiy dori qutisi, turli dorivor moddalar va h. k lardan foydalanib:

- tez va kechiktirib bo`lmaydigan ixtisoslashgan tibbiy yordam xizmati;
- shahar va tunmandagi markaziy kasalxonalar, joylardagi shifokorlik nuqtalari va uchastkalari xodimlari, yaniy bir shifokor, ikki hamshera va ikki sanitardan iborat shoshilinch tibbiy yordam birgadalari tashkil etilib bevosita shikast uchog`ida faoliyat ko`rsatadilar.
- Ixtisoslashgan (doimiy, shay) shoshilinch tibbiy yordam birgadalari esa, respublika viloyatlar, shaharlar. U yerdagi ko`p sohali, ixtisoslashgan

tibbiy muassasalar oily tibbiy o`quv yurtlarining klinikalari, ilmiy tadqiqot institutlari hamda markazlar bazasida barcha mutaxassisliklar buyicha tashkil etiladi. "Holakatlar tibbiyoti" xizmati tuzilmalari va muassasalari asosan birgada usuli bo`yicha tashkil etilib ikki bosqichli tizimda faoliyat ko`rsatish bilan belgilanadi. Bu vazifalar:

Birinchi bosqichda shikast uchog`i yoki uning chegarasida:

- jabirlanganlarni qidirib topish, qo`lda kutarib yoki transportga olib chiqish;
- birinchi tibbiy yoki birinchi shifokor yordamini ko`rsatish.
- boshqa xizmat sohalari bilan yaqin va o`zaro hamkorlikda ishlash.
- sanitary gigienil va epidemiyaga qarshi tadbirlarini o`tkazishdir.

Mavzu №9.Epidemiologiya asoslari,Dezenfeksiya,Dezenseksiya,Deratizatsiya haqida ma'lumot mavzusining amaliy mashg'uloti ta'lim texnologiyasi.

<i>Talabalar soni-20-30 ta</i>	<i>O'quv soati-2 soat</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish.
<i>Amaliy mashg'ulotda muhokama qilish uchun savollar.</i>	1.Epidemiologiya fani haqida ma'lumot. 2Epidemiologik kasalliklarni vujudga kelishi va tarqalishi 3.Dezinfeksiya qilishda qo'llaniladigan kimyoviy vositalar 2. Dezenseksiya haqida ma'lumot 3. Deratizatsiya haqida ma'lumot
Mashg'ulotning maqsadi: mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish.	
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba bajarishi lozim:
• Epidimiologiya tog'risida ma'lumot berish va bilimlarni kengaytirish	Epidimiologiya tog'risida ma'lumotga ega bo'ladilar.
• Epidimiologik kasalliklarni vujudga kelish holatlari haqida tushuncha berish	• Epidimiologik kasalliklarni qanday vujudga kelish holatlari haqida tushunchaga ega bo'ladilar.
• Bilimlarni taqqoslashni, umumlashtirishni,tahlilni tizimlashtirish ko'nikmasini hosil qilish.	• Bilimlarni taqqoslashni, umumlashtirishni,tahlilni tizimlashtirish
• O'z fikrlarini shakllantirish va bildirish jarayonini tashkil qilish.	• Talabalar o'z fikr va mulohazalarga ega bo'ladilar,fikrlarini bayon qila oladilar.
• Kommunikatsiya,guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.	• Turli usullar va modellarni tahlil qiladilar. • Dezenfeksiya qachon va qayerda qo'llanilishini tahlilqila oladilar.
<i>O'qitish usullari.</i>	Suhbat,aqliy hujum,taqdimot,blits-so'rov.
<i>O'qitish vositalari.</i>	Ma'ruza matnlari,taeqatmamateriallar, doska,bo'r,format qog'ozlar, markerlar,skotch.
<i>O'qitish shakli.</i>	Frontal va jamoaviy,kichik guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish shart sharoitlari.</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va kichik guruhlarda ishlashga muljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash.</i>	Og'zaki nazorat:o'quv vazifalari,jadvallar tuzish.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi.

Bosqichlar vaqti:	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich kirish (10min.)	1.1. O'quv mashg'ulotning mavzusi maqsadi,rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi.O'qitish kichik guruhlarda ishlash texnologiyasi asosida olib borilishi e'lon qilinadi.	1.Tinglaydilar,yozib oladilar.

	1.2.Mavzuning tayanch iboralari asosida blits-so'rov o'tkazadi.Quyidagi tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi: ➡ Epidemiologiya tushunchasiga ta'rif bering; ➡ Dezenfeksiya deganda nimani tushunasiz; ➡ Deratizatsiya usullari; ➡ Dezenseksiya tushunchasiga izoh bering; ➡ Deznfiksiyalovchi suyuqliklarga nimalar kiradi? Ushbu amaliy mashg'ulot oxirida berilgan vazifani ya'ni kichik guruhlariga bo'linib ishlash jarayonida savollarga guruhchalar jamoa bo'lib ishlashni va ish yakunida javoblarini izohlashni taklif qiladi.(1-ilova). Guruhda ishlash natijasi plakat qog'ozlarda ko'rsatilishi kerakligini e'lon qiladi.	2.Savolga javob beradilar.
2-bosqich.Asosiy (50 min.)	2.1.Talabalarni 3 takichik guruhga bo'ladi.O'quv vazifalarni tarqatadi. (2-ilova). Qanday natijalar olinishi kerakligini aniqlashtiradi.Baholash ko'rsatkichlari va mezonlarini sharhlaydi.(3-ilova).Vazifani bajarishda qanday qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkinligini tushuntiradi(masalan:darslik,ma'ruza matnlari). Guruhlarda ishni boshlashni e'lon qiladi.	3.Talabalar kichik guruhlariga bo'linadilar.O'quv vazifalari,baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar.Vazifani bajaradilar.
3-bosqich.Yakuniy (20 min.)	3.1.Taqdimot va guruhlarda ishlash natijalarini o'zaro baholashni tashkil qiladi. Sharhlaydi,bilimlarni umumlashtiradi,vazifani bajarish jarayonida qilingan xulosalar,umumlashtirishlarga e'tiborini qaratadi.	3.1.Taqdimot qilishadi.Qo'shimchalar qilishadi,baholasha -di.
.	4.1.Ish yakunlarini e'lon qiladi. 4.2. Eng yaxshi ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. 4.3.Mustaqil ish uchun vazifa beradi	4.1.Tinglaydilar,aniqlashtiradilar. 4.3.Mustaqil ish uchun vazifani yozib oladilar.

1-ilova

Guruhda ishlash qoidasi.

Sherigingizni diqqat bilan tinglang.

Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting,berilgan topshiriqlarga javobjarlik bilan yondashing

Agar sizga yordam kerak bo'lsa,albatta guruh a'zolariga murojat eting.

Mabodo sizdan yordam so'rashsa,albatta yordam bering.

Guruhlar faoliyati natijalarini baholashda hamma ishtirok etishlari shart.

Shun aniq tushunmog'ingiz lozim:

- Boshqalarga o'rgatish orqalio'zimiz o'rganamiz;
- Biz bitta kemadamiz:yoki birgalikda suzib chiqamiz,yoki birgalikda cho'kib ketamiz.

3-ilova**Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari.(ballarda)**

№ Guruhlar	1 vazifa	2 vazifa	3 vazifa	Jami ballar
	(0,5)	(0,5)	(2,0)	(3,0)
1				
2				
3				


4-ilova

O'quv vazifalari


Birinchi guruh uchun o'quv vazifasi

Ikkinchi guruh uchun o'quv vazifasi

Uchunchi guruh uchun o'quv vazifasi



Mustaqilish uchun vazifa.



Epidemiologiya asoslari. Dezinseksiya. Deratizatsiya
Epidemiologiya asoslari.

Epidemiologiya yuqumli kasalliklarning kelib chiqishi, odamlar orasida tarqalishi va yo'qolishi qonuniyatlarini o'rganadigan hamda ularning profelaktikasi va butunlay tugatilishi metodlari to'g'risidagi fandir. Yuqumli kasalliklarning kollektiv orasida tarqalishi murakkab bo'lib, u *epidemiik proses* deb ataladi. Epidemiik prosesning qanday kechishi, birinchidan mikroorganizm (odam organizmi) va mikroblarning xususiyatiga bog'liq bo'lsa, ikkinchidan sotsial; faktorlar: aholining turmush darajasi, zichligi, ma'daniyati, ovqatlanish va suv bilan ta'minlanish xarakteri, kasbi va boshqalarga bog'liq. Epidemiik protses ro'y berishi uchun quyidagi 3 zveno: 1) infeksiya manbai 2) kasallik qo'zg'atuvchilarning tarqalish imkoniyati; 3) kasallikka moyil kollektiv mavjud bo'lishi shart. Ular tashqi muhitning ma'lum sharoitidagina o'zaro duch keladi.

Dezinseksiya

Dezinseksiya mikroblarni zararsizlantirish, epidemiik proseslarning ikkinchi zvenosiga ta'sir etishga qaratilgan. Bu tadbir tufayli mikroblarning tashqi muhitda tarqalish yo'llariga chek qo'yiladi. Yuqumli kasalliklar tarqalishida rol o'ynaydigan bo'g'imoyoqlilar (pashsha, chivin, burga kana va boshqalar) ni qirish tadbirlari *dezinseksiya* deyiladi. Ayrim yuqumli kasalliklarda kemiruvchilar (sichqon, kalamush, yumronqoziq va boshqalar) infeksiya manbai hisoblanadi. Ularni qidirish deratizatsiya deyiladi.

Dezinseksiyaning fizik va ximiyaviy usullari bor. Fizik usullar dezinseksiyaning oddiy va keng qo'llanadigan usullaridan hisoblanadi. Tabiiy sharoitda quyosh nuri, ayniqsa uning ult'rabinafsha qismi barcha turdagi mikroblarga halokatli ta'sir ko'rsatadi. Ba'zi yuqumli kasalliklarda, masalan, grippda xonalar kvarts lampalarining ult'rabinafsha nurlari bilan dezinseksiyalanadi. Axlat, chiqindilar va boshqalarni yoqib yuborish ham dezinseksiyaning fizik usullarida hisoblanadi. Shuningdek ich kiyim va o'rin ko'rpani dazmollash ham dezinseksiyaning bir usulidir. Bemor kiyim-kechagi, ko'rpa-to'shagi va laboratoriya asboblari dezinseksiyalashda issiq havo kameralaridan ham foydalaniladi.

Qaynatish ham dezinseksiyaning ishonchli va oddiy usullaridan hisoblanadi. Ko'pgina mikroblar 100⁰da nobut bo'ladi. Spora hosil qiladigan mikroblar anashu temperaturada 10-15 minutda nobut bo'ladi. Qaynagan suvga ishqoriy tuzlar va sovun qo'shilsa, uning dezinseksiyalovchi ta'risi kuchayadi.

Sovun bug'i. Tutingan suv bug'i juda kuchli dezinseksiyalovchi ta'sir ko'rsatadi. Uning ta'siri 2 elementdan: namlik va yuqori temperaturadan iborat. Avtoklav deb atladigan apparatlar ishi anashu prinsipga asoslangan. Ularda 1,5 atm bosim hosil qilib, bug' temperaturasini 120⁰ gacha ko'tatish mumkin. Xirurgik asboblari va bog'lash materiallari, odatda avtoklavda sterilanadi.

Dezinseksiyaning ximiyaviy metodlari amalga keng qo'llaniladi. Bunda ayniqsa xlorli ohak, xloramin, fenol, lizol, formalin ko'p ishlatiladi. Xlor tutuvchi preparatlarning qo'llanishi ular tarkibida aktiv xlorning ta'siriga bog'liq. Ular 2,3,5% li eritma holda ichak infeksiyalarida bemor chiqindilarini, pol vaidish-tovoqlarni dezinseksiyalashda ishlatiladi.

Xlorli ohak o'tkir xlor ketadigan oq poroshok. Uning dezinseksiyalovchi xususiyati tarkibidagi aktiv xlor foiziga bog'liq. U 20-30% gacha aktiv xlor tutgan holda ishlab chiqariladi. Xlorli ohak suvni idish-tovoqni, bemor ajratmalarini, binolari, xojatxonalarini va boshqalarni zararsizlantirish uchun ishlatiladi.

Xloramin suvda yaxshi eriydigan oq yoki bir oz sarg'ish poroshok. Tarkibida aktiv xlor miqdori kamida 25-30% ni tashkil etadi. Xloramin eritmalarini avzalligi ularning ancha turg'unligidir. Xlorli ohak qaysi maqsadda ishlatilsa, bu ham xuddi shu maqsadlarda ishlatiladi.

Fenol kristal holdagi karbon kislota. Suvda qisman eriydi. Tarkibida 10% li suv tutsa, suyuq karbon kislota deb ataladi.

Lizol spetsifik hidga ega qizg'ish qo'ng'ir rangli tiniq suyuqlik. 3-5% li eritmalar holidagi binolarni, bamor ich kiyimlarini, tuvakni, teri rezinadan ishlangan buyumlarni, poyabzalni dezinfiksiyalash uchun ishlatiladi.

Formalin tiniq, rangsiz, hidli sutyuqlik. Asosan bug' - formalin kameralarida, bug' bilan aralashtirib kiyimlarni, ayniqsa mo'yna buyumlarini dezinfiksiyalashda qo'llaniladi.

Dezinfiksiya o'tkazilish vaqtiga qarab uch turga: profilaktik, joriy va yakunlovchi dezinfiksiyaga bo'linadi.

Profilaktik dezinfiksiya jamoat joylarida (hammom, hojastxona va boshqalarda) kasallik yuqishining oldini olish maqsadida o'tkaziladi. Vodoprovod suvini xlorlash, xirurgik asboblarni sterillash ham profilaktik dezinfiksiyaning bir turidir.

Bemordan ajralgan chiqindilarni o'z vaqtida zararsizlantirib turish *joriy dezinfiksiya* hisoblanadi. U uyda (bemor kasalxonaga jo'natilguncha) va kasalxonada har kuni amalga oshiriladi. Bemor foydalangan idish-asbob, shuningdek, binolar ham muntazam dezinfiksiyalanib turiladi.

Yakunlovchi dezinfiksiya bemor uyda (uni kasalxonaga jo'natilgandan so'ng) va kasalxonada- bemor tuzalib chiqib ketgandan keyin o'tkaziladi va o'rin ko'rpasi kameralarda dezinfiksiyalanadi.

Dezinseksiya. Dezinseksiya maqsadlarida fizik vositalardan tashqari, qator ximiyaviy vositalar: DDT, gekсахloran, xlorofos, dixlorofos va boshqalar ham ishlatiladi.

DDT sof holda hidsiz, suvda erimaydigan oq kristal poroshok. Kerosin va skipidarda eriydi. Bit, burga, chiviv, pashsha kabi hasharotlarni qirish uchun ishlatiladi.

Geksaxloran o'tkir qo'lansa hidli, kulrang kristal modda. DDT kabi organik suyuqliklarda eriydi va u qo'llanadigan hollarda ishlatiladi.

Xlorofos kristal modda bo'lib, suvdagi eritmaları va aerózili pashsha va hasharotlarga qarshi samarali qo'llaniladi. Purkagich holida chiqarilayotgan dixlorofos qo'llash uchun qulay va hasharotlarga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Derezatsiya. Kemiruvchilarning qirish uchun deratizatsiyaning mexanik, ximiyaviy va biologik vositalardan foydalaniladi. Mexanik vositalar sifatida tuzoq, qopqon va to'r qo'llaniladi. Ximiyaviy vositalardan krisid, rux, fosfit va zookumarin ko'p ishlatiladi. Ular kukun holida chiqariladi. Deratizatsiyaning biologik metodi kemiruvchilarga suniy ravishda salmonellyoz kasallikgini yuqtirib, ularni qirib yuborishdan iborat.

Kasallik mikroblari tabiiy yo'l bilan ko'payadigan organizm (odam yoki hayvon organizmi) *infeksiya manbai* hisoblanadi. Ko'pgina yuqumli kasalliklarda bemor odam infeksiya manbaidir. Mikroblar bemor organizmidan turli yo'llar bilan ajraladi. Ularning qay yo'sinda ajralishi kasallik protsessida asosan organizmning qaysi joyi jarohatlanishiga bog'liq. Jumladan yuqumli oshqozon- ichak kasalliklarida mikroblar asosan najas bilan ajraladi. Yuqori nafas yo'llari infeksiyalarida qo'zg'atuvchilar bemor aksirganda va yo'talganda, so'lak va tufuk tomchilari bilan chiqadi va hokazo.

Kasallikning turiga qarab, mikroblarning tashqi muhitga tarqalishi turli davrlarda har xil bo'ladi. Chin chechak, qizamiq, quturish kabi kasalliklarning yashirin (hali kasallik belgilari paydo bo'lmagan) davrida mikroblar tashqariga ko'plab ajraladi. Aksari o'tkir yuqumli kasallik bilan og'rikan bemorlarda kasallik zo'raygan davrda qo'zg'atuvchilar ko'plab ajraladi. Ba'zi yuqumli kasalliklarda (ich terlama, paratif, dezinteriya va boshqalarda) tuzalish davri- rekonvalesensiyada ham mikroblar intensiv ajraladi. Ayrim hollarda esa bemor kasallikdan tuzalib ketganidan keyin ham ma'lum vaqtgacha infeksiya ajratib turishi mumkin. Bunday odamlar *bakteriya tashuvchilar* deyiladi. Agar bakteriya tashuvchilik 3 oydan kam muddatda to'xtasa-o'tkir *bakteriya tashuvchi*, 3 oy muddatdan ortiq davom etsa- *surunkali bakteriya tashuvchi* deyiladi.

Bundan tashqari sog'lom bakteriya tashuvchilar ham bo'ladi. Ularda kasallik shuncha yengil o'tadiki, hech qanday belgilar bilan namoyon bo'lmaydi. Bunday odamlar o'zi sezmagani holda bakteriya ajratadi.

Epidemiologik, ya'ni kasalliklarni tarqatish nuqtaiy nazaridan bakteriya tashuvchilar, kasallik belgilari yaqqol ifodalangan bemorlarga nisbatan xavflidir. Chunki ular o'zini sog'lom hisoblab, boshqalar bilan muomalada bo'ladi, kasallik tarqatadi.

Ayrim turdagi hayvonlar asosiy infeksiya manbai hisoblanadigan va ulardan odamga yuqadigan kasalliklar zoonozlar deb ataladi.

Brusellyoz, toun, kuydirgi, oqsim, manqa va boshqalar shular gruppasiga kiradi. Kasallik kasal hayvonlardan odamga turli yo'llar bilan: 1) bevosita kasal hayvon tishlaganda, ining go'shtini nimtalaganda; 2) kasal hayvon mahsulotlari (go'sht, sutini) iste'mol qilganda; 3) hayvon xomashyolari: terisi, juni orqali yuqishi mumkin.

Tarqalish mexanizmi. Mikroby infeksiya manbaidan ajralib, tashqariga chiqqanidan so'ng nobut bo'lishi yoki uzoq vaqt saqlanishi mumkin. Manashu davrda ularda ta'sir etish va qirish oson bo'ladi. Ular ko'pincha quyosh nuri, yorug'lik, quritish ta'sirida nobut bo'ladi. Gripp, meningokokk infeksiyasi va so'zak qo'zg'atuvchilari tashqi muhitda bir necha minut ichida nobut bo'ladi. Ba'zi mikrobylar esa tashqi muhitda hayot faoliyatini uzoq saqlab turadi. Masalan kuydirgi, qoqshol va botulizm tayoqchalari tashqi muhitda sporaga aylanib, tuproqda bir necha yillar saqlanishi mumkin.

Bemor organizmidan ajralishiga va tashqi muhitda saqlanish xususiyatiga qarab, kasallik mikrobylari sog'lom odamga turli yo'llar bilan yuqadi.

Havo- tomchi orqali tarqalishi. Qizamiq, ko'kyutal, gripp, chechak, bo'g'ma, qizilcha va boshqalar shu yo'l bilan tarqaladi. Bunda bemorning nafas yo'llari bilan ajralgan havo va tufuk tarkibidagi mikrobylar tomchi holida tashqariga tarqaladi. Yirik tomchilar og'irligi tufayli tez cho'kib, uzoqqa tarqalmaydi. Sog'lom odam nafas olayotganda havo bilan birga undagi mikrobylar ham burun va nafas yo'llariga tushadi. Shunday qilib kasallik yuqadi. Tashqi muhitda turg'un bo'lgan bo'g'ma, chechak mikrobylari, streptokokklar chang orqali tarqalib ham nafas yo'llariga tushishi mumkin.

Kontakt yo'li Kontakt bevosita va bilvosita bo'ladi. Quturish zahm va so'zak kasalliklari bevosita kontakt yo'li bilan yuqadi. Shunday yo'l bilan ba'zi nafas infeksiyalari- bo'g'ma qizilcha bemor sog'lom odamni o'pkanida yuqishi mumkin. Qo'zg'atuvchilari tashqi muhitda turg'un bo'lgan ko'pkina kasalliklar bilvosita kontakt yo'li bilan yuqadi. Bunda turli idish tovoq, o'yinchoqlar, sochiq, dastro'mol, kiyim kechak mikroby tarqatuvchi faktor hisoblanadi. Ichak infeksiyalari: ich terlama dezinteriya, salmonelyoz, vabo va boshqa kasalliklarning tarqalishida bu faktorlar muhim rol o'ynaydi. Ular vositasida mikroby sog'lom odam organizmiga og'iz orqali tushadi.

Oziq-ovqat bilan yuqishi Yuqorida aytib o'tilgan ichak infeksiyalari, shuningdek bruselyoz va oqsim kasalliklari anashu yo'l bilan yuqadi. Bu mikrobylarning bilvosita kontakt yo'li bilan tarqalishining bir turi bo'lib, alimental yo'l deb ham ataladi. Oziq-ovqatning mikrobylar bilan zararlanishi turlicha ro'y beradi. Kasallik hayvon go'shti yaxshilab pishirmasdan istemol qilinganda bruselyoz, kuydirgi, salmonelyoz va boshqa kasalliklar yuqadi. Oziq-ovqat mahsulotlarini tashish yoki pishirishda bemor odam ishtirok etsa, yoki zararlangan idish-tovoq ishlatilsa ham ularga mikroby tushib qoladi. Ko'pchilik istemol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlari (sut, muzqaymoq, krem, go'sht va boshqalar) ga mikroby tushib qolishi birdaniga ko'pchilikning kasallanishiga sabab bo'ladi.

Suv orqali tarqalishi ham ichak infeksiyalari va tulyaremiyada uchraydi. Suvda zararli mikrobylar turli yo'l bilan tushishi mumkin. Yomg'ir suvlari tuproqdagi turli chiqindilar va mikrobylarni yuvib ariq, anhorlarga qo'shilishi mumkin. Oqar suvga bevosita turli chiqindilar, yuvindi suvlar, shuningdek, turli korxonalar, ayniqsa kasalxonalarning oqava suvning qo'shilishi natijasida ham mikrobylar ko'payib ketadi. Zararlangan suvni ko'pchilik iste'mol qilishi *suv epidemiyasini* keltirib chiqaradi.

Ko'pkina yuqumli kasalliklar qon so'ruvchi hasharotlar vositasida yuqadi. Kasallikning bunday tarqalishi *transmissiya* deb ataladi. Turli chivin, iskabtopar (moskit) kanalar, bezgak, qaytalama tif, rikkitsiozlarni bemordan sog'lom odamga yuqtiradi.

Epidemik prosessning uchinchi zvenosi aholining *kasallanishga miyoyilligi* hisoblanadi. Odamlarning turli yuqumli kasalliklarga nisbatan sezgirligi tulicha bo'ladi. Chin chechak, qizamiq, gripp va boshqa kasalliklar bilan katta-kichik hamma og'rishi mumkin. Boshqa kasalliklarga (bo'g'ma, tif, paratif kasallikalari ham hokazolarga) nisbatan odam organizmi uncha sezgir bo'lmaydi. Sotsial sharoit, aholining yoshi, madaniyati, ovqatlanish xarakteri, immunutit yuqumli kasalliklarning odamlar orasida tarqalishiga ta'sir ko'rsatadi. Yuqumli kasalliklarga qarshi kurashda epidemik prosessning uchala zvenosiga ta'sir ko'rsatish kerak. Infeksiya manba'i mikroblarni boshqalarga tarqatmasligi uchun ko'pkina yuqumli kasalliklarda bemor darhol maxsus kasalxonaga yotqiziladi. Bunda uni iloji boricha ertaroq kasalxonaga jo'natishga harakat qilinadi. Yuqumli kasalliklarning tarqatish yo'li (2-zveno) ta'sir ko'rsatish uchun asosan dezenfeksiya tadbirlari amalga oshiriladi.

Aholining yuqumli kasalliklarga moyilligi (3-zvenoni) kamaytirish maqsadida aholi emlanadi va kollektiv immunitet hosil qilinadi.

Yuqumli kasalliklar konkret sharoitda yoki oz uchrashiga qarab, ular turli epidemiologik iboralar bilan ifodalanadi. Kasallik ma'lum joyda alohida kasallanish shaklida bir necha yil davomida bir darajada saqlanib tursa, *sporadik kasallanish* deb ataladi. Shu joyda kasallanishning bir necha marta ko'payib ketishi yoki ilgari uchramagan yangi kasallik bilan ko'p odamlarning birdaniga kasallanishi *epidemiya* deb ataladi. Bir necha tuman, mamlakat va hatto qita'larga juda ko'p tarqaladigan epidemiya *pandemiya* deyiladi.

Yovvoyi hayvonlar va qushlar orasida kasallik qo'zg'atuvchilarning tabiiy iqlim sharoitida uchraydigan kasalliklar *tabiiy manbali kasalliklar* deb ataladi.

Mavzu №10. Yuqumli kasalliklardan himoyalaniş yullari, yuqumli kasalliklarni oldini olish chora tadbirlari.

3.1. Amaliy mashg'ulot texnologiyasi.

Vahti- 2 soat	Talabalar soni: 30-nafar.
O'quv mashg'ulotning shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha seminar mashg'uloti.
Amaliy mashg'ulot rejasi.	1. Yuqumli kasalligi haqida tushuncha. 2. Yuqumli kasalligining kelib chiqish sabablari. 3. Kasallikning yuqush yullari. 4. Kasallikning kyeingi avlodga ta'siri. Yuqumli kasalligini oldini olish choralari.
O'quv mashg'ulotning maqsadi: Yuqumli kasalligi to'g'risida talabalarga to'shuncha berish va ularda kasallik to'g'risida aniq tasavvur hosil qilish.	
Pedagogik vazifalar: - Yuqumli kasalligi haqida talabalarga tushuncha berish; - Kasallik mohiyatini ochib berish; - Kasallikni kelib chiqish sabablarini talabalarga tushuntirish. - Kasallikni kyeingi avlodga ta'sirini tushuntirish va ularda ko'nikma hosil qilish.	O'quv faoliyatining natijalari. Talaba: - Yuqumli kasalliklari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ladilar, hamda kasallik haqida ma'lumot bera oladilar. - Kasallikni mohiyatini ochib bera oladilar. - Kasallikni kelib chiqish sabablarini bilib oladilar va sanitariya gigiyenik qoidalariga rioya qiladilar.
O'qitish uslubi va texnikasi.	Amaliy mashg'ulot materiallari, O'UM, Insert, blits –so'rov, prezentatsiya, aniq holatlarni

	yechish.B.B.B usuli.
O'qitish shakli.	Individual,guruh bilan ishlash.
O'qitish vositalari.	O'UM,proyektor,qog'oz,marker,doska,bo'r.
O'qitish sharoitlari.	Jihozlangan auditoriya.


Amaliy mashg'ulot texnologik xaritasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'lqituvchi.	Talaba.
1-bosqich kirish (10 min)	1.1.O'quv mashg'ulotning mavzu va rejasini ma'lum qiladi.Erishadigan natijalar bilan tanishtiradi.Mazkur amaliy dars muommali tarzda o'tishini e'lon qiladi.	Eshitadilar,yozib oladilar.
2-bosqich Asosiy (60 min)	2.1.Talabalar e'tiborini rejadagi savollar va ulardagi tushunchalarga qaratadi.Blits so'rov o'tkazadi. 2.2.Bilimlarni yanada aniqlashtirish maqsadida B.B.B.jadvalini daftarga chizishni taklif etadi (1-ilova). Doskaga chiqaradi. 2.3.Muommali savollarni o'rta tashlaydi va ularni birgalikda o'qishga chorlaydi. 1. Yuqumli so'zining to'liq ma'nosi nima? va nima uchun bugungi kunda uni XXI-asr vabosi deb ataydi? 2. Qanday holatlarda kasallik yuqishi mumkin sizning kasallikka nisbatan munosabatingiz. 1. Kasallikni qanday ko'rinishlari mavjud? Degan savollar sxemalar va jadvallar yordamida javob beradi. 2.5.Bugungi kunda Yuqumli kasalligi muommalari O'zbekistonda qanday hal qilinmoqda yoki Yuqumli kasallikka qarshi qanday chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda?degan savolni o'rta tashlaydi. Yuqumli kasallikka tegishli bo'lgan turli xil holatdagi ko'rgazmali qurollar va plakatlarni namoish qiladi.	2.1. Talabalar javob beradilar.Daftarlariga yozadilar, Yuqumli kasalliklar qo'zg'atadigan verus ma mikroblarni ko'rinishini chizadilar. 2.2 Jadvalni daftarlariga chizadilar va ustunlarni to'ldiradilar. 2.3Muommaga e'tiborini qaratadilar va yozib oladilar. 2.3Muomma yuzasidan o'z yechimlarini taklif qiladilar.Munozara qiladilar.Javob beradilar. 2.4Optimal yechimlar yuzasidan takliflar beradilar B.B.B.jadvalning 5-ustunini to'ldiradilar.
3-bosqich Yakuniy (10 min)	3.1. Mavzuga xulosa qiladi. 3.2.Mavzu rejasidagi natijaga erishishda faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beradi. Yuqumli kasalligi bo'yicha test savollarini o'qish va to'g'ri javobni topib belgilash. 3.4.Berilgan sxemani Yuqumlikasalligining profilaktikasi bo'yicha to'ldirishni vazifa sifatida beradi va e'lon qiladi.	Eshitadilar.kerakli iboralarni daftariga yozib oladilar.


B.B.B.texnikasini qullash qoidolari.

№	Mavzu savoli	Bilaman	Bilishni hohlayman.	Bildim.
1	Verusli gepatit	3	4	5
1.	Qizamiq			
2.	Epid parotid			
3.	.Kuydirgi			
4.	Salmonillyoz			
5	O'lat			
6	Vabo			
7	Saramas			
8	OITS verusi			
9	Chuchqa solityori			
10	Embrionga qon orqali yuqadi.			
11	Davolash usullari			
12	Oldini olish choralari			
13	OITS to'g'risida birinchi nazariya			
14	OITS to'g'risida ikkinchi nazariya			
15	Kasallik tarqatuvchilar			
16	Kasallik qo'zg'atuvchilar.			

Yuqumli kasalligini davolashda qo'llaniladigan dori preparatlari. 10-



11-ilova.



AMALIY MASHG'ULOT IV SEMESTR
JAMI: 20 SOAT

Mavzu №1. Yurak o'pka ranimatsiyasi (qayta jonlantirish).

Amaliy mashg'ulotni olib boorish texnologiyasi.


Amaliy mashg'ulot rejasi: 1. Yurakni sun'iy massaj qilish 2. Yurakni bilvosita massaj (yopiq) qilish. 3. <u>SUN'IY NAFAS BERISH USULLARI</u>		
Mashg'ulotning maqsadi:	1)Yurak va nafas olish a'zolari shikastlansa yoki to'xtab qolsa inson hayoti uchun xavfli ekanligi bo'yicha bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish. 2)Yurakni tashqi massaj qilish va su'niy nafas berish usullarini talabalarga o'rgatish.	
Talabaniing o'quv faoliyati natijalari: • Yurak qon tomirlar sistemasi zararlanishining xavfli tomonlarini tushunib yetadilar. • So'niy nafas berish va yurak tashqi massajining qanday foydali tomonlarini tushunib yetadilar; • Agarda vaqtida yordam ko'rsatilmasa o'lim bir qadam ekanligini bilib oladilar.		
Kichik guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar: 1. Guruhingiz bilan o'quv topshirig'ini bajaring. Eslatma: 1.1-ga qarang. 2. Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishib chiqing. Eslatma 2.1-ga qarang. 3. «Baliq skeleti» texnikasi bilan tanishib chiqing. Eslatma: 2.2-ga qarang. 4. Nazorat savollariga javob bering. Eslatma: 3.1-ga qarang.		
Nazorat shakli: Og'zaki nazorat,savol-javob va o'z-o'zini nazorat qilish.	Maksimal ball: 2 Talabaga qo'yilgan ball:	O'qituvchi imzosi: _____

O'QUV-USLUBIY MATERIALLAR


1. O'quv topshiriqlari.

(1.1)

1-guruh



2-guruh



3-GURUH



H. MA'LUMOTLI-AXBOROT MATERIALLAR.(2.1)

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

Guruhx	Baho	Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari			
		Ma'lumotni to'liq yoritishi	Guruh ishtirokchilarining faolligi	Ma'lumotning taqdimetilishi	Jami
	Ball	1,0	0,5	0,5	2
1					
2					
3					

Guruh ishlarini umumlashtiruvchi baho.

Guruh	1	2	3	Jami ball	Baho
1					
2					
3					

1,5 – 2 ball- «a'lo» 1,0 – 1,4 ball- «yaxshi» 0,5-0,9 ball- «qoniqarli» 0 - 0,4 ball- «qoniqarsiz».

III. O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN MATERIALLAR:

(3.1)

Nazorat savollari:

- Narkoz o'tkazish qanday amalgam oshiriladi?
- Narkozda yuz beradigan asoratlarni turlarini tushuntirib bering.
- Narkoz o'tkazish vaqtida yuz beradigan asoratlarning mexanik sabablarni qanday izohlab berasiz.?
- Narkoz o'tkazish vaqtida yuz beradigan asoratlarning toksinli sabablarni tushuntirib bering.
- Yurakni tashqi massaj qilish qanday ijobiy belgilari bilan aniqlanadi?
- Yuz terisi, tirnoqlar va lablarning qizarishi qachon sodir bo'ladi?

MAVZUGA QISQACHA TA'RIF.

Yurakni sun'iy massaj qilish

Yurak to'xtaganda o'tkaziladigan reanimatsion tadbirlar yurakni tashqi massaj qilish va sun'iy nafas oldirish bo'lib, bular bir vaqtda bajariladi. Yurakni tashqi uqalash tush suyagining pastki 1/3 qismi kaft bilan faol bosiladi. Bunda yurak tush suyagi va umurtqa pog'onasi oralig'ida qisiladi va ma'lum miqdordagi yurakdagi qon tomirga haydaladi. Bunday harakat minutiga 50-70 marta takrorlanadi va muolaja tekis qattiq joyda bemorni chalqancha yotqizilgan holatda o'tkaziladi. Yurakni tashqi massaj qilish qo'yidagicha ijobiy belgilari bilan aniqlanadi:

- f) uyqu arteriyasida tomir urushining paydo bo'lishi.
- g) Ko'z qorachiqclarining torayishi.
- h) yuz terisi, tirnoqlar va lablarning qizarishi
- i) mustaqil nafas xarakatlarining paydo bo'lishi
- j) mushaklar tonusining paudo bo'lishi.

Yurakni bilvosita massaj (yopiq) qilish.

Bu usulning ahamiyyati shundaki, yurakning tush suyagi bilan umurtqa pog'onasi o'rtasida qisilish natijasida katta va kichik qon aylanish doirasining yirik tomirlariga qon haydaladi va shu tariqa qon aylanish va hayotiy muhim a'zolar funksiyasi sun'iy ravishda quvvatlanib turiladi. Bemor qattiq o'ringa chalqancha yotqiziladi, bir qo'l kafti tush suyagining pastki 1/3 qismiga, ikkinchi kaft birinchisining ustiga qo'yiladi, qo'llar tirsak bo'g'imlarida yozilgan bo'lishi kerak, sungra yordam kursatayotgan odam tushni turtkisimon bosib uni umurtqa pog'onasi yo'nalishi bo'yicha 3-5 sm.ga siljitishga, shu vaziyatda taxminan 1,2sekund.kutib turishga sungra qo'llarni tushdan olmasdan turib, ularni tez bushatishga harakat qiladi.

SUN'IY NAFAS BERISH USULLARI

nafas yo'llari o'tkazuvchanligini tiklash, nafas - tovush boylamlarininig spazmi, nafas yo'llariga qusuq massasininig tiqilishi, intubatsion naychaninig buralib ketishi, tilning halqumga ketib qolishi va shu kabilar oqibatida nafas faoliyati to'xtashi mumkin.

Nafas yo'llari to'liq yoki qisman bekilishi mumkin. Behush holatda yotgan odamda nafas yo'llari erkin o'tkazuvchanligini tiklash uchun tez va izchillik bilan qo'yidagi tadbirlarin o'tkaaizsh zarur:

- 1) Bemorni qattiq yuzaga chalqancha yotqizish.
- 2) boshini orqaga engashtirish.
- 3) Pastki jag'ini oldinga va yuqori surish va og'zini ochish.
- 4) Og'iz va tomoqni shilimshiq va boshqalardan tozalash.
- 5) bemorni og'ziga havo yuborib, kukrak qafasi ekskursiyasi va nafas chiqarishni kuzatib turish mumkin.

Og'izdan- og'izga yoki og'izdan-burunga nafas berish usuli nafas oldirishninig eng ta'sirchan va oddiy usulidir. Bemor boshini orqaga ko'proq engashtirib, chalqancha yotqiziladi. Buning uchun bemorning kuraklari ostiga bolishga o'xshatib yumoloqlangan adyol qo'yiladi. Bemorninig burni barmoqlar bilan qisiladi, Og'ziga doka yoki ro'molcha yopiladi va chuqur nafas olib havo bemorninig og'ziga puflanadi. Nafas chiqarish susut bo'ladi, bir minutda taxminan 12-16 marta puflanadi. Bemorning jag'lari mahkam qisilgan hollarda og'izdan burunga sun'iy nafas oldirish ususli foydali hisoblanadi. Bu maqsadda bir qo'l bilan bemorninig boshi manglayidan orqaga engashtiriladi. 2-qo'l bilan iyagidan ushlanadi va pastki jag'i yuqoriga ko'tarilib, og'zi berkitiladi. So'ngra chuqur nafas olib lablar bilan burnini qamrab olib jadallik bilan nafas puflanadi.

NARKOZDA YUZ BERADIGAN ASORATLAR:


- I) Narkoz o'tkazish vaqtida II) Narkozdan keyingi asoratlarga bo'linadi.


Narkoz vaqtidagi asoratlar texnikasini noto'g'ri o'tkazish, apparatlarning nosozligi, bemor ahvolining og'irligi natijasida sodir bo'lishi mumkin. Bunday hollarda asfiksiya ro'y

berishi va yurak to'xtab qolishi mumkin: 1. Mexanik sabablar (tilning orqaga ketib qolishi, qusuq massalarining tiqilishi). 2. Toksinli sabablar (narkotiklarning dozasini oshirish) 3. Reflektor sabablar (narkotik ta'sirida yurak va nafasning to'xtab qolishi)


Mustaqilish uchun topshiriq.


Uyda yurakni massaj qilish, so'niy nafas berish bo'yicha rasmlar kolleksiyasi to'plab albom tayyorlash.













Mavzu 2 Og'riqsizlantirish va jonlantirish usullari

Mashg'ulotning maqsadi:

Talabalarga og'riqsizlantirish turlari, usullari, narkozning bosqichlari, narkozdan so'ng bo'ladigan asoratlar va bu asoratlarni oldini olish choralari haqida tushuncha berish

Usul:	amaliy mashg'ulot
Vaqt:	2 soat (80 minut)
O'tkazish joyi:	o'quv xonasi

Mashg'ulot anjomlari: tarqatma materiallar plakat, doka, paxta, qaychi bint, spirt, furatsilen,

Ishni bajarish tartibi:

1. og'riqsizlantirish usullari
2. narkozning bosqichlari haqida tushuncha
3. narkozdan so'ng bo'ladigan asoratlarni oldini olish

Narkotik moddalar yordamida og'riq sezuvchanlikni yo'qotish *og'riqsizlantirish* deyiladi. Og'riqsizlantirish to'g'risidagi fan anesteziologiya deyiladi. Barcha xirurgik operatsiyalar va yaralarni xirurgik tozalash og'riqsizlantirish yo'li bilan bajariladi. Og'riqsizlantirishning ikki xil: umumiy og'riqsizlantirish va mahalliy yoki joyli og'riqsizlantirish usuli bor.

INGALYATSION NARKOZ

Ingalyatsion narkoz umumiy og'riqsizlantirishda eng ko'p qo'llaniladigan va oddiy usul hisoblanadi. Bu usulda bemorga biror narkotik moddaning bug'i bilan nafas oldiriladi. Narkotik moddalarni o'pka orqali yuborish katta qulayliklar tug'diradi. Bunda ular juda tez shimiladi va qonga o'tadi. Ingalyatsion narkoz uchun efir, xloroform, xloretil, azot (II)-oksid va keyingi vaqtlarda nartsilen ishlatiladi. Narkoz berish vaqtida dorilarni hidlatish uchun maxsus niqoblardan foydalaniladi. Ilgarilari Esmarx niqobidan foydalanilgan, bu niqob bemorning og'zi va burnini berkitib turadi. Esmarx niqobi metall simdan yasalgan bo'lib, ustiga 3-4 qavat doka qoplanadi, efir yoki xloroform alohida shisha idishlar orqali tomchilab tushiriladi. Bundan tashqari Shimmel-Bush, Sadovenko-Ombredan niqoblaridan ham foydalaniladi. Bu niqoblar yordamida narkoz berish quyidagicha bajariladi: bemor stolga chalqancha yotqiziladi, ustiga choyshab yopiladi. Shilliq pardalar efirdan kuymasligi uchun bemorning yuzi, burni, og'zi atrofiga vazelin surtiladi, ko'zini esa sochiq bilan yopib qo'yiladi. Bemorning qo'l va oyoqlari mahkam bog'lanadi, protez tishlar bo'lsa olib qo'yiladi. Narkotizator yordamchisi bemorning boshini va pastki jag'ini ushlaydi, tili orqaga ketib

qolmasligi uchun pastki jag'i bir oz oldinga chiqariladi. Bemor yuziga niqob qo'yib sochiq bilan mahkam o'rab, niqobga tomchilab efir qo'yib turiladi. Bemorga 100 gacha sanash buyuriladi. Uning yoshi, jinsi va umumiy ahvoriga qarab, minutiga 20-60 tomchi efir tomiziladi. O'rta hisobda bitta operatsiya uchun 2-3 flakon, ya'ni 200-250 g efir sarflanadi. Niqob yordamida narkoz berilganda bemor hidlayotgan efir miqdorini aniqlab bo'lmaydi, chunki efirning anchagina qismi havoga uchib ketadi.

Maxsus narkoz apparatlari yordamida ingalyatsion narkoz berish xavfsiz va qulay. Bunda efir kislorod bilan aralashtirib beriladi. Keyingi yillarda operatsiyalar intubatsion narkoz bilan bajarilmoqda. Bunda gaz va bug'simon narkotiklar maxsus naychalar orqali traxeya va bronxlarga yuboriladi. Bemorlarga ingalyatsion narkoz berilganda quyidagi bosqichlar o'tiladi.

Birinchi bosqich — mast bo'lish davri. Bu davrda bemorning ko'z oldi qorong'ilashadi, og'riq sezuvchanligi kamayib, keyin yo'qoladi. Savol-javobga yanglishadi. Tuyg'u va mushaklar tarangligi saqlanadi. Puls va nafas olish tezlashadi, ko'z qorachig'i bir oz torayadi. Bu davrda kichik operatsiyalar qilish mumkin.

Ikkinchi bosqich — qo'zg'alish davri. Bu davrda bemor ko'pincha baqiradi, so'kinadi va ashula aytadi. Qo'zg'alish davri ayollarda, bolalarda yengil o'tadi, baquvvat erkaklarda esa uzoq vaqt (15-20 minut) davom etadi va og'ir o'tadi.

Uchinchi bosqich — chuqur uyqu davri. Bunda sezuvchanlik butunlay yo'qoladi. Ana shu davrda operatsiya qilinadi. Agar operatsiya cho'zilib ketsa, bu davrni 2-3 soatgacha cho'zib turish lozim bo'ladi.

I f a z a d a bemor butunlay hushidan ketadi. Og'riq sezuvchanligi, taktil-sezuvchanligi yo'qoladi. Mushaklar tonusi bo'shashadi. Bemor bir tekis va chuqur nafas oladi, bu uchinchi bosqichning birinchi fazasi deyiladi.

II f a z a d a mushaklar tonusi butunlay bo'shashadi, ko'z qorachig'i torayadi, reflekslar yo'qoladi. Bu fazada til orqaga — halqumga ketib qolish xavfi tug'iladi. Nafas olish, puls oldingi darajada turadi. Narkozni davom ettirish uchun ozgina miqdordagi efir bir tekis beriladi.

III f a z a chuqur narkoz bilan xarakterlanib, qisqa vaqtga ruxsat etiladi. Puls tezlashadi, arterial bosim pasaya boshlaydi, ko'z qorachig'i torayganicha qoladi.

IV f a z a bemor uchun xavfli bo'lib, ko'pincha asfiksiya bilan tugaydi. Nafas olish tezlashadi, lekin yuza bo'ladi. Puls tezlashadi, arterial bosim pasayib boradi. Bu faza yo'l qo'yib bo'lmaydigan faza deyiladi.

To'rtinchi bosqich — uyg'onish davri. Bu davrning uzoqligi har xil bo'ladi. Bu davr 1 soatdan 3-4 soatgacha cho'zilishi mumkin va u operatsiyaning xarakteriga bog'liq bo'ladi.

Uyg'onish davrida bemorni diqqat bilan kuzatib turish kerak, chunki bu davr qo'zg'alish davri kabi kutilmagan hodisalar ro'y berishi mumkin.

Xirurgiyada bundan tashqari, vena orqali va to'g'ri ichak orqali narkoz beriladi. Venaga geksenalning distillangan suvdagi 10% li eritmasi va tiopental natriyning 2-5% li eritmasi juda sekinlik bilan yuboriladi. To'g'ri ichak orqali esa efir, narkolan yoki overtin-dan narkoz beriladi.

NARKOZ VAQTIDA RO'Y BERADIGAN ASORATLAR

Narkoz berishning buzilishi, narkotiklar dozasi oshirilishi va boshqa sabablarga ko'ra, narkoz berish vaqtida har xil asoratlar yuzaga keladi. Narkozning birinchi bosqichida qo'rqish natijasida psixik shok paydo bo'ladi, bu holat ba'zan bemorni hatto o'limga olib keladi. Bu og'ir asoratning oldini olish uchun bemorni operatsiyaga ruhan tayyorlash lozim, uni tinchlantirish uchun 1 ml morfin ukol qilish yoki lyuminal ichirish kerak.

Qo'zg'alish davrida aksari bemor qusadi. Qusish ancha xavfli hisoblanadi, chunki qusuq massalari nafas olish yo'liga ketib qolib, odam bo'g'ilishi mumkin. Qusish ro'y berganda darhol niqobni olish va bemorning boshini yon tomonga burish kerak. Bemorni og'zini ochib, sochiq yoki doka bilan og'iz bo'shlig'ini artib tozalash lozim. Bemor qusib bo'lgandan keyin narkoz berish davom ettiriladi.




Ko'pincha pastki jag'ni noto'g'ri ushlash natijasida chuqur uyqu davrida til orqaga ketib qoladi. Mushaklarning bo'shashishi natijasida til halqumning orqa devoriga tomon harakat qiladi va hiqildoqqa kiradigan yo'lni to'sib qo'yadi. Bu nafas olishni qiyinlashtiradi, natijada bo'yindagi vena qon tomirlari bo'rtib, bemor ko'karib ketadi, qonning rangi o'zgaradi, puls tezlashib ketadi. Bu asoratning oldini olish uchun bemorning pastki jag'i oldinga tomon chiqariladi. Og'zi og'iz kengaytirgich (rotorasshiritel) bilan ochib qo'yiladi va tili tiltutqich (yazikoderjatel) bilan tortib turiladi, shunda nafas olish yo'li ochilib, bemor bemalol nafas ola boshlaydi.

Narkoz berish vaqtida nafas olishning to'xtab qolishi (asfiksiya) kabi hodisalar juda og'ir asoratlarga kiradi. Bunday hodisa ro'y berganda darhol niqobni olib, bemorga kislorod bera boshlash kerak. Teri ostiga 1% li lobelin eritmasi 1 ml miqdorda yuboriladi va tezlik bilan sun'iy nafas oldirishga kirishiladi.

Sun'iy nafas oldirish maqsadida hozir Silvestr, Shefer, Lobardo, Ruben uslublaridan keng foydalaniladi. Sun'iy nafas oldirishning eng ko'p tarqalgan usullaridan biri Silvestr usulidir. Bu quyidagicha bajariladi, bemor chalqancha yotqizib qo'yiladi, sun'iy nafas oldiradigan odam bemorning bosh tomoniga o'tib, uning ikki bilagidan tutadi, qo'llarini yuqoriga ko'tarib, bosh tomoniga keltiradi, bunda ko'krak qafasi kengayadi va bemor nafas oladi. Bemorning qo'llarini tezlik bilan pastga tushirib, ko'krak qafasining pastki qismiga bosiladi va nafas chiqariladi. Bunday harakat ritmik ravishda har daqiqada 16-18 marta takrorlanadi va nafas olish yaxshilanguncha davom ettiriladi.

Asfiksiya vaqtida Shefer usulidan ham foydalanish mumkin. Bunda bemor qorni bilan yotqiziladi. Yordam beruvchi bemor dumbasiga o'tirib oladi va qo'llari bilan bemor ko'krak qafasining pastki qismini

bosadi, natijada bemor nafas chiqaradi (32-rasm).



32-rasm. Sun'iy nafas oldirish usullari:

chapda – Silvestr usuli; o'ngda Shefer usuli:

Ko'krak qafasini bosish to'xtatilgach, u asli holatiga qaytadi, nafas olinadi. Qovurg'alar chetini qo'l bilan yuqoriga ko'tarish va uni kengaytirish nafas olish jarayonini yaxshilashga yordam beradi. Bunday harakat har daqiqada 16-18 marta takrorlanadi.

Bemorning qovurg'a, bilak va yelka suyaklari, umurtqalari singanda Silvestr, Shefer usullaridan foydalanib bo'lmaydi, chunki bunda singan sohada og'riq kuchayadi va bemorning ahvoli yana ham og'irlashib qolishi mumkin.


Nafas olishning to'xtashi ko'pincha tilning orqaga ketib qolishi natijasida kelib chiqadi. Bunday hollarda Lobardo usulidan foydalanish yaxshi natija beradi. Bemorning og'zi og'iz kengaytirgich bilan kengaytiriladi, tili tiltutqich, salfetka yoki ligatura yordamida ushlab, ritmik ravishda tortib-tortib turiladi va bu o'z navbatida nafas olishga yordam beradi.

Sun'iy nafas oldirishning hozir qo'llanlayotgan quyidagi uslublari ko'proq samara beradi.

Ruben (faol) uslubi sun'iy nafas oldirishning eng qulay usuli bo'lib, u «og'izdan-og'izga» qoidasi asosida olib boriladi. Buning uchun bemor chalgancha yotqiziladi, boshi bir oz orqaga egiladi. Yordam beruvchi uning yon tomonida o'tirgan holda bemorning burnini qisib berkitib turib, uning og'ziga bint yoki doka yopadi, keyin og'zi bilan bemorning og'ziga qattiq puflaydi. Bu usul sun'iy nafas oldiradigan maxsus naycha yordamida bajarilsa yana ham yaxshi bo'ladi (33-rasm).



33-rasm «Og'izdan-og'izga» sun'iy nafas oldirish: yuqorida sun'iy nafas oldiriladigan maxsus naycha



34-rasm. Yurakni tashqi tomondan massaj qilish

Nafas olinadigan havoni «ogʻiz-burunga» puflash. Bemorning boshi orqasiga engashtiriladi, pastki jagʻini qoʻl bilan koʻtarib, ogʻzi yopiladi. Yordam beruvchi odam chuqur nafas oladi, bemorning burnini roʻmolcha (doka) orqali lablari bilan zich qamraydi va oʻpkasidan havo chiqaradi. Bu usulda sunʻiy nafas oldirilganda zich rezinkadan tayyorlangan oddiy naychadan foydalanish mumkin, bu naychaning bir uchi burunning bir katagiga kiritiladi, ikkinchi katagi esa barmoq bilan berkitiladi. Naychaning erkin uchi ogʻizga olinib, vaqti-vaqti bilan puflanadi.

Sunʻiy nafas oldirishni yurak vositalari (2 ml 25% li kordiamin eritmasi, 1 ml 10% li kofein eritmasi, 1 ml 5% li efedrin eritmasi mushak ichiga yoki venaga yuboriladi, nafasni tiklaydigan dorilar: 1 ml sititon, 1 ml 1% li lobelin) bilan qoʻshib olib borish kerak.

Narkotiklarni koʻp berib yuborish natijasida narkoz paytida yurak harakati toʻxtab qolishi mumkin. Baʼzi hollarda yurak ishi keskin buziladi, puls tez uradi, sust boʻladi, zoʻrgʻa bilinadi, keyin butunlay yoʻqoladi. Yurak toʻxtashi bilan nafas yuza, zoʻr-bazoʻr boʻlib, oxirida toʻxtaydi. Bemorning rangi oqarib ketadi, koʻz qorachigʻi kengayadi, yorugʻlikka reaksiya bermaydi. Ogʻzi ochilib, jagʻi pastga tushib ketadi. Yurak harakati sustlashganda, yaradan oqayotgan qon toʻxtaydi, yara quruq boʻlib qoladi. Yurak harakati sustlashishining birinchi belgilari yuz berishi bilanoq narkoz berishni toʻxtatish, vena qon tomiriga yurak ishini yaxshilaydigan dorilar (strofantin va boshqalar), teri ostiga kofein va kamfora eritmalari yuborish zarur.

Tezlik bilan sunʻiy nafas oldirish va yurakni massaj qilish kerak (34-rasm). Yurakka adrenalin eritmasini yuborish tavsiya etiladi.

Yurak 2 xil usulda massaj qilinadi. *Yopiq massaj* usuli quyidagidan iborat: yurak sohasiga kaftni yoki qoʻl ustiga qoʻlni qoʻyib ritmik ravishda minutiga 70 martagacha bosiladi. Bu harakat yurak sohasini ritmik ravishda bosib-qoʻyib turishdan iborat boʻladi. Yurakni yopiq massaj qilish natija bermasa, u holda *ochiq massaj* qilish kerak. Bu usulni xirurg bajaradi. Bemorning qorin devori ochiq boʻlsa, yurakni massaj qilishda xirurg qoʻlini qorin boʻshligʻiga tiqib, yurakni diafragma va koʻkrak devori orasida siqish yoʻli bilan massaj qiladi yoki boʻlmasa koʻkrak qafasini tezlik bilan ochib, yurakni barmoqlar orasiga olib, minutiga 70 marta massaj qiladi. Yurak urishi yaxshilanib, bir meʼyorda ura boshlagach, massaj qilish toʻxtatiladi (35-rasm).


Kallistov usulida kimyoviy zaharlanish oʻchogʻida zaharlangan odamning protivogazni yechmasdan turib, sanitariya zambilining tasmasi uzun sochiq yoki uzun tasmadan foydalanib, sunʻiy nafas oldiriladi (35-rasm).

Buning uchun zaharlangan odamning boshini bir tomonga qiyshaytirib, qorni bilan yotqiziladi, boshi tagiga biron yumshoq narsa (kiyimi) qo'yiladi. Sanitar ko'ngillisi uning bosh tomonida turib, tasmani kuraklar ustiga qo'yib, qo'litiq ostidan yuqoriga o'tqazadi. Oldinga egilib, tasmaning uchlarini qo'lga olib, qo'lni egmasdan zaharlangan odamni ko'targanda u nafas oladi, oldinga egilib, oldingi holatiga keltirilganda nafas chiqaradi.

Yosh bolalarda yurak tashqi tomondan ikkita barmoqning uchi bilan massaj qilinadi (turtki soni 100-120 bo'lishi kerak), 10-12 yoshdagi bolalarda esa bunday massaj faqat bir qo'l bilan bajariladi (turtki soni 70-80).

Narkoz qaysi usulda berilishidan kat'i nazar, narkotizator stolchasini tayyorlab, bemor yotgan operatsiya stolining bosh tomoniga qo'yadi.

Stolchada quyidagilar: 2-3 flakon efir, 35-rasm. Kalistov usulida sun'iy nafas berish efirni tomchilab quyish uchun maxsus shisha idish kapelnitsa, tiltutqich, og'iz kengaytirgich, sterillangan shprints va ninalar, korntsang, efir flakonini ochish uchun shtopor yoki pichoqcha, fonendoskop yoki stetoskop, sterillangan sharik va salfetkalar, qusishda ishlatiladigan idish, har xil qisqichlar, traxeotomik naychalar bo'ladi. Bulardan tashqari, kamfora, kofein, lobelin, adrenalin, efedrin, strixnin, digalen eritmalari, vazelin hamda yostiqchalarda kislorod taxt turishi shart.



ORQA MIYA ORQALI OG'RIQSIZLANTIRISH

Oyoq suyaklari singanda, tos suyaklari sinib, ichki organlar shikastlanganda va boshqa hollarda operatsiya qilinganda bemor orqa miya orqali og'riqsizlantiriladi. Bunday og'riqsizlantirishni faqat narkotizator bajaradi. Buning uchun, odatda, uzunligi 10-12 sm bo'lgan uchi o'tkir charxlangan nina ishlatiladi. Og'riqsizlantirish uchun 5% li novokain eritmasi ishlatiladi.

MAHALLIY OG'RIQSIZLANTIRISH

Xirurgiyada juda ko'p operatsiyalar mahalliy og'riqsizlantirish (anesteziya) yo'li bilan bajariladi. Umumiy anesteziyaning qo'llanishi bemor ahvolining og'irlashishiga olib borishi mumkin bo'lgan hollarda mahalliy anesteziyaning ishlatilishi maqsadga muvofiq. Og'riqsizlantirish uchun ishlatiladigan maxsus eritmalar nerv tolalariga va uchlariga ta'sir ko'rsatib, ma'lum sohada

sezuvchanlikni yo'qotadi. Mahalliy og'riqsizlantirish uchun novokainning 0,25, 0,5 va 1% li eritmalaridan foydalaniladi. Novokainning og'riqsizlantirish ta'siri 1-1,5 soat davom etadi, bunga adrenalinning 1:1000 eritmasidan 0,5 ml qo'shilsa, uning kuchi ancha ortadi. Bundan tashqari, mahalliy og'riqsizlantirish uchun dikain eritmasi (1:1000-1:2000), sovkain (1:2000-1:5000), kokain va boshqa analgetiklar ishlatiladi. Mahalliy anesteziya uch guruhga ajratiladi:

1. Terminal yoki yuzaki anesteziya.
2. Infiltratsion anesteziya.
3. Regionar anesteziya.



Mavzu №3. Qon ketiganda I yordam ko'rsatish, qonni vaqtinchalik to'xtatish usullari

Mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi.

I. Tayyorgarlik bosqichi.

Faoliyat mazmuni.	
Trener	Talaba
Mavzuni aniqlaydi va rejalashtiradi: 1 Qon ketish haqida ma'lumot. 2. O'tkir qon ketganda shoshilinch yordam. 3. Qon guruhlarini aniqlash. 4. Bemorlarni qon quyishga tayyorlash va uni asoratlari.	Mashg'ulotga tayyorlanadilar. Yozib oladilar.

II. Amalga oshiruvchi bosqich: amaliy ish.

Faoliyat mazmuni	
O'qituvchi	Talabalar.
1. Amaliy ishga kirish. 1.1. Mavzuning nomi, maqsadi va kutilajak natijalarni e'lon qiladi. 1.2. O'quv mashg'ulotning tuzilishi va o'tkazilishi tartibini tushuntirib beradi. 1.3. Tinglovchilarni kichik guruhlardagi faoliyatini baholash mezonlarini e'lon qiladi. (1-ilova). 1.4. Tezkor so'rov texnikasini qo'llab, talabalar bilimlarini faollashtiradi: Qon ketish deganda nimani tushunasiz va qanday qon ketish turlarini bilasiz? 1.5. Javoblarni umumlashtiradi va asosiy mashg'ulot bosqichiga o'tilishini ma'lum qiladi.	Tinglaydilar. Savollarga javob beradilar.
2. Asosiy qism. 2.1. Talabalarni 3 ta kichik guruhga ajratadi va har bir guruhga topshiriqlarni (ekspert varaqlarini) tarqatadi (2-ilova). 2.2. Guruhlarda ishlash qoidasini yana bir bor eslatadi. 2.3. Guruhlar faoliyatini tashkil qiladi, kuzatadi, maslahatlar beradi, yunaltiradi. 2.4. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Har bir guruhdan bittadan a'zo chiqib o'z ishlarini taqdim qilishlarini aytadi. Guruh a'zolariga diqqat bilan eshitishtirishini va nazorat savollarini berishlarini aytadi. 2.5. Javoblarni to'ldiradi va qisqacha xulosalar qiladi. 2.6. Guruhlar bajargan ishlarini baholaydi.	Har bir guruh o'z ekspert varaqlari bo'yicha faoliyatni boshlaydi. Har bir guruhdan bittadan a'zo chiqib o'z ishlarini taqdim etadilar.

III. Yakuniy bosqich.

Faoliyat mazmuni	
<i>O'qituvchi</i>	<i>Talabalar.</i>
3. Amaliy ishni yakunlash. Amaliy mashg'ulot mavzusi bo'yicha yakun yasaydi: • Amaliy ish yuzasidan savollarga javob beradi; • Guruhlar ish natijasini tahlil qiladi; • Guruhlarning faolligini baholaydi; • Mustaqil ishlash uchun uyga vazifa beradi. • Mustaqil ish yuzasidan maslahatlar beradi.	Savollar beradilar. Tinglaydilar. Yozib oladilar.


1-ilova

<i>Guruhlar</i>	<i>Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari</i>			
	<i>Ma'lumotni aniq va to'liq yetkazilishi.</i>	<i>Taqdimotni rasmiylashtirilishi</i>	<i>Misollar bilan tushuntirilishi.</i>	<i>Jami</i>
	<i>1,0</i>	<i>0,5</i>	<i>0,5</i>	<i>2</i>
1				
2				
3				


Birinchi guruh uchun savollar.

Odam organizmida qonning kamayishi natijasida organizmda sodir bo'ladigan patologik jarayonlar ketma-ketligini quyida ko'rsatilgan sxemalar asosida yozib chiqing va izohlab bering.


2-ilova




3-ilova



4-ilova




5-ilova




Ikkinchi guruh uchun savollar.

Qon ketganda birinchi yordam ko'rsatish va parvarish qilish choralari quyida ko'rsatilgan jadvallar asosida joylashtiring.




6-ilova


7-ilova



8-ilova




9-ilova




Uchunchi guruh uchun savollar.


Qon quyishda sodir bo'ladigan asoratlarni quyida kursatilgan sxemaga ketma-ket joylashtiring hamda ularga ko'rsatiladigan shoshilinch yordamni yozing va javobingizni izohlab bering.

10-ilova



11-ilova





Mustaqil ish uchun topshiriq.

Qon ketganda I-yordam ko'rsatish bo'yicha rasmlar kolleksiyasini to'plang va albom tayyorlang.

Qisqa nazariy ma'lumotlar.

Qon ketish qon tomirlari devortininig shikastlanishi, biror kasallik natijasida emirilishi yoki uning o'tkasuvchanligi oshib ketishi sababli kelib chiqadi.

Shikastlangan tomirning xususiyati va turiga qarab qon oqishininig qo'yidagi turlari farq qilinadi.

1. Arterial qon ketishi- qon ketishninig eng havfli turi bo'lib bu arterial qon tomirlari shikastlanganida yuqori bosim ostida pulssimon qizil alvon rangli qon otilib chiqishi bilan xarakterlanadi.. Bunda bemorda qisqa muddat ichida ko'p miqdorda yo'qotilganligi uchun kamqonlik kelib chiqadi.

2 Venoz qon ketishi- bu vena qon tomiri jarohatlanganda yuzaga chiqadi.Bunda qon bir tekisda, birmuncha sekin oqadi va uning rangi to'q qizil bo'ladi. Bunda markaziy qon tomitrinnig jarohatga yaqin joyini bosganda qon oqishi tuxtaydi.

3. Kappilyar qon ketishi - bu kappilyaralr jarohatlanishidan yuzaga kelib, jarohatning yuzaki qonashi bilan farqlanadi. Qon kurinishi jihatidan arterial va venoz qon orasidagi o'rtacha o'rinni egallaydi. Odatda kappolyardan qon ketishi uz-uzidan tuxtashga moyil buladi.

4. parenximatoz qon ketishi- bunday qon ketishi ichki a`zolar – jigar, taloq, upka, buyraklarning hamma tomirlari shikastlanganda kuzatiladi. Bunday qon ketishi g`oyat havfli hisoblanib, bunda qomn ketishi tomirlar devorining parenxiamtoz a`zo stromasi tomonidan tutib turilishi, a`zoda antikogulyant moddalar tufayli tromb hosil bo'lmasligidan uz- uzidan tuxtamaydi.

Qon ketishi birlamchi va ikkilamchi(operatsiyadan keyin) shuningdek tashqi, ichki (biror yopiq bo'shliqqa) bo'lishi mumkin. qon oqishining keyingi turi jigar, taloq, upka va buyrak kabi a`zolar shikastlanganda kupincha kuzatiladi.

O'tkir qon ketishi klinikasi.

Bunda teri va shilliq pardalarninigi birdaniga oqarib ketishi bilan xarakterlanadi. Bemorning yuzi sulib, kuzi kirtayadi, arterial va venoz qon bosimi pasayadi, puls tezlashib, tuliqligi sust va ipsimon bo'ladi, nafas tezlashadi, bosh aylanadi, a'zoyi badani bushashadi, tashnalik, kuz oldining qoromg'ilashuvi, kungil aynishi, ba'zan qusish kuzatiladi.

Qon yo'qotishda ulim og'ir kislorod etishmovchiligi natijasida nafas markazininigi falajlanishi va yurak faoliyatining tuxtashi natijasida ruy beradi. Chaqaloqlar va keksalarda oz miqdorda qon ketishi juda asoratlarga, xatto ulimda olib kelishi mumkin.

Qon ketishini tuxtatish turlari.

Yordam berish sharoitlari va tibbiyot xodimininig malakasiga kura qon oqishini tuxtatish vaqtinchalik yoki uzil-kesil bulishi mumkin.

Qon oqishini vaqtincha tuxtatish usullari.

- Bosib turuvchi bo'glam- qo'l oyoqni immobilizatsiya qilib bva balandga kutarib, bosib turuvchi bog'lab quyiladi. Bunda jaroxatga doza bir necha qavat steril quyiladi va uninig ustidan maxkam bintlanadi yoki jgut quyiladi.

- Qulni bug'imidan bukish - taqim, elka, son arteriyalari jarohatlanganida yuz beradigan qon oqishi ba'zan oyoq- qulni maksimal bukish yoki bo'glam tortib quyish yo'li bilan tuxtatiladi.

- Jarohatda tomirni bosib turish - qo'lga steril qo'lqop kiyiladi va jarohat spirt yoki yod bilan artiladi. Kursatkich barmoq jarohatga kiritiladi va sizib chiqayotgan qon tomirini bosib qon ketishi tuxtatiladi.

- Jarohatni tarang tamponlash- buininig uchun tampon olinib, uni kornsang bilan birin- ketin va tarang qilib tuldirish orqali qon tuxtatiladi. Odatda bu usul burun jarohatlarida kuzatiladi.

- Qonab turgan tomirga qisqich qo'yish - oyoq, qo'l, chanoq, qorin bo'shlig'ida chuqur joylashgan tomirlardan oqayotgan qonni tuxtatish uchun qo'llaniladi. Bunda jarohat orqali qisqich yoki kornsang kiritilib, qonayotgan qon tomirini qisib qon tuxtatiladi.

- Tomir bo'ylab bosib turish - bu usulda ayrim yirik arteriyalardan oqayotgan qonni tuxtatish tomirni usha yirik arteriyalardan oqayotgan qonni tuxtatish tomirni usha tomir yaqinida joylashgan suyakka bosish yo'li bilan amalga oshiriladi: umrov osti arteriyasini umrov suyagi ostida joylashgan nuqtadagi 1 qovurg'aga bosiladi. Uyqu arteriyasi barmoq bilan 6- buyin umurtqasininig kundalang usimtasiga, Son arteriyasi Pupart boylamidan pastroqqa kov suyagininig gorizonta1 suyagining tarmog'iga tarmog'iga bosiladi.

jgut bog'lash - bu arterial qon ketishi ni tuxtatishda asosiy usul xisoblanadi. Arterial qon ketishida jgut jarohatga nisbatan markaziy tomonga qo'yiladi. Jgut solishdan oldin jgut solinadigan terini qisib qo'ymaslik uchun oyoq yoki qo'lga sochiq yoki bint uraladi. Jgutni cho'zib oyoq atrofidan aylantiriladi, jgut uchlari maxkamlanadi va jgut solingan vaqt yozilgan qog'oz qistiriladi.

Jgut tug'ri solinganida oyoqninig jgutdan chetrog'idagi qismi oqaradi, jgutdan pastda puls yuqoladi qon oqishi tuxtaydi. Arteriyaga quyilgan jgut ko'pi bilan 1.5-2 soat qoldirilishi mumkin.

Maxsus jgut bo'lmaganda tasma, ro'molcha, tizimcha kabilar ishlatiladi. Yasama jgutninig bosish kuchuini oshirish uchun unga ytayoqcha suqiladi va burash yo'li bilan qon oqishi uzil-kesil tuxtatiladi..

Venoz qon oqishida venoz jgut deb ataladigan jgut ishlatiladi.

Uni shikastlangan joydan pastroqqa chamasi 6 soat muddatga solinadi va u qattiq tortilmaydi.

Bunda oyoq yoki qo'l ko'karadi, arteriyada puls saqlanib qoladi, qon oqishi tuxtaydi.

Qon oqishini uzil-kesil tuxtatish.

Mexanik usullar: Jarohatdagi tomirni bo'g'lash bunda qonagan tomir istalgan chok materiali (ipak, lavsan, ketgut)\bilan bog'-di.

- Tomir bo'ylab bo'g'lash jarohat qattiq infeksiyada, jarohatdagi tomirni topish qiyin bulganda qullaniladi.

-Otomirlarga chok solish - maxsus chok materiali bilan travmatik ignalar yordamida tomirlarga mexanik chok solinadi.

Fizikaviy usullar: - Sovuqni maxalliy quyish- bunda muz solingan rezina yoki polietilen xaltachalar ishlatiladi.

- Elektr koagulyatsiya- maxsus koagulyator yordamida operatsiya vaqtida mayda tomirlardan qon ketishida qullaniladi.

-Issiq fizilogik eritmani qullash- 60-80 %gacha qizdirilgan eritmaga xullangan salfetka qonayotgan soxaga bir necha minutga quyiladi.

Kimyoviy usullar :- Tomirlarni toraytiradigan preparatlar 0.1 % li adrenalin preparati maxalliy yoki parenteral ish-di.

-Qonning ivish xususiyatini oshiradigan preparatlar- vodorod peroksid, kalsiy xlorid, aminokapron kislotasi va vikasol ish-di.

Biologik usullar: - Gemostatik vositalarni ot zardobi, gemostatik bulut, fabrin pardasi kabilardan foydalaniladi.

-Gemostatik vositalarni venaga qo'llash – qon, plazma, gemofobin, antigemofil globulin va antimofil plazma, fibrinogen va boshqalardan kichik dozalarda bo'lib-bo'lib quyiladi.

O'PKADAN QON KETISHI

O'pka bronxlarning turli kasalliklarida (masalan, o'pka gangrenasi, saramas, bronxektaziya, o'pkaning jarohatlanishi va hokazolarda) o'pkadan qon ketadi. Buning sabablarini aniqlash terapiya choralarini ko'rish muhim ahamiyatga ega. O'pkadan ajralgan qon miqdoriga qarab, shartli ravishda qon tupurish va o'pkadan qon ketishi farq qiladi. Qon tupurishda balg'amga qon aralashgan bo'lib, bunda deyarli ko'p qon yo'qotmaslik mumkin. Qon ketishida esa bemor ko'p qon yo'qotadi, hatto og'zi qonga to'lib ketadi.

O'pkadan qon ketishi va qon tupurishda bemorga tamomila tinch sharoit yaratish, boshini bir oz balandroq qilib yotqizish, hamshira esa uning ahvolidan xabardor bo'lib turishi lozim. Bemor ortiqcha harakatlar qilmasligi, ko'p gapirmasligi kerak. Aks holda qon tupurish va qon ketishi yana takrorlanishi mumkin. Bunday hollarda bemorga beriladigan suyuqlik va ovqat miqdori cheklangan bo'lishi kerak. Unga yengil singadigan bo'tqalar, jele (jelatin, qon to'xtatishga yordam beradi), ilitilgan tuxum beriladi. Klizma qilib, ichagi tozalab turiladi. Birinchi yordam tariqasida bemorga choy qoshiqda osh tuzi eritmasi ichiriladi. Narkotik moddalar berish man etiladi. Aks holda nafas olish faoliyati buziladi. Qattiq yo'tal tutsa, bemorga kichik miqdorda kodein yoki dionin beriladi. Qonni to'xtatish uchun kalsiy xlorid va gipertonik eritmalar ichiriladi. Qonning ivishini tezlashtirish maqsadida vikosol beriladi. Basharti, qon ketishi to'xtatmasa, o'pkaning zararlangan qismiga sun'iy pnevmotoraks qilinib, bemorga qon quyiladi. Ayrim hollarda jarrohlik usuli bilan davolanadi, ya'ni o'pkaning zararlangan qismi olib tashlanadi.

QON GRUPPASINI ANIQLASH

Odamda qonning 4 guruhi uchraydi:

- Birinchi guruh-0(1)
eretrotsitlarda aglyutinogenlar yo`q (0 zardobda esa 2 ta aglyutenin alfa va betta bor.
- Ikkinchi guruh - A (II) eretrotsitlarda agglyutinogen (A) zardobda esa agglyutin beta bor.
- Uchinchi guruh – B (III) eretrotsitlarda agglyutinogen B, zardobda esa agglyutinin alfa bor.
- To`rtinchi guruh – AB (IV) eretrotsitlarda ikkala aglyutinogen A va B bor bioq zardobda agglyutininlar bo`lmaydi.

Qon guruhini standart zardoblar bilan aniqlash.

Bu usul bo`yicha qon guruhini aniqlash uchun aniqlanadigan qon guruhlari avvaldan ma`lum zardob bilan aralashtiriladi va aglyutinatsiya bor -yuqligiga qarab qon guruhi to`g`risida xulosa chiqariladi. Aniqlash uchun 3 guruh oldindan tayorlangan qon o (I),A(II),B(III) standart zardobininig xar bir guruh uchun 2 ta xar xil guruh seriyalari qullaniladi. Buyum oynasi yoki chinni tarelkaga xar bir seriyadan bir juftdan ikki (seriyadan) tomchidan standart zardob tomiziladi. Zardoblar alohida pipetkalar orqali olinadi.

tekshiriladigan bemorninig barmog`i spirt bialn artilib, unga maxsus skarifator bilan igna sanchiladi va 6 tomchidan qon olinib, standart zardoblar bilan alohida shisha tayoqchalar yordamida aralashtiriladi.5 minutdan so`ng soxta aglyutinatsiya reaksiyasini aniqlash uchun zardobga bir tomchdan fiz. eritma qo`shialdi.

Agar natijada:

a) uchala aralashtirlgan tomchilarda aglyutinatsiya ro`y bermasa, bu tekshirilayotgan qon O(I), b) O(I) va B(III) zardoblar bilan aglyutinatsiya ro`y bersa qon guruhi A(II) bo`ladi.

b) I) hamda A (II) zardobi bilan aglyutinatsiya ro`y bersa, B (III) qon guruhi bo`ladi. G) Uchala aralashtirilgan zardobgda aglyutinatsiya reaksiyasi bo`lsa, AB(IV) guruhi bo`ladi.

Xato qilmaslik uchun guruhi 2 seriyadagi standart zardob bilan aniqlanadi.

Agar uchala zardob bilan aglyutinatsiya ro`y bersa AB (IV) qon guruhini AB (IV) qon guruhi zardobi bilan qo`shimcha aniqlash o`tkazish zarur bo`ladi

QON QO`YISH

Qon quyiosh tirik to`qimani ko`chirib o`tkazish bo`lib, bemor organizmiga xar tomonlama ta`sir qiladi. Shuninig uchun xam bu mutloq ko`rsatmalar bo`lgandagina bajarilishi shart.

Qon qo`yish qat`iy tartib bilan amalga oshiriladi. Retsipientnin qon guruhi va rezus mosligi aniqlanadi. Donor qoni to`g`risida ham ana shunday ma`lumotlar bo`lishi kerak. Qon qo`yishdan oldin bu ko`rsatkichlar yana bir bor aniqlanadi. mOs kelish kelmaslikka va rezus mos kelish0 kelmaslikka va biologik sinamaga bevosita reaksiya o`tkaziladi. Qo`yishdan oldin qon uy xaroratigacha isitiladi.

QON QUYISH USULLARI

- To`g`ridan to`g`ri qon quyish qon donor venasidan retsiient venasiga bevosita quyiladi.

- Bilvosita qon qo`yish - donor qoni vval maxsus idishlarga yig`iladi, sterealizatsiya qilinadi, konservaladi va keyinchalik zarur bo`lganda qo`yiladi.

Qon qo`yishning qo`yidagi usullari mavjud:

- venaga qon qo`yish – ko`p yo`qotilganda qon oqim qilib yoki bemorninig xolati imkon berganda va ko`p miqdorda qon quyish talab etilganda tomchilatib (1 daqiqada 20- 30 tomchidan) qiy-di.

- Arteriyaga qon quyish – klinik o`lim xolatidagi yoki shunga yaqin holatdagi bemorlarga qon bosim ostida quyiladi.
- suyak ichiga qon quyish - qon suyakninig g`ovak moddasiga k-di.
- almashtirib qon quyish - qon olib, urniga donor qonini kuyish - gemolitik zaharlanganda, ovqatdan zaharlanishda qo`llaniladi.- qayta qon qo`yish- bemorning seroz bo`shlikka oqib tushgan uz qonini quyish (Qon yig`ilib natriy sitrat shimdirilgan 4 qavat dokadan filtrlab u`tkaziladi.
- murda qonini quyish- murda qoni icvimaydi, shuning uchun uni stabilizatorsiz ko`p miqdorda ulgan kishilarninig jasadidan olib tayorlanadi)

Qon quyishda ro`y beradigan asoratlar

1. Gemotransfuziya shoki- bu mos kelmaydigan qon quyilishdan keyin yuz beradi ,Bunday xollarda qon quyish darhol tuxatiladi plazma , shokka qarshi eritmalar 5 % li glyukoza eritmasi quyiladi. Mos keladigan bir hil guruhdagi qon quyiladi va paranefral blokada qilinadi.
2. Rezus omili mos kelmaydigan qonni kuyishda ham qon quyishdagi kursatladigan davo qilinadi.
3. Ifloslangan qon quyish- klinik simptomlari qisqa muddatdan so`ng paydo bo`ladi (Bunda antibiotiklar qo`llaniladi.)
4. Anafilaktik shok- shokka qarshi antigistaminlar kul-di.
5. Sitrat shoki- 10% li kalsiy xlorid er-si venaga
6. Pirogen reaksiyalar- analgin, antigistamin pr-lar.
7. yurakning tusatdan kengayishi
8. xavo emboliyasi.
9. Tromb emboliyasi

Jarohat deganda teri yoki shilliq pardalalrning mexanik shikastlanishi tushuniladi. Bunda ichkaridagi to`qimalarga ham shikast etgan bo`lishi mumkin. klinik jihatdan olganda jarohatlar 3 ta klassik belgi bilan ta`riflanadi: teri butunligininig buzilishi vca jarohat chetininig ochilib turishi, jarohatning og`rishi, jarohatdan qon ketishi.

Jarohatlangan narsaninig xususiyatiga ko`ra jarohatlar turlicha bo`ladi. Tibbiyotda bolalar jarohatlanishi ko`p uchraydi. Bolalar jarohatlanishi ko`p uchraydi. bolalar jarohatlanishi ayniqsa maktabda, sport maydonlarida , ko`chada , uyda shikastlanishlari ko`p uchraydi. Bundan tashqari kundalik turmushda, ishlab chiqarishda, qishloq ho`jaligida , tabiiy ofatlarda va uz- uziga qasd qilish hoaltlarida sodir etiladi.

Jarohatlarninig qo`yidagi turlari tafovut qilinadi.

Kesilgan jarohatlar- to`qimalarga birorta o`tkir narsa: pichoq, hsisha temir va hokazolar ta`sir qilganda paydo bo`ladi . jarohatninig atrofi tekis, ostidagi to`qimalarga ozroq shikast etgan, jarohat ochiq bo`lib , qon ketib turadi. Boshqa j jarohatlarga qaraganda birmuncha oson tuzaladi.

Shilingan jarohatlar kesilgan jarohatlarninig bir turi bo`lib, bunda teri va teri osti to`qimasi ostidagi to`qimalardan ajralib chiqqan b`oladi. Bunday jarohatlar urinma chiziq bo`yicha harakat qilayotgan kesuvchi narsalardan shikastlanish yoki terininig teri osti to`qimasi bilan ajralishi oqibatida yuz berishi mumkin.

Mavzu№4 Jarohatlarga bog`lam qo`yish usullari bo`yicha amaliy ta`lim texno;ogiyasi.

mashg`ulotda

Talabalar soni: 25-30 ta	O`quv soati.
O`quv mashg`ulot shakli	Bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish.
	1.Dismurgiya. 2.Bog`lamlarning turlari.

Amaliy mashg'ulot tuzilishi:	3.Bog'lam qo'yish usullari 4.Bosh,bo'yin,ko'krak qafasi,qo'l va oyoqlarga bog'lamlar qo'yish.
Mashg'ulotning maqsadi: Jarohatlarga bog'lamlar qo'yish usullari to'g'risida bilimlarni chuqurlashtirish va olgan bilimlarni mustahkamlash.	
Pedagogik vazifalar.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba bajarishi lozim
• Jarohatlar to'g'risida umumiy haqida tushunchalar berish	• Jarohatlar to'g'risida umumiy tushunchaga ega bo'ladilar.
• Desmurgiya bo'yicha talabalarga tushuncha berish,ko'nikma hosil qilish.	• Umumiy tushuncha hosil qiladilar,so'zlab bera oladilar.
• Bog'lamlarning turlari haqida tushunchalar beradi.	• Bog'lamlarning turlarini o'rganadilar va ularningbirbiridan farqlay oladilar.
• Bog'lamlar qo'yish usullarini o'rgatadi va ularni qo'yish mexanizmlari haqida ma'lumot beradi.	• Bog'lamlar qo'yish usullarini o'rganadilar va ular haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ladilar.
• Odam tanasining bog'lam qo'yiladigan joylarni ketmaket sanab beradi va bog'lam qo'yish texnikasini ko'rsatib beradi.	• Qaysijoylar bog'lam qo'yish uchun qulay ekanliklarini bilib oladilar va bog'lam qo'yish texnikasi bo'yicha ko'nikmahosilqiladi.
Ta'lim usullari.	Amaliy,so'hbat,tezkor so'rov.
Ta'lim vositalari.	UUM,format qog'ozlari,markerlar,skotch,
O'qitish shakllari.	Juftliklarda kichik guruhlarda ishlash.
O'qitish shart sharoiti.	Texnik vositalardan foydalanish va guruhlarda ishlashga muljallangan auditoriya.
Monitoring baholash.	Nazorat savollari,savol-javob,reyting tizimi asosida baholash.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi.

Faoliyat bosqichlari.	Faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
I. Kirish bosqichi (15 min.)	1.1.O'quv mashg'uloti mavzusi,maqsadi vazifalari va o'quv faoliyati natijalarini aytadi,dolzarbligi va ahamiyatiga to'xtalib o'tadi.	Tinglaydilar.
II. Asosiy bosqich 60 min.	1.2. Olingan bilimlarini umumlashtirish maqsadida,talabalarni faollashtirish uchun Bo nima deb savollalar ketma ketligi asosida bog'lamlarni birma bir ko'rsatadi va ular qanday tartibda bo'lishi kerak degan savol bilan murojat qiladi,«Aqliy hujum» o'tkazadi.Fikrlarini umumlashtiradi.	Berilgan savollarga javob beradilar.
	2.1. Talabalarni 3 ta kichik guruhlariga ajratadi, ularni baholash mezonlari bilan tanishtiradi(1-ilova) mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi.(2-ilova).	Talabalar ixtiyoriy 3 ta guruhga bo'linadilar

	2.2. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi, qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb etadi.	Berilgan savollarga javob tayyorlaydilar..
	2.3. Har bir guruh topshiriqlarni vatman qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishda yordam beradi, izoh beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor beradi. Topshiriqlarni bajarilishining qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi.	Guruhdan bir kishi taqdimot olib boradi.
III. Yakuniy bosqich (15 min)	2.4. Talabalarining bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida blits-so'rov o'tkazadi. (3-ilova). Dars yakunini umumlashtiradi. 2.5 Mustaqil bajarish uchun uyga topshiriqlar beradi.	Tinglaydilar, savollarga javob beradilar. Yozib oladilar.

1-ilova

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari.

	Guruhlar	Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari			
		Ma'lumotni aniq va to'liq yetkazilishi.	Taqdimotni rasmiylashtirishi	Misollar bilan tushuntirilishi.	Jami
	Ball	1,0	0,5	0,5	2
1					
2					
3					

Guruh ishlarini umumlashtiruvchi baho

Guruh	1	2	3	Jamo ball	Baho
1					
2					
3					

1,5 – 2 ball- «a'lo». 1,0 – 1,4 ball- «yaxshi» . 0,5 – 0,9 ball- «qoniqarli». 0 - 0,4 ball-«qoniqarsiz»

2-ilova

1-guruh uchun o'quv topshirig'i.

Guruhingizdan bir kishini tanlab boshga quyiladigan bog'lamni bajarib ko'rsating va u qanday bo'lam ekanligini, bog'lam quyish texnikasini izohlab bering.

2- guruh uchun o'quv topshirig'i

Nazorat uchun savollar:

1. Bintlash qoidalari va bog'lamlarning turlari sanab bering.
2. Sopqonsimon bog'lam qanday va qayirlarga qo'yiladi?
3. Toshbaqasimon bog'lamlar qanday va qayirlarga qo'yiladi?
4. Gippokrat qalpog'ini tushuntirib bering.
5. O'ng ko'zni bog'lashda bint qaysi tomoga qarab yurgiziladi?
6. Nuxtasimon bog'lam asosan qaysi sohasini bekitishda qo'llaniladi?
7. Boldir panja bo'g'imini bog'lashda. Odatda qaysi bog'lam qo'llaniladi?

Mustaqil ish uchun vazifa.

Uyda bog'lamlar bo'yicha buklet tayyorlab kelish

Mavzuning qisqacha bayoni:

Desmurgiya (grekcha "desmos" aloqa, bog'lam, qiyiqcha, harakat, ish ma'nosini bildiradi, sinonimi desmologiya) umumiy xirurgiyaning asosiy bo'limlaridan biri bo'lib, bog'lamlar turi va bog'lam qo'yish qoidalari to'g'risidagi ta'limotdir.

Bog'lam deganda bemor tanasiga davo maqsadida mahkam o'rab bog'langan bog'lov materiali tushuniladi. Jarohatga yoki tananing boshqa qismlariga davo maqsadida qo'yiladigan bog'lov materiali, bog'lamni almashtirishga esa qayta bog'lash deyiladi.

Materialning qo'llanilishiga ko'ra bog'lamlar ikki guruhga yumshoq (plastirli, kleolli, kolloidli, ro'molli, leykoplastirli va bintli) va qattiq (dekstrinli, kraxmalli, gipsli) bog'lamlarga bo'linadi.

Yumshoq bog'lam turlari.

Kleolli bog'lam. Kleol qarag'ay elimining baravar miqdorda olingan spirt va efirdagi eritmasidir. Jarohat bog'lam bilan bekitiladi. Salfetkaning chetlari teriga mahkam bosiladi.

Dokaning yopishmay qolgan ortiqcha qismi qaychi bilan kesib tashlanadi. Kamchiligi – bog'lam turli darajada qattiq yopishmaydi va teri qotib qolgan kleoldan ifloslanib qoladi.

Kolloidli bog'lamning oldingi bog'lamdan farqi shundaki, bunda doka teriga kleol bilan emas, balki kollodiy (spirt va efir aralashgan nitrokletchatka eritmasi) bilan yopishtiriladi. Bog'lam qo'yish texnikasi: bog'lamga salfetka yopiladi va salfetka chetlariga kollodiy surtiladi.

Kollodiy qotgandan keyin salfetkaning ortiqcha qismi qirqib tashlanadi. Kollodiy shpatel bilan surtish tavsiya etiladi. Bunday bog'lam 7-8 kungacha tushib ketmaydi. Bog'lamning qayishqoqligi kamligi va terini ta'sirlashi uning kamchiligidir. Xuddi shu maqsadda rezina elim (efir va benzin aralashgan rezina eritmasi), BF-6 elimidan foydalanish mumkin.

Ro'molli bog'lamlar. Bu maqsad uchun uchburchak shaklidagi birorta bog'lov materiali (doka, surp, bo'z va h.k) parchasi ishlatiladi. Bunday bog'lamning eng uzun tomoni ro'mol (kosinka) ning asosi, uning ro'parasidagi burchak- tepasi, qolgan ikkita burchagi- uchlari deyiladi. Ro'mol ko'pincha qo'l yoki o'mrov suyagi shikaslanganda qo'lni osib qo'yish uchun qo'llaniladi. Uning o'rtasi to'g'ri burchak hosil qilib bukilgan qismi bilakka qo'yiladi, tepasi tirsakka yo'naltiriladi, uchlari esa bo'yinga bog'lanadi. Ro'molning tepasi tirsak atrofida orqadan oldinga tomon bukib tekislanadi va tirsakning old tomonidan bog'lamga qadab qo'yiladi. Ko'krak bezini ro'mol bilan bog'lashda (2-rasm, a) uning asosi sut bezi ostiga joylashtiriladi, tepasi kasal tomog'i orqali orqadan elka ustiga, bir uchi ikkinchi elka ustiga oldingi tomonidan yo'naltiriladi, ikkinchi uchi esa kasal tomondagi qo'ltiqqa tushiriladi. Ro'molning ikkala uchi va tepasi orqadan bog'lanadi.

Chanoq – son bo'g'imiga ikkita ro'mol bilan bog'lab bog'lanadi. Bitta ro'mol (buklangani) bilan belbog' ko'rinishida gavda aylantirib bog'lanadi. Ikkinchisining tepasi belbog'ga mahkamlanadi. Uning asosi chanoq son bo'g'imini bekitadi, uchlari esa son atrofidan o'ralib bog'lanadi.

"Plavki" turidagi ro'mol bog'lam bog'lashda uning tepasi oralig'dan o'tkaziladi, asosi bilan qorin bekitiladi, uchlari esa orqaga o'tkaziladi, u erda tepasi bilan bog'lanadi. Dumba sohasiga bog'lam "Plavki" bog'lari tariqasida qo'yiladi. Uning tepasi va ikkala uchi old tomonidan bog'lanadi. Boshni bog'lashganda ro'molning asosi ensa sohasiga, tepasi yuzga, uchlari esa peshona orqali bog'lanadi, tepasi bog'langan uchlari orqali bosh tepasiga qayriladi va shu joyga to'g'rilab qo'yiladi (2-rasm,e). Elka sohasiga bitta ro'mol bilan bog'lam bog'lash qulay.

Qo'l va oyoq panjasini ro'mol bog'lam bilan bog'lashda ro'molning o'rtasi panjaning kaft yuzasiga kelib qo'yilib, tepasi barmoqlar orasiga o'tkaziladi. Kaft ustida aylantiriladi, uchlari aylantirilib to'piq yuqorisidan bog'lanadi, tepasi esa bog'langan uchlariga mahkamlanadi. Oyoq panjasi va son sohalariga ro'mol bog'lam qo'yishda dastlab u o'raladi va keyin uning uchlari bog'lab qo'yiladi.

Elastik to'rsimon bog'lam. ("retelast") fabrikalar 7 raqamda (0 dan-6 gacha) ishlab chiqariladi. U katta yoshdagi bemorlarda tananing turli joyiga qo'yilgan bog'lamlar bolalarda juda keng foydalaniladi.

Leykoplastirli bog'lam. Jarohatga qo'yilgan bog'lov materiali bir necha yo'nalishda yopishqoq leykoplastir bilan bemor terisining tuksiz joylariga yopishtiriladi. Leykoplastirli bog'lamning kamchiligi shuki, uning ostidagi teri matseratsiyalanadi (shilinadi) va ayniqsa bukkanda kerakli mahkam ushlab turmaydi.

Bintli bog'lamlar. Bu bog'lamlar bintning bir parchasidan bitta butin bintdan yoki bintning bir necha o'ramlari yordamida bog'lanadi.

Oyoq, qo'l panjasi barmoqlarini bog'lash uchun kambar bintlar (3-5-7sm); bosh, panja, bilak boldirini bog'lash uchun eni o'rtacha (10-12 sm) bintlar; ko'krak qafasi, sut bezi va sonni bog'lash uchun serbar (14-18 sm) bintlar ishlatiladi. Bintlar fabrikada tayyorlanadi yoki ular o'sha joyning o'zida dokada kesib tayyorlanadi. Bintning o'ralgan qismi boshchasi, erkin uchi esa dum qismi deyiladi. Bog'lam yaxshi bog'lanishi uchun u

qo'yidagi talablar asosida aniq bajarilishi shart: a) bog'lam gavdaning kasal qismini bekitib turishi; b) limfa va qon aylanishini buzmasligi; v) bemorga xalaqit bermasligi; g) toza bo'lishi; d) gavdaga zich yopishib turishi kerak.

Bintlash qoidalari va bog'lamlarning turlari.

Bintlashda bintni to'g'ri o'rab bog'lashga yordam beradigan qator qoidalariga rioya qilish zarur. Bemor bintlanadigan qism uchun qulay vaziyatda (tik turgan yoki o'tirgan) bo'lishi lozim. Gavdaning tegishli sohasiga berilgan vaziyat bintlashdan keyin saqlanib qolishi kerak. Shu maqsadda turli xil bolishlar, tirgakli yoki maxsus stollardan foydalaniladi. Bintlanadigan soha bint bog'layotgan kishi ko'ksi to'g'risida bo'lishi kerak. Bintlash aksariyat chetdan markazga tomon, biroq qator hollarda bog'lam teskari yo'nalishda bog'lanadi. Bintning mahkamlaydigan o'ramdan keyin uning har bir keyingi o'rami oldingi o'ramning yarmini yopib borishi lozim. Bint boshchasini bintlanadigan yuzadan uzoqlashtirmaslik va bir me'yorda toritish kerak. Gavdaning konus shaklidagi qismi (son, boldir, bilak) ni bintlashda bint zich yopishib turishi uchun 1-2 marta aylantirilgandan so'ng u qayirib bog'lanadi.

Bintlash oxirida u tikib mahkamlanadi, to'g'nag'ich bilan to'qnab qo'yiladi. Bintni jarohat sohasi ustida mahkamlash tavsiya qilinmaydi, balki uni chetroqqa surib mahkamlamog' ma'qul.

Bog'lamlarning qo'yidagi turlari bir-biridan farqlanadi:

1. Sopqonsimon bog'lam. Bintning bir parchasidan tayyorlanadi. Bintning ikkala uchi o'rtasiga yo'naltirilgan holda o'zinasiga kesilib, uning o'rtasi kesmay qoldiriladi. da burun, iyak, ensa va peshonaga sopqonsimon bog'lamni bog'lash joylari ko'rsatilgan.

2. T-simon bog'lam. O'rtasiga boshqa bint tikilgan yoki uning uchi tashlab qo'yilgan bint parchasidan iborat bo'ladi. Undan ko'proq oraliq sohani bog'lashda foydalaniladi: gorizantal qismi esa belbog'dan oraliq orqali o'tkaziladi va o'sha belbog'ga tananing boshqa tomonidan bog'lanadi. (8-rasm).

3. Aylana bog'lam. Bint gir aylantirib o'raladi, bintning navbatdagi o'rami avvalgi o'ramni tamomila bekitiladi

4. Spiralsimon bog'lam. Bintning navbatdagi har bir o'rami avvalgi o'ramning yarmini yoki bundan kattaroq qismini bekitiladi.

Bog'lamning bu turi ikki xil: yuqoriga ko'tariluvchi bintlash-pastdan yuqoriga, pastga tushuvchi bintlash esa buning aksicha bo'ladi.

5. O'rmalovchi bog'lam spiralsimon bog'lam kabidir, lekin o'ramlari bir-biriga duch kelmaydi. Odatda, bintlashning boshida murakkab bog'lam elementi sifatida tanaga qo'yilgan salfetkalarni tutib turish uchun qo'llaniladi.

6. Sakkizsimon bog'lam. Bog'lamning bu turida bint o'ramlari bir-biri bilan kesishtiriladi.

7. Boshoqsimon bog'lam. Sakkizsimon bog'lamning boshqa bir turi bo'lib, bint o'rami bir chiziq bo'yicha kesishtiriladi, bu boshoqni eslatadi.

8. Toshbaqasimon bog'lam aksariyat bo'g'imlar aksariyat bo'g'imlarning bukilgan sohasiga qo'llaniladi. Uning ikkita-tarqaluvchi va to'planuvchi turlari farqlanadi. Tarqaluvchi bog'lam tizza bo'g'imi sohasiga yopiladi, bunda bint bo'g'imning o'rtasidan, «tizza ko'zidan» aylantirib olinadi. Keyingi o'ramlar avvlagisining goh pastidan, goh yuqorisidan galma-gal yurgiziladi. Bint o'ramlari taqimda kesishadi va birinchi o'ramdan ikki tomonga tarqalib, asta-sekin bo'g'im sohasini yopadi.

To'planuvchi bog'lamni yopishda birinchi (mahkamlaydigan) o'ram bo'g'im yuqorisidan yoki uning pastidan o'tadi, ikkinchi o'ram bo'g'imi ro'parasiga o'raladi, uchinchi o'ram bo'g'im sohasiga yaqinlashib birinchisini, to'rtinchi o'ram ikkinchisi bilan kesishib, bo'g'im sohasi tamomila yopilguncha shu tariqa davom ettiriladi.

9. Qaytuvchi bog'lam. Bunday bog'lam aksariyat oyoq-qo'lning kesib tashlangan (amputatsiya) dan qolgan qismi (cho'ltog'i) ga ishlatiladi. Bintni mahkamlash uchun u bir necha marta aylantirib o'raladi. So'ngra uni barmoqlar bilan tutib turib, 90 gradusli

burchak ostida qayriladi va cho'ltiq orqali uzinasiga o'ramlar bilan mahkamlanadi va bint bilan tamomila bekitulguncha qadar o'ram davom ettiriladi. Bog'lamlarning aytib o'tilgan turlaridan gavdaning istalgan sohasini bintlashda foydalanish mumkin. Shuning uchun qo'llaniladigan bog'lamlarning ayrim turlari ustida to'xtalib o'tamiz.

Bosh va yuz sohasini bog'lash.

Vazifasiga ko'ra bog'lamlarning bir necha turi qo'llaniladi. Boshdagi qaytuvchi bog'lam. Bunda boshning old va orqa tomonidan hamma sohani qoplaguncha bintni bir necha bor qaytarib, keyin uning atrofida uch marta o'rab mustahkamlanadi

Gippokrat qalpog'i. Bog'lam bog'lash uchun ikki boshchali bint yoki ikkita bint qo'llaniladi. O'ng qo'ldagi bint boshchasi bilan tsirkulyar o'ramlar qilinadi va bintlanayotgan o'ramlar mahkamlanadi. Ular tarqalib yoki to'planib, asta-sekin kalla gumbazini bekitadi

Qalpoqchali shaklida bog'lash. Taxminan 1 m uzunlikdagi bint parchasi bosh tepasiga ko'ndalang yo'nalishda qo'yiladi, ikki uchini esa quloq suprasining oldidan pastga tushiriladi va tarang qilib tortib turiladi (yordamchi yoki bemorning o'zi). Bint bilan bosh atrofidan birinchi sirkulyar o'ram qilinadi. Keyingi o'ram bog'iga etgach, bintni shu bog' atrofida aylantiriladi va biroz qiyshiq yo'nalishda ensani berkitib yurgiziladi. Ikkinchi tomonda bintni bosh atrofida qarama-qarshi tomonga aylantiriladi va qiyshiqroq yo'nalishda boshning peshona qismiga olib boriladi. Bintning keyingi o'rami bilan ensa sohasi bekitiladi. Shu tariqa bosh bir tekisda bintlanadi. Bintning uchi boshga bog'lanadi, keyin bog' uchlari jag' ostida bog'lanadi

Bir ko'zni bog'lash.

O'ng ko'zni bog'lashda bint chapdan o'nga qarab yurgiziladi. Chap ko'zni bog'lashda esa buning aksi qilinadi. Bint sirkulyar yo'nalishda bosh atrofidan aylantirib mahkamlanadi, so'ngra orqadan pastga ensaga tushiriladi va quloq ostidan qiyshiq holda yuqoriga ko'tarilib, bemorning ko'zi bekitiladi. Qiyshiq o'ram doira o'ram bilan mahkamlanadi. So'ngra avvalgi o'ramning yuqorisidan qiyshiq o'ram qilinadi. Shunday qilib o'ramlarni qiyshiq o'ramlar bilan navbatlab, butun ko'z sohasi bekitiladi

Ikki ko'zni bog'lash.

Bint gir aylantirib, o'rab mustahkamlangach keyingi o'ram bosh tepasi va peshona bo'ylab pastga tushiriladi va yuqoridan pastga tomon chap ko'zni bekitadigan qiyshiq o'ram qilinadi, so'ngra bintni ensa orqali o'tkazib, pastdan yuqoriga tomon o'ng ko'zni bekitadigan qiyshiq o'ram qilinadi. Buning natijasida bintning keyingi xamma o'ramlari qanshar sohasida kesishib, ikkala ko'zni bekitadi va tobora pastga tushaveradi. Bintlash oxirida bog'lam gorizantal doira shaklida o'rash bilan mustahkamlanadi

Nuxtasimon bog'lam.

Bunday bog'lam asosan iyak sohasini bekitishda qo'llaniladi. Dastlab bosh atrofida sirkulyar o'ram qilinadi. Ikkinchi o'ramni ensa sohasiga bo'yinning yon yuzasiga qiyshiq yo'nalishda yurgiziladi va jag' ostidan vertikal holatga o'tkaziladi. Bintni quloq supralari ustidan olib o'tib, bosh atrofida bir necha marta aylantiriladi, so'ngra bintni iyak ostidan boshqa tomonga yoki ensaga qiyshiq holda yurgiziladi va gorizantal o'ramlar qilib, bog'lam mustahkamlanadi. Pastki jag'ni tamomila bekitish uchun mustahkamlaydigan gorizantal o'ramlar qilgandan so'ng, bint boshchasini ensa bo'ylab qiyshiq holda pastga tushiriladi, iyakning oldingi qismi bo'ylab bo'yinning yon tomoniga, keyinroq bo'yin atrofiga tushirilib, orqaga qaytariladi va bint o'ramini iyakdan pastroqqa tushirilib, vertikal holatga o'tkaziladi va bog'lam bosh atrofida mustahkamlanadi

Neapolitancha bog'lam.

Bintni bosh tevaragida aylantirib o'rashdan, so'ngra bintni kasal tomondan quloq va so'rgichsimon o'siq sohasiga tushirishdan boshlanadi

Bo'yinni bog'lash. Bo'yinning yuqori qismini bog'lash. Bosh tevarigiga galma-galdan bir necha qiyshiq o'ramlar bilan (peshona va ensa sohasini ham qamrab olib)

doira o`ramlar qilinadi. Ensa sohasini doira o`ramlar qilib bintlash bilan birga sakkizsimon bog`lam hosil qilinadi.

Bo`yinning pastki qismini bog`lash. Bosh tevaragidagi o`ramlarni ensa sohasining sakkizsimon bog`lami va orqaning boshoqsimon bog`lami o`ramlari bilan to`ldiriladi.

Qo`lni bog`lash.

**Bitta barmoqni bog`lash.** Bog`lam kaft usti atrofida mustahkamlaydigan doira o`ramlar qilishdan boshlanadi. So`ngra bintni qo`l panjasining orqasi osha barmoq uchigacha qiyshiq holda yo`naltiriladi va shu erdan pastdan yuqori tomonga barmoq asosigacha spiralsimon bog`lanib keyin qo`l panjasining orqasi osha kaft ustiga keltiriladi va bu erda mahkamlovchi sirkulyar o`ramlar qilinadi

Bosh barmoqni bog`lash.

Boshoqsimon bintlash tariqasida bajariladi. Mustahkamlovchi doira o`ram ham kaft usti-bilakda qilinadi. So`ngra bintni qo`l panjasi orqasi osha barmoq uchigacha olib boriladi. Barmoq spiralsimon aylantirilib o`raladi, kaft usti-bilakning orqa tomoniga so`ngra kaft tomoniga qaytariladi. Bint barmoqni tamomila bekitguncha o`ramlar takrorlanadi Qalpoqchasimon bog`lam.

Bitta barmoqni bintlash qoidasidan foydalanib panjaning hamma barmoqlarini birin-ketin «qo`lqop shaklida» bintlab chiqish mumkin. Chap qo`lni bintlashni qullaylashtirish maqsadida bog`lamni jimjuloqdan, o`ng qo`lni bintlashdan bosh barmoqdan boshlash kerak

Panjaning qaytuvchi bog`lami.

Bint bilakka mahkamlanib so`ngra u panjaning orqa tomoni osha barmoqlarga yo`naltiriladi va kaft bo`ylab qaytiladi. Bilakda yana mahkamlovchi o`ram qilinadi va bintni o`rash takrorlanadi. Qo`l panjasi va barmoqlar ham orqa tomondan, ham kaft tomondan bekitilgan so`ng barmoqlar va panja bintning ko`ndalang o`ramlari bilan yopiladi. Bog`lam bilakka mahkamlanib qo`yiladi Qo`l panjasi va uning spiralsimon bog`lamlari

**Bilakni bog`lash.** 1-2 o`ramdan so`ng bintni qayirib spiralsimon va aylana shaklida bog`lanadi.

Tirsak bo`g`imini bog`lash.

Tarqaluvchi va to`planuvchi toshbaqasimon shaklli bog`lam kabi bo`ladi. Yelka bo`g`imini bog`lashda oddiy spiralsimon yoki boshoqsimon bog`lam qo`llaniladi

Qo`ltiqni bog`lash.

Buning asosini boshoqsimon bog`lam tashkil qiladi. Yelkada bintni mahkamlaydigan o`ramlari qilinadi. Bintni qo`ltiq sohasidan yelka ustiga, orqaga, qarama-qarshi tomonidagi qo`ltiqqa, ko`krak qafasining oldingi yuzasiga qiyshiq yurgizib birinchi o`ram yelka usti sohasida kesishtiriladi va bint ko`krak qafasining orqa yuzasidan qo`ltiqqa chiqariladi. Keyingi o`ram oldingi o`ram kabi boshlanadi, biroq har bir o`ram asta-sekin yuqoriga ko`tarilib o`raladi, natijada bint yelka usti sohasini va qo`ltiqning oldingi va orqa qismlarini tamomila bekitadi. Yaxshiroq mahkamlash uchun ko`krak qafasiga qiyshiq yo`nalishda giraylantirilib, sirkulyar o`ram qilinadi. Bintni orqaga sog`lom yelka ustiga o`tkaziladi va bu yerdan ko`krak qafasining oldingi yuzasi bo`ylab pastga-bintlanayotgan tomondagi qo`ltiqqa tushiriladi. Bunday o`ramlarning bir nechtasidan so`ng bog`lam uzil - kesil mahkamlanib qo`yiladi. Qo`ltiq ostiga ro`mol bog`lam qo`yish ancha qulaydir

Bog`lov hamshirasi ishinig xususiyati.

Bog`lov meditsina hamshirasining vazifalariga quyidagilar kiradi:

- vrach ko`rsatmasi bo'yicha bemorlarda bevosita amalga oshirish;
- bu muolajalarni bajarish uchun material va instrumentlarni tayyorlash;
- bog`lov kabinetining sanitariya holati ustidan puxta nazorat qilish;

- avval «toza» va shundan keyin, ikkinchi navbatda «yiringli» yaralarni bog'lash;
- katta meditsina hamshirasi orqali dori-darmonlar va bog'lov materiallari doimo to'ldirib turish.

Yirik kasalxonalarda odatda ikkita bog'lov kabineti bo'ladi:

birinchi - «toza» jarohatlarni bog'lash, ya'ni jarohatning yiringli ifloslanishi bilan bog'liq bo'lmagan toza bog'lovlar (operatsiyadan keyingi bemor bog'lamini almashtirish, chok olish);

ikkinchisi – yiringli jarohatlarni bog'lash uchun, ya'ni yiringli jaroxatni axlat chiqadigan oqma yaralari bo'lgan bemorlarga qilinadigan bog'lovlar uchun xizmat qiladi.

Har bir bog'lash xonasida alohida hamshira xizmat qiladi. Har ikkala bog'lash xonasida ham aseptikaga qattiq rioya qilinishi shart.

Yaralarni bog'lash xonasining ishi operatsiya xonasining ishidagi printsiplar bo'yicha o'tkaziladi. Bog'lash xonasi hamshirasiga sanitarka bo'ysinib, u barcha ishlarda hamshiraga yordam beradi.

Yarani bog'lash. Bu muolajani har bir tibbiyot hamshirasi har qanday sharoitlarda: bog'lash xonasida; palatada, uyda, hodisa yuz bergan joyda va shu kabilarda malakali bajarish kerak.

Yarani bog'lash muayyan sxema bo'yicha o'tkaziladi:

Eski bog'lamni avaylab echish zarurdir. Bemor imkoni boricha qulay vaziyat egallash kerak, yara bog'lanadigan zona yaxshi yoritilishi kerak. Buning uchun yara bog'lash xonasida mo'jazzgina ko'lanka hosil qilmaydigan va yon tomonlama lampalar bo'ladi. Bog'langan doka jarohat bo'ylab parallel yo'nalishi bo'yicha printsipl bilan bir oz ko'tarib echiladi, bunda terining bog'lamga qo'shilib tortilmasligi uchun uni doka sharcha bilan bosib turiladi. Qattiq yopishib qolgan bog'lamlarni 1: 3000 kuchsiz yoki vodorot peroksid bilan ho'llash kerak. Bunday hollarda bog'lam qavatma-qavat qilib echiladi: yuza qavatini ho'llaniladi va echiladi, keyingi qavatini yana ho'llaniladi va echiladi. Oyoq – qo'llarga ishlatilgan materiallar alohida tog'oraga yig'iladi va mikrobsizlantiriladi.

Jaroxatni va atrofdagi terini ko'zdan kechirish va tozalash. Bog'lam echilganidan keyin birinchi galda jarohat atrofidagi teri tozalaniladi. Buning uchun terini quruq yoki ho'l paxta bo'lakchasi bilan artiladi. Tozalangandan so'ng teriga 70 % li spirt eritmasi surtiladi. Ba'zan teriga pasta surtiladi. Jarohatni ichida nima borligiga ko'ra oldin ho'l paxta bo'lakchasi bilan obdon tozalab yuvgandan keyin doka sharchalari bilan quritiladi.

Yangi bog'lamni qanday qo'yish jarohat holatiga bog'lik. Buning uchun biror xil antiseptik vositalar yoki maz bog'lamlar qo'llaniladi. Bog'lamni jarohatning joylashgan o'rni va katta – kichikligiga ko'ra u yoki bu usulda mahkamlaniladi. Bint jarohatning boshqa tomonidan bog'lanadi.

Ko'krak va qo'l sohasiga bog'lam qo'yish.

Ko'krak qafasiga bog'lam bog'lashda qattiq, bintlash nafas harakatiga xalaqit berishini bo'sh bog'langan bog'lam esa foydasiz ekanligi unutmash kerak.

Bir tomonlama ko'krak jarohatini bog'lash qulay bo'lib, unda ko'krak qafasidagi nafas harakati chegaralanmaydi. Buning uchun dastlab 1 m bint uchidan boylanib qo'lni uning uchidan o'tkazib bemor elkasiga tashlanadi. Keyin bintni old va orqa tomonidan o'tkazib boylanadi va jaroxat bekitiladi **Spiralsimon bog'lam.** Taxminan 2 m uzunlikdagi bint bo'lagini o'ng va chap elkaga bintning erkin uchlari ko'krak qafasining oldingi va orqa tomonidan tushib turadigan qilib, tashlab qo'yiladi. Bog'lamning ko'krak qafasining pastki qismidan bintning shu bo'lagini bekitishda boshlanadi. Bintning spiralsimon o'ramlari asta-sekin to qo'ltiqqacha etkazib o'raladi va og'irgi o'rami bilan mahkamlanadi. Elkaga tashlangan bintning osilib turgan uchi ko'krak qafasining oldingi yuzasi bo'ylab yuqoriga ko'tariladi. Ikkinchisi elka orqali tashlanadi va uchlari orqa tomondan bog'lanadi

Xochsimon bog'lam. Gavdaning orqa qismlarini bintlash uchun qo'llaniladi. Bog'lam bir elka atrofini mahkamlovchi sirkulyar o'rashdan boshlanadi. Old tomondan elka olib chiqiladi. Orqaga o'tkaziladi va bintning qarama-qarshi tomondan qo'ltiq sohasiga qiyshiq

holda yo'naltiriladi. Bint yo'llarini shu tariqa takrorlab ularni ikkala elka ustiga asta-sekin ko'tarilib va ko'krak qafasi bo'yicha pastga tushirib orqaga bekitiladi.

Bitta ko'krak bezini bog'lash. U ko'krak bezini yopib turishdan tashqari uni ko'tarib turadigan o'ziga xos suspensoriy vazifasini ham bajaradi. O'ng tomondagi ko'krak bezini bintlashda bintni chapdan o'ngga va chap tomondagi ko'krak bezini bintlashda o'ngdan chapga qarab o'raladi. Bog'lam ko'krak qafasini ko'krak bezlari tagidan mustahkamlab aylantirilib o'rashdan boshlanadi. Keyingi o'ram ko'krak bezining pastki va ichki tomonlarini qamrab oladi. qarama-qarshi tomondagi elka ko'tariladi va elkaning orqa tomonidan pastga yo'naltirilib bintlanayotgan ko'krak bezi tomonidagi qo'ltiqqa boradi. So'ngra bint ko'krak bezining pastki qismini qoplaydi. Aylantirib o'rash bilan oldingi o'ram mustahkamlanadi. Keyingi o'ramlarni ko'krak bezi pastidan batamom yopilguncha asta-sekin yuqoriga qarab o'rash takrorlanadi. Emizikli onalarda ko'krak bezini bog'lashda bola emizish yoki sutni sog'ish uchun ko'krak bezi uchi bint bilan yopilmaydi

Ikkala ko'krak bezini bog'lash.

Dastlabki o'ramlar bitta ko'krak bezini bintlashdagi kabi o'raladi. Keyingi bintni ko'krak qafasining ko'krak bezi dastlab bint o'ralgan yarmidagi elkadan o'tkazib orqada qiyshaytirilib o'raladi. Bintni pastga ko'krak bezlari oralig'iga tushirilib qarama-qarshi tomondagi ko'krak bezi bintlanadi. Keyin ko'krak qafasi gir aylantirib o'raladi va shu holatda ikkala ko'krak bezi bint bilan yopilmaydi.

Dezo bog'lami.

Oldin qo'ltiqqa paxta bolishcha qo'yiladi. Bilak tirak bug'imida to'g'ri burchak ostida turadi va ko'krakka qo'yiladi. Elka birinchi doira o'ram bilan ko'krak qafasiga bintlanadi. Ikkinchi o'ram qarama-qarshi tomondagi qo'ltiqdan kasal tomondagi elkaga yo'naltirilib elkadan orqaga oshiriladi va pastga tushiriladi, keyin bint tirsak bo'g'imini qoplaydi va uni bilakni ushlab turgan holda yuqoriga, sog'lom tomondagi qo'ltiqqa qiyshiq yo'naltiriladi, keyin ko'krak qafasini orqa sathi bo'ylab o'tkazib kasal elkaga yo'naltiriladi va pastga tushiriladi. So'ngra bilakdan aylantirilib o'tkaziladi va ko'krak qafasini orqa sathiga sog'lom tomondagi qo'ltiqqa tomon yo'naltiriladi. Bog'lam yaxshi mustahkamlanmaguncha o'ramlar takror o'ralaveradi. Bolalardagi Dezo bog'lami

Torakobraxial bog'lam oddiy va aniq bog'lam hisoblanadi. U elka suyaklari singanda qo'yiladi.

Velpo bog'lami. Kasal qo'l panjasi sog'lomnikiga qo'yiladi. Bintning aylanma o'rami bilan kasal qo'l ko'krak qafasiga mahkamlanadi, keyin bint sog'lom tomondagi qo'ltiqdan o'tkazilib, orqadan kasal tomondagi elkaga qiyshaytirilib yuritiladi, pastga vertikal tushiriladi, tirsak ortiga o'tkazilib ko'krak qafasini aylantirilib gorizantal o'rab qo'l qayta maxkamlanadi. Bint o'ramlari takrorlanadi. Gorizantal o'ramlar undan oldingi o'ramlar pastiga tushadi. Vertikal esa oldingi o'ramlar ichiga tushadi

Oraliqqa va oyoqlarga qo'yiladigan bog'lamlar.

Oyoqni bog'lash.

Bunga ham qo'lni bog'lashdagi kabi talablar qo'yiladi. Odatda bir ikki o'ramdan so'ng aylantirib spiral shaklida o'raladi.

Tizza bo'gimi sohasini bog'lash. Birlashadigan yoki tarqaladigan toshbaqasimon bog'lam bog'lanadi

Boldirni bog'lash. 1-2 o'ramdan so'ng aylantiriladigan yuqoriga ko'tariluvchi, spiral shaklidagi bog'lam qo'llaniladi

Tovon sohasini bog'lash. Aksariyat tarqaluvchi toshbaqasimon bog'lamdan foydalaniladi. Tovondan (uning markaziy qismidan) aylantirib bintlashdan boshlanadi. Keyingi o'ramlarni birinchi o'ramning yuqorisidan va pastidan navbatma - navbat o'raladi. Bu o'ramlarni tovonning yonidan orqadan oldinga, tovon yuzasiga va oyoq kaftining orqasiga boldir panja bo'g'imi va pastga panja sohasiga o'tadigan qilib qiyshiq aylantirib mahkamlanadi. O'ramlar oyoq kafti ustida kesishtiriladi

Boldir panja bo'g'imini bog'lash. Odatda sakkizsimon bog'lam qo'llaniladi. Mahkamlovchi o'ram to'piqning yuqorisidan aylantiriladi. Bint panjaning orqa tomonidan qiyshiq yurgizib, panja atrofidan o'tkaziladi. Keyin bintni yuqoridan o'tkazib oyoq panjasining orqa tomoni bo'ylab oldingi o'ram bilan kesishtiriladi va boldirning orqa yarim doirasi atrofidan o'tkaziladi. Bint o'ramlari takrorlanadi. Bog'lamni to'piqlar oldida aylantirib o'ramlar mustahkamlanadi.

Barmoqlarni ochiq qoldirib oyoq panjasini bog'lash. Bint panjaga o'ralib mahkam bog'lanadi. Oyoq panjasini orqa tomoni bo'ylab tovonidan o'tkaziladi. Panja gir aylantirilib o'rab tovoniga qayriladi. Tovuq sohasida bintning har bir yangi o'rami oldingi o'ramning yuqorisiga tushiriladi va boldir panja bug'imiga tobora yaqin keltirilib kesishtiriladi (22-rasm, d).

Barmoqlarni ochiq qoldirmay oyoq panjasini bog'lash. Bint to'piqlari sohasida aylantirilib o'rab mahkamlanadi. So'ngra bintni butun panja orqali uzunasiga yurgizib barmoqqa tovon sohasi yopiladi. Barmoqlarning uchidan boshlab oyoq panjasida kesishadigan spiral shaklida bog'lam yopiladi. Mahkamlovchi o'ram to'piqlar sohasida bajariladi (22-rasm, e, j).

Oyoq panjasi bosh barmoqni bog'lash. Bog'lash usuli qo'lning bosh barmog'ini bog'lash kabi bog'lam to'piqlar sohasida mahkamlanadi (22-rasm, e).

Suspenzoriy. Moyaklar ularning ortiqlari kasalligida yoki yorg'oqda o'tkazilgan operatsiyalardan so'ng yorg'oqni ko'tarib turishga muljallangan maxsus moslamadir. Asosan fabrikada tayyorlangan suspenzoriylar bo'ladi. Suspenzoriyni uyda tayyorlash ham mumkin. Buning uchun oddiy bintdan belbog' qilinadi. 1 metr uzunlikdagi serbar bint bo'lagi qirqib olinadi. Bintning ikki chekkasidan qirqib olinadi, o'rtasidan 10 sm uzunlikdagi qismi qirqmasdan qoldiriladi. Bu qismning bir chekkasi yorg'oq ildizi ostiga yaqinlashtiriladi, uning uchlari belboqqa bog'lanadi. Ikkinchi chekkasi yorg'oqning oldingi qismiga tashlanadi va uchlari ham belboqqa bir oz tortib bog'lanadi.

Bandaj. Qorin bo'shashib qolganda uni mustahkamlash uchun mo'ljallangan material va charmdan tikilgan maxsus moslama. Bandajlar odatda qorin churralarini qandaydir sababga ko'ra operatsiya qilish imkoniyati bo'lmagan hollarda qo'llaniladi.

Individual bog'lam paketi. Paket bintga biriktirilgan ikkita paxta dokali yostiqchadan iborat. Ularni bittasini bint ustidan yurg'izish mumkin. Yara bog'lam materiali ikkita paketda: ichki – to'g'nog'ichli qog'oz paketda va tashqi rezina aralashgan paketda bo'ladi. Rezina aralashgan qavat chizig'idan yirtib ochiladi, ichidagi qog'oz qavati ochiladi, yostiqchalar kerakli joyga qo'yiladi va ho'l tekkizilmagan yuzasi bilan jarohat ustiga yopiladi. Teshib o'tgan jarohatlarda bitta yostiqcha bilan kirish teshigi, ikkinchisi bilan esa jarohatning chiqish teshigi bekitiladi, keyin yostiqchalar bint bilan o'rab bog'lanadi.

Qorin va chanoq sohasini bog'lash.

Qorin sohasiga odatda spiralsimon bog'lam yopiladi, biroq uni mahkamlashda chanoq va sonni boshhoqsimon bog'larni birga qo'llashga to'g'ri keladi.

Bir tomonlama boshhoqsimon bog'lam. Bog'lam qorinning pastki sonning uchdan bir qismini va dumba sohasini bog'lash uchun ishlatiladi. Bint o'ramlari kesishadigan joyga muvofiq holda orqa va yon oldingi boshhoqsimon bog'larni farq qilinadi. Belda sirkulyar o'ramlar qilib mustahkamlovchi bint bog'lanadi, keyin bint sonning yon tomonidan oldingi, keyin sonning oldingi va ichki yuzasi bo'yicha o'rab bog'lanadi. Bint sonning orqa yarim doirasini aylanib o'tib uning tashqi tomonidan chiqadi va chov sohasidan gavdaning orqa yarim doirasi orqali qiyshayib o'tadi. Bint o'ramlari takrorlanadi. Bintning keyingi o'rami oldingisidan yuqoriga tushsa yuqoriga ko'tariluvchi bog'lam pastga o'rasa pastga tushuvchi bog'lam hisoblanadi.

Ikki tomonlama boshhoqsimon bog'lam. Ikkala son va dumbaning uchdan bir yuqori qismini yopish uchun qo'llaniladi. Bu hali oldingi bog'lam kabi belni sirkulyar o'rashdan boshlanadi, biroq bintni ikkinchi chovning oldingi yuzasidan yurg'iziladi. Uning

orqa yarim doirasi qamrab olinadi. Ichki yuzasiga chiqariladi va chov sohasi bo'ylab tananing orqa yarim doirasiga o'tkaziladi. Bu erdan bint o'rami bir tomonlama boshqosimon bog'lamdagi singari davom ettiriladi. Bintni ikkala oyoqqa navbat bilan, gavdaning shikastlangan qismi bekilguncha o'raladi. Bog'lam tanada sirkulyar o'ram bilan mahkamlanadi. Qorinning pastki sohalarini bog'lashda spiralsion aylana bog'lam qilinib, biron –bir chov sohasi bilan mustahkamlanadi. Dumba sohasini bir tomonlama bog'lashda ro'mol juda qo'l keladi. Ikkala chov yuqori son sohalarini bog'lashda sakkizsimon va xochsimon bog'lamlardan foydalaniladi

Oraliq sohasini bog'lash. Oraliqqa sakkizsimon bog'lam bog'lanadi, Unda bint o'ramlari oraliqda kesishadi Son sohasiga ro'mol bog'lam qo'yish ancha qulay.

Talabalarning mavzuga doir bilim darajasini aniqlash uchun testlar.

«Sopqonsimon» bog'lam tananing qaysi sohasiga qo'yiladi?

- A) burunga
- B) iyakka
- V) peshonaga
- G) ensaga
- D) ko'rsatilganlarning hammasiga

Toshbaqasimon bog'lam tananing qaysi sohasiga qo'yiladi?

- A) boshga
- B) bo'yinga
- V) ko'krak qafasiga
- G) bo'g'inga
- D) qorin soxasiga

Spiralsimon bog'lam qo'yidagilardan qaysi soxaga qo'yiladi?

- A) bo'yinga
- B) bilakka
- V) barmoqqa
- G) boldirga
- D) ko'krak qafasiga

Elimli bog'l'amni aniqlang?

- A) bintli
- B) kleoli
- V) kraxmalli
- G) durrachali
- D) gipsli

Ochiq pnevmotoraksda qanday bog'lam qo'yiladi?

- A) «Okklyuzion» bog'lam
- B) «Durrachali» bog'lam
- V) «Spiralsimon» bog'lam
- G) «Dezo» bog'lam
- D) «Sopqonsimon» bog'lam

Mavzu №5 .Elektr toki va chukishda birinchi yordam ko'rsatish usullari

Amaliy mashg'ulot ta'lim texnologiyasi.

Talabalar soni25-30	O'quv soat:i 2 soat
O'quv mashg'ulotning shakli	Amaliy namoish qilish shakli.
Mavzu rejasi	1

<i>Mashg'ulotning maqsadi:</i> Elektr tokining organizmga ta'siritok urganda va chukkanda bemorlarga yordam ko'rsatish chora tadbirlarini ishlab chiqishni va amalda qo'llab bilishni o'rgatish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> • Tok urish holatlarini tushuntirib berish .	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> • Tok urish holatlarini bilib oladilar.
• Tok urishning asosiy jihatlarini tushuntirib beradi	• Tok urishning asosiy jihatlarini haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.
• Texnika xavfsizligiga rioya qilinmasa, tok urish holatlari ko'zatilishi mumkinligini tushuntiradi.	• E'tiborsizlik oqibatida tok urish holatlari sodir bo'lishini bilib oladilar.
• Tok urganda shoshilinch yordam ko'rsatish holatlari bilan tanishtiradi.ko'nikma hosil qiladi.	• Shoshilinch yordam ko'rsatish turlarini bilib oladilar
Tok urganda bemorlarda qanday klinik belgilar ko'zatilishi haqida ma'lumot beradi.	• Tok urganda bemorlarda qanday holatlar sodir bo'lishini bilib oladilar.
<i>Ta'lim modellarri.</i>	Savol javob,so'hbat,klaster,inserttexnikalari.
<i>Ta'lim vositalari</i>	O'UM,format qog'ozlar,markerlar,skotch,tarqatma materiallar.
<i>Ta'lim shakli</i>	Frontal,jamoaviy,guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish shaet sharoiti.</i>	Texnik vositalardan foydalanish va guruhlarda ishlashga muljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash.</i>	Og'zaki nazorat,savol javob,ryeting tizimi asosida.


Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi.

<i>Faoliyat bosqichlari.</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I.Kirish bosqichi (10 min)	1.1.Mavzuning nomi kutilajak natijalarni e'lon qiladi.	Tinglaydilar
	1.2. O'quv mashg'ulotning shakli va baholash mezonlarini tushuntiradi. (1-ilova) .	Savollar beradilar.
	1.3. Amaliy mashg'ulotda ko'riladigan rejalarni e'lon qiladi.Mavzuga tegishli rasmlar va tarqatma materiallarni tarqatadi.	Ko'rib chiqadilar va savollar beradilar.Yozib oladilar.
	Doskaga elektr tokidan shikastlanganlarga yordam ko'rsatish plakatini osib qo'yadi.	Ko'radilar,savollar beradi.
II. Asosiy bosqich (60 min)	2.1.Mavzu bo'yicha qisqacha tushuncha beradi. Diqqatni jalb qiluvchi tezkor savollar beradi: 2.2.Elektr tokidan foydalanish turlarini sanab bering.. 2.3.Tok urganda qanday jarayon ko'zatiladi?	Tinglaydilar.Savollarga javob beradilar.

	2.4. Talabalarni guruhlarga bo'linib ishlash jarayonlarini tushuntirib beradi.	Guruhlar faoliyatini tashkil qiladi.
	2.5. Talabalarni uchta kichik guruhlarga bo'ladi va savollarni tarqatadi.	Guruhlarga bo'linadilar savollarni qabul qilib oladilar.
	2.6. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Yunaltiruvchi-maslahatchi sifatida ishtirok etadi. Javoblarni aniqlashtiradi, to'ldiradi, izoh beradi va tuzatishlar kiritadi.	Tayyor ma'lumotni taqdim etish uchun chizmalarni to'ldiradi. Guruh sardorlari ma'lumotlarni taqdim etadilar.
	2.7. Taqdimot yakunida talabalar diqqatining mavzuning asosiy tomonlariga qaratib, har bir masala bo'yicha qisqacha xulosa qiladi.	Boshqa guruh a'zolarining savollariga javob beradilar.
III. Yakuniy bosqich. (10 min)	3.1. Mavzuni umumlashtiradi, umumiy xulosalar qiladi, yakun yasaydi. 3.2. Guruhlarga o'zaro qo'ygan baholarini e'lon qilishini taklif qiladi. Natijalarni sharhlaydi. 3.3. Mustaqil ishlari uchun vazifalar beradi.	Eshitadilar. Vazifani yozib oladilar.

1-ilova

Elektr toki va chukishda birinchi yordam mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotida talabalar faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari..



2-ilova

Birinchi guruh uchun savollar №1

Elektr tokidan shikastlanganda ko'rsatiladigan shoshilinch yordam holatini tasvirlang va har bir holatni izohlab bering.

Ikkinchi guruh uchun savollar №2

Chukkanda ko'rsatiladigan shoshilinch yordamholatini tasvirlang va javobingizni izohlab bering.

Uchinchi guruh uchun savollar №3

Elektr tokidan shikastlanish nimalarga bog'liqligini yozing va javobingizni izohlab bering.

Mustaqil ish uchun vazifa.

Uyda har biringiz mavzuga tegishli test variantini o'zingiz to'zing.

Mavzuning qisqach tavsiloti.

Elektr tokidan shikastlanish

Elektr tokidan shikastlanish darajasi:

a) tok kuchiga , uning kuchlanishiga , ta'sir qilish davomiyligiga , tokning doimiy va uzgaruvchanligiga:

b) organizmning fiziologik holatiga, nerv sistemasiga , yurak – mushak holatiga , ta'sir mexanizmiga:

v) organism va terining chidamliligiga:

g) tok ta'sir qilgan muhitga bog'liq. Elektr travmada tuqimalarning mahalliy uzgarishlari aksariyat darajali kuyish bilan ifodalanadi. Nekroz keng yuzada ichkarida joylashgan tuqimalarda buladi Ko'pincha kuyish simmetrik yullar , sochlarning kuyishi kurinishida kuzatiladi, aksari teri giperimiyasi va kuyganligini kurish mumkin. Ba'zan kuygan soxa oq rangda buladi. tok kirgan va chiqqan terining kuygan soxalari kuzga tashlanadi. Elektr tokining umumiy ta'siri miya chayqalishiga uxshash klinikali beradi. Ba'zan falajlik, kurishning pasayishi, yutishning qiyinlashuvi kuzatiladi. Og'ir hollarda yurak va nafas markazlarining falaji ruy beradi, bu soxta ulim holatini yuzaga

keltiradi. bunday hollarda zudlik bilan reanimatsiya tadbirlari kompleksini tuliq utkazish lozim Bo`laid.

BIRINCHI TIBBIY YORDAM

Zudlik bilan elektr toki ta'sirini tuxtatish lozim. Shikastlangan kishi kupincha usti ochiq simni ushlab olib, muskullari qisqarganidan uni quyib yubora olmaydi. Shuning uchun tezda elektr tokini uchurush yoki shikastlangan kishini tortib olish lozim bo`laid. Bunda elektr tokini utkazmaydigan rezina qulqop kalish, yoki etik,. adyol, ipak gazlama , quruq yog`ochdan foydalanish zarur. Elektrdan kuyishni maxalliy davolash termik kuyishni davolashdagidek. ummiy belgilar yuz berganda simptomatik davolashda qullaniladi- sun`iy nafas beriladi, yuraskni sun`iy massaj qilinadi va yurak dorilari beriladi. Tokdan shikastlangan bemorlarni qunt bilan parvarish qilish va kuzatib turish kerak bo`ladi, Chunki ularda nafas falajlanishi , yurak ishi tuxtashi natijasida tusatdan o`lim yuz berishi mumkin.

Mavzu №6.Kuyish turlari va unda I-yordam mavzusining amaliy mashg`uloti ta'lim texnologiyasi Sovuq urganda shoshilinch yordam ko`rsatish usullari

<i>Talabalar soni;30ta</i>	<i>Vaqti; 2 soat</i>
<i>Mashg`ulot shakli</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg;ulot.
<i>Amaliy mashg`ulot rejasi</i>	1.Ko'yish darajalari. 2.Ko'yishda shoshilinch yordam ko'rsatish usullari. 3.Sovuq urganda shoshilinch yordam ko'rsatish usullari
Mashg`ulotning maqsadi:Mavzu orqali talabalar insonlarning qadriga yetish o'zini va atrofdagilarni hurmat qilish va o'z sog'ligini asrash,atrofdagilar sog'ligiga befarq bo'lmaslik holatlarini tushunib yetishiga erishish..	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyatining natijalari.</i>
Mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi, mavzu bo'yicha bilimlarini chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi;	Amaliy mashg'ulot rejasi bilan oldindan tanishib chiqib,tayyorgarlik ko'radi; Jabrlanganlarga yordam ko'rsatish choralari o'zlari erkin holda aniqlay oladilar.
<i>O'qitishni usullari va texnikasi.</i>	Qor uyumi usuli,aqliy hujum,bahs munozara,tur usuli,blits-so'rov.
<i>O'qitish vositalari.</i>	markerlar,qog'ozlar,doska,bo'r.
<i>O'qitish shakli.</i>	Jamoa va guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish shar-sharoiti.</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash.</i>	Og'zaki nazorat,savol-javob,o'z-o'zini nazorat qilish,reyting tizimi asosida baholash.

Amaliy mashg`ulotning texnologik xaritasi.(1-mashg`ulot)

<i>Ish jarayonlari vaqti</i>	<i>Faoliyatning mazmuni.</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba.</i>
I-bosqich. Mavzuga kirish. (10 daqiqa)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi, vazifalari va o'quv faoliyati natijalarini aytadi, dolzarbligi va ahamiyatiga to'xtalib o'tadi.	Tinglaydilar, UUMga qaraydilar.
	1.2. Olingan bilimlarini umumlashtirish maqsadida, talabalarni faollashtirish uchun «Jabrlanganlar deganda qanday holatlar tushuniladi?» deb savol beradi Qor uyumi usulidan foydalaniladi. (1-ilova). Fikrlarini umumlashtiradi.	Erkin fikr bildiradilar.
II-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1 O'qituvchi kichik ma'ruza o'qish usulidan foydalanib, ilmiy asoslangan ma'lumotlarni beradi. Dalillarni bayon etadi. Mashg'ulotning kechishini va vaqtini nazorat qilib boradi, Mashg'ulotni olib boorish jarayonida hayotdagi hodisalar yoki misollardan foydalanadi.	Talabalar diqqat bilan tinglaydilar, kerakli ma'lumotlarni daftarlariga yozib boradilar.
	2.2. Mavzuning 2,3,4 rejalari chuqurlashtirib tahlil qilish uchun alohida savol tayyorlanadi va talabalarga tarqatiladi. (2-ilova): 1-savol. 2-savol. 3-savol O'qituvchi tomonidan tarqatilgan savollarni talabalar tomonidan ilmiy jihatdan asoslashga harakat qiladi yordam beradi.	Talabalar guruhlariga ajraladilar, o'zaro hamjihatlikda ishlaydilar..
	2.2. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi, qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb etadi.	Faol qatnashadilar.
	2.4. (3-ilova) Talabalarining bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida blits-so'rov o'tkazadi. (4-ilova). Dars yakunini umumlashtiradi.	Savollarga javob beradilar.
III-bosqich Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. 3.2. Faol talabalarni baholash mezonlari orqali rag'batlantiradi. 3.3. Uyga topshiriq beradi.	Eshitadi. Aniqlaydi.

1-ilova.

Qor uyumi usuli.

Bu usul o'rtaga tashlangan savolga guruhning har bir guruh a'zosi individual fikryuritib javob topishi uchun berishdan boshlanadi. So'ngra talabalar 2 tadan bo'lib javoblari ichidan eng muhimlarini ajratib oladilar. Kiyein 4 tadan bo'lib yig'ilgan javoblar orasidan eng to'g'ri yoki muhimlarini ajratib oladilar. Oxirida 2 ta katta komanda bo'lib yoki 1 ta katta komanda javoblarning eng muhimlarini ajratib, oxirgi eng muhim javoblar doskaga yozib xulosalanadi. O'qituvchi esa oxirgi xulosalar to'g'risida o'z fikrini aytadi, ilmiy asoslangan dalillar bilan solishtiradi.

2-ilova

1-guruhga savol:

Jabrlanganlarga I-yordam ko'rsatish usullarini sanab bering?

2- guruhga savol:

Taktil bosqichida hayotiy jarayonlar qanday kechadi ?

3-guruhga: savol;

TERMIK kuyishni izohlab bering.

3-ilova

Blits-so'rov savollari.

<i>No</i>	<i>Savol</i>	<i>Javob.</i>
1.	«Halokatlar tibbiyoti»ni tushuntirib bering.	
2.	Shikastlanish o'choqlarini tibbiy razvedka qilish qanday amalgam oshiriladi?	
3.	Jabrlanganlarni evakuatsiya qilish qanday bajariladi?	
4.	Tibbiy saralash deganda nimani tushunasiz?	
5.	Kuyishning necha turini bilasiz va izohlab bering.	
6.	Teri kuyganda qanday yordam ko'rsatiladi?	

Guruhlarni ishlarini umumlashtiruvchi baho

4-ilova

<i>Guruh</i>	<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>Jamoa ball</i>	<i>Baho</i>
1					
2					
3					

2,2 – 3 ball –a'lo

1,2 – 2 ball –yaxshi

0,5 – 1,1 ball –qoniqarli

0 – 0,5 ball – qoniqarsiz.

Mustaqil ish uchun uyga vazifa.

Uyda har biringiz mustaqil ravishda kuyishga oid rasmlarni salomatlik ensiklopediyasidan foydalanib rasmlarni yig'asiz va albom tayyorlaysizlar.

Mavzuning qisqacha ma'lumoti.

Jarohatlanganda organizmda paydo bo'layotgan patologik jarayon bir xil tushunish, davolash taktikasiga bir xil qarash, evakuatsiyaning turli bosqichlarida tibbiy tadbirlarning o'z vaqtida, izchil va birin –ketin o'tkazilishini ta'minlash, tibbiy yordamning xususiyatini aniqlash uchun hamma bosqichlarda to'liq tibbiy saralash o'tkazish, kiyein evakuatsiya qilish imkonini beradigan tibbiy hujjatlarning mavjud bo'lishi «Halokatlar tibbiyoti» xizmati konsepsiyasining asosini tashkil etadi.

Ommaviy shikastlanish vaqtida tibbiy yordam berishni tashkil etish:

- Shikast o'choqlarini tibbiy razvedka qilish;
- Jabrlanganlarni qidirib topish va ularni qutqarish;
- Jabrlanganlarni saralash;
- Jabrlanganlarni evakuatsiya qilish;
- Tibbiy yordam berish va davolash kabi vazifalarning hal etilishini nazarda tutadi.

Shikast o'choqlarini tibbiy razvedka qilish uchun aholi soni, tibbiy xizmat kuchlari va vositalarining qanchaligi, yer yuzasining past balandligi, yullar, suv manbalarining mavjudligi va aholi haqida ma'lumotga ega bo'lish zarur.

Jabrlanganlarni bir necha soat, yoki har to'rt bir kecha-kunduz mobaynida qidirib topish va qutqarish, falokat sodir bo'lganda iloji boricha ko'p jabrlanganlar hayotini saqlab qolish eng muhim vazifadir. Odatda bunday vazifani o't uchirish komandalari, militsiya, harbiy qismning xodimlari, shuningdek ko'ngillilar, yaqin kishilar, qarindoshlar bajaradi.

Jabrlanganlarni saralash tibbiy xizmatning eng asosiy va birinchi galdagi vazifasidir.

Birinchi tibbiy yordam:

Shikast o'chog'iga tushib, o'z holicha qoladigan shikastlanganlarni yakkalab olish davrida shikast olingan joining o'zida hayotiy ko'rsatkichlariga muvofiq beriladigan birinchi tibbiy yordam alohida rol o'ynaydi. O'z vaqtida va to'g'ri ko'rsatilgan yordam shikastlangan odamning hayotini saqlab qoladi va salbiy oqibatlardan saqlab qoladi.

Shikastlangan kishini ko'rib chiqishda shifokor muayyan algoritm (tartib, ketma-ketlik) dan foydalanishi mumkin. Bular:

- og'iz bo'shlig'i va yuqori nafas yullarini tekshirish (ularni begona, yot narsalardan tozalash);
- nafas olish harakatlarining xususiyati va qanchalik tezligiga baho berish (o'pkani sun'iy nafas oldirish va yurakni bevosita uqalash);
- qon tomirlari butunligini aniqlash (ayniqsa arterial qon tomirlardan qon oqishini vaqtincha yoki butunlay to'xtatish);
- yurak qon tomir tizimi (tomir urishi) ahvoliga baho berish;
- sezgi a'zolari, ko'rish a'zolariga (organizmda qanday ta'sirlanishiga) baho berish;

Birinchi tibbiy yordam berishning eng qisqa muddati-shikastlangan ondan boshlab 30 daqiqa, nafas olish to'xtagan bo'lsa, bu vaqt 5 – 7 daqiqagacha qisqartiriladi.

KUYISH

Kuyish deb, tuqimalarning yuqori harorat, kimyoviy moddlar, elektr toki, nur energiyasi ta'sirida kelib chiqqan jarohatga aytiladi. Kuyishlar turlari qo'yidagilar: termik: - issiq suvdan, olovdan, cho'g'dan, bug'dan

kimyoviy:- kislota va ishqorlardan , uksus essentsiyasidan
nur energiyasi va elektr tokidan

Kuchli kuyishlarda bemorda jiddiy umumiy buzilishlar kuzatiladi va kuyish kasalligi rivojlanadi.

Utkir kuyishda kasallikning kechishi shok, toksemiya, septiko - toksemiya va rekonvalesentsiya davrlari farq qiladi.

SHOK davri - kuyishda travmatik shokni eslatadi, biroq u organizmni yaqqol intoksikatsiyasi va plazma yuqotilishi hisobiga birmuncha og`ir kechadi. Travmatik shokdagi singari bemor erektile bosqichida qo`zg`algan bo`ladi, qon bosimi oshib, pulsi tezlashadi.

Taktil bosqichida hayotiy jarayonlar keskin pasayib ketadi: bemor harakatsiz, tana harorati va qon bosimi pasaygan, terisi oqargan, yuz qoyifasi jiddiylashgan, akrotsianoza paydo bo`ladi. Siydik ajralishi kamayib, to`liq anuriyaga boradi.

toksemiya davri- kuyishdan keyin bir necha soat utgach boshlanadi. Kuygan yuzada kup miqdorda plazma yuqotilishi bilan birga zaharli moddalarning surilishi boshlanadi. Bu davrda bemorning ahvoli nihoyatda og`ir, harorati juda yuqori, ishtahasi va uyquasi buzilgan, qusadi, ichi kelmaydi. Qon quyuqlashgani sababli gemogloblin va eretrotsitlar miqdori kupayadi. Siydikda eretrotsitlar va oqsil silindrali paydo bo`ladi.

Septiko – toksemiya davri- kuygan yuzada infeksiya rivojlangandan keyin kuzatiladi. Kuygan yuza ko`p yiringli suyuqlik bilan qoplanadi. Harorat kutarilib ketadi, yotoq yaralar yiringli metastazlar hosil bo`ladi.

rekonvalesent(sog`ayish) davrida tana harorati, qon va siydik normaga keladi, ishtaha yahshilanadi, to`qimalarning nekrotik qismlari kuchib tushadi, kuygan yuzada pushti rang sog`lom granulyatsiyalar paydo bo`ladi.

TERMIK kuyish- tuqimalarga yuqori harorat, issiq suv bug` va boshqalar at`sir etganda sodir bo`ladi. Termik omil harorati nechog`li yuqori bo`lsa va termik omil qanchalik uzoq ta`sir qilsa to`qimalar shunchalik kup shikastlanadi. Erigan metal ta`sirida ayniqsa chuqur kuyish hollari kuzatiladi.

to`qimalarning shikastlanishi xarakteri va chuqurligiga kura 4 darajaga bo`linadi:

Kuyishning 1 darajasi: terining picha qizarishi va shishishi bilan ifodalanadi. Kuyishning bu darajasida teri kappilyarlari kengayadi va ularning utkazuvchanligi oshishi hisobiga qonning suyuq qismi atrofidagi tuqimalarga chiqadi. Bu 2-3 kun davom etadi, keyin epidermis kuchib tushadi.

kuyishning 2 darajasi – pufaklar paydo bulishi bilan harakterlanadi.

pufaklar kuyishdan bir necha minut utkach paydo bulishi mumkin. terining yuza qatlami qavati jonsizlanadi. pufak yorilganda terining tiniq- qizil surgichsimon qavati kurinadi. Kuyish asoratsiz utganda 4-6 kunga kelib pufakdagi suyuqlik surilib ketadi.

Kuyishning 3 darajasi terining barcha ichki qavatlarining jonsizlanishi bilan harakterlanadi. Kuygan yuzada to`q rangli pustloq paydo bo`ladi. Pustloq oqsillar koagulyatsiyasi (ivishi) va aylanishini tuxtashi hisobiga vujudga keladi. Kuyishning bu darajasida pustloq kuchgandan keyin u er ikkilamchi chandiqli bulib bitadi.

Kuyishning 4 darajasi teridan tashqari birmuncha ichkarida joylashgan tuqimalar (teri osti tuqimasi, mushaklar, suyaklar) ning lonsizlanishi kuzatiladi. bu juda sekinlik bilan bitib, katta chandiqlar hosil bo`ladi. To`qimalarning ayrim joylari kuchub, hatto oyoq-qular uz- uzidan uzilib tushishi mumkin.

kuyishning klinikasi kuygan yuzaning darajasi va maydoniga bog`liq. Gavdaning 30% va undan kuprog`i kuysa, kuyish kasalligi kelib chiqadi va bunda bemor ulishi ham mumkin.

Kuyishda birinchi yordam ko`rsatish

_yordamning asosiy maqsadi termik omil ta`sirini yiqotishdir. kuyishda aseptik bog`lam quyiladi, og`riqsizlantiruvchi dori yoki narktiklar yuboriladi, gavdaning shikastlangan qismi immobilizatsiya qilinadi va shok profilaktikasi utkaziladi.

Agar havo sovuq bo'lsa bemor issiq qilib o'rab qo'yiladi va davolash muassasasiga olib boriladi.

kimyoviy moddadan kuyishda uni kuchli suv oqimi bilan tez yuvib tashlash, qoldiqlarni esa neytrallash kerak. kislotalarni neytrallash uchun 2% li soda eritmasi qullaniladi. Qattiq kuyishda bu soxaga bur kukuki, kuydirilgan magneziydan mul qilib sepiladi. teriga yonib turgan fosfor bulakchalari tushganda gavdaning shu qismini suvga botirib turish, fosfor qoldig'ini pinset bilan olib tashlash kerak. Shikastlangan sohaga 5% mis kuporosi eritmasiga xullangan bog'lam quyiladi yoki talk sepiladi.

Mavzu№7 Tayanch harakatlanish apparatining mexanik shikastlanishi maruzasining texnologiyasi

Ma'ruza rejasi: 1.Suyaklar sinishining turlati va belgilari. 2.Suyaklarning chiqishi va ularning turlari. 3.Suyaklar singanda I-yordam ko'rsatish. 4.Suyaklar chiqishi va singanda birinchi yordam.		
Mashg'ulotning maqsadi:	Tayanch harakat a'zolarining ochiq va yopiq sinishlari to'g'risida talabalarga tushuncha berish.	
O'qituvchining faoliyati natijalari: Suyaklar sinishining turlari va belgilari bo'yicha talabalarga tushuncha berish. 2.Suyaklarning chiqishi va ularning turlari bo'yicha ma'lumotlar bilan talabalarni tanishtirish va ularda ko'nikma hosil qilish.. 3.Suyaklar singanda I-yordam ko'rsatish chora tadbirlarini talabalarga o'rgatish. 4.Suyaklar chiqishi va singanda birinchi yordam ko'rsatishni o'rgatish..		
Talabaning o'quv faoliyati natijalari: Suyaklar sinishining turlati va belgilari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar . 2.Suyaklarning chiqishi va ularning turlarini to'liq o'zlashtirib oladilar va yordam ko'rsataoladilar. 3.Suyaklar singanda I-yordam ko'rsatish.holatini bniladilar amalda vrachgacha yordamni qullab biladilar. 4.Suyaklar chiqishi va singanda birinchi yordam. Ko'rsatishni biladilar		
Nazorat shakli: Og'zaki nazorat,savol-javob va o'z-o'zini nazorat qilish.	Maksimal ball: 2 Talabaga qo'yilgan ball:	O'qituvchi imzosi: _____

II. MA'LUMOTLI-AXBOROT MATERIALLAR.(2.1)

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

Guruhx	Baho	Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari			
		Ma'lumotni to'liq yoritishi	Guruh ishtirokchilarining faolligi	Ma'lumotning taqdimetilishi	Jami

	<i>Ball</i>	<i>1,0</i>	<i>0,5</i>	<i>0,5</i>	<i>2</i>
1					
2					
3					

Guruh ishlarini umumlashtiruvchi baho.

<i>Guruh</i>	<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>Jami ball</i>	<i>Baho</i>
1					
2					
3					

1,5 – 2 ball- «a'lo» 1,0 – 1,4 ball- «yaxshi» 0,5-0,9 ball- «qoniqarli» 0 - 0,4 ball- «qoniqarsiz».

III. O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH UCHUN MATERIALLAR:

(3.1)

Nazorat savollari:

- 1...
- 2.
- 3.
- 4.
- 5.
- 6.

Mavzuning qisqacha bayoni:

SUYAKLARNINIG SINISHI VA UNINIG TURLARI. SUYAKLARNINIG CHIQISHI.

6. Suyaklar sinishiniing turlari va belgilari.

7. Suyaklarning chiqishi va uninig turlari. Suyaklar chiqqanda 1-yordam ko'rsatish.

SUYAL sinishi deb, suyak butunligininig buzilishiga aytiladi. Suyak sinishida ko'pchilik hollarda suyak siniqlarining siljishi ro'y beradi. Bir qator hollarda suyak siniqlari bo'lmaydi. (bolalarda bo'ladigan suyak sinishlarida)

Suyak sinishi tug'ma va orttirilgan bo'lishi mumkin.

Homilaninig ona qornidagi davrida turli omillarniing ta'sirida yuz beradigan shikastlanish turiga tug'ma sinish deyiladi.

Katta yoshdagi kishilarda va bolalarda qanday bo'lmasin mexanik omillar natijasida ro'y beradigan sinish turlarini orttirilgan suyak sinishi dab atash rasm bo'lgan. Tug'ruq vaqtida yuz beradigan sinishlar orttirilgan sinishlar qatoriga kiradi. Suyak kasalliklarida ro'y beradigan sinishlar patalogik sinishlar deyiladi.

Suyaklarniing elastikligi yo'qolishi natijasida keksa yoshdagi kishilarda suyak sinishlari ko'p uchraydi.

Suyak sinishlarida 1 yordam shikastlangan qo'l yoki oyoqni immobilizatsiyalashdan iborat. Ochiq suyak sinishida oldin aseptik bog'lam qo'yiladi. Bemorga anal'getiklar yuboriladi va uni shifoxonaga etkaziladi.

SINISHLARNI DAVOLASH PRINSIPLARI.

Sinishlarninig davolash asosini suyak siniqlarini joy-joyiga silish va suyak qadog'i hosil bo'lguncha ularni shu vaziyatda tutib turish tashkil etadi. Suyak siniqlarini joyiga solishdan oldin og'riqsizlantiriladi. Suyak siniqlarini to'g'ri vaziyatda ushlab turish uchun:

1) Gips bog'lam qo'yiladi.

2) teri ustidan va skeledann tortish qo'llaniladi.

3) Suyak siniqlarini xirurgik metod bilan fiksatsiya qilinadi.

transport immobilizatsiyasi- suyak sinishlarida va yumshoq to'qimalar anchagina shiakstlanganda gavdaniing shu qismiga orom berish, og'riqni kamaytirish, to'qimalarni keyingi shikastlanishini oldini olish, Shuningdek travmatik shokni profilaktika qilish maqsadida qo'llaniladi. Transport immobilizatsiyasininig qo'yidagi turlari farqlanadi:

1) Oddiy immob-ya - bunda bemor gavdasining sog'lom qismlaridan foydalaniladi. M: oyog'i singanda 2 sog'lom oyog'iga bog'lanadi. Shikastlangan qulini tanasiga bo'g'lanadi.

2) Mavjud vositalar bilan imm-sh. Tayoq taxta bo'lagi, bir dasta sim, shox-shabbalardan shunday vositalar yordamida ofydalanish mumkin.

3) Zavodda ishlab chiqilgan transport shinalari bilan imm-ya qilish.

Transport shinalari ikkiga:

Fiksatsion va distraksion shinalarga bo'linadi.

Fiksatsion shinalar yordamida gavdaning shikastlangan qismi fiksatsiya qilinadi.

Kramer shinasi yoki narvonsimon shinani yumshoq simdan tayyorlanadi. gavdaniing qaysi qismi immob- ya qilinishiga qarab, shina shaklini istagancha uzgartirish mumkin. Tursimon shina ham yumshoq simdan yasalgan turdan iborat. Uni osonlikcha yumoloqlab urash mumkin. Asosan bilak, qo'l va oyoq panjasini immob-ya qilish uchun qo'llaniladi. Faner shinalar aksariyat tarnov shaklida tayyorlanadi. Vakuum tibbiyot shinalari – oyoq va qo'llarni immob-ya qilish uchun ishlatiladi.

Distraktsion shinalar- bu siniq suyak uchlarini bir- biridan uzoqlashtirib, qon tomir va nerv tolalari shikastlanishini oldini oladi. Bularga- Diterixs shinasi kiradi.

Transport shinalarini qo'yitishda qator qoidalarga amal qilish zarur. Shina shikastlangan zonadan tashqari ikkita qo'shni bo'g'imni mahkam ushlab turish zarur. Immob- ya qo'pol manipulyar qilish yaramaydi. Shikastlangan kishininig kiyim- boshi yechiladi , bog'lam shikastlangan qismigagina bog'lanadi. Shinaga max sus paxta, doka, uraladi.

Narvonsimon shina qo'yish.

Shian gavdaniing qaysi qismiga qo'yilishiga qarab oldindan modellanadi. Elka suyagi singanda shina sog'lom tomondagi kurakning ichki chetidan boshlab quyilishi , yaqinlashtirilgan qulning yarim bukilgan tursak bug'imining tashqi yuzasi bo'ylab borishi va barmoqlar uchidan birmuncha oshirib tugallanishi kerak. Bilak shikastlanganda elkaning uchdan bir o'rta qismi shinaning yuqori sathi, barmoqlarining uchlari shinaning pastki sathi hisoblanadi. Boldir shikastlanganda uchala tomondan fiksatsiya qilgan yahshi: Bitta shianni boldir va oyoq panjasi barmoqlari uchininig orqa sathidan sonning uchdan bir qismigacha , boshqa ikkitasini boldirning yon tomonlari bo'ylab fiksatsiya qilinadi. Bunda shinalarning oyoq kaftlariga tegib turadigan qismini boldir- panja bug'imini birmuncha mustahkamlash uchun uzangi ko'rinishida qayriladi.

Derixs shinasini qo'yish. Shinaning oyoq kaftiga mos keladigan qismini oyoq panjasininig kaft qismiga bint bilan fiksatsiya qilinadi. Birmuncha uzun tashqi qismini qo'ltiqdan boshlab qo'yiladi va oyoq qismiga metall halqaga kiritilib, undan 8-10 sm tashqariga chiqarib qo'yiladi.

SUYAK CHIQISHI.

Suyak chiqishi deganda bir yoki bir nechta suyaklarning buzilishidan bug'im yuzasiniing patologik siljishi, Ularning normal anatomik uzaro munosabatlarning buzilishi tushunilishi. Suyaklarning to'la va chala chiqishi tafovut qilinadi:

Suyak chiqishining qo'yidagi turlari ma'lum:

- 1) Shikastlanish oqibatida yuz bergan travmatik chiqishi.
- 2) Boylam apparati va suyaklarning boylam uchlari zararlanishi bilan bog'liq bulgan kasalliklarda sodir bo'ladigan patalogik chiqishi.
- 3) Tug'ma chiqishi.
- 4) Suyakning boylam apparatining cho'zilishi natijasida ko'pincha suyakning travmatik chiqishi noto'g'rio davolanganda yuz beradigan odat bo'lib qolgan chiqishlar.
- 5) O'z vaqtida joyiga solinmagan - eskirgan suyak chiqishi.

Suyakning chiqishi vaqtida qattiq og'riq bo'ladi. kkeyingi kunlarda og'riq esa asta-sekin pasayadi . Qo'l va oyoq suyagi chiqqanda ular majburiy vaziyatni egallaydi. Bug'imlardagi harakatlar hajmi keskin buzilgan. Bug'im konfiguratsiyasi bo'gim yuzasi vaziyati uzgarishining hosibiga ham, gematoma hisobiga ham keskin uzgaradi.

Suyaklar chiqanda birinchi yordam.

Oyoq va qo'lni immob-ya qilish zarur. Og'riqni pasaytirish maqsadida suyak chiqqan zonada muz yoki sovuq suv solingan xaltachada qo'yiladi.

analgetiklar yuboriladi shundan so'ng bemorni zudlik bilan davolash muassasasiga junatiladi. Chiqqan suyakni vrach tug'rilaydi.

Suyak chiqishining turiga va qardagi suyak chiqqaniga qarab, uning urniga solishning muayyan usullari mavjud. Bug'im bo'shlig'iga novokain yuborib, mahalliy og'riqsizlantirishdan so'ng suyak joyiga solinadi. M: Yirik bo'g'i9mda chanoq-son bo'g'imda suyak chiqqanda skelet muskullari tonusni bushashtirish uchun miorelaksantlar bilan umumiy og'riqsizlantirishga to'g'ri keladi. Chiqqan suyak joyiga solingandan so'ng oyoq yoki qo'lni bog'lam yoki gips longeta bilan 4-5 kunga qimirlamaydigan qilib q o'liladi. Shundan so'ng davo gimnastikasi, massaj va issiq muolajalar buyuriladi.

Eskirgan suyak chiqishlarida suyakni operatsiya qilinib, urniga solinadi. Odat bo'lib qolgan suyak chiqishida boylam apparatini operatsiya yo'li bilan mahkamlanadi

Mashg'ulot№8 Jabrlanganlarni qidiruv va qutqaruv ishlarini olib borishga oid tadbirlar.

Amaliy mashg'ulotni olib boorish texnologiyasi.

Vaqt2 soat	Talabalar soni: 25-30 nafar
O'quv mashg'uloti shakli.	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha seminar mashg'uloti.
O'quv mashg'uloti rejasi:	3. Jaroxatlanganlarni qutqarish. 4. jaroxatlanganlarni saralash va birinchi yordam ko'rsatish.
<i>O'quv mashg'ulotning maqsadi:</i> Talabalarga favqulodda vaziyat yuz berganda kechiktirib bo'lmaydigan shoshilinch qo'tqaruv tadbirlarini o'tkazish haqida tushuncha berish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> -mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish,mustahkamlash. -jamo bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish -tibbiy ma'lumotlar va axboratlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Qidiruv kuchlari va ularning guruhlarini ajrata oladilar - Qidiruv ishlarini bosqichma-bosqich amalgam oshira oladilar - Jabrlanganlarni saralash qoidalarini bilib oladilar va amalgam oshira oladilar. - Jabrlanganlarga vrachgacha bo'lgan yordamni ko'rsata oladilar.
O'qitish uslubi va texnikasi.	Blits-so'rov,birgalikda o'qiymiz, deskussiya usullari
O'qitish vositalari	Mavzuga tegishli materiallar,UUM,proektor,flipchart,marker,doska.
O'qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish,individual va guruh bo'yicha o'qitish.
O'qitish sharoitlari	Kompyuter texnologiyalari,proyektor bilan ta'minlangan,guruhda dars o'tishga moslashtirilgan auditoriya.

Seminar mashg'ulotining texnologik xaritasi.11-mashg'ulot.)

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich:kirish	1.1.Mavzuni maqsadi rejadagi o'quv natijalarini e'lon	1.2. Mavzuni

(10 min)	qiladi ularning ahamiyatini va aktualligini asoslaydi. Mashg'ulot hamkorlikda ishlash texnologiyasini qullagan holda o'tishini ma'lum qiladi. 1.2. Aqliy hujum metodidan foydalangan holda auditoriyaning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi: 1) Respublika qidiruv qutqaruv markazining vazifalari nimalardan iborat? Mavzuning muhokamasi guruhlarda davom etishini e'lon qiladi.	yozadi va savollarga javob beradilar.
2-bosqich asosiy (60 min)	2.1. Talabalarga savollar tarqatiladi va javoblarni muhokama qiladi. (2-ilova). Kutilayotgan natijalarni eslatadi. 2.2..(1-ilova). Baholash mezonlarini namoish qiladi. 2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallari mavzuga oid adabiyotlar, UUMlardan foydalanish mumkinligini eslatadi.. Gruhlarda ishlashni boshlanish vaqtini e'lon qiladi. 2.4. Tayyorgarlikdan keyin taqdimotni boshlangani e'lon qilinadi 2.5. Talabalar javoblarini sharhlaydi, xulosalarga e'tibor beradi, aniq kiritadi. 2.6. Talabalarga B.B.B usuli bo'yicha ifodalangan jadvalni namoish qiladi va ustunlarni to'ldirishni aytadi. Tushunchalarga izohlarni to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi. Gruhlar faoliyatiga umumiy ball beradi.	2.1. O'quv natijalarini taqdim qiladilar 2.2. Savollar beradilar. 2.3. Javoblarni to'ldiradilar. 2.4. jadvalni ustunlarini to'ldiradi va muhokamada ishtirok etadi.
3-bosqich: yakuniy (10 min)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi, 3.2. Mustaqil ish sifatida Mavzuga oid krassivord tuzib kelishni topshiriq sifatida beradi. 3.3 Test savollariga aniq javoblarni topish.	3.1. Eshitadilar. 3.2 Topshiriqlarni yozib oladilar.

1-ilova.

Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari(ball)

Guruh	1 topshiriq	2 topshiriq	3 topshiriq (har bir savol 0,2 ball)			Ballar yig'indisi.
	(1,0)	(1,4)	1 savol	2 savol	3 savol	(3,0)
1						
2						
3						

2-ilova.

B.B.B. Metodi asosida targatma materiallar

Tushuncha	Bilaman "+", Bilmayman "-".	Bildim "+", Bilolmadim "-".
-----------	--------------------------------	--------------------------------

1	Maxsus harbiylashtirilgan qidiruv qismi		
2	Davlat suvda qutqaruv qismi		
3	Qutqarish xizmati		
4	Saralash		
5	Qidirish va topish		
6	Davolash, evakuatsiya		
7	Yalpi qirg'in qurollari		
8	Zararlangan o'choqlar		
9	Radiaktiv modda		
10	Ximiyaviy zaharlanish.		
11	Bakteriologik zaharlanish		
12	Baxtsiz hodisa		
13	RQQMM		
14	DSQX		

3.2. Uyda har biringiz mustaqil ravishda mavzuga oid krassivord tuzasizlar.

Mavzuning qisqacha bayoni:

Falokat uchog'iga sog'liqni saqlash kuchlari va vositalarini tezlik bilan olib kirish, ular ishini to'g'ri tashkil qilish va jabrlanganlar ofat joyidan tashqari evakuatsiya qilinishi oqilona tashkil etilishi bilan bu tadbirlar vaqtida bajarilishiga erishiladi. Jabrlangan aholi shunda tibbiy yordamning hamma turlari, ya'ni birinchi tibbiy yordam, birinchi shifokor yordami, malakali va ixtisoslashgan tibbiy yordam birin –ketin ta'minlanadi.

“Tibbiy evakuatsiya bosqich” deganda tibbiy evakuatsiya yo'llarida shikastlanganlarni qabul qilish, saralash ularga tibbiy yordamning muayyan turlarini ko'rsatish hamda ularni yana nariroq evakuatsiya qilishga tayyorlash muljallangan sag'liqni saqlash kuchlari va vositalari tushuniladi. Xozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasidagi favqulodda vaziyatlarda shikastlanganlarni davolash-evakuatsiya qilish ko'zda tutiladigan ikki bosqichli tizim qabul qilingan.

Shikastlanganlarga ofat uchoqlari va joylarda tibbiy yordam ko'rsatish ishlarini shartli tarzda uch davrga: yakka (ezolatsiya qilish): qutqarish va sog'liqni tiklash davriga bo'lish mumkin.

Birinchi tibbiy yordam.

Shikast uchog'iga tushib, o'z holicha qoladigan shikastlanganlarni yakka olish davrida shikast olingan joyining o'zida hayotiy ko'rsatkichlarga muvofiq beriladigan birinchi tibbiy yordam alohida rol o'ynaydi. O'z vaqtida va to'g'ri ko'rsatilgan birinchi tibbiy yordam shikastlangan odamning hayotini saqlab qoladi va salbiy oqibatlar rivojlanishini oldini oladi. Bunda eng avvalo favqulodda vaziyatning shikastlovchi omillarini to'xtatish (suvdan olib chiqish, yonayotgan kiyimlarni uchirish, yonayotgan imorat ichidan yoki shikast zonasidan olib chiqish va h. k) choralarini ko'rish kerak, shuningdek jabrlangan kishining ahvolini tez va to'g'ri aniqlashning ahamiyati katta bo'ladi. Shikastlangan kishini ko'rib chiqishda shifokor muayyan algoritim (tartib, ketma-katlik) da foydalanishi mumkin. Bular:

- og'iz bushlig'i va yuqori nafas yo'llarini tekshirish (ularni begona, yot narsalardan tozalash);
- nafas olish harakatlarining xususiyatlari va qanchalik tezligiga baho berish (o'prani su'niy nafas oldirish va yurakni bevosita uqalash);
- qon tomirlari butunligini aniqlash (ayniqsa arterial tomirlardan qon oqishini vaqtincha yoki butunlay tuxtatish);
- yurak qon tomir tizimi (tomir urushi) ahvoliga baho berish;

- sezgi a'zolar, asosan ko'rish a'zolariga (organizim qanday ta'sirlanishiga) baho berish;
- shikastlangan kishining nutqiga baho berish.

Birinchi tibbiy yordam berishning eng qisqa muddati-shikastlangan ondan boshlab 30 daqiqa, nafas olish tuxtagan bo'lsa, bu vaqt 5-7 daqiqagacha qisqartiriladi. Zaharlangandan keyin dastlabki 30 daqiqa ichida birinchi yordam olganlarda umumiy ahvolning og'irlashuvi ikki barobar kamayishi vaqt omili naqadar muhurligini ko'rsatadi. Jaroxatlangandan so'ng bir soat mobaynida yordam ko'rsatilmasa ulimga sabab bo'lishi 30 % ga 3 soatgacha yordam berilmaganda esa 60 % va 6 soat yordam berilmaganda 90 % gacha ortadi.

Birinchi tibbiy yoramni shikastlangan kishining o'zi yoki uning yonida bo'lganlar aholi, sandrujenachilar, fuqaro muhofazasi tuzilmalarining shaxsiy tarkibi ko'rsatiladi,

Jabrlanganlarga tibbiy yordamning kiyengi yordamning bosqichi ularga shifokor kelgunga yordam ko'rsatish hisoblanadi. Bunday yordam ruyxatdagi tibbiy vositalardan keng foydalanish va bunday yordam berishda o'rta tibbiy ma'lumotli odamlar (tibbiy hamsheralar, flitsherlar) ishtirok etishi hisobiga birinchi tibbiy yordam imkoniyatlarini kengaytiradi.

Birinchi shifokor yordami.

Bu shikastning jabrlanganlar hayotiga bevosita xavf soluvchi qibatlarni bartaraf qilish, jaroxat infeksiyasi yanada rivoj topishining oldini olish va shikastlanganlarni evakuatsiyaga tayyorlash maqsadida tibbiy evakuatsiyaning birinchi bosqichida shifokorlar bajaradigan davolash muhofaza majmuidir. Bunday yordamni umumshifokorlik tayyori bo'lgan va ixtisosli jarrox shifokorlar ko'rsatadi. Shikastlangan ondan kiyengi 3 soat, eng ko'pi bilan 6 soat birinchi shifokor yordami ko'rsatish uchun eng qisqa muddat hisoblanadi. Tibbiy yordamning bu turini hamma ixtisosdagi shifokorlar hatto muqum shifoxonalardagi o'rta tibbiy ma'lumotli bo'lgan tajribali xodimlar ham bilishlari kerak.

Malakali tibbiy yordam.

Davolash muassasalarida tegishli ixtisosdagi shifokorlar amalgam oshiradigan, shikast oqibatlarini, birinchi galda hayot uchun xavfli oqibatlarni bartaraf qilishga ihtimoli bor og'irlashuvlar oldini olishga va rivojlana boshlagan sal'biy oqibatlarga qarshi ko'rashishning shikaslanganlarni o'zil kesil natijagacha davolashga qaratilgan jarroxlik va terapivtik tadbirlar majmuidir.

Ixtisoslashgan tibbiy yordam.

Ixtisoslashgan davolash muassasalarida odamning ba'zi a'zolari va tizimlaridagi buzulishlarini maksimal darajada tiklash maqsadida maxsus apparatlar va uskunalaridan foydalanib mutaxassis shifokorlar bajaradigan davolash muhofaza tadbirlari majmuidir.

Fuqaro muhofazasi tibbiy xizmati hamda "Halokatlar tibbiyoti" xizmatining favqulodda vaziyatda jabrlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish uchun jalb etiladigan kuch va vositalar.

Birinchi tibbiy yordam mumkin qadar ko'proq odamlar hayotini saqlab qolish, aholi, o'quvchilar, najotkorlar eng avvalo o'z-o'ziga va bir-biriga yordam berish usuli, qo'yilgan mavjud bo'lgan, ruyxatdagi vositalar shaxsiy dori qutisi, turli dorivor moddalar va h. k lardan foydalanib:

- tez va kechiktirib bo'lmaydigan ixtisoslashgan tibbiy yordam xizmati;
- shahar va tunmandagi markaziy kasalxonalar, joylardagi shifokorlik nuqtalari va uchastkalari xodimlari, yaniy bir shifokor, ikki hamshera va ikki sanitaridan iborat shoshilinch tibbiy yordam birgadali tashkil etilib bevosita shikast uchog'ida faoliyat ko'rsatadilar.
